**Z.S.QODIROVA, O.E.AKBAROV, F.A.ABDUG‘OPIROVA, SH.SH. XOJIMIRZAYEVA, SH.B.JUMANOVA**



# BOLALARNI SAHNALASHTIRISH VA IJODIY FAOLIYATGA O‘RGATISH

*darslik*

**NAMANGAN - 2024**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE NODAVLAT OLIY TA’LIM MUASSASASI**

**Z.S.QODIROVA, O.E.AKBAROV, F.A.ABDUG‘OPIROVA, SH.SH. XOJIMIRZAYEVA, SH.B.JUMANOVA**

# BOLALARNI SAHNALASHTIRISH VA IJODIY FAOLIYATGA O‘RGATISH

*darslik*

**(60110200 - Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun)**

**NAMANGAN – 2024**

**Z.S.QODIROVA, O.E.AKBAROV, F.A.ABDUG‘OPIROVA, SH.SH. XOJIMIRZAYEVA, SH.B.JUMANOVA**

**Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish. - Namangan, 2024 – 214 bet.**

Mazkur darslik Oliy ta’limning maktabgacha ta’lim bakabakalavrat yo‘nalishi “Sahnalashtirish” fanining nazariy va amaliy asoslarini o‘rgatish, Maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilari “rol oynash”, “qo‘shiq aytish” va “raqsga” tushishlarga tabiiy moslashadilar, teatrlashtirilgan va musiqiy sahna ko‘rinishlarini qabul qilish orqali bolada katta qiziqish uyg‘otib, unda ishtirok etishlari xohish-istagini bildiradi. Teatr va musiqa ijodiyoti bolalar ehtiyojlarni qondirish bilan muammolardan ozod qiladi, u quvonchli daqiqalar va katta zavqni his qiladi. Rol ijrosidagi matn va musiqiy qo‘shiq so‘zlari hissiy tizimlar bilan bog‘langanligi tufayli,bola matnlar mazmunini tushuna boshlaydi va ijro jarayonida qo‘shilishi, sahnaga qarashi, xatto "o‘zi" ga ham qarash tajribasini egallashga, uni tuzatishga va uni baholashga o‘rganib boradi. Sahnalashtirish faoliyati - bolalar ijodiy qobiliyatini va bola shaxsini kompleks rivojlanish bilan bog‘liq qator vazifalarni hal qilishga yordam beradi.

60110200 - Maktabgacha va boshlang’ich ta'limda “Sahnalashtirish” fanidan darslik dasturga muvofiq tuzilgan bo‘lib o‘quv adabiyotlarga qo‘yilgan talabalarga mos keladi.

**Mualliflar** *Namangan davlat universiteti Matematika fakulteti o’quv ishlari bo’yicha dekan o’rinbosari, p.f.f.d.,(PhD) O.E.Akbarov, University of business and science nodavlat oliy ta’lim muassasasi p.f.f.d.,(PhD) Z.S.Qodirova, F.A.Abdug‘opirova, o’qituvchilar Sh.Sh.Xojimirzayeva, Sh.B.Jumanova*

**Taqrizchilar** *University of business and science nodavlat oliy ta’lim muassasasi p.f.f.d.,(PhD) N.S.Qambarov, Qo‘qon davlat pedagogika insituti p.f.f.d.,(PhD), dotsent G.M.Nazirova*

Ushbu darslik O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan № 55355-sonli nashr ruxsatnomasi asosida nashrga tavsiya etilgan.

© “FAZILAT ORGTEX SERVIS” nashriyoti, 2024-yil.

*Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish.*

# KIRISH

Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarni kasbga tayyorlashni takomillashtirish maktabgacha ta’lim metodikasi va amaliyotining dolzarb muammolaridan sanaladi. Uning dolzarbligi OTM bitiruvchilarini jamiyat jabhalarida tezkor o‘zgarishlar va yangilanishlar bilan tavsiflanadigan yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ishlash uchun tayyorlash zaruriyati bilan belgilanadi.

Hozirgi keskin raqobat sharoitida jarayon haqida innovatsion texnologiyalar va fani yanada rivojlantirish, ilmiy faoliyatga iste’dodli, iqtidorli yoshlarni jalb qilish, ularning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini namoyon qilishi uchun sharoit yaratish masalasidan ajratilgan holda so‘z yuritib bo‘lmaydi. Bu tabiiy, zero, zamonaviy dunyoda istalgan davlatning intellektual salohiyati texnologik qudratlilik va moddiy farovonlik asosini tashkil etadi. Shundan kelib chiqqan holda, O‘zbekistonda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan siyosat konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biri XXI asr chorlovlariga tayyorlash sifatida bolalarni intellektual tarbiyalash, ularning kognitiv-ijodiy xususiyatlarini rivojlantirishdan iborat.

Demak, jamiyatimiz oldida turgan asosiy vazifa yoshlarni sivilizatsiyaning yangi sharoitlarida yashashga tayyorlay oladigan ta’limning istiqbolli tizimini yaratishdan iborat. Bundan kelib chiqadiki, zamonaviy ta’lim siyosati XXI asr talablariga – intellektning yangi tipi, tafakkurning yangicha tarzi va uslubi, o‘rab turgan olamning tez o‘zgaruvchan ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, axborot realiyalariga moslashuvchanlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Bugungi kunda OTM pedagogik ishi natijasi talabalarni yangilangan ijtimoiy talab va jamiyat talablari sharoitida kasbiy faoliyat yuritishga tayyorlashdan iborat bo‘lishi kerak. Pedagogik ta’limga avvalgi an’anaviy axborot-bilim yondashuvi ko‘plab talabalarda o‘qituvchi – tarbiyachi bo‘lish istagini so‘ndirar, ularga pedagogik kasbning o‘z-o‘zini realizatsiyalashning ehtimoliy sohasi sifatidagi salohiyatini tushunish va his qilishga imkon bermas edi.

Shu sababli, mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligiga o‘zgacha yondashuv zarur. Talabaning pozitsiyasini o‘zgartirish, uning ta’lim-tarbiya jarayoni ob’ektiga o‘rniga asl sub’ekt bo‘lishi uchun sharoit yaratish kerak.

Mutaxassislar kasbiy tayyorgarligining asosiy maqsadi o‘zini va atrof olamni bilish vositalarini egallagan, to‘laqonli kasbiy va shaxsiy o‘z-o‘zini realizatsiyalashga qodir bo‘lgan tom ma’nodagi shaxsni tarbiyalash bo‘lishi lozim.

Zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkiloti shunchaki bilim asoslarini bayon qiluvchi bo‘lishi mumkin emas. U kasbiy mahorat va ijodiy intuitsiyaga ega bo‘lishi, jadal o‘zgaruvchan tabiiy-ijtimoiy dunyo talablariga orientirlanadigan, talabalar (bolalar) bilan zamon talablariga, zamon ruhiga mos keladigan hamkorlik usullaridan foydalana oladigan bo‘lishi lozim.

## BIRINCHI BO‘LIMI.

### 1-Mavzu: Maktabgacha ta’lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyati.

**Reja:**

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatining asosiy maqsadi.
2. Maktabgacha ta’lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatining vazifalari.
3. Teatr - sahnalashtirish faoliyatining shakllari.
4. Teatr - sahnalashtirish faoliyati tamoyillari

**Tayach so‘zlar**: Maktabgacha ta’lim tashkiloti, sahnalashtirish, faoliyat, maqsad,vazifa, teatr, teatr faoliyati shakllari, tamoyillar.

“*O‘zingni san’atda emas, san’atni o‘zingda sevishni o‘rgan*”
K. Stanislavskiy.

Farzand - inson hayotining mazmuni, nasl –nasabini davom ettiruvchisi, oilaning mustahkam zanjiri, yurt kelajagi, vorisi. Yaxshi, solih farzand – ota-onaning baxti-iqboli, ikki dunyo saodatiga yetkazuvchi dilbandi. Farzandlar “Jannat rayhonlari” deb tavsiflanishi bejiz emas. Ammo u odobli, yaxshi fazilatlar sohibi, itoatkor va qobil bo‘lgandagina ota -onasiga munosib voris, ustozi ishonchini oqlagan shogird, davlati va millati faxrlanadigan fuqaro bo‘la oladi. O‘g‘il- qizlarni zexnli o‘sishini, aql-idrokli, ijodiy fikrlovchi bo‘lib ulg‘ayishini istagan ota –onalar ularga kichikligidan turli ibratli hikoyalarni, ulug‘larimizning hayot yo‘llari va fazilatlari haqidagi rivoyatlarni, ramziy ma’nodagi yaxshilikka, chiroyli axloq va odabga chorlovchi ertaklarni so‘zlab berishsa maqsadga muvofiq ish bo‘ladi. Eshitgan ertak va xikoyalarini kichik rollar orqali qahramonlar obrazini gavdalantirishlari nafaqat bolaning badiiy qobiliyatini, balki “inson faoliyatining barcha sohasida amalga oshadigan” – ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi,ularning ma’naviyatini, ijodiy tafakkurini yuksaltirishda katta tarbiyaviy ish hisoblanadi. Bola san’atga qancha erta kirib borsa, ijodiy rivojlanish jarayoni ham ertaroq shakllanadi.

***Maktabgacha ta’lim*** — maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma’naviy me’yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko‘zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon;

**Maktabgacha ta’lim va tarbiya** — bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’lim turi;

**Maktabgacha ta’lim tashkiloti** — maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida ta’lim va tarbiya xizmatlari ko‘rsatuvchi davlat va nodavlat tashkiloti;

**Rivojlanish** — inson tanasi tuzilishi, ruhiyati va xulqida biologik jarayonlar hamda atrof muhit ta’sirida ro‘y beradigan o‘zgarishlar;

**Rivojlanish sohasi** — bola rivojlanishidagi aniq bir yo‘nalishlar;

**Kichik soha** — sohaning kichik guruhlari. Asosiy sohalarning kichik sohasi rivojlanishning ma’lum bir tomonlarini o‘z ichiga qamrab oladi va ularning aniq bir yo‘nalishini ko‘rsatib beradi;

**Kutilayotgan natija** — bolalarda kutilayotgan bilim, ko‘nikma va malakalar ko‘rsatkichi;

**Bola tarbiyasining majmui** — ma’lum bir yosh davriga xos bo‘lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo‘lgan bolaning bilimi, ko‘nikmasi va malakasi hamda qadriyatlari;

**Integratsiya** — bola ta’limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o‘rtasidagi bog‘liqlik;

**Inklyuziv ta’lim** — bolalarning alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta’lim va tarbiya olinishini teng ta’minlovchi jarayon;

**Refleksiv faoliyat** — bolada o‘z tushunchalari va xatti-harakatlarini anglash va mustaqil tahlil qilishi asosida xulosalar shakllanishi jarayoni;

**«Men» kontseptsiyasi** — bolaning o‘zi haqidagi anglangan tasavvurlari tizimi, uning refleksiv faoliyatining bir qismi.

Sahna ko‘rinishlari hayotning ko‘rgazmali shaklining badiiy aksi bo‘lib, obrazlar orqali dunyoni qabul qilishga asoslanadi.Teatr ma’no va mazmunni ifodalashning o‘ziga xos vosita, aktyorlar o‘yinida paydo bo‘ladigan sahna asaridir. Biroq bolalarni asosiy estetik ta’limi sohasida musiqiy- teatr faoliyati eng kam rivojlangan yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bola bilan ta’lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, samarasi shunchalik erta namoyon bo‘ladi va bolaning butun hayotiga ijobiy ta’sir qiladi. Maktabgacha ta’lim-tarbiya – har bir bolaga individual yondashish, uni shaxs sifatida hurmat qilish, ma’naviyaxloqiy tomondan tarbiyalash, bolaning qiziqish va ehtiyojiga mos tarzda ta’lim berishni nazarda tutadi. Maktabgacha ta’lim mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi, uning mustaqil shaxs sifatida tan olinishi jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etilishi katta ahamiyatga ega. Zero, shaxs sifatida shakllangan, kamol topgan bola o‘zini, o‘zligini taniydi va kelajakda millatning, yurtning faxriga aylanadi. Maktabgacha ta’lim muassasasida bolaning kelajak hayotida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beruvchi jismoniy, aqliy va ma’naviy qobiliyati bilish jarayonida, bizni o‘rab turgan atrof-muhitni o‘rganish, nutq o‘stirish, badiiy asarlar tinglash, rasm chizish, qurishyasash, jismoniy mashqlar bajarish va boshqa faoliyat turlarida rivojlanadi.

Bu faoliyatlarda yo‘nalishlar bir-biri bilan uyg‘unlashtirilib – integrallashgan rejalashtirish asosida tashkil etiladi hamda o‘yin shaklida qiziqarli tarzda olib boriladi. O‘yin kichkintoyning tabiiy ehtiyojlari va istaklariga mos kelganligi sababli, o‘yin jarayonida o‘rganayotgan mavzuni quvnoqlik bilan takrorlaydi, yengillik bilan o‘zlashtiradi. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatishfanining asosiy maqsadi maktabgacha ta’lim muassasalarida sahnalashtirish ishlarini olib borish, bolalar ijodiga rahbarlik qilish uchun amaliy bilim va ko‘nikmalar berish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining asosiy vazifasi – har bir bola shaxsini yosh bosqichiga mos tarzda sifatli rivojlantirish va uni navbatdagi ta’lim bosqichiga puxta tayyorlashni ta’minlash hamda muassasada ijobiy muhit va zarur sharoit yaratishdan iboratdir. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatishfanining vazifasi MTTda bolalarni sahnalashtirish, aktyorlikka tayyorlash, ijodiy faoliyatini tashkil etishga, qo‘l mehnatiga, badiiy mehnatga qiziqishlarini uyg‘otish, mehnat orqali hosil bo‘lgan ko‘nikma va malakalarini shakllantirish; maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatga nisbatan muhabbatni tarbiyalash va kasbga yo‘naltirish; bolalarda ijodiy ko‘rgazmalar, o‘yinlar uchun atributlar yasashga xohishlarini uyg‘otish; qog‘oz, karton kabi materiallarning xususiyatlari bilan tanishtirish; mehnat qilish madaniyati malaka va ko‘nikmalarini tarbiyalash; buyumlarni tayyorlash jarayonini rejalashtirish, tayyorlash texnologiyasini o‘rgatish, mahsulotni tejash, buyumlari qoralamasining eskizini va suratini chizishga ish joylarini tartibli saqlashga o‘rgatish; bolalarni buyumlar yasash jarayonida oddiy asboblardan foydalanishga o‘rgatish hamda badiy didlarini shakllantirishga, vaqtni tejay olishga, maqsadga muvofiq ishlashga odatlantirishdir. Ijodiy qobiliyat insonni hayvondan farqlab turadigan bir xususiyatdir. Bu qobiliyat insonga nafaqat hayoti davomida qo‘l kelishi va undan foydalanishi mumkin, balki uning ko‘rinishini o‘zgartirishi ham mumkin. Bolalar ijodiyoti va uning o‘ziga xos tomonlarini tushunish pedagoglardan ko‘pgina bilimlarga ega bo‘lishni talab etadi.

Tarbiyachi san’atda bu faoliyat qanday harakterga ega, rassom badiiy obrazni yaratishi uchun qanday vositalardan foydalanayapti, uning ijodiy faoliyatining bosqichlari qanday degan savollarga javob bera olishi kerak. Bolalar atrof-olam bilan tanisha borish jarayonida ularni o‘z faoliyatlarida ya’ni o‘yinlarida, chizgan rasmlarida, loy ishlarida, hikoyalarda va hokazolarda aks ettiradilar. Bolalar tasviriy faoliyatda atrof-olamdan olgan tassurotlarini, tasavvurlaridagi timsollarni turli-tuman materiallardan va aniq shakllar yordamida tasvirlashga harakat qiladilar. Bolalar ijodiyotida ijodiy faoliyatning boshlang‘ich bosqichida o‘ziga xos harakter xususiyatlari mavjud. Bularga avval o‘zlashtirilgan ish usullarini yangicha mazmunda qo‘llashda, oldinda turgan vazifalarni yangi

usullar orqali yechishni, o‘z his-tuyg‘ularini turli vositalar yordamida ifoda etishlarida faol va mustaqil ishtirok etishlari kiradi. 3 Atrof-olamni bolalar tasviriy faoliyatida tushunish ijodiy ko‘rinishlar bilan bog‘liq emas, balki bola ishlayotgan, ko‘rsatayotgan materialning tarkibini aniqlash orqali namoyon bo‘ladi.

Tabiatiga ko‘ra, teatr san’ati bolalarning rolli o‘yinlariga yaqin, ya’ni bolalar jamoasi faoliyatidir. Bolalar o‘yinlari va teatrning eng muhim komponenti **rol bo‘lib,** atrof-muhitni o‘rganish va anglashning badiiy aksi. Ushbu jarayonlarni tashkil qilishning shakllaridan biri- o‘yin – ya’ni rol ijrosi va aktyorli[1]

Sahnalashtirish mashg‘ulotlarining musiqiy komponenti teatrning taraqqiyoti va ta’limiy salohiyotini kengaytirishi, emotsional effektni kuchaytirishda bola dunyoni his qilishi va kayfiyatiga ta’sir etishi, shuningdek, musiqa tilining fikri va xissiyoti teatrda mumika va harakatni uyg‘unlashtirishi kerak. Bunday holatlarda bolalar sensor-perspektiv analizatorlarining (kuzatuvchi, eshitish, harakatli), hissiy –perseptual analizatorlar hajmi va miqdori ortadi.

Maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilari “rol oynash”, “qo‘shiq aytish” va “raqsga” tushishlarga tabiiy moslashadilar, teatrlashtirilgan va musiqiy sahna ko‘rinishlarini qabul qilish orqali bolada katta qiziqish uyg‘otib, unda ishtirok etishlari xohish-istagini bildiradi. Teatr va musiqa ijodiyoti bolalar ehtiyojlarni qondirish bilan muammolardan ozod qiladi, u quvonchli daqiqalar va katta zavqni his qiladi. Rol ijrosidagi matn va musiqiy qo‘shiq so‘zlari hissiy tizimlar bilan bog‘langanligi tufayli,bola matnlar mazmunini tushuna boshlaydi va ijro jarayonida qo‘shilishi, sahnaga qarashi, xatto "o‘zi" ga ham qarash tajribasini egallashga, uni tuzatishga va uni baholashga o‘rganib boradi. Shunday qilib, sahnalashtirish faoliyati - bolalar ijodiy qobiliyatini va bola shaxsini kompleks rivojlanish bilan bog‘liq qator vazifalarni hal qilishga yordam beradi. Aynan:

-tarbiyalanuvchilar aktyorlik ifoda vositasi va teatr xaqidagi dastlabki bilimlarini shakllantirishga yordam berish;

-tarbiyalanuvchilar mustaqil musiqiy-teatr faoliyati talablarini rivojlantiradi;

-tarbiyalanuvchilarda teatr san’atiga bo‘lgan qiziqishlari o‘yg‘onadi;

-atrofdagi xodisalarga bo‘lgan shaxsiy – yahlit estetik munosabatlarini shakllantiradi;

-diqqatni, xotirani, xayolotni, fikrlashni, nutqni, hissiy va ixtiyoriy sohani, intellektual, musiqiy va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.[2]

---

[1] Миноваров Ш. Театр педагогикаси элементларини эгаллайлик // Халк таълими ж. – Тошкент: 1999. № 4.

[2] Ҳасанбоева О. ва бошқ. Мактабгача педагогика. Т.: Илм-Зиё. 2011. – 182 б.





Yuqorida sanab o‘tilgan vazifalardan tashqari adabiyot, musiqa, teatrga bo‘lgan qiziqishlarini sahnalashtirish faoliyati orqali uyg‘otadi, ma’lum hissiyotlarni o‘yin mahorati orqali mujassamlashtiradi, yangi obrazlarni yaratishga va fikrlashga undaydi. Teatr bolaning hissiy dunyosiga katta ta'sir ko‘rsata oladi. Bugungi kunda bolalarda diqqat va nutq, ixtiyoriy hatti-harakatlari, xotirasining yetarlicha rivojlanmagani ko‘plab ota-onalar, psoxologlar va tarbiyachilarni o‘ylantirmoqda. Bola tilidan bayon etish, fantaziyalash, o‘ynash orqali- bolaning qiziqishini oshirish, erkin emotsional bo‘lishining eng qisqa yo‘lidir. Bu barcha ishlarni sahnalashtirish yordamida bajarish mumkin. Shunday qilib, bevosita sahnalashtirish faoliyatida bolaning teatrlarga borishi, bolalar spektakli va namoyishlarini tomosha qilibgina qolmasdan teatrlashtirilgan faoliyatda ishtirok etishi, teatrlashtirilgan to‘garaklarga va mashg‘ulotlarga borishini tavsiya qilamiz. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda bugungi kunda ko‘plab rivojlantiruvchi dasturlar yaratilmoqda.

Ular bunday holatlarni o‘zlashtirish uchun aniq mazmunga ega, o‘quv materialini o‘z ichiga oladi:

- Bolalar oddiy musiqiy-sahnaviy bilimlarini ifodalay olishi (improvizatsiya, fantaziya, etyud) va aktyorlik mahorati vositasi orqali yo‘nalishni olishi.

- Mahsuldorlik faoliyatda ushbu bilimlarni rivojlantirsh va mustahkamlash, aynan musiqiy- teatrlashtirilgan namoyishlarda amalga oshadi.

Mashg‘ulotlarning mazmuni va qoidasi;

-individual va jamoaviy harakatlariga o‘rgatishda bolalarni atrofdagi haqiqatni his qilishi, uni tahlil va nazorat qilish;

-bolalarning aktyorlik ifoda vositasi asosida pantomimik va og‘zaki hissiyotlarga va verbal-emotsional improvizatsiyaga asoslangan, shuningdek, musiqiy- sahna faoliyatida vokal-xor va musiqiy-ritmik komponentlarini o‘zlashtirishi;

- so‘z omonligi va sahna nutqi ko‘nikmalarini egallashi,aktiv ijodiy unumdorlik faoliyatini qamrab oladi.

Bolalarning badiiy-ijodiy faoliyatini tuzishda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining guruhlarida xar –xil markazlar tashkil qilingani ishni osonlashtiradi( syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirish markazi, til va nutq markazi, san’at markazi, musiqa va ritmika markazi) Taniqli musiqachilar, rassomlar, san'atkorlarning ijodiy mahoratini namoyish etilishi, tabiiyki bolalar ijodiy shiddati va qiziqishini oshiradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotining tarbiyachisiga mustaqil ijodiy faoliyatni boshqarishda bevosita ko‘plab usul va uslublar tavsiya etilyapti, shuningdek turli hildagi sahnaviy mashg‘ulotlar jarayonida bolalar bilan ishlash shakli xam berilyapti.

Teatr faoliyati bo‘yicha mashg‘ulotlar mazmuni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- spektakllarni oldin va keyin tomosha qilib suhbat qurish va bolalar teatrlariga tashrif buyurish;
- mashg‘ulotlarga o‘yin-dramatizatsiyani kiritish;
- turli ertak va inssenirovkalarni tayyorlsh va o‘ynash;
-ifodali ijro shakllanishi uchun mashqlar (verbal va noverbal);
- bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi maqsadida mashqlar bajarish.

Sahnalashtirish faoliyati mashg‘ulotlarining mazmuni nafaqat asarning adabiy matni bilan tanishish, balki mimika, xarakat, kostyum, mizanstsensa(spektaklining ayrim

paytlarida dekoratsiya va aktyorlarning joylanishi), imo-ishora, ya’ni “belgilar”, ifodali nutqda rol ijro etishdan iborat. [3]

Sahnalashtirish faoliyatidagi mashg‘ulotlar bir qator funktsiyalarni bajaradi**: bilim, ta’lim va taraqqiyot.** Ularning vazifasi nafaqat o‘yinlarga tayyorgarlik ko‘rish, balki ilmiy bilim, hayotiy ta’lim va bola yosh hususiyatiga mos pedagogik - psixologik taraqqiy ettirish hamdir. Ushbu vazifani olib borishning mazmuni, shakllari va usullari bir vaqtning o‘zida uchta asosiy maqsadni amalga oshirishi kerak:
- nutq va teatrlashtirilgan qobiliyatlarni rivojlantirish;
- ijodkorlik muhitini yaratish;
- bolalarni ijtimoiy va hissiy jihatdan rivojlantirish.

Sahnalashtirish faoliyatini tashkil etishda tarbiyachi katta rol o‘ynaydi, ushbu jarayonni mohirlik bilan boshqaradi. Tarbiyachi nafaqat ifodali so‘zlashi yoki o‘qib berishi kerak, balki qarashni, ko‘rishni, tinglashni va eshitishni xam bilishi lozim, ammo har qanday “obrazga kirishish”ga xam tayyor bo‘lishga majbur, ya’ni aktyorlik mahoratini egallagan bo‘lishi va rejisyorlik malakalariga ega bo‘lishi shart. Aynan shu mahoratlar ijodiy potensialni oshiradi va bolalarning teatrlashtirilgan faoliyatini o‘zlashtirishga yordam beradi. Mashg‘ulotlar jarayonida tarbiyachi bolalarga hech qaysi holatda, hech qanday bosim, taqqoslash, baho berish, maxkumlikni qo‘llashi mumkin emas. Aksincha, bolalarga erkin gapirish, ichki xissiyotini, iste’dodini ko‘rsata olish imkoniyatini yaratib berish kerak. Pedagog o‘zining aktyorlik va rejisyorlik mahorati bilan tortinchoq bolani sahnaga chiqishdan tomoshabinga aylantirib qo‘ymasligini nazorat qilishi shart. Tarbiyachi bolani “sahnada” va ijro jarayonida xato qilishdan qo‘rqishiga yo‘l qoymasligi kerak. Bolalar jamoasi “artist” va “tomoshabinlar”ga bo‘linadi, ammo doimiy sahnada ijro etuvchi, doimiy tomoshabinlarga tomosha ko‘rsatuvchi bo‘lishi mumkin emas, yani bolalar rollari bilan xam almashib turishlari kerak. Teatr faoliyatidagi mashg‘ulotlar hayotdan olingan mavzularni mustaqil improvizatsiya qilishi, ertaklar, sahna ko‘rinishlari va tasvirlar uchun rol o‘ynashini o‘z ichiga olishi mumkin. Sahnalashtirish faoliyati ikki yo‘nalishda tashkil etiladi:
1. Bolalar ijodiy mashqlarni bajarish jarayonida aktyorlik asoslarini egallaydilar;
2. Bolalar xar xil turdagi teatr san'atiga xos xarakterda bo‘lgan texnik usullarni o‘zlashtiradilar.

Maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarning ijodiy rivojlanishi teatr san'ati bilan tanishishning tizimli va shaxsiy ahamiyatiga ega bo‘lgan jarayonda amalga oshiriladi.

Bolaning shaxsiy tajribasi asosida mavzu materialining izchil murakkabligini talab qiladi, bu esa bolaning ko‘p qirrali teatr dunyosiga kirishini ta'minlaydi.

***Sahnalashtirish faoliytida*** mashg‘ulotlar kompleksining amalga oshish jarayoni quyidagi vazifalarda o‘z yechimini topadi:
-Tarbiyalanuvchining mustaqil ijodkorligi va ijodiy qobiliyatini rivojlanishi;
- Turli ko‘rinishdagi ijodiy faoliyatga qiziqishini tarbiyalashi;
- Improvizatsiya malakalariga ega bo‘lishi;
- Nutq faoliyatining shakli va funktsiyasi, barcha komponentlarning rivojlanishi;
- Bilish jarayonlarini takomillashtirishi.

[3] Ҳасанбоева О. ва бошқ. Мактабгача педагогика. Т.: Илм-Зиё. 2011. – 182 б.

Barcha bolalarning biror sahna asarini, ko‘ngil ochar bayramlarga tayyorlanishi uchun turli **uslublar** tavsiya etiladi:

- bolalarni xoxshiga ko‘ra rollarni tanlash,
- eng qo‘rqoq va uyatchang bolalarni asosiy rollarga tayinlash,
- rollarga kartochkalar bo‘yicha taqsimlash (bolalar sxematik tarzda personaj rasmi tushirilgan kartani tarbiyachining qo‘lidan oladilar),
- rollarni juftlik bilan ijro etish.

Mashg‘ulotlar mobaynida tarbiyachi bolalarning fikrini va javoblarini eshta olishi kerak, agarda bola javob bera olmasa undan izohni so‘rashni keragi yoq, undan ko‘ra to‘g‘ri personaj xarakatiga o‘tish lozim; asar qaxramoni bilan to‘qnshganda bola kirishib olishiga va u bilan suhbatlashishi uchun vaqt berish darkor, yakuniy ishda esa har xil yo‘llar bilan bolaning quvonchini oshirish kerak. [4]

Ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning effekti quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi:

¬ muammoni qo‘yish yoki muammoli vaziyatni yaratish;
¬ kreativ maydonni yaratish;
¬ bir o‘yindan ikkinchi o‘yinga o‘tishi, bunda oddiydan ko‘ra ijodiy murakkabroqga o‘tish;
¬ mashqlar, etyudlar, shunday qilib, teatrlashtirilgan faoliyatda tashabbus, moslashuvchanlik va fikrlashning mustaqilligi, bolalar sahna ijodiyoti rag‘batlantiriladi.

Maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirish.




[4] Ҳасанбоева О. ва бошқ. Мактабгача педагогика. Т.: Илм-Зиё. 2011. – 182 б.

Barcha teatrlashtirilgan o‘yinlarni ikkita asosiy guruhga bo‘lish mumkin: dramatizatsiya va rejissyorlik. O‘yinlarda - dramatizatsiyalarda bola "rassom" rolini o‘ynab, ifoda vositalari majmuasi yordamida mustaqil ravishda obraz yaratadi. Dramatizatsiya turlari quyidagilardan iborat: o‘yinlar - hayvonlar, odamlar, adabiy qahramonlar tasvirlariga taqlid qilish. Dramatizatsiya o‘yinlari - matnga asoslangan rolli dialoglar. Ammo rejissyor o‘yinida "rassomlar" o‘yinchoqlar yoki ularning o‘rinbosarlari bo‘lib, bola "ssenariy muallifi va rejissyor" sifatida faoliyatni tashkil qilib, "rassomlarni" boshqaradi. Qahramonlarni “ovozlash” va syujetni sharhlashda u turli ifoda vositalaridan foydalanadi. Rejissor o‘yinlarining turlari bolalar bog‘chasida qo‘llaniladigan teatrlarning xilma-xilligiga qarab belgilanadi: stol usti, tekis va uch o‘lchovli, soya qo‘g‘irchog‘i, barmoq va boshqalar. Teatr faoliyati jarayonida bolalarning mustaqilligi va ijodkorligini rivojlantirish uchun bir nechta shartlarni ajratib ko‘rsatish kerak: atrof-muhitni teatr faoliyatining atributlari bilan boyitish va bolalar tomonidan ushbu muhitni erkin rivojlantirish (mini teatr). vaqti-vaqti bilan yangi atributlar va bezaklar bilan to‘ldiriladi)

- o‘yinlarning mazmuni bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlariga mos kelishi kerak;
- o‘qituvchi va bolalar o‘rtasidagi mazmunli muloqot;
- teatr va o‘yin muhiti dinamik ravishda o‘zgarib turishi kerak va uni yaratishda bolalar ishtirok etishi kerak;
- bolalarga teatr faoliyatining ifodali vositalarini o‘rgatish:
- **Intonatsiya** - ovozning o‘zgarishi. Bu usul bolalarga Pinokkioga, keyin Zolushkaga, ayiq va quyonga, Barmaleyga, Doktor Aybolitga va boshqalarga aylanishga yordam beradi.
- **Mimika** - insonning ma'lum his-tuyg‘ulari va kayfiyatlari haqida so‘zsiz, ya'ni odam har qanday his-tuyg‘ularni ifodalaydi.
- **Imo-ishoralar** - tananing dinamik harakati: qo‘llar, oyoqlar, bosh va boshqalar, shuningdek,

**Pantomima** - imo-ishoralar bilan birlashtirilgan yuz ifodalari.

Kichik maktabgacha yoshda o‘qituvchi mavzu-o‘yin muhitini kichik tasviriy o‘yinchoqlar (qo‘g‘irchoqlar, matryoshka qo‘g‘irchoqlari, hayvonlar, texnik o‘yinchoqlar, konstruktorlar, mebellar va boshqalar) bilan to‘ldirish orqali individual rejissyorlik o‘yinlari uchun sharoit yaratadi. O‘qituvchining individual rejissyor o‘yinlaridagi ishtiroki kundalik va ertak vaziyatlarni o‘ynashda namoyon bo‘ladi (bolalar qofiyalaridan, V. Berestov, E. Blaginina va boshqalar), rolli nutqdan foydalanishni ko‘rsatish, onomatopeya, bolani o‘yinga jalb qilish, replikalarni taklif qilish, harakatlarni tushuntirish. O‘rta guruhda o‘qituvchi kollektiv direktorlik o‘yinlari uchun sharoit yaratadi. Mavzu-o‘yin muhitida, tasviriy o‘yinchoqlardan tashqari, turli xil chiqindi materiallar (taxtalar, bobinlar, sinmaydigan pufakchalar va boshqalar) bo‘lishi kerak, bu esa tasavvurni

rivojlantirishga, oʻrinbosar ob'ektlar bilan harakat qilish qobiliyatiga yordam beradi.[5]

Rejissyorlik oʻyinlarini tashkil qilishda oʻqituvchi yordamchi oʻrnini egallaydi: u boladan harakatlarning ma'nosini tushuntirishni soʻraydi, uni rol oʻynashga undaydi ("U nima dedi?", "Qaerga ketdi?"), ba'zan. oʻyin qobiliyatlari tashuvchisi sifatida harakat qilish, oʻyinchoqlar va oʻrnini bosuvchi narsalar yordamida fantastik hikoyalarni koʻrsatish, bu esa bolaga bunday faoliyat bilan shugʻullanishga yordam beradi.

Katta maktabgacha yosh - bu toʻliq qoʻshma faoliyatga aylanadigan rejissyor oʻyinining gullash davri. Oʻyinlarning mazmuni - bu haqiqat multfilmlar va kitoblardagi voqealar bilan bogʻlangan fantastik hikoyalar. Rejissor oʻyinlari uchun mavzu-oʻyin muhiti koʻp funktsiyali oʻyin materiali (oʻyin maydonining xaritasi) asosida qurilgan. Undan foydalanish bolaga syujet konturini tashkil etuvchi voqealarni ixtiro qilishga va ijro etishga, syujet holatini oʻynab boʻlmasdan oldin ham tasavvur qilishga, soʻngra oʻyinni boshqarish jarayonida konkretlashtirishga, uni oʻyin voqealari bilan toʻldirishga yordam beradi. Spektakl tuzilishi va ertak syujetining yaqinligi adabiy ertakdan syujet qurilishini rivojlantirish uchun asos sifatida foydalanish imkonini beradi. Har bir yosh guruhida teatrlashtirilgan tomoshalar, tomoshalar uchun burchak boʻlishi maqsadga muvofiqdir. Ular barmoq, stol, afisha teatri, toʻp va kublar teatri, kostyumlar, qoʻlqoplar bilan rejissyorlik oʻyinlari uchun joy ajratadilar.Unda

- har xil turdagi teatrlar: bibabo, stol usti, qoʻgʻirchoq, flanelograf teatri va boshqalar;
- sahna va spektakllarni sahnalashtirish uchun rekvizitlar: qoʻgʻirchoqlar toʻplami, qoʻgʻirchoq teatri ekranlari, kostyumlar, kostyum elementlari, niqoblar; turli oʻyin pozitsiyalari uchun atributlar:
-teatr rekvizitlari, boʻyanish, dekoratsiya, rejissyor kursisi, ssenariylar, kitoblar, musiqiy asarlar namunalari, tomoshabinlar uchun oʻrindiqlar, plakatlar, kassa, chiptalar, qalamlar, boʻyoqlar, yelim, qogʻoz turlari, tabiiy material.

Teatr oʻyinlarining tasnifi Boshlangʻich maktabgacha yoshdagi bolalarda rejissyorning teatr oʻyinlarining birlamchi rivojlanishi quyidagilar orqali qayd etiladi:

stol oʻyinchoq teatri;
stol samolyot teatri;
flanelgrafdagi planar teatr;
barmoq teatri

4-5 yoshda bola stol teatrining turli turlarini oʻzlashtiradi: yumshoq oʻyinchoqlar; yogʻoch teatri; konus teatri; xalq oʻyinchoqlari teatri; planar raqamlar; qoshiq teatri; qoʻgʻirchoq chavandozlari teatri (ekransiz va oʻquv yilining oxiriga qadar - ekranli) va boshqalar. Katta va tayyorgarlik yosh guruhlarida bolalarni qoʻgʻirchoqlar, "tirik qoʻl" teatri, shol teatri, odamlar - qoʻgʻirchoqlar bilan tanishtirish mumkin

[5] Миноваров Ш. Театр педагогикаси элементларини эгаллайлик // Халк таълими ж. – Тошкент: 1999. № 4.

Bolalar ijodiyoti bolaning uyg‘un rivojlanishining asosi hisoblanadi. Bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri bu bolalar bog‘chasida teatr faoliyati.

Teatr tomoshalari bolalar uchun juda yaqin va tushunarli, chunki ular o‘yinga asoslangan - bolaning mohiyatining asosidir. Bolalar bog‘chasida bo‘lgan chaqaloqlar teatr tomoshalarida katta qiziqish bilan ishtirok etadilar.

Bundan tashqari, teatr zamonaviy pedagogikaning ko‘plab muammolarini hal qilishga yordam beradigan bolani har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi. Shuningdek, intellektni rivojlantiradi, badiiy va estetik hislar shakllantiradi.

Bolalar bog‘chasidagi teatr darslarining foydasi nimada?

Bunday tadbirlar tufayli:

- atrof-muhit haqidagi bilimlarni oshirish;
- mustaqillik va ijodiy faoliyatni shakllantirish;
- so‘z boyligini boyitish;
- xotira rivojlanishi, fikrlash va hayoliy tasavvurlar;
- harakatlarni yaxshiroq muvofiqlashtirish, yumshoqlik va moslashuvchanlik;
- nutq va diksiyaning ifodalanganligini oshirish;
- yuz ifodalari, imo-ishoralar va intonatsiya orqali qahramonlarning his-tuyg‘ularini tashqi ifodalash qobiliyatlarini o‘rganish;
- jamoada ishlash qobiliyati.

Bolalar MTT da teatr tomoshasi maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy tarbiyalashga yordam beradi. Axir, har bir fikr ruhiy va ma'naviy tarkibiy qismga ega bo‘lgan adabiy asar yoki ertakga asoslanadi.Hissiy hislar orqali bola do‘stlik, halollik, jasorat, xiyonat, yaxshi, yomonlik kabi muhim tushunchalarni o‘z ichiga oladi.

Teatr tomoshasi bolaga uyatchanlik va tortinchoqlikni yengishga yordam beradi. Kichkina bola asta-sekin o‘z qobiliyatiga ishonib, o‘z- o‘ziga  hurmati tobora o‘sib boraveradi.Odatda, o‘qituvchi bolalarni teatr turiga taklif qiladi. MTT da teatr burchaklarining mavjudligi bu vazifani juda osonlashtiradi. Ular teatr turlarini  o‘z ichiga olishi mumkin: qo‘g‘irchoqboz, barmoq qo‘g‘irchoq teatri, maskalar, matryoshkalar, plastinka yoki o‘yinchoqlardan iborat stol teatri, soya teatri, shirmalar.[6]

Kichik yoshdagi bolalar uchun qo‘g‘irchoqbozlik yoki barmoq teatri ajoyib manzaradir. Asta-sekin, bolalar teatr o‘yinlariga jalb qilingan. Keyin o‘yin vazifalari asta-sekin murakkablashib bormoqda.

Katta maktabgacha yoshlar allaqachon chiqishlarida ishtirok etishlari mumkin. Auditoriya oldidagi sahnada birinchi sahna asari bolani qiyin sinovdan o‘tkazadi. Ota-onalar o‘z farzandlariga ishonishlari va uni har qanday tarzda qo‘llab-quvvatlashlari va uni rag‘batlantirishlari muhimdir. Va keyin qo‘rquv va uyatchanlik asta-sekin o‘yindan ishonch va quvonch bilan almashtiriladi.

Bolalar uchun teatr qiziqarli va ko‘p ijobiy his-tuyg‘ularga ega. Va teatr faoliyati musiqa va raqs bilan uzviy bog‘liq bo‘lganligi sababli, bu bolalarning taassurotlarini yanada mustahkamlaydi va o‘yinni yanada jozibador qiladi.Shu

[6] Миноваров Ш. Театр педагогикаси элементларини эгаллайлик // Халк таълими ж. – Тошкент: 1999. № 4.

bilan birga, MTTda teatr faoliyati ota-onalarga juda ko‘p muammo keltirishi mumkin, chunki ko‘pincha yosh aktyor yoki aktrisa o‘yin uchun kostyumlarni yasash yoki ijaraga olishlari kerak. O‘zingizning sevimli iste'dodingizga doimo yordam berishingiz va qo‘llab-quvvatlashingiz kerak. Biroq, barcha qiyinchiliklarga qaramay, natijalar sizning barcha kutgandan oshib ketadi.Bolaning ko‘zlari baxtli bo‘ladi, va ota-onalar o‘sib borayotgan bola uchun quvonch va mag‘rurlik tuyg‘usini his etishadi.

MTTda teatr faoliyati bolalarni atrof muhitning go‘zalligini ko‘rishga o‘rgatadi. Bundan tashqari, bolalar teatri bolalar uchun madaniyat, teatr va adabiyotga qiziqish uyg‘otadi. Tiyatral o‘yin davomida bolaning asta-sekin ozodligi bor, bu ijodiy ish va takomillashtirishni rivojlantirishga yordam beradi. Shunday qilib, teatrlashtirilgan faoliyatda tashabbus, moslashuvchanlik va fikrlashning mustaqilligi - bolalar ijodiyotining faoliyati bo‘lib, ushbu faoliyat tarbiyachi tomonidan rag‘batlantirib boriladi

### Nazorat savollari va topshiriqlari

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyati qanday tashkil etiladi?

2.Teatr tomoshalari tarbiyalanuvchilar uchun qanday ahamiyatga ega? Taxlil qiling.

3.Bolalarni har tomonlama tarbiyasida teatrlashtirilgan sahna o‘yinlarining tutgan o‘rni qanday?

4.Bola shaxsining rivojlanishida ijodiy faollikning ta’siri haqida yozing.

5.Bolalar nutqini rivojlanishida va ijodiy qobiliyatlarini shakllanishida bolalar teatrining va bayram tomoshalarining ahamiyatini yoriting.

6.Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar xayotiga bevosita xamda bilvosita ijodkorlikning ta’sirini qanday baholaysiz.

## 2-Mavzu: Sahnalashtirish faoliyati vositasida bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish

### Reja;

1.Sahnalashtirish faoliyati rivojlantirish vositasi sifatida.
2.Sahnalashtirish faoliyatida bolalarda aktyorlik qobiliyatini rivojlantirish.
3.Sahnalashtirish faoliyati vositasida bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish usullari

**Tayanch so‘zlar**; *Ijod, ijodiy qobiliyat, ijodkorlik, ijodiy yondashuv, kreativlik,bolalar ijodiy qobiliyati, rivojlanish,* so‘z boyligi, grammatik nuqtai nazardan to‘g‘ri gapirish, o‘z fikrini to‘g‘ri ifodalash, talaffuz, temp, so‘z intonatsiyasi va ifodasi.

Sahnalashtirilgan o‘yinlar bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda oddiydan murakkabga qarab yo‘naltirib borilishi maqsadga

muvofiq.Masalan, o‘rta guruh uchun asosan harakatni aks ettiruvchi asarlar tanlansa, katta guruh bolalari uchun esa asar qahramonlarining ancha murakkab munosabatlari, ularning kechinmalari, qayg‘ulari aks ettirilgan asarlar tanlanadi. Ertak va hikoyalarni bolalar ko‘pincha o‘zlarining ijodiy rolli o‘yinlarida sahnalashtiradilar, bu o‘yinlarda tulki, sichqon, xo‘roz, quyon kabi personajlarni o‘yinlarda aks ettiradilar. Yozuvchilarning badiiy asarlarini ham bolalar sevib sahnalashtiradilar.Bolalar bilan suhbatlasha turib, tarbiyachi hikoya yoki ertak qahramonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qiladi.Har xil she‘r, ertak qahramonlarining o‘ziga xos xususiyatlari mana shunday o‘rganiladi. Guruhda shu yoshli bolalarga xos bo‘lgan ertaklar, hikoyalar ularga tanish bo‘lib qolgandan keyingina sahnalashtirish boshlanadi.«Sholg‘om», «Bo‘g‘irsoq» kabi ertaklar sahnalashtiriladi.Tayyorlov guruhida bu ish davom ettiriladi. Sahnalashtirish uchun ertaklargina olinmasdan, badiiy asarlar, xususan, she‘rlar ham olinadi. Masalan, tarbiyachi o‘rta guruh uchun asosan harakatni aks ettiruvchi asarlar tanlaydi, katta guruh bolalari uchun esa asar qahramonlarining ancha murakkab munosabatlari, ularning kechinmalari, qayg‘ulari aks ettirilgan asarlar tanlanadi.Tarbiyachi bajarilgan ishning hisobini olib boradi. Bolalarga qaysi asar yoqqanini, ular ko‘proq qanday asarni sahnalashtirishni yoqtirishlarini, qaysi bola topshirilgan rolni yaxshi ijro eta olganini, rollarni ijro etishda bolalarda qanday qiyinchiliklar vujudga kelganini yozib boradi. Mana shu asosda bo‘lg‘usi sahnalashtiriladigan o‘yinlar jonlantiriladi

1. MTM davlat o`quv dasturi O`zbekiston Respublikasi hududida joylashgan quyidagi ta`lim muassalarida qo`llash uchun majburiy:

-davlat maktabgacha ta`lim muassalari;

-maktabgacha ta`lim sohasida xizmat ko`rsatuvchi nodavlat muassalari;

-maktabgacha yoshdagi bolalar guruhlariga ega bo`lgan

-maktabgacha va boshlang`ich ta`limni nazorat qiluvchi boshqaruv organlari.

Bolalarda maktabgacha ta’lim yoshidanoq ijodiy faollikalarini shakllantirishda turli bayram tadbirlarida ishtirok etish, qog‘ozdan esdaliklar yasash, bayramlar uchun ijodiy ishlar, harakatli o‘yinchoqlar tayorlash ishlar, applikatsiya, tabiiy va tashlndiq materiallar bilan ishlash muhim o‘rin tutadi.

Yuqorida ta’kidlanganlar ***o‘qitish*** tushunchasining muqobili sifatida ***rivojlantirish*** zamonaviy ta’lim tizimlarining asosiy, mohiyatli tushunchasi bo‘lishi haqida xulosaga kelish imkonini beradi. Demak, ta’lim muassasalarida shunday sharoitlar yaratish zarurki, ta’lim oluvchi o‘quv jarayonining faol figurasiga aylansin, pedagoglarning diqqat markazida esa ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati, ya’ni o‘qitish emas, balki bilish jarayoni bo‘lsin. Ta’lim individni ma’rifatli qilish usulidan ijodkor shaxsning, o‘zini o‘zi konstruksiyalash, o‘zining hayotiy strategiyasini belgilash va o‘zgartirishga qodir shaxsni, uning individual xususiyatlari va qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmiga aylanishi lozim.

Bu maqsadga faqat ijodiy individuallik va individual uslubga ega bo‘lgan pedagoglar yordamidagina erishish mumkin. Pedagogning sa’y-harakatlari ta’sirli, amaliy bo‘lishi uchun uning eruditsiyasi, metodik mahorati, ta’lim texnologiyasini muvaffaqiyatli tanlashi yetarli bo‘lmaydi. Ta’lim oluvchi pedagogni yorqin betakror shaxs sifatida qabul qilishi zarur.

«Ijod, «ijodkor shaxs», «ijodiy faoliyat», «ijodiy ishlaydigan pedagog» «mehnatga ijodiy yondashuv», «individuallik», «pedagogning ijodiy individualligi», «pedagogning individual uslubi» kabi tushunchalarni ko‘rib chiqamiz.

***Ijod*** – natijasi ob’ektiv yoki (va) sub’ektiv ahamiyatga ega bo‘lgan, yangi, original va yanada takomillashgan moddiy va ma’naviy qadriyatlarning yaratilishi bo‘lgan faoliyat. ***Ijod turlari*** inson faoliyati turlari bilan belgilanadi. ***Ilmiy*** ijod – avvalgisiga nisbatan ustunlikka ega bo‘lgan yangi bilimni ishlab chiqarish; ***badiiy*** ijod – yangi badiiy asarlarni yaratish; ***pedagogik*** ijod – ta’limning yangi mazmuni, metodlari, tamoyillari, shakllari, tizimlari va sh.k. larni ishlab chiqish [7]

Psixologik adabiyotlarda ijodning ma’lum ma’noda turlicha talqinlariga duch kelamiz. ***L.S.Vigotskiy*** ijodga yangilik yaratish sifatida qaraydi. ***S.D.Rubinshteyn*** uni keyinchalik nafaqat ijod, balki fan, san’at va sh.k. lar tarixiga kiradigan nimadir yangi, originallik yaratadigan faoliyat sifatida baholaydi. ***A.M.Matyushkin*** ***faollik***ning ikkita: adaptiv va ijodiy turini farqlaydi.

Ijodiy faollikning ***vazifasi*** mavjud tartibni o‘zgartirish, yangicha yondashuvlarni yaratish.

***Ijodkor shaxs*** – ijodiy yo‘nalganlikka, ijodiy qobiliyatga ega bo‘lgan va faoliyatning original usullaridan foydalangan holda shaxsiy yoki (va) ijtimoiy ahamiyat va progressivlikka ega bo‘lgan ob’ektiv va (yoki) sub’ektiv ma’naviy boyliklar yaratadigan shaxs. Ijodkor shaxs uchun ijodga barqaror, yuqori darajadagi yo‘nalganlik, ijodiy qobiliyatlarning yuqori darajasi bilan birlikda namoyon bo‘ladigan va unga faoliyatning bir yoki bir necha turida progressiv, ijtimoiy yoki shaxsiy ahamiyatli ijodiy natijalarga erishish imkonini beradigan motivatsion-ijodiy faollik xarakterlidir. Ko‘p hollarda ijodkor shaxs faoliyatning qaysidir bitta yo‘nalishida, masalan, musiqa, sport, matematika va sh.k. da katta muvaffaqiyatga erishadi [8]

Biroq, tarix inson faoliyatining bir qancha va xatto ko‘plab sohalarida yuksak ijodiy natijalarga erishishga ko‘plab misollarga guvoh bo‘lgan (M.V.Lomonosov, Mikelanjelo va ko‘plab boshqalar). Shu munosabat bilan har tomonlama barkamol rivojlangan shaxs xaqida so‘z yuritish o‘rinlidir.

Ijodiy faoliyat – shunday faoliyatki, ijod ustivor komponent sifatida uning maqsadi yoki usullari tuzilmasiga kiradi. Insonlarning butun faoliyatini ijodiy va ijodiy bo‘lmagan (noijodiy) faoliyatga shartli ravishda bo‘lish va uchta belgisiga ko‘ra farqlash mumkin:

---

8
Практикумлар материаллари 10-иловада келтирилади

[1] м..Акрамова.” Таълим жараёнида талабаларда педагогик артистизмни шакллантириш”
(мактабгача таълим йўналиши материали асосида)

- ***natijasiga*** ko‘ra: ijodkorlik yangi, avval ma’lum bo‘lmagan sifatni olish bilan tavsiflanadi, ayni paytda «ijodsizlik» amalda ma’lum, standart, turkum (avval olinganiga prinsipial o‘xshash) nusxa (mahsulot) beradi;

- realizatsiyalash ***usuli*** (tuzilmasi)ga ko‘ra: ijod natija tomon harakatlanishida betakror (betakrorlik yo tamomila yangi usul yaratish, yo harakat usullarining ma’lum kombinatsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi); «ijodsizlik» esa natijaga erishish usulining takrorlanishliligi (shablonligi) bilan tavsiflanadi;

- ***ahamiyatiga*** ko‘ra: ijodiy faoliyat taraqqiyotning sifat jihatidan farq qiladigan bosqichlarini belgilaydigan uning bevosita harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo‘ladi. Ijodsizlik esa tub o‘zgarishlar, ya’ni ijod uchun sharoitlarni miqdoriy to‘plash vositasi sanaladi. ijod va ijodsizlik – inson faoliyatining uzviy tomonlari, ularning har biri ikkinchisini belgilaydi, deb hisoblash kerak [9]

***Ijodiy ishlaydigan pedagog*** – o‘quv-tarbiya ishlarining shakl, metod va usullarini takomillashtirish hamda yangi ilg‘orlarini ishlab chiqishga intiladigan novator; xatto odatiy topshiriqda ham yangi muammoni ko‘ra biladigan, o‘quvchilar uchun ijodiy topshiriqni shakllantira biladigan, ularni mazkur topshiriqlarni hal qilish va tahlil etish bo‘yicha mustaqil izlanishli-tadqiqotchilik faoliyatiga faol jalb qila oladigan kishi; o‘z maqsadini tarbiyalanuvchilarini faqat bilim, malaka va ko‘nikmalar tizimi bilan boyitishdagina emas, balki ularni psixik, aqliy rivojlantirish, ularni ijodiy faoliyatga tayyorlashda, deb biladigan pedagog.

Pedagogga ijodiy ishlashga to‘sqinlik qiladigan ***sabablar***: bolalarga, pedagogik faoliyatga muhabbatning yo‘qligi; ijodiy pedagogik qobiliyatlarning rivojlanmaganligi; pedagogik ijodga ustanovkaning mavjud emasligi; ta’lim-tarbiya ishining eskirgan va kam samara beradigan shakl va metodlaridan voz kechishni istamaslik yoki uddalay olmaslik; kasbiy tayyorgarlik darajasining pastligi; mazkur fan (fanlar) bo‘yicha ijodkor o‘quvchilar shaxsni shakllantirish uchun zarur o‘quv-metodik komplekslarning (majmua)yo‘qligi; pedagogning

---

[9]

[1] м..Акрамова.” Таълим жараёнида талабаларда педагогик артистизмни шакллантириш” (мактабгача таълим йўналиши материали асосида)

ijodiy faoliyatini real va moddiy rag‘batlantirish bo‘yicha maxsus ishlab chiqilgan chora-tadbirlarning mavjud emasligi; ta’lim muassasasida boshqaruvning avtokratik uslubi, ma’muriyat va xalq ta’limi organlari tomonidan haddan ziyod nazorat («vasiylik») tizimi; ahil, uyushgan pedagogik jamoa va unda ijodiy muhitning mavjud emasligi; pedagogning o‘quv dasturi va rejasi bilan «bog‘lab qo‘yilganligi»; sinfning (sinflarning) o‘quvchilar bilan to‘lib-toshganligi; o‘z fani va uni o‘qitish metodikasini yetarlicha bilmaslik (kasbiy darajaning pastligi). [10]

**Bolalar ijodkorligini rivojlantirish quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi**:

- bolalarga berilgan ijodiy vazifani bajarish;
- ijro jarayonida muammolarni hal qilish;
-bolalar uchun ijodiy maydonni yaratish;
- o‘yin jarayonida mashqlarni puxta o‘rgatish;
-etyudlarni bajarish.

Aqlan rivojlanishi va fikr tarbiyasini yaxshilash uchun bolaning fikrlashi, zakovati, xotirasi hamda mushoxada qobiliyatini takomillashtirishga yordam beruvchi mashg‘ulotlar o‘tkaziladi, unga turli ibratli ertak va hikoyalar so‘zlab beriladi, aqlan zakovatini o‘stiradigan o‘yinlar, mashg‘ulotlarga jalb qilinadi, zarur bilim va ma’lumotlar yodlatiladi. Odatda, bolalar kichik yoshda har bir ko‘rgan narsasi haqida so‘raydigan, ularni tekshirib, sinab ko‘radigan, tinimsiz savollar beradigan bo‘ladi. Bunday paytda ularning savollariga erinmay, hafsala bilan, tushunarli, sodda qilib javob qaytarish, ertak va xikoyalarni rollarga kirib Sahnalashtirishga jalb etish, obrazlarga kirib ijro etishga o‘gatib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bolaning ijodiy rivojlanishida ruxiy tarbiya ham albatta yaxshi bo‘lishi kerak, buning uchun bolaga hayot va o‘lim, axloq va odob kabi boqiy mavzularda sodda, bola ruxiyatiga mos suxbat hamda rollarga kirib tushuntirishlar olib borish bilan quvnoq kayfiyat, yarativchanlik ishtiyoqini shakllantirib boriladi. Chunki sog‘lom ruxiyatgina bolani butun vujudini ijodiy emotsiyaga yo‘naltira oladi. Xissiyotga beriluvchan va ta’sirchan bolalarda haqiqatni ko‘ra bilish, jasurlik, matonat kabi xislatlarni shakllantirish, aksincha, diydasi qattiq bolalarning qalbini yumshatadigan omillar yordamida ularni mayin xissiyotli, ijod bilan ovunadigan qilib tarbiyalash shart. Bolani ruxiy tushkinlikka tushushdan, qiyinchiliklar oldida esankirab qolishdan ximoyalashda Sahnalashtirish faoliyatiga yo‘naltirishning ahamiyati juda katta. Taomilda, bolaning qaysarlik davrida (to‘rt yoshdan o‘n olti

[10] М..Акрамова.” Таълим жараёнида талабаларда педагогик артистизмни шакллантириш” (мактабгача таълим йўналиши материали асосида)

yoshgacha ) olib boriladigan iroda tarbiyasida biroz qattiqqo‘llik, chidam kerak bo‘ladi, ammo ayni damda u sevgi, mexribonlik, samimiylikni ham xis etib tursin. Bu jarayon bolaning har qanday faoliyatida erkin va mustaqil bo‘lishiga yordaberadi. Bayram ertaliklari, turli ertak va rivoyatlarni Sahnalashtirish jarayoni har qanday yoshdagi bolaning ruxiyatiga ijobiy ta’sir etishini doimo guvoxi bo‘lamiz. [11]

Sahnalashtirish jarayonida ijodiy qobiliyatning yana bir asosi jismoniy sog‘lomlik, chiniqish, tananing bola yoshiga mos sog‘lom rivojlanganligi. Allomalarimiz ruxiy va modiy hayotni huddi narvonning ikki zinapoyasiga o‘xshatishadi. Ya’ni, ikki taraf baravar- teng bo‘lishi uchun barvaqt harakat qilish lozim. Bolaning aqli, ruxiyati kuchli bo‘lishi bilan birga badani, jismi ham sog‘, chiniqqan, har qanday mashaqqatlarga bardoshli bo‘lishi muxim. Bu xususda xadisi shariflarda, “Kuchli mo‘min kishi Alloh huzurida kuchsiz mo‘mindan yaxshiroq va mahbubroqdir” deyilgan. Bola rol ijro etish mobaynida xam ijodiy ham salbiy qahramonning rolini ijro etadi, kuchli va kuchsiz, irodali va zaif, quvnoq va qaysar, nimjon va polvon kabi turli obrazlarni talqin etish jarayonida o‘zi muloxaza qiladi, xulosa chiqaradi, tanlash imkoniga ega bo‘ladi, jismoniy va aqliy sog‘lom bo‘lsa maqsadga erishish, g‘alaba qilish mumkinligini anglab boradi.

O‘zbekistonning birinchi Prezidenti I. Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarida “Qachonki milliy madaniyatimizning uzviy qismi bo‘lgan teatr san’ati xususida so‘z borar ekan, buyuk ma’rifatparvar M. Bexbudiyning **“Teatr- bu ibratxonadir**” deb aytgan fikrini eslash o‘rinlidir deb yozadi. Qadim tarixga, ibratli o‘tmishga ega xalqimiz asrlar davomida o‘z milliy an’ana va urf – odatlarini, ma’naviy, moddiy boyliklarini asrab, kelajak avlodga munosib me’ros qoldirgan. Azaldan sharq xalqlarida eng oily me’ros farzandga qoldiriladigan ilm, hunar, tarbiyadan qimmatlisi bo‘lmagan . Bu ilmni yosh avlod qalbiga singdirish, hayot saboqlarini berishda esa eng soda va tushunarli yo‘l teatr, sahna asarlari bo‘lgan.

Bugungi kunda Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev maktabgacha ta’lim soxasini isloh qilishning rivojlangan davlatlar tajribasidan o‘tgan, sinalgan usullari asosiga olib borish, tashkil qilish tashabbuskori bo‘lmoqda. Shu bilan bir vaqtda maktabgacha ta’lim sohasi tarbiyachi- murabbiylariga yuksak ishonch bildirib, barkamol avlod tarbiyasiga mas’uliyat, yuksak iqtidor, kuchli bilim bilan yondoshishni talab qilmoqda. Bu borada hukumatimiz tomonigan qabul qilingan bir qator farmon va farmoyishlar, davlat talablari takomillashtirilgan ta’limni talab qilmoqda.

[11] Қодирова Ф. Мактабгача педагогика дарслик 2019. Тафаккур нашриёти.

**Ijodiy faoliyat** - bu barcha ruhiy va aqliy kuchlarni ishga solib insonning aniq bir maqsadga intiluvchanligi, maxsus hissiyot holati - ilhomlanish, shuningdek ruhiy kechinmasi, muammoni jon-jahti bilan hal etish istaklari majmuasi.

**Ijodiy qobiliyatlar** - bu yangilik yaratish zarurligi va mumkinligini tushunish, muammoni ifodalay olish, g‘oyani ilgari surish uchun kerak bo‘ladigan bilimlarni ishga solish qobiliyatlari, farazni nazariy va amaliy tasdiqlash, muammoni hal qilishni izlash va topish, natijada yangi asl mahsulotlar yaratish (...kashfiyot), ixtiro, san’at asari, tavsifnoma va x. k. qobiliyatlaridir.

**Ijodiy yondashuv (IY)** - bu pedagogikada zamonaviy yo‘nalish bo‘lib, u ta’lim oluvchilarning muammolarini hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat bo‘lib, mustaqil ravishda qaralayotgan faoliyatning yangi yo‘nalishlarini topishga undash jarayonidir. Bunda pedagog tarbiyalanuvchning ijodiy faoliyatiga ilmiy asosda rahbarlik qiladi va ularning shaxsiy tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlaydi, ular bilan hamkorlikda ishlaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bola 3 yoshdan boshlab bolalar jamoasiga qo‘shiladi. Bola 3 yoshgacha oilada aqliy, ruxiy, jismoniy darajasi yosh xususiyatiga mos shakllangan bo‘ladi, uning idroki, tafakkuri ijodiy rivojlanish qobiliyatlarini boyitish tarbiyachi pedagog uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi. Tarbiyachi kun davomida tashkil etiladigan faoliyat va mashg‘ulotlar jarayonida ularning ijodiy qobiliyatlarini, yosh xususiyatlariga doir bilim, malaka va ko‘nikmalarini rivojlanishini ta’minlaydi. Buning uchun esa tarbiyachi pedagogning o‘zi bilimli, iste’dodli, o‘z ustida tinmay ishlaydigan izlanuvchan ijodkor bo‘lishi shart. Bolalarga esini taniy boshlaganidanoq uni o‘rab turgan atrof-muhit haqida ma’lumotlar berish bilan birga Umar ibn xattob (roziyallohu anhu) voliylariga aytganidek “Bolalaringizga suzishni, chavandozlikni o‘rgatinglar va ularga maqollar hamda chiroyli she’rlarni aytib beringlar” yoki Utba ibn Abu Sufyon ham o‘g‘li Abdusomadning ustoziga “Bolamga Alloxning kitobidan ta’lim ber, she’rlardan eng yaxshisini, so‘zlarning eng sharaflisini o‘rgat, ijodini boyit ” deb buyurdi. Shunday bilimga ega bo‘lgan tarbiyachi beg‘ubor bolalarni har tomonlama ijodiy salohiyatli, yuksak insoniy fazilatli qilib tarbilashga astoydil kirishadi.

Ijodkorlik qobiliyati - insonning tabiiy va ijtimoiy dunyoni voqelikning ob’ektiv qonunlari asosida o‘z maqsadi va ehtiyojlariga muvofiq o‘zgartiradigan faoliyatidir. Ijod mahsuli bu inson ongining faol mahsulidir. "Maktabgacha ta’lim konsepsiyasi"ning asosiy mazmunida bolalarning individual xususiyatlari va iste’dodini rivojlantirish vazifasi belgilab berilgan. Xozirgi tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalar rasm chizish, loy va plastilindan o‘yinchoqlar yasashda, o‘yin faoliyatlari jarayonida ijodiy faoliyat ko‘rsata olishini isbotladi. Albatta, bolalar ijodkorligi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, kattalar ijodkorligi mezonlariga javob bera olmaydi. Ta’lim jarayonida, ertaklar eshitish, xikoyalar

tinglash, har xil rasmlarni ko‘rish, musiqa tinglash, raqsga tushish, syujetli rolli o‘yinlarda eshtirok etish orqali bolaning badiiy- ijodiy qobiliyati ulg‘ayadi, rivojlanadi. Bola xoxlagan o‘yinchoqni yasashdan oldin o‘zi bevosita idrok etgan predmetlar doirasiga kirmaydigan narsalarni asta —sekin tasavvur qila boshlaydi. Bolada avval kattalarning og‘zaki ta’siri bilan ixtiyoriy tasavvur obrazlari hosil bo‘lib, keyinchalik ular bolaning mustaqil fikrlashidan vujudga kelishi mumkin. Bola uchun oddiy latta- puttadan yasagan o‘yinchogi juda qadrli bo‘ladi. Buni boladan tortib olib qo‘yingchi, ko‘rasiz bolaning qayg‘usini.

Bolalar badiiy - ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish yo‘llarini o‘rganganda, yoshi va qiziqishiga mos berilgan topshiriqlar kata axamiyatga ega . Aynan vaqtida, kerakli joyda, kerakli dozada berilgan topshiriqlar bolani ijodiy faollikka undaydi. Topshiriqlarni 3 bosqichda murakkablashtirib borishimiz mumkin. [12]

**Birinchi bosqichda;** bolalarga ulardan ijodiy faoliyatda dastlabki yo‘nalishni talab qiladigan topshiriqlar beriladi: Tarbiyachining (o‘zing yasa, bir narsa o‘yla, qidirib top, o‘zgartir kabi) ko‘rsatmalari bo‘yicha bolalar pedagog bilan birga ishlab, ijodkorlik elementlarini namoyon etadilar.

**Ikkinchi bosqichda** - bolalarni aniq maqsadga muvofiq ishlashga va izlanishga da’vat etuvchi topshiriqlar beriladi. Bola tarbiyachi bilan birga ishlab, o‘zlashtirgan ko‘nikmalarni kombinatsiyalash va o‘zgartirish mumkinligini tushuna boshlaydi.

**Nihoyat, uchinchi bosqich** – bolani turli faoliyatda fikrlash bo‘yicha mustaqil harakat qilishga, o‘z ishlarini rejalashtirishga, tasvirlash vositalarini tanlashga o‘rgatadigan topshiriqlardan iboratdir.

Tarbiyachi bolalarga topshiriqni emotsional tarzda tushuntiradi. Tarbiyachining izohi bolalarni qiziqtirishi kerak, buning uchun tarbiyachi o‘yin elementlaridan, o‘yin harakatlaridan foydalanishi mumkin. Bolalar ko‘z o‘ngida qo‘g‘irchoqlar paydo bo‘ladi. Ular birgalikda tomosha qo‘yishni so‘raydilar. Bunday ertak personajlarning kutilmaganda paydo bo‘lishi bolalarni suyuntirib yuboradi. O‘yinchoqlarning harakatlarini ko‘rib, bolalar sevinib ketadilar, bevosita rolga kiradilar, badiiy obrazlar yaratadilar. Ijodiy ishlashga qiynalayotgan bolalarga tarbiyachi yordam beradi. Buning uchun bolalarga she’r o‘qib berishi, topshiriqlar bo‘yicha topishmoqlar aytib kichkintoylarni qiziqtirishi lozim. Bolalarning har qanday qo‘l mehnatini munosib rag‘batlantirish shart, shundagina bola o‘z ishidan, salohiyatidan qoniqib, ijodiy izlanadi, o‘zligini topadi, namoyon qiladi. Tarbiyachining har bir bolaga e’tibori yashirin iqtidorni, iste’dodni, qobiliyatni kichik ijodkorlik namunalarida tug‘ilib, ulg‘ayishini ta’minlashi mumkin. Zero, Luqmoni hakim o‘g‘liga bunday nasihat qilgan ekan:” Ey o‘g‘lim,

[12] Қодирова Ф. Мактабгача педагогика дарслик 2019. Тафаккур нашриёти.

olimlar bilan o‘tir, ular orasiga kir, chunki Alloh yerni osmon suvi bilan tiriltirgani kabi qalblarni ham ilm- hikmat nuri bilan tiriltiradi “. Bolajonlar uchun o‘sha olimlar, olimlar jamoasi siz, tarbiyachi pedagoglardir. Buni aslo unutmang, bir kuni Fath Musaliy: “ Kasalga suv, ovqat berilmasa, u o‘ladimi?” deb so‘radilar. Atrofdagilar: “Ha, o‘ladi”, deyishibdi. Shunda Fath : “Qalbga ham uch kun ilm berilmasa, u o‘ladi” degan ekanlar.

**“Ijodkorlik bu bolaning yangi g‘oyalarni yaratishga moyilligidir”**

**Ijodkorlik-** bu shaxsning yangi g‘oyalarni yaratishga moyilligini, uning iqtidorliligini va noyob qobiliyatga ega ekanligini anglatadi.

Shaxsning ijodkorligi **uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon** bo‘ladi va iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, ijodkorlik zehn o‘tkirligini ham belgilab beradi.

P. Torrens fikricha, ijodkorlik (ingliz tilida “creative” – yaratish, yaratuvchi, ijodkor): muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish, farazni tekshirish va o‘zgartirish, qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash, muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlikni ifodalaydi. [13]

Boshqa har qanday fazilat kabi ijodkorlik ham birdaniga shakllanmaydi. Xo‘sh, bolalarda ijodkorlik xususiyatlari qachondan namoyon bo‘ladi? Odatda ijodkorlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko‘zga tashlansada, biroq, bu holat ularning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo‘lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi. Bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishda quyidagi shartlarga e’tibor qaratish zarur:

1. Ular tomonidan ko‘p savollar berilishini rag‘batlantirish va bu odatni qo‘llab-quvvatlash;
2. Bolalarning mustaqilligini rag‘batlantirish va ularda mas’uliyatni kuchaytirish;
3. Bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
4. Bolalarning qiziqishlariga e’tibor qaratish.

Odatda bolalarda ijodkorlikni rivojlantirish avvalo ota-ona, bolalar bog‘chasi tarbiyachilari va albatta ta’lim muassasalaridagi o‘qituvchilarning ijodkorlik qobiliyatiga ega bo‘lishlari va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi.

Shaxsning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi.

Har bir shaxs muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, masala yechimini topishga ijodiy yondashishi jarayonida unda hissiy-irodaviy sifatlar rivojlanib boradi. Shaxs o‘z oldiga muammoli masalalarni qo‘yish orqali mavjud

[13] Клышев Н.Ю. Креативность: научный конструкт или жизненная необходимость// Праблемы выхавання. - 2004. - №6(41). - С.30.

bilimlari va hayotiy tajribalariga zid boʻlgan dalillar bilan toʻqnash keladi. Buning natijasida oʻz ustida ishlash, mustaqil oʻqib oʻrganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

Bolalarda ijodkorlik fazilatlarini rivojlantirish yuzasidan **Devid Lyuis** tomonidan amaliy koʻrsatmalar ishlab chiqilgan boʻlib ular quyidagilardan iborat:

1. Bolalarning savollariga chidam bilan toʻgʻri javob bering.
2. Ularning savollari va fikrlarini jiddiy qabul qiling.
3. Bolalarga oʻz ishlari bilan shugʻullanishlari uchun alohida xona yoki burchak ajrating.
4. Agarda ijodiy jarayon bilan bogʻliq boʻlsa, u holda bolani xonadagi tartibsizlik uchun koyimang.
5. Vaqti-vaqti bilan bolalarga ularni yaxshi koʻrishingizni va ularni qanday boʻlsalar, shunday qabul qilishlarini namoyon eting.
6. Bolalarga imkoniyatlariga mos yumushlarni buyuring.
7. Ularga shaxsiy rejalarini ishlab chiqish va qarorlar qabul qilishga koʻmaklashing.
8. Bolalarga faoliyatlarda yuqori natijalarga erishishlariga yordam bering.
9. Kamchiliklarini koʻrsatgan holda bolani boshqalar bilan solishtirmang.
10. Bolani kamsitmang va oʻzini yomon, ojiz deb hisoblashishiga yoʻl qoʻymang.
11. Uni mustaqil fikrlashga oʻrgating.
12. Bolani sevimli mashgʻulotini tashkil etishi uchun zarur buyumlar bilan qurollantiring.
13. Uni turli voqealarni oʻylab topishga, fantaziya qilishga majburlang, bu jarayonda unga yordamlashing.
14. Bolani yoshlikdan oʻqib-oʻrganishga odatlantiring.
15. Doimo bolaning ehtiyojlariga eʼtibor qarating.
16. Har kuni bola bilan yuzma-yuz suhbatlashish uchun vaqt toping.
17. Oilaga oid masalalarning muhokamasiga bolalarni ham jalb qiling.
18. Xatolari uchun bolani masxara qilmang.
19. Bolani har bir yutugʻi uchun maqtang.
20. Uning yutuqlarini maqtashda samimiy boʻling
21. Bolani turli yoshdagi kishilar bilan muloqot qilishga oʻrgatib boring.
22. Uning borliqni anglashiga yordam beradigan amaliy tajribalarni oʻylab toping. 23. Bolaga turli latta-puttalar bilan oʻynashni taqiqlamang – bu uning tasavvurini boyitadi.
23. Uni muammoni topish va uni hal qilishga ragʻbatlantiring.
24. Bolaga nisbatan oʻz munosabatingizni baholashda odil boʻling.
25. U bilan muhokama qilinadigan mavzularni cheklamang.
26. Bolaga qarorlarni mustaqil qabul qilish va uning uchun javobgar boʻlish imkonini bering.
27. Bolaga uning shaxs boʻlib shakllanishi uchun yordam bering.
28. Bolaga uning uchun foydali boʻlgan telekoʻrsatuvlarni tomosha qilishi va radio eshittirishlarni tinglashi uchun koʻmaklashing.
29. Uni oʻz qobiliyatlarini ijobiy qabul qilishga odatlantirib boring.
30. Bolani kattalardan mustaqil boʻlishga oʻrgatib boring.

31. Bolaning o‘ziga va uning sog‘lom fikrga egaligiga ishoning.

32. Bolaga “Men ham buni bilmayman” deb, uni muvaffaqiyatsizliklarga be’etibor bo‘lishga o‘rgatmang

33. Bolaga, garchi u ishning ijobiy natijaga ega bo‘lishiga ishonmasa-da, boshlangan ishni oxiriga yetkazishi uchun imkoniyat yarating.

Devid Lyuisning bor yo‘g‘i 33 ta ko‘rsatmasiga hayotda doimo amal qilsangiz, siz tarbiyalagan farzandlar albatta kelajakda yaratuvchi ijodkor bo‘lib ulg‘ayadi. Uni hech qanday muammo qiynashiga yo‘l qo‘ymaydi, yengilmaydi, ojiz qolmaydi, chunki, siz uni o‘ziga ishonchini tarbiyalab qo‘ydingiz. U albatta qiynalmay yechim topibgina qo‘ymay, kashfiyot ham yaratadi. [14]

O‘z vaqtida ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanish sizni ruxiy zo‘riqishdan, qo‘rquv va xavotirdan qutqaradi. Ishonmasangiz sinab ko‘ring:

**Qisqacha artterapiya**

**1**. Charchaganda – gullar chizing,

2. Jahl chiqqanda - to‘g‘ri chiziq chizing

3. Qalbingiz og‘riganda – biror narsa yasang

4. Zerikganingizda – qog‘ozni xar xil ranglarga bo‘yang.

5. Xafa bo‘lganingizda – kamalak rasmini chizing

6. Qo‘rqqaningizda – makrame to‘qing yoki matodan applikatsiya qiling.

7. Xavotirlanganingizda – matolardan qo‘g‘irchoq yasang

8. G‘azablanganingizda – qog‘oz mayda bo‘laklarga bo‘ling

9. Behalovat bo‘lganingizda – qog‘ozdan shakllar yasang.

10. Tinchlanmochimisiz – naqshlar chizing

11. Yodda saqlamoqchisiz– labirint chizing

12. Norozi bo‘lganingizda– biror bir suratni nusxasini chizing

13. Noumid bo‘lganingizda– yo‘llar chizing

14. Tezda kuch to‘plash kerak bo‘lganda - peyzaj chizing

15. Hissiyotlaringizni tushunmoqchisiz – avtoportret chizing

16. Xayollaringiz jamlashni istaganingizda - nuqtalar yordamida rasm chizing

17. Masalani optimal holatda hal qilmochi bo‘lsangiz - to‘lqin va aylanalar chizing.

18. Rivojlanishda to‘xtab qolib oldinga intilmoqchi bo‘lganingizda - spiral chizing

19. Maqsadni amalga oshirishda - katak chizing

Ijod maxsuli bu inson ongining faol maxsuli dedik. Ijodni amalga oshiruvchi vosita bu qo‘ldir. Qo‘l ishlariga usta bo‘lgan inson qo‘llarining moxirligi chapdastligi sababli adabu iffat ichida tirikchiligini qila oladi. Masalan oddiy bir igna bilan moxir qo‘l asrlar mobaynida ne-ne ehtiyojlarni qondirishga xizmat qildi, ijod qilib, sayqallandi. Igna bir to‘g‘ri va chin do‘st bo‘lib, ko‘p

---

[14] Клышев Н.Ю. Креативность: научный конструкт или жизненная необходимость// Праблемы выхавання. - 2004. - №6(41). - С.30.

Клышев Н.Ю. Креативность: научный конструкт или жизненная необходимость// Праблемы выхавання. - 2004. - №6(41). - С.30.

vaqtda yurt xalqining yordamchisi va eng qimmatli qurollaridan biridir. U yolg‘iz vaqtlarda yupanch bo‘lib, g‘am- qayg‘uni daf qiladi, yaxshi ishlarni ro‘yobga chiqaradi, kerak bo‘lganda faqirlik va muxtojlikka qarshi kurashadi, ijodkor sifatida el ardog‘iga sazovor qiladi.

**Nazorat savollari va topshiriqlari**

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotida turli yosh guruxlarida bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni qanday tashkil etiladi?

2.ijodkorlik tarbiyalanuvchilar uchun qanday ahamiyatga ega? Taxlil qiling.

3.Bolalarni har tomonlama tarbiyasida ijodiy yondashishning tutgan o‘rni qanday?

4.Bola shaxsining rivojlanishida ijodiy faollikning ta’siri haqida yozing.

5.Bolalar nutqini rivojlanishida va ijodiy qobiliyatlarini shakllanishida bolalar teatrining va bayram tomoshalarining ahamiyatini yoriting.

6.Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar xayotiga bevosita xamda bilvosita ijodkorlikning ta’sirini qanday baholaysiz?

7.Ijodiy qobiliyat tushunchasi bolalarning faoliyatida qanday namoyon bo‘ladi?

8. Bolalarning o‘yin faoliyatiga bo‘lgan ehtiyoji qanday qondirilmoqda? Ilk qadam davlat o‘quv dasturi asosida taxlil qiling.

9. Bolalarda ijodkorlik fazilatlarini rivojlantirish yuzasidan **Devid Lyuis** tomonidan amaliy ko‘rsatmalar ishlab chiqilgan bo‘lib ularni izoxlab bering.

10.Torrensning ijodkorlik haqidagi qarashlari “Qanday” diogrammasida ifodalang.

## 3-Mavzu: Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishining o‘ziga xosligi.

**Reja;**

1. Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishining o‘ziga xosligi.
2. Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishining asosiy kriteriyalari
3.Turli faoliyatlar jarayonida bolalarga erkin ijodiy muxitni yaratish shart-sharoitlari.
4. O‘yin faoliyatida bolalar kreativligi omillari.

**Tayanch so‘zlar;** *Sahnalashtirish faoliyati, sahnalashtirish mashg‘ulotlari, bolalar individual xususiyatlari, o‘ziga xoslik. Kriteriya, ijodiy muhit, kriativlik.*

### Maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish

Psixologlarning tadqiqotlariga ko‘ra, uch yoshga kelib, barcha bolalarda tasviriy san'at qobiliyati taxminan bir xil darajada. Shuning uchun, bolaning maxsus iste'dodini ko‘rsatishini kuting va bundan keyin uni rivojlantirish kerak emas. Badiiy qobiliyatni rivojlantirish uchun har bir bola uchun bir nechta oddiy sharoitlarga rioya qilish mumkin. Siz o‘zingizning qadamingiz bilan harakat qilishingiz kerak: boshida, bolani chizish bilan qiziqtirish, keyin uni hayoliy tasvirlarni ko‘chirishga qiziqish ko‘rsatish va faqat chuqurroq o‘qish uchun bolaning tasviriy san'at asoslarini o‘rgatishni boshlashi aniq bo‘lganidan keyin uni qo‘llab-quvvatlash. Va, albatta, chaqaloqning faoliyatini maqtash va uni rag‘batlantirishni unutmang.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning **ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar** bolaning shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohada olimlar va psixologlar tomonidan olib borilgan barcha tadqiqotlar, ijod qobiliyatiga ega bo‘lgan bolalarning yanada barqaror ruhga ega ekanligi, ular bilan muloqot qilish va do‘stona munosabatda bo‘lishlarini isbotlaydi. Kichik yoshda, kompleks rivojlanishga, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolalarning adabiy, badiiy va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi. O‘yin orqali ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish eng yaxshisidir.

## Ijodkorlik turlari

Yaratuvchilikning o‘ziga xos tomoni turli g‘oyalar, g‘oyalar, turli xil faoliyat turidagi hayoliy parvozlarni amalga oshirishga imkon beradi:

1. **Ilmiy ijod** - turli xil kashfiyotlar, yakuniy mahsulot - bilim.
2. **Texnik ijod** amaliy va texnologik rivojlanishdir, yakuniy mahsulot mexanizm yoki dizayndir.
3. **Badiiy ijod** dunyodagi estetik asosi, go‘zallikka intilishdir. Yakuniy mahsulot badiiy tasvirdir (she'r, rasm, haykal).
4. **Birgalikda yaratish** - bu san'atning asarlari, ularni talqin qilishdir.
5. **Bola ijodkorligi** - bu bolaning tasavvuf jarayoni, uning tasavvuridir.
6. **Pedagogik ijod** - bu bilimlarni o‘rgatish uchun maxsus yondashuv, uning maqsadi yangi narsalarni o‘rgatishdir.

## ijodkorlik haqida kitoblar

Kitoblardan ilhom olib, ko‘pchilik qahramonlarning hayotidan, hayotlarining misollaridan ilhomlangan. Ijodkorlik dunyosi taniqli mualliflarning ko‘plab asarlarida taqdim etilgan ajoyib, yorqin va yoqimli:

1. **"San’atshunos kabi o‘g irlash" Austin Cleon** . Muallif mualliflarga ijodkorlikni qanday qilib kashf etishni o‘rgatad.

2. **"Muse, qanotlaringiz qayerda?" Yana Frank,** ilhom **bilan** to‘la va butun hayotini ijodkorlikka bag‘ishlagan kishilar uchun yozilgan.
3. **"Fikrlarning timsoli" Skott Belksy** sizga qanday qilib shubhalarni bartaraf qilish, ustuvorlik va natijalarga erishish haqida gapirib beradi.
4. **Muallif Mark Leyden "buyurtma beradigan daho"** muammoni hal qilishning odatiy usulini taklif etadi - erkinlik.
5. **S. Voinskaya "yaratish va sotish"** . Kitob sizning ijodingizni qanday sotish kerakligini aytadi.

Bolalarga ijodkorlikni o‘rgatsa bo‘ladimi? Ba’zilar buni tabiiy ko‘nikma deb bilishadi, ammo haqiqat shundaki, bunday qobiliyat bolada mavjud yoki yo‘qligidan qat’i nazar ota-onalar va o‘qituvchilar ulardagi yaratuvchanlikni rivojlantirishga yordam bera olishadi, aslini olganda esa bolalarda ijodkorlikni shakllantirish tug‘ma iste’doddan ko‘ra muhim ahamiyatga ega. Ijodkorlik kasbiy muvaffaqiyatga erishishning kalitidir, lekin shaxsiy hayotda, salomatlik va baxt haqida gap ketganda ham bu qobiliyat muhim rol o‘ynaydi. Odatda biz ijodkorlikni badiiy va musiqiy ifoda bilan bog‘laymiz, ammo bundan tashqari, u fan, matematika va ijtimoiy sohalarda ham juda ahamiyatlidir.

Bolaning ijodkorligini rivojlantirishning bir necha yo‘li mavjud. Quyidagi ro‘yxatda siz ulardan ba’zilari bilan tanishasiz:

**Ochiq savollar orqali:** “Agar biror-bir joyga borishingiz mumkin bo‘lsa, qayerga borasiz? Agar odamlar okeanda yashashlari mumkin bo‘lsa-chi? Agar .. bo‘lsa nima bo‘ladi …?” Bolalarga nazariyalar va farazli g‘oyalarni taklif qilishlariga imkon berish, ularning ijodini rivojlantirishning samarali bir usulidir.

**Bolalarni oddiy tanlov qilishga undang:** tushlikda nima iste’mol qilmoqchisiz? Ta’til kunlari nima qilishni xohlar edingiz? Ularga mustaqil fikr yuritishlariga ijozat bering, bu ijodkorlikni mashq qilishning ajoyib usuli. Buning yana bir usuli — farzandlaringizni kundalik hayotida qaror qabul qilishida ishtirok etish, masalan: “Biz nimani mazali va sodda qilib pishirishimiz mumkin?”, “Qanday qilib uyni tezroq tozalashimiz mumkin?”

**Mutolaa:** o‘qish nafaqat xotirani yaxshilaydi, balki so‘z boyligini kengaytiradi va diqqatni oshiradi, shu bilan birgalikda, ijodkorlikni ham shakllantiradi. Bolalarga foydali bo‘lgan eng yaxshi odatlardan biri har kuni yotishdan oldin kitob o‘qishdir. Ammo an’anaviy o‘qish bunga doim ham yordam bermasligi mumkin. Biror bobni o‘qib tugatish va chiroqni o‘chirish o‘rniga, bolangizdan keyin nima bo‘lishini o‘ylab ko‘rishini so‘rang va kitobdagi sevimli qahramonlar haqida so‘zlashing. Siz shunda nafaqat farzandingiz bilan samarali vaqt o‘tkazasiz, balki ularga fikrlash doirasini kengaytirishga, yaratuvchanligini oshirishga yordam berasiz.

**Rag‘batlantiruvchi muhit yarating:** oddiy va rangli qalamlar, hunarmandchilik buyumlari, kitoblar va boshqalar. Rag‘batlantiruvchi muhit bolalarga o‘zlarining tasavvurlarini ishga solib, o‘yinlar va o‘yin sxemalarini o‘ylab topishga yordam beradi

**Farzandingiz bilan o'ynang:** rol o'ynash, improvizatsiya, film sahnalari … hamma narsa! O'zini chiroyli ko'rsatish, bolangizga hayotni boshqa nuqtai nazardan tasavvur qilish va kerak bo'lganda ijodiy yechimlarni taklif qilish imkonini beradi. Ssenariyni yaratish uchun uy atrofidagi narsalardan foydalaning, mavjud bo'lgan barcha imkoniyatlarni ishga soling va bir muncha vaqt sahna aktyorlari bo'ling!

**Natijalarga emas, balki jarayonga e'tiboringizni qarating:** tasavvur qiling, farzandingiz robot yaratyapti. Bolalardan natijani so'rash o'rniga, jarayon haqida so'rang: sizga eng yoqadigan jarayon nima edi? Eng qiyin jihati qaysi edi? Bu bilan bolalar nafaqat analitik qobiliyatlarni rivojlantiradilar, balki ularni bir xil faoliyat uchun turli xil yechimlar topishga va fikr almashishga undashingiz mumkin.

**Bolalar oldiga muammolar qo'ying!** Mukofotlar har doim muammoni yechishga turtki bo'ladi, agar siz bolalar oldiga yecha olishi mumkin bo'lgan muammolarni qo'ysangiz, bola muammoni hal etishning cheksiz usullarini topadi. Ushbu qiyinchiliklar haqiqiy ekanligiga va natijaga emas, balki jarayonga asoslanganligiga ishonch hosil qiling. Bu bolaga kelajakda ham o'z muammolariga oson yechim topishga yordam beradi va ularning ijodkorlik qobiliyatini oshiradi.[15]

Sahnalashtirish faoliyati rivojlantirish vositasi sifatida. Ijodkorlik qobiliyati (ijodkorlik) - bu insonning ongida va xatti-harakatlarida nazarda tutilgan , yangi ma'lumotlar-maxsulotini yaratib, boshqalarga ulashishiga aytiladi. Ushbu tushunchaga ko'ra, nafaqat rasm, mashina, nazariya yaratilishi, balki insonning shaxsiy rivojlanishining barcha faktlari xam yaratuvchi sifatida qaralishi mumkin. Ba'zi tadqiqotchilar, "ijodkorlik" atamasini qisqartirib, bilimga oid faoliyatni,ya'ni muammoni yoki voqeani yangi yoki noan'anaviy tarzda ko'ra olishni o'z ichiga olgan. Zamonaviy psixologiya va pedagogika fani ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, bunda san'atning barcha turlari, nafaqat bolalarning badiiy qobiliyatlarini, balki "inson faoliyatining barcha sohasida amalga oshadigan"- ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Bola san'atga qanchalik erta kelib qolsa, rivojlanish jarayoni ham effektiv bo'ladi. Ma'lumki, teatr hayotning ko'rgazmali shaklining badiiy aksi bo'lib, obrazlar orqali dunyoni qabul qilishga asoslanadi. Teatrda ma'no va mazmunnni ifodalashning o'ziga xos vosita, aktyorlar o'yinida paydo bo'ladigan sahna asaridir. Biroq bolalarni asosiy estetik ta'limi sohasida musiqiy-teatr faoliyati eng kam rivojlangan yo'nalish bo'lib qolmoqda. Tabiatga ko'ra, teatr san'ati bolalarning rolli o'yinlariga yaqin,yani bolalar jamoasi faoliyatiga. Bolalar o'yinlari va teatrning eng muhim komponenti rol bo'lib , atrof-muhitni o'rganish va anglashning badiiy aksi. Ushbu jarayonlarni tashkil qilishning shakllaridan biri - o'yin - ya'ni rol ijrosi va aktyorlik.

Sahnalashtirish mashg'ulotlarining musiqiy komponenti teatrning taraqqiyoti va ta'limiy salohiyatini kengaytirishdir, emotsional effektni kuchaytirishda bola dunyoni hiss qilishi va kayfiyatiga ta'sir etishi, shuningdek musiqa tilining fikri va

---

[15] Клышев Н.Ю. Креативность: научный конструкт или жизненная необходимость// Праблемы выхавання. - 2004. - №6(41). - С.30.

hissiyoti,teatrda mimika va jestga qo‘shiladi. Bunday holatlarda bolalar sensor-perspektivanalizatorlarining(kuzatuvchi,eshitish,xarakatli) hajmi va miqdori ortadi. Bundayholda bolalarda hissiy-perseptual analizatorlarining soni va hajmi (vizual, eshitish,vosita) ortadi.

Maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilari “rol oynash”, “qo‘shiq aytish” va “raqsga” tushishlarga tabiiy moslashadilar, teatrlashtirilgan va musiqiy sahna ko‘rinishlarini qabul qilish orqali bolada katta qiziqish uyg‘otib, unda ishtirok etishlari xohish-istagini bildiradi. Teatr va musiqa ijodiyoti bolalar ehtiyojlarni qondirish bilan muammolardan ozod qiladi, u quvonchli daqiqalar va katta zavqni his qiladi. Rol ijrosidagi matn va musiqiy qo‘shiq so‘zlari hissiy tizimlar bilan bog‘langanligi tufayli,bola matnlar mazmunini tushuna boshlaydi va ijro jarayonida qo‘shilishi, sahnaga qarashi, xatto "o‘zi" ga ham qarash tajribasini egallashga, uni tuzatishga va uni baholashga o‘rganib boradi.[16]

Shunday qilib, sahnalashtirish faoliyati orqali bolalar ijodiy qobiliyatini va bola shaxsini kompleks rivojlanish bilan bog‘liq qator vazifalarni hal qilishga yordam beradi. Aynan: - tarbiyalanuvchilar aktyorlik ifoda vositasi va teatr xaqidagi dastlabki bilimlarini shakllantirishga yordam berish; -tarbiyalanuvchilar mustaqil musiqiy-teatr faoliyati talablarini rivojlantiradi; - tarbiyalanuvchilarda teatr san’atiga bo‘lgan qiziqishlari o‘yg‘onadi; - atrofdagi xodisalarga bo‘lgan shaxsiy – yahlit estetik munosabatlarini shakllantiradi; -diqqatni, xotirani, xayolotni, fikrlashni, nutqni, hissiy va ixtiyoriy sohani, intellektual, musiqiy va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Yuqorida sanab o‘tilgan vazifalardan tashqari adabiyot, musiqa, teatrga bo‘lgan qiziqishlarini sahnalashtirish faoliyati orqali uyg‘otadi, ma’lum hissiyotlarni o‘yin mahorati orqali mujassamlashtiradi, yangi obrazlarni yaratishga va fikrlashga undaydi. Teatr bolaning hissiy dunyosiga katta ta'sir ko‘rsata oladi. Bugungi kunda bolalarda diqqat va nutq, ixtiyoriy xatti-xarakatlari, xotirasining yetarlicha rivojlanmagani koplab ota-onalar, psoxologlar va tarbiyachilarni o‘ylantirmoqda. Bola tilidan bayon etish, fantaziyalash,o‘ynash orqali- bolaning qisiqligini yechish, erkin emotsional bo‘lishining eng qisqa yolidir. Bu barcha ishlarni sahnalashtirish yordamida bajarish mumkin.

Shunday qilib, bevosita sahnalashtirish faoliyatida bolaning teatrlarga borishi, bolalar spektakli va namoyishlarini tomosha qilibgina qolmasdan teatrlashtirilgan faoliyatda ishtirok etishi, teatrlashtirilgan to‘garaklarga va mashg‘ulotlarga borishini tavsiya qiladi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda bugungi kunda ko‘plab rivojlantiruvchi dasturlar yaratilmoqda.Ular bunday holatlarni o‘zlashtirish uchun aniq mazmunga ega, o‘quv materialini o‘z ichiga oladi: - Bolalar oddiy musiqiy-sahnaviy bilimlarini ifodalay olishi (improvizatsiya, fantaziya, etyud) va aktyorlik mahorati vositasi orqali yonalishni olish. - Maxsuldorlik faoliyatda ushbu bilimlarni rivojlantirsh va mustaxkamlash, aynan musiqiy- teatrlashtirilgan namoyishlarda amalga oshadi.

Teatr san’atining paydo bo‘lishi va tashkil topishi, shuningdek musiqiy teatrlar xaqida dastlabki bilimlari shakllanishi.

[16] Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). - Alexandria - Virginia, USA: ASCD, 2014. - p. 4.

Mashg‘ulotlarning mazmuni va qoidasi; individual va jamoaviy harakatlariga o‘rgatishda bolalarni atrofdagi haqiqatni his qilishi, uni tahlil va nazorat qilish; bolalarning aktyorlik ifoda vositasi asosida pantomimik va og‘zaki hissiyotlarga va verbal-emotsional improvizatsiyaga asoslangan, shuningdek, musiqiy- sahna faoliyatida vokal-xor va musiqiy-ritmik komponentlarini o‘zlashtirishi; so‘z omonligi va sahna nutqi ko‘nikmalarini egallashi,aktiv ijodiy unumdorlik faoliyatiga qamrab oladi. Bolalarning badiiy-ijodiy faoliyatini tuzishda maktabgacha ta’lim muassasalarining guruhlarida xar –xil burchaklar tashkil qilingani ishni osonlashtiradi( musiqiy, teatrlashtirilgan burchaklar va x.k.) Taniqli musiqachilar, rassomlar, san'atkorlarning ijodiy mahoratini namoyish etish orqali, tabiyiki bolalar ijodiy shiddati va qiziqishini namoyon eta boshlaydi. Maktabgacha ta’lim muassasasining tarbiyachisiga mustaqil ijodiy faoliyatni boshqarishda bevosita koplab usul va uslublar tavsiya etilyapti, shuningdek turli hildagi sahnaviy mashg‘ulotlar jarayonida bolalar bilan ishlash shakli xam berilyapti.

Teatr faoliyati bo‘yicha mashg‘ulotlar mazmuni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- spektakllarni oldin va keyin tomosha qilib suhbat qurish va bolalar teatrlariga tashrif buyurish;
- mashg‘ulotlarga o‘yin-dramatizatsiyani kiritish;
- turli ertak va inssenirovkalarni tayyorlsh va oynash; -ifodali ijro shakllanishi uchun mashqlar ( verbal va noverbal)
- bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi maqsadida mashqlar bajarish. Sahnalashtirish faoliyati mashg‘ulotlarining mazmuni nafaqat asarning adabiy matni bilan tanishish, balki mimika, xarakat, kostyum, mizanstsensa(spektakliningayrim paytlarida dekoratsiya va aktyorlarning joylanishi),imo-ishora, ya’ni “belgilar”,

-ifodali nutqda rol ijro etishdan iborat.

Teatr faoliyatidagi mashg‘ulotlar bir qator funktsiyalarni bajaradi: bilim, ta'lim va taraqqiyot. Ularning vazifasi nafaqat o‘yinlarga tayyorgarlik ko‘rish. Ushbu
vazifani olib borishning mazmuni, shakllari va usullari bir vaqtning o‘zida uchta asosiy maqsadni amalga oshirishi kerak:

- nutq va teatrlashtirilgan qobiliyatlarni rivojlantirish;
- ijodkorlik muhitini yaratish;
- bolalarni ijtimoiy va hissiy jihatdan rivojlantirish.

Teatr faoliyatini tashkil etishda tarbiyachi katta rol o‘ynaydi, usbu jarayonni mohirlik bilan boshqaradi. Tarbiyachi nafaqat ifodali so‘zlashi yoki o‘qib berishi kerak, balki qarashni, ko‘rishni, tinglashni va eshitishni xam bilishi lozim, ammo har qanday “obrazga kirishish”ga xam tayyor bo‘lishga majbur, yani aktyorlik mahoratini egallagan bo‘lishi va rejisyorlik malakalariga ega bo‘lishi shart. Aynan shu mahoratlar ijodiy potensialni oshiradi va bolalarning teatrlashtirilgan faoliyatini o‘zlashtirishga yordam beradi. Mashg‘ulotlar jarayonida tarbiyachi bolalarga hech qaysi holatda, hech qanday bosim, taqqoslash, baho berish, maxkumlikni qo‘llashi mumkin emas. Aksincha, bolalarga gapirish, ichki faoliyatni ko‘rsata olish imkoniyatini yaratib berish kerak. Pedagog o‘zining

aktyorlik va erkinlik mahorati bilan tortinchoq bolani sahnaga chiqishdan tomoshabinga aylantirib qo‘ymasligini nazorat qilishi shart. Tarbiyachi bolani “sahnaga” va ijro jarayonida xato qilishdan, qo‘rqib chiqishdan, qo‘rqishiga yo‘l qoymasligi kerak. Bolalar jamoasi “artist” va “tomoshabinlar”ga bo‘linadi, ammo doimiy sahnada ijro etuvchi, doimiy tomoshabinlarga tomosha ko‘rsatuvchi bo‘lishi mumkin emas, yani bolalar rollari bilan xam almashib turishlari kerak. Teatrfaoliyatidagi mashg‘ulotlar hayotdan olingan mavzularni mustaqil improvizatsiya qilishi, ertaklar, sahna ko‘rinishlari va tasvirlar uchun rol o‘ynashini o‘z ichiga olishi mumkin. Sahnalashtirish faoliyati ikki yonalishda tashkil etiladi:

1. Bolalar ijodiy mashqlarni bajarish jarayonida aktyorlik asoslarini egallaydilar;

2. Bolalar xar xil turdagi teatr san'atiga xos xarakterda bo‘lgan texnik usullarni o‘zlashtiradilar.

Maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarning ijodiy rivojlanishi teatr san'ati bilan tanishishning tizimli va shaxsiy ahamiyatiga ega bo‘lgan jarayonda amalga oshiriladi.Bolaning shaxsiy tajribasi asosida mavzu materialining izchil murakkabligini talab qiladi, bu esa bolaning ko‘p qirrali teatr dunyosiga kirishini ta'minlaydi.

**Sahnalashtirish faoliytida mashg‘ulotlar kompleksining amalga oshish jarayoni quyidagi vazifalarda o‘z yechimini topadi:**

- Tarbiyalanuvchining mustaqil ijodkorligi va ijodiy qobiliyatini rivojlanishi;
- Turli ko‘rinishdagi ijodiy faoliyatga qiziqishini tarbiyalashi;
- Improvizatsiya malakalariga ega bo‘lishi;
- Nutq faoliyatining shakli va funktsiyasi, barcha komponentlarning rivojlanishi;
- Bilish jarayonlarini takomillashtirishi.

Barcha bolalarning biror sahna asarini, ko‘ngil ochar bayramlarga tayyorlanishi uchun turli uslublar tavsiya etiladi: bolalarni xoxshiga ko‘ra rollarni tanlash, eng qo‘rqoq va uyatchang bolalarni asosiy rollarga tayinlash, rollarga kartochkalar bo‘yicha taqsimlash (bolalar sxematik tarzda personaj rasmi tushirilgan kartani tarbiyachining qo‘lidan oladilar), rollarni juftlik bilan ijro etish.

Mashg‘ulotlar mobaynida tarbiyachi bolalarning fikrini va javoblarini eshta olishi kerak, agarda bola javob bera olmasa undan izohni so‘rashni keragi yoq, undan ko‘ra to‘g‘ri personaj xarakatiga o‘tish lozim; asar qaxramoni bilan to‘qnshganda bola kirishib olishiga va u bilan suhbatlashishi uchun vaqt berish darkor, yakuniy ishda esa xar xil yollar bilan bolaning quvonchini oshirish kerak.

**Ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning effekti quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi:**

-  muammoni qo‘yish yoki muammoli vaziyatni yaratish;
-  kreativ maydonni yaratish;
-  bir o‘yindan ikkinchi o‘yinga o‘tishi, bunda oddiydan ko‘ra ijodiy murakkabroqga o‘tish;
-  mashqlar, etyudlar, shunday qilib, teatrlashtirilgan faoliyatda tashabbus, moslashuvchanlik va fikrlashning mustaqilligi, bolalar sahna ijodiyoti

rag‘batlantiriladi.

**Bolalar ijodkorligini rivojlantirish quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:**

bolalarga berilgan ijodiy vazifani bajarish; ijro jarayonida muammolarni hal qilish;

bolalar uchun ijodiy maydonni yaratish; o‘yin jarayonida mashqlarni puxta o‘rgatish ;

eytudlarni bajarish.[17]

Shunday qilib, teatrlashtirilgan faoliyatda tashabbus, moslashuvchanlik va fikrlashning mustaqilligi - bolalar ijodiyotining faoliyati bo‘lib, ushbu faoliyat tarbiyachi tomonidan rag‘batlantiriladi.

**Sahnalashtirish faoliyatida bolalarda aktyorlik qobiliyatini rivojlantirish**.

Bolalarning ijodiy jamoasi bu bolalarning imkoniyatlarini teng namoyish eta

olganidadir. O‘tkaziladigan mashgulotlarda – u amaliy-mi, individual-mi, guruhli-mi,konsert yoki tadbir-mi, barchasi bola ko‘nglining emotsional hissiyotini

o‘yg‘otadi,bu esa pedagog va jamoa ishtirokchilari bilan o‘zaro munosabatlarining kerakli komunikativ sifatlarni shakillantiradi.

Mashg‘ulotda kreativ maydon metodi, jamoada ijodiy atmosferani paydo

bo‘lishiga imkon tug‘diradi, ishtirokchining obraz ustida ishlashi-ijodiy yonalishga sharoit yaratadi, ifodaliligning individual vositasini izlaydi, ijodiy vazifalar rangbarangligi pedagogik amaliyotda foydalanishga mo‘ljanllanadi. Sahnalashtirish faoliyatida o‘yin komponentini kirgazish va mashg‘ulotlarda pedagog tomonidan muvoffaqiyatli vaziyatni tashkil etishi, tarbiyalanuvchining sahna xarakatlariga faol jalb qilishga, bolaning badiiy imkoniyatini ochib berishiga va erkin bo‘lishiga yordam beradi. Shu bilan birga bolada ijodiy potensiali rivojlanadi va aktuallashadi, mashg‘ulorda davomida qiziqishlari o‘yg‘onadi. Bu sahnalashtirish faoliyatida judayam zarur, agarda o‘yin oddiydan ijodiyga o‘tganda pedagog tomonidan qo‘yilgan kesishuv biror maqsadda qo‘shimcha impuls olgan bo‘ladi. Bolalarning bilimga qiziqishi va emotsional rivojlanishi, uning psixik funktsiyalari, ijodiy qobiliyati va shaxsiy sifatlari, bolaning ijobiy motivatsiyasi teatr san’atini o‘zlashtirish orqali xarakatlar shakllanishida belgilangan vazifalari o‘z echimini topadi. Tarbiyachi mashg‘ulotlar jarayonida atrofdagi voqeylikni individual va jamoa bo‘lib qabul qilishni, uning nazorati va taxlilini qiladi, bolalarda pantomimic va emotsional,verbal improvizatsiyalarga asoslangan aktyorlik vositasining ifodaliligini aniqlaydi, shuningdek bolalarda musiqiy-Sahnaviy faoliyatini o‘zlashtirishga; so‘zlarni xaraktlar bilan bajarish va Sahnaviy nutq ko‘nikmalarini egallashga yordam beradi; bolalarni ijodiy faoliyatga qo‘shilishiga qaratilgan vazifalarni bajarishga ko‘maklashadi.[18]

Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni aktyorlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar tuziladi, ushbu dastur asosida maktabgacha

---

[17] Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). - Alexandria - Virginia, USA: ASCD, 2014. - p. 4.

[18] Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). - Alexandria - Virginia, USA: ASCD, 2014. - p. 4.

ta'lim tarbiyalanuvchilarining aktyorlik mahorati rivojlanadi . Dasturning maqsadi - teatrlashtirilgan faoliyat yordamida bolalarning artistik qobiliyatini rivojlantirish. Metod va vazifalari - bolalar teatrining sahna asarlari bilan birin –ketin tanishib borishi; ijodiy obrazlarni o'zlashtirishda guruhlardagi bolalar yoshini inobatga olishi; bolalarning artistlik ko'nikmalarini takomillashtirish; bolaning erkinligini ta'minlash; nutq, intonatsiya ustida ishlash; jamoa xarakatlarini o'z-aro bajarish; sodir etilayotgan voqealarni hiss etish, achinish hissini, birga qayg'urish hissiyotlarini bola qobiliyatida o'yg'otish. Printsiplari improvizatsiya qilish, insonparvarlikni o'rganish, bilimlarni tizimlashtirish, individual qobiliyatlarni xisobga olish. Turli –tuman ifoda vositalari tavsiya qilinadi:[19]

– **kichik guruhda** oddiy obrazdagi bilimlarni shakllantirish(masalan, ertakdagi xayvon qaxramonlarining xarakatlarini o'xshatish) ;

–**o'rta guruhda** obrazning ifoda vosita elementlarini o'rgatish (intonatsiy, mimika, pantomimika);

– **katta guruhda** obrazning ijro etish bilimlarini o'zlashtirish;

– **tayyorlov guruhda** obrazni namoyish etishda mustaqil ijodini, musiqa sadolari ostida pantomimik xarakatlarini va nutqini ifodaliligini rivojlantirish. Sahnalashtirish faoliyati mashg'ulotlarining mazmuni o'z ichiga:

– qo'g'irchoq teatri spektakllarini ko'rish va ular xaqida suhbat o'tkazish; – dramatizatsiya

– o'yinlar;

– bolalarni ijtimoyi-emotsional rivojlanishi uchun mashqlar;

– korrektsion-rivojlantiruvchi o'yinlar;

– diktsiya ustida ishlash mashqlari(artikulyatsiya gimnastikasi);

– nutq intonatsiyasini ifodali rivojlantirish uchun topshiriqlar; – boshqa narsaga aylanish

–o'yini, obrazli mashqlar

– plastikani rivojlantiruvchi mashqlar;

– ritmik soniyalar (logoritmika);

– bolanin qo'l motorikasini rivojlantiruvchi barmoqlar o'yin treninglari;

– mimika ifodaliligi, pantomimikaning san'at elementlarini rivojlantiruvchi mashqlar;

– teatr etyudlari;

– dramatizatsiya vaqtida etika bo'yicha maxsus mashqlar;

– dramatizatsiya va ertaklarni ijro etish va tayyorlash;

–ertak teksti bilan,uning dramatizatsiya-jestlari, mimika, xarakatlar, kostyum,dekoratsiya.

**Savol va topshiriqlar;**

1. Sahnalashtirish faoliyatining asosiy maqsadi va talablari mavzusida interfaol usullar asosida yoritish,intervyu usulidan foydalaning;

2. Bolalar o'yini, o'yin turlari bo'yicha baxs-munozara o'tkazing va tushunchalar taxlilini to'ldiring.

---

[19] Қодирова Ф. Мактабгача педагогика дарслик 2019. Тафаккур нашриёти.

3. Psixolog olimlarning bolalar ijodkorligini rivojlantirish borasidagi qarashlarini o‘rganing va taxlil qiling.Mustaqil o‘rganib o‘rtoqlaringizga ham tavsiya qiling.

4. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida Sahnalshtirish faoliyati hamda bolalarning aktyorlik saloxiyati qay darajada? Taxlil qiling.

5. Bolalar adabiyotida bugungi kunda Sahnalashtirish uchun tarbiyaviy axamiyatda mos asarlar qay darajada? Taxlil qiling.

## 4-Mavzu. Maktabgacha ta’lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatini tashkil qilish.

**Reja;**

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatini tashkil qilish shakllari.
2. Maktabgacha ta’lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatini tashkil qilishda tarbiyachining o‘rni.
3. Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodiy faollikni shakllantirish.
4. Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishi mazmuni.

**Tayanch so‘zlar;** *Ilk qadam davlat o‘quv dasturi, o‘yin, ijodkorlik, syujetli-rolli o‘yinlar,personajlar,tsenariy, rol.*

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda bugungi kunda ko‘plab rivojlantiruvchi dasturlar yaratilmoqda.Ular bunday holatlarni o‘zlashtirish uchun aniq mazmunga ega o‘quv materialini o‘z ichiga oladi:

- Bolalar oddiy musiqiy-sahnaviy bilimlarini ifodalay olishi (improvizatsiya, fantaziya, etyud) va aktyorlik mahorati vositasi orqali yonalishni olish.
- Maxsuldorlik faoliyatda ushbu bilimlarni rivojlantirsh va mustaxkamlash, aynan musiqiy- teatrlashtirilgan namoyishlarda amalga oshadi
- Teatr san’atining paydo bo‘lishi va tashkil topishi, shuningdek musiqiy teatrlar xaqida dastlabki bilimlari shakllanishi.

MTT da mashg‘ulotlarning mazmuni va qoidasi;

- individual va jamoaviy harakatlariga o‘rgatishda bolalarni atrofdagi haqiqatni his qilishi, uni tahlil va nazorat qilish; bolalarning aktyorlik ifoda vositasi asosida pantomimik va og‘zaki hissiyotlarga va verbal-emotsional improvizatsiyaga asoslangan, shuningdek, musiqiy- sahna faoliyatida vokal-xor va musiqiy-ritmik komponentlarini o‘zlashtirishi;
- so‘z boyligi va sahna nutqi ko‘nikmalarini egallashi,aktiv ijodiy unumdorlik faoliyatiga qamrab oladi. Bolalarning badiiy-ijodiy faoliyatini tuzishda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining guruhlarida xar –xil burchaklar tashkil qilingani ishni osonlashtiradi( musiqiy, teatrlashtirilgan burchaklar va x.k.) Taniqli musiqachilar, rassomlar, san'atkorlarning ijodiy mahoratini namoyish etish orqali, tabiyiki bolalar ijodiy shiddati va qiziqishini namoyon eta boshlaydi. Maktabgacha

ta'lim tashkilotining tarbiyachisiga mustaqil ijodiy faoliyatni boshqarishda bevosita koplab usul va uslublar tavsiya etilyapti, shuningdek turli hildagi sahnaviy mashg'ulotlar jarayonida bolalar bilan ishlash shakli xam berilyapti.[20]

Teatr faoliyati bo'yicha mashg'ulotlar mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- spektakllarni oldin va keyin tomosha qilib suhbat qurish va bolalar teatrlariga tashrif buyurish;
- mashg'ulotlarga o'yin-dramatizatsiyani kiritish;
- turli ertak va inssenirovkalarni tayyorlsh va oynash;

-ifodali ijro shakllanishi uchun mashqlar ( verbal va noverbal); - bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi maqsadida mashqlar bajarish.

Sahnalashtirish faoliyati mashg'ulotlarining mazmuni nafaqat asarning adabiy matni bilan tanishish, balki mimika, xarakat, kostyum,dekoratsiya muxim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni aktyorlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar tuziladi, ushbu dastur asosida maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining aktyorlik mahorati rivojlanadi . Dasturning maqsadi - teatrlashtirilgan faoliyat yordamida bolalarning artistik qobiliyatini rivojlantirish.

**Metod va vazifalari**

- bolalar teatrining sahna asarlari bilan birin –ketin tanishib borishi;
- ijodiy obrazlarni o'zlashtirishda guruhlardagi bolalar yoshini inobatga olishi;

-bolalarning artistlik ko'nikmalarini takomillashtirish;

-bolaning erkinligini ta'minlash;

-nutq, intonatsiya ustida ishlash;

- jamoa xarakatlarini o'z-aro bajarish;
- sodir etilayotgan voqealarni hiss etish, achinish hissini, birga qayg'urish hissiyotlarini bola qobiliyatida o'yg'otish.

**Printsiplari** - improvizatsiya qilish, insonparvarlikni o'rganish, bilimlarni tizimlashtirish, individual qobiliyatlarni xisobga olish.

Turli –tuman ifoda vositalari tavsiya qilinadi:

– kichik guruhda oddiy obrazdagi bilimlarni shakllantirish(masalan, ertakdagi xayvon qaxramonlarining xarakatlarini o'xshatish) ;

–o'rta guruhda obrazning ifoda vosita elementlarini o'rgatish (intonatsiy, mimika, pantomimika);

– katta guruhda obrazning ijro etish bilimlarini o'zlashtirish;

– tayyorlov guruhda obrazni namoyish etishda mustaqil ijodini, musiqa sadolari ostida pantomimik xarakatlarini va nutqini ifodaliligini rivojlantirish.[21]

**"Ilk qadam "davlat o'quv dasturida** MTT kun tartibida o'yin ta'lim faoliyati kamida 38%, bolaning ochiq havoda bo'lishi 38%, mustaqil o'yin faoliyati kamida 24%, sog'lom turmush tarzini shakllantirish kamida 20% ni tashkil etishi belgilangan. Demak bolalaning asosiy 62% kun davomidagi faoliyati o'yin orqali tashkil qilinadi.

[20] Қодирова Ф. Мактабгача педагогика дарслик 2019. Тафаккур нашриёти.

[21] Қодирова Ф. Мактабгача педагогика дарслик 2019. Тафаккур нашриёти.

Bolalarning yosh hususiyatlariga qarab ijodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari ham o‘sib, murakkablashib boradi. Dastlab bola dunyoni badiiy his etishi 3 yoshu3 oy, 3 yoshu 6 oyligidan boshlanib, rasmlar, xalq amaliy san’ati asarlari, o‘yinchoqlar, ob’ektlarni idrok qilishda hissiy (emotsional) kuyinchaklik ko‘rsatadi, tabiat ko‘rinishlari, o‘yinchoqlar, bolalarning kiyimlaridagi ranglar go‘zalligini sezadi. Ranglarni farqlash, ifodalash, tanlash orqali aqliy zakovati o‘sadi, turfalik, rang-baranglikni taqqoslash, ijodiy- badiiy didi shakllana boradi. rangshunoslik katta ilm hisoblanib, har bir rang ma’lum ramz hisoblangan . [22]

4 yoshu 3 oylikdan- o‘yinlarda o‘ziga rol olishi mumkin;

3, 3-3, 6 oylikda -ertak, multfilm, hikoya qahramonlariga qaygu’dosh bo‘ladi;

3, 9-4 yosh- syujetli- rolli oyinlarda ishtirok etadi.

4 yosh- o‘yinda muloqotga kirishadi;

4 yosh tanish asarlardan parcha eshitib nomini aytadi;

4 yosh- kattalar oytgan ertak, hikoyani davom ettiradi;

4 yoshu 3 oylikda- syujetga oid rasm, personajlar va predmetlar tasvirini chizadi;

4 yoshu 6 oylik- kattalar yordamida barmoqli teatr inssenirovkasini tayyorlashda ishtirok etadi;

3 yoshli bola kitob haqida tushunchaga ega, o‘qib ber deb iltimos qiladi;

5 yoshu 6 oylikda- badiiy asar qahramonlari rolini o‘ynashi mumkin;

5 yoshu 9 oylikda- kichik senariy o‘ylab topishi va kichik Sahnalar tashkil qiladi;

6-7 yoshda 2- tilga qiziqish, shu tilda kichik rol ijro eta oladi;

Bu jarayonlar tarbiyachidan yuksak salohiyat, bilim, mehnat talab qiladigan pedagogik faoliyat bo‘lib, oddiydan murakkabga qarab taraqqiy etmoqdaki, o‘yin haqiqatdan foydali mehnat kasb etmoqda.

- Turli yosh davrlarida bolalar bilan ishlash vazifalarini ko‘rib chiqamiz.
- **2-kichik guruh**

- Bolalarning bu yoshida teatrlashgan rejissorlik o‘yinlarining boshlang‘ich etaplarini ko‘rish mumkin. Jumladan, barmoqlar teatri, qo‘g‘irchoqlarning stol teatri va h.k. anglash jarayonini o‘z ichiga xalq va mualliflik ertaklari, she’rlar, hikoyalar matnlari asosidagi kichik tomoshalarni qamrab oladi («Bu barmoqcha – buvajon...», «Tili-bom», K.Ushinskiy «Xo‘rozning oilasi», A.Barto «O‘yinchoqlar», V.Suteev «Jo‘ja va o‘rdakcha»). Bolalar barmoqlar teatri shakllarini kattalar bilan berilgan mavzu bo‘yicha improvizatsiya qilishda foydalanadi
- **Asosiy vazifalari:**
- Qahramonlarni to‘g‘ri baholash, e’tiborli bo‘lish, ijobiy idealni tarbiyalash.
- Teatrlashtirilgan o‘yin faoliyatiga kuchli qiziqishni rivojlantirib borish.
- Bolalarning nutq, qo‘shiq, mimika, jest, harakat va shu kabi boshqa holatlarni erkin ko‘rsata olishlariga erishish.
- O‘yin, qo‘shiq va raqs san’ati orqali ijodiy obraz va ijro etish ko‘nikmalariga erishish.

[22] .“Илк қадам” давлат ўқув давлат дастури. Т. 2018й.

- Bolalarning narsa va hodisa, tabiat va haqiqat, kelajak va o‘tgan zamon, an’nalar va boshqa narsalar haqidagi tushunchalarini kengaytirish
- Bolalarda stol teatri, dramatizatsiya, yerda ijro etiladigan teatr kabi teatrning turli yo‘nalishlari haqida tushunchalarini mustahkamlashga yordam berish.
- Bolalar so‘z boyligini boyitish, to‘g‘ri talaffuz etish qoidalariga e’tibor berishlariga erishish.
- Bolalarda o‘zlari yaxshi biladigan hikoya, ertaklarni improvizatsiya qilish, mustaqil yoki tarbiyachi ko‘magida turli hikoyalar tuzishga yo‘naltirish.
- Bolalarda ong, fikrlash, diqqatni shakllantirish.
- Bolalarda o‘zini va o‘rtoqlarini harakatlarini to‘g‘ri baholashga o‘rgatish.
- Bolalarda turli harakatlarni bajarish, raqs tushish, yorqin obraz yaratish istagini kuchaytirish.
- Rol o‘ynash, ya’ni aktyorlik mahoratini ko‘rsatish ko‘nikmalarini tarbiyalash.
- Qo‘shiq, raqs, o‘yin improvizatsiyalaridan mustaqil faoliyatda to‘g‘ri foydalanishga erishish.
- **O‘rta guruh**
- Bu yoshda (4-5 oshli) bolalarda teatrlashtirilgan o‘yinga nisbatan qiziqishlari kuchayadi. Teatrlashtirilgan o‘yin ko‘nikmalari bolalarda drammatizatsiyalashgan o‘yin haqidagi bilimlarni kengayishi hisobiga amalga oshadi. Bola 4-5 yoshida yumshoq o‘yinchoqlar, yog‘ochli teatr, konusli teatr, xalq o‘yinchoqlari teatri kabi stol teatrining turli ko‘rinishlarini o‘rganadi. Bolalar «Tulki va turna», «Bo‘g‘irsoq», «G‘ozlar va turnalar» va shu kabi ertaklar asosida qisqa tomoshalar taqdim etishadilar.
- Barmoq teatri ko‘proq mustaqil faoliyatda foydalanilib, ular she’r va kichik ertaklarni barmoqlari yordamida improvizatsiya qilib ko‘rsatib berishga harakat qilinadi

. **Asosiy vazifalari:**

- Bolalarda teatrlashtirilgan o‘yin faoliyatiga kuchli qiziqish uyg‘otish.
- Etyud, dramatizatsiya, qo‘shiqli va raqsli improvizatsiya jarayonida mukammal obraz yaratishga o‘rgatish.
- Atrofdagi narsalar haqidagi tushunchalarini boyitib borish. Narsalarning rangi, holati, kattaligiga ko‘ra ajratish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Bolalarda teatrlashtirilgan o‘yin faoliyatida ishtirok etuvchi tomosha qahramonlari haqidagi bilimlarini kengaytirish.
- Bolalar so‘z boyligini to‘ldirish va faollashtirish. Nutqning intonatsion ifodaliligini shakllantirish.
- Teatrlashtirilgan o‘yin faoliyatida bolalarda suhbat qurish ko‘nikmalarini rivojlantirish.
- Qo‘g‘irchoqlardan to‘g‘ri foydalanish qoidalarini mustahkamlash.
- Bolalarda qo‘g‘irchoqlar bilan improvizatsiyalashgan o‘yinlarda ishtirok etish istaklarini shakllantirishda davom ettirish.

- Maktabgacha ta’lim tashkilotlari hodimlari, ota-onalar va bolalar oldida tomosha ko‘rsata olish qobiliyatini muntazam ravishda shakllantirish va qo‘llab quvvatlab borish.[23]

## Katta guruh

- Katta guruhlarda ro‘y beradigan chuqurlashtirilgan teatrlashtirilgan o‘yin ko‘nikmalari drammatizatsiyalashtirilgan o‘yin va teatrlashtirilgan rejissorlik o‘yinlarining turli shakllari hisobiga o‘rganiladi. Katta guruh tarbiyalanuvchisi bir necha adabiy asardan tashkil topgan improvizatsiya o‘yinlari, mustaqil ko‘rinishlar qo‘yish imkoniyati yaratiladi. Masalan, «A.S.Pushkin ertaklariga sayohat», «Sh.Perro ertaklari qahramonlarining yangi sarguzashtlari» va boshqalar. Bunday yondashuv bolalarda rejissorlik tajribalarini oshiradi.
- Tomosha uchun mavzu va so‘zlar murakkablashtiriladi, teatrlashtirilgan o‘yin jarayonida hayvonlar haqidagi turli ertaklaridan foydalaniladi («Echki bolalari», «Bo‘g‘irsoq» va shu kabilar).

**<u>Asosiy vazifalari:</u>**

- Bolalarda teatrlashtirilgan o‘yin faoliyatiga kuchli qiziqish uyg‘otish davom ettiriladi.
- Bolalarda badiiy ijro etish ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘yin, qo‘shiq, raqs improvizatsiyalaridan foydalangan holda mukammallashtirish.
- Atrofdagi munosabatlarga nisbatan bolalarning tushunchalarini kengaytirish. Guruhda, zalda, maktabgacha ta’lim tashkiloti binosiga moslashish ko‘nikmalarini mukammallashtirish.
- Bolalarda qo‘g‘irchoq teatrlarining turlarini ajrata olish va aytib bera olish ko‘nikmalarini mustahkamlash.
- Bolalarning lug‘at boyligini shakllantirishda davom etish. Nutqning intonatsion ifodaliligini mukammallashtirish. Monologik va diologik nutq shakllarini rivojlantirish.
- Qo‘g‘irchoqlar bilan to‘g‘ri manipulyatsiya qilish, ya’ni to‘g‘ri yo‘naltirish qoidalarini mustahkamlash.
- Bolalarni yakka tartibda yoki guruh bilan birga turli hikoya va ertaklar to‘qish va shu asosida improvizatsiyalashgan qo‘g‘ irchoq tomoshalarini tashkil etishga ilhomlantirish.
- Bolalarda ong, fikr, tasavvur, diqqatni rivojlantirish.

[23] .“Илк қадам” давлат ўқув давлат дастури. Т. 2018й.

- Tomosha qo‘g‘irchoqlari bilan o‘ynash istagini tarbiyalash. Mustaqil faoliyatda qo‘shiq, raqs, o‘yin improvizatsiyalaridan foydalanish qobiliyatlarini rivojlantirish.
- Bolalarning maktabgacha ta’lim tashkiloti bayramlarida, ko‘ngil ochar tadbirlarida mashg‘ulotlar va mustaqil faoliyat jarayonida olgan o‘z bilim va ko‘nikmalaridan foydalangan holda faol ishtirok etish ko‘nikmalarini qo‘llab quvvatlash.

**Tayyorlov guruhi**

- Tayyorlov (6-7 yosh) guruhida o‘yin materiali yanada murakkablashadi. Teatrlashgan tomoshalarga teatrlashgan tomosha qo‘yish, bolalar operasi, musiqali va ritmik piyesalar kiradi. Rus xalq ertaklari, qo‘shiqlar, adabiy asarlarni instsenirovka qilish; instsenirovka-o‘yinlar: «Oshpaz mushukchalar», muz. Ye. Tilicheevoy.

**Asosiy vazifalari:**

- Teatr san’ati asosida bolalarda har taraflama ijodiy qobiliyatlarni rivojlanishini mukammallashtirish.
- Badiiy obraz yaratishda o‘yin, qo‘shiq raqs improvizatsiyalari orqali bolalarda mustaqil ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish.
- Atrofdagi munosabatlarga nisbatan bolalarning tushunchalarini kengaytirishda davom etiladi. Guruhda, zalda, MTT binosiga moslashish ko‘nikmalarini mukammallashtirish. Bolalarda qo‘g‘irchoq teatrlari haqida tushuncha, ularni farqlay olish ko‘nikmalarini kengaytirish.
- Bolalar so‘z boyligini yaxshilash va ko‘paytirishda davom etish, muntazam lug‘at boyligini kengaytirib borish. Nutqning suhbat va monologik shakllarini mukammallashtirish. Muloqotda nutq madaniyatini tarbiyalash. Qo‘g‘irchoqlar ishtirokida kichik hikoyalar, ertaklar tuzish ko‘nikmalarini yaxshilash.
- Qo‘g‘irchoqlarni to‘g‘ri manipulyatsiya qilish ko‘nikmalari mustahkamlanadi.
- Bolalarga ma’lum mashxur ertak qahramonlarining suhbatlarini improvizatsiya qilish ko‘nikmalarini yanada mustahkamlash.
- Ong, diqqat, fikrlash, tasavvur qilish, his etish ko‘nikmalari mukammallashadi.
- Bolalarda o‘z ruhiyatlarini boshqalarga ulashish, musiqa oxangini turli tana xarakatlari orqali ko‘rsatib berish, badiiy o‘z-o‘ziga ishonish ko‘nikmalarini rivojlantirish.
- Qo‘g‘irchoq teatri tomoshalari jarayonida bolalarning yakka va jamoa bilan musiqa asboblari yordamida improvizatsiya qilish tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash.

- Bolalarning MTT bayramlarida, koʻngil ochar tadbirlarida mashgʻulotlar va mustaqil faoliyat jarayonida olgan oʻz bilim va koʻnikmalaridan foydalangan holda faol ishtirok etish qobiliyatlarini qoʻllab quvvatlash.
- Bolalarning MTT davrlari teatrlashtirilgan oʻyin faoliyatining integratsiyalashgan oʻyinlar, san'atning turlari hisobiga boyitiladi.
- Yuqorida aytib oʻtilgan holatda tashkil etilgan ta'lim albatta oʻz samarasini koʻrsatadi. Teatrlashtirilgan oʻyin bolalarda oʻzini boshqalar oldida ifoda eta olish, oʻzining «Men»ini boshqalarga taqdim eta olish, oʻrtoqlari oldida oʻz harakatlaridan faxrlanish koʻnikmalarini shakllantiradi. Qodirova F. Maktabgacha pedagogika darslik 2019. Tafakkur nashriyoti.[24]



Oʻyinning kelib chiqish tarixini birinchi bor G. V. Plexanov "Adressiz xatlar" asarida "Oʻyin mehnat farzandi- u mehnatdan oldin yoki mehnat bilan paydo boʻlgan xodisadir" deb yozadi. U oʻyinni " turli avlodlarni bogʻlaydigan, madaniy qadriyatlarni uzatuvchi zanjir boʻlib xizmat qiladigan aloqa vositasi " deydi. Chunki bolalar oʻyinda kattalar faoliyatiga taqlid qilar ekan, yani oʻgʻil otaga, qiz onaga taqlidan harakat qiladi. Shunda bolalar amalda ota-onalar mehnat faoliyatining jamiyat hayotidagi shu faoliyat bilan bogʻliq boʻlgan uncha murakkab boʻlmagan malakalarini egallab oladilar, keyinchalik haqiqiy mehnatning zaminiga tayyor boʻlib boradilar.

Oʻyin maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati boʻlib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. Oʻyin bolaning kelajakdagi oʻquv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatining qay darajada shakllanib borishini belgilaydi. Oʻyin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san'atshunos olimlar diqqatini oʻziga tortib kelgan. Oʻyin ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq yuzaga kelgan boʻlib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. Ibtidoiy jamoa vakillari oʻz oʻyinlarida ovchilik, urush, dehqonchilik ishlarini aks ettirganlar. Ba'zi hollarda oʻyin mehnat qilish istagi orqali yuzaga keladi. Bola oʻz oʻyinida oldin kattalar mehnatiga taqlid qiladi, keyinchalik ularning mehnatida qatnashadi. Oʻyin yosh avlodni mehnatga tayyorlaydi. Bolalar oʻyinini bunday tushunish birinchi marta K. D. Ushinskiy tomonidan ta'riflab berilgan edi. U oʻz asarlarida bolalar oʻyinining mazmuni ularning hayotdan olgan taassurotlari bilan belgilanib, ular shaxsi shakllanishiga ta'sir etadi, deb yozadi. Bu fikrni P. F. Leegaft ham tasdiqlab, bolalar oʻz oʻyinlarida tevarak-atrofdan olgan taassurotlarini aks ettiradilar, deydi. Bunday faoliyat bolaning ijodiy rivojlanishida katta ahamiyatga egadir. Oʻyin kattalar

[24] Қодирова Ф. Мактабгача педагогика дарслик 2019. Тафаккур нашриёти.

hayotida muayyan o‘rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga ega ekanini olim va pedagoglar o‘zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali isbotlab berdilar. Bolalar o‘z o‘yinlarida o‘zlari xoxlagan obrazda namoyon bo‘ladilar, hayotiy voqea- xodisalar, turmush tarzi va oila munosabatlarini o‘z o‘yinlarida aks ettiradilar. Tarbiyachilar bolalar o‘yiniga rahbarlik qilishda quyidagilarga rioya qilishlari lozim:

1. O‘yin bilan mehnat o‘rtasida to‘g‘ri munosabat o‘rnatish.
2. O‘yinda bolalarning bo‘lajak mehnat ahliga xos bo‘lgan jismoniy va ruhiy sifatlarini tarbiyalash.

Bolalar o‘yinlari o‘zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ular o‘z mazmuni va tashkil etilishiga ko‘ra, qo‘llaniladigan buyumlarning turlari kelib chiqishiga ko‘ra turlichadir. Bularning barchasi bolalar o‘yinlarini turkumlashtirishni favqulodda noziklashtiradi, biroq o‘yinlarga rahbarlik qilish uchun ularni, albatta, guruhlash zarur. Pedagogikada o‘yinlarni ikki katta guruhga bo‘lish juda keng tarqalgan.

1.Ijodiy o‘yinlarning mazmunini bolalarning o‘zlari o‘ylab topadilar va ularda o‘z taassurotlarini, borliq haqidagi tushunchalarini hamda unga munosabatlarini aks ettiradilar.

2. Qoidali o‘yinlar esa kattalar tomonidan yaratiladi va bola hayotiga olib kiritiladi. Mazmuni qoidalarning murakkabligiga qarab, ular turli yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan bo‘ladi. Tayyor qoidali o‘yinlarning katta guruhini xalq o‘yinlari tashkil etadi, ularning ko‘plari avloddan-avlodga o‘tib, bizga yetib kelgan O‘yinlarning har ikkala guruhi ham o‘zining xilma-xil ko‘rinishlariga ega. Ijodiy o‘yinlar guruhini syujetli rolli o‘yinlar tashkil etadi. O‘yinlar o‘z mazmuni va qoidalari, tarbiyaviy ta’siriga ko‘ra shartli ravishda didaktik o‘yinlar va musiqiy o‘yinlarga bo‘linadi. Didaktik o‘yinlarda avvalo, bolalarning aqliy faoliyati rivojlanadi, ularning bilimlari chuqurlashadi va kengayadi, harakatli o‘yinlarda bolalarning turli harakatlari takomillashadi, musiqali o‘yinlarda esa musiqiy qobiliyatlar rivojlanadi va hokazo. Demak, har bir o‘yinning o‘ziga xos sifatlari mavjud, biroq ular qator umumiy xususiyatlarga ham ega. O‘yin — bu bola faoliyatining turi. Shunday ekan, bir faoliyatda bo‘lgani kabi unga ham o‘qotar xislatlar: maqsadning mavjudligi, rejali harakatlar, natijaning mavjudi kabilar xosdir.. Bola o‘yindagi maqsadiga erishishi uchun o‘ziga sheriklar tanlaydi, zarur o‘yinchoqlarni topadi, o‘yin davomida muayyan harakat va qiliqlar qiladi. Boshqa faoliyat turlarida bo‘lgani singari o‘yin jarayoniga bolaning butun shaxsiyati, uning psixik bilish darajasi, hissiyoti va ta’sirchanligi, ehtiyoj va qiziqishlari jalb etiladi, o‘yinda bola faol harakat qiladi, gapiradi, o‘z bilimlarini qo‘llaydi. O‘yin o‘ziga xos xususiyatga ega. O‘yin bolaning shaxsiy tashabbusiga ko‘ra vujudga keladigan, o‘zining faol ijodiy yo‘sindagi, yuksak ta’sirchanlik ruhi bilan ajralib turadigan erkin va mustaqil faoliyatdir. O‘yin ertalab nonushtagacha (15—20 daqiqa) boshlanadi va nonushtadan keyin, mashg‘ulotlar o‘rtasida, ochiq havoda, uyqudan keyin o‘tkaziladi. Ertalab rolli o‘yinlar, qurish-yasash, harakatli o‘yinlarni tashkil qilish tavsiya etiladi.

Mashg‘ulot o‘rtasida harakatli, qoidali o‘yinlar ham o‘tkazib turiladi. Ochiq havodagi o‘yinlarga esa yugurish, otish, sirpanish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘yinlar,

qoidali o‘yinlar (oq terakmi ko‘k terak, ona bo‘ri kabilar) kiradi. Kunduzgi uyqudan keyingi o‘yinlarga qurilish o‘yinlari, ertak bo‘yicha sahnalashtiriladigan, rolli o‘yinlar, didakgik o‘yinlar va h. k. kiradi. Ijodiy o‘yinlarga syujetli — rolli o‘yinlar, sahnalashtirilgan o‘yinlar, qurish yasashga doir o‘yinlar kiradi. Qodirova F. Maktabgacha pedagogika darslik 2019. Tafakkur nashriyoti.[25]




Ijodiy o‘yinlarda bolalarning tevarak-atrofdan olgan taassurotlari aks ettiriladi. Ijodiy o‘yin bolalarning mustaqil o‘yini bo‘lib, uning mazmunini bolalar o‘zlari o‘ylab topadilar. Bu o‘yinda bolalarning erkinligi, mustaqilligi, tashkilotchiligi va ijodkorlik qobiliyatlari to‘laligicha namoyon bo‘ladi.

Syujetli — rolli o‘yin o‘z xususiyatiga ko‘ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Tevarak-atrofdagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o‘yin mazmuni uchun manba bo‘lib xizmat qiladi. O‘yinning syujeti — o‘z harakati, munosabatlari bilan bog‘langan voqea, hodisalar va ularning harakatlari xursandchilik hissini paydo qiladi, shuning uchun bolani qiziqgirib, unda yaxshi kayfiyat uyg‘otadi, bola organizmdagi faoliyatni yaxshilaydi. O‘yin bolaning aqliy rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar o‘ynashlari uchun ma’lum vositalar ham kerak.

Sahnalashtirilgan o‘yinlarda tarbiyachi rahbarlik qiladi. Ertak yoki hikoyadagi mazmun bolalarga yaqin, ularning yoshi va qiziqishiga mos, tushunarli bo‘lib bola unga kirishib keta olsagina, asardagi obraz va harakatlar to‘g‘ri aks ettiriladi. Sahnalashtirilgan o‘yinga tayyorlanish uchun ma’lum vaqt ajratiladi va har bir mashg‘ulotda aniq bir masalalar hal etib boriladi.

**Ota-onalarning o‘z farzandlariga ijodiy yondashishlari eng samarali usul hisoblanadi.**

Uyda ijodkorlik uchun qulay muhit yaratib, o‘g‘lingiz yoki qizingiz bilan muloqot qilish uchun vaqt ajratib, ota-onalar ularni har tomonlama rivojlantirish uchun eng tajribali o‘qituvchidan ko‘ra ko‘proq narsani qilishlari mumkin!

- bolalar mehnati jarayonini va natijalarini tanqid qilish istagidan voz keching;
- sizning vazifangiz shablonga ko‘ra harakat qilish orqali asarlarni yaratishga o‘rgatish emas, balki uning tasavvurini rivojlantirishdir;
- bola uchun barcha ishlarni qilmang, unga harakat qilish imkoniyatini bering;

[25] Қодирова Ф. Мактабгача педагогика дарслик 2019. Тафаккур нашриёти.

- bolani yoqtirmagan narsalar bilan shug‘ullanishga majbur qilmang, unga tanlov erkinligini bering, kayfiyatga ega bo‘lmasa, qurish yoki chizishni talab qilmang;

- zerikishga olib kelmaydigan faoliyatni topishga harakat qiling – agar u qiziq bo‘lsa, nafaqat o‘yin-kulgiga, balki maksimal foydaga ham ega bo‘ladi;

- bolada mustaqillik va qiziqishni rag‘batlantirish, unga savollar berish, ularga javob izlashga imkon beradi. [26]

Lekin eng muhimi – bolangizni tinglang! Uning temperamentiga, manfaatlariga va kayfiyatiga mos keladigan tasavvurni rivojlantirish usullarini tanlang. Agar siz uni ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan o‘yinlar bilan qiziqtira olmasangiz ham, umidsizlikka tushmang! Farzandingiz bilan tasavvur qiling va siz uni qutidan tashqarida o‘ylashni o‘rgatishning yo‘lini topasiz.

**Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar;**

**1 Turli yosh guruhlari** uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi bo‘yicha ijodiy rivojlanish kompetensiyalarini o‘rganing va taxlil qiling.

2 Bolalar ijodiy qobiliyatini namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlarini muhokama qiling;Bolalar sahnasi nima? Savolga javob bering.

3. Tarbiyachining bolalar ijodiy rivojlanishida roli qanday bo‘lishi haqida bahs-munozara yuritish.

4. Asar personajlarini rollarga bolib ijro etish orqali badiiy ijodiy qobiliyatni shakllantirishning tarbiyaviy ahamiyati haqida o‘z fikr va qarashlaringizni bildiring.

5. Turli yosh guruhlarida bolalarning aktyorlik qobiliyatini rivojlantirishning ahamiyatini innovatsion texnologiyalar asosida yoriting;

6. Sahnalashtirish faoliyatining asosiy maqsadi va talablari mavzusida interfaol usullar asosida yoritish,intervyu usulidan foydalaning;

7. Bolalar o‘yini, o‘yin turlari bo‘yicha baxs-munozara o‘tkazing va tushunchalar taxlilini to‘ldiring.

8. Psixolog olimlarning bolalar ijodkorligini rivojlantirish borasidagi qarashlarini o‘rganing va taxlil qiling.Mustaqil o‘rganib o‘rtoqlaringizga ham tavsiya qiling.

9. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida Sahnalshtirish faoliyati hamda bolalarning aktyorlik saloxiyati qay darajada? Taxlil qiling.

10. Bolalar adabiyotida bugungi kunda Sahnalashtirish uchun tarbiyaviy axamiyatda mos asarlar qay darajada? Taxlil qiling.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Xasanboyeva O. U. va b. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. T. ; Ilm ziyo 2006.

2. Sodikova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. T.; tafakkur bo‘stoni 2013.

[26] .“Илк қадам” давлат ўқув давлат дастури. Т. 2018й.

3. Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T.  Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga oʻrgatish metodikasi . “Shoʻlpon” . T:. 2010 y.
4.  Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. , D. Azimova  "Ustaxonda amaliy mashgʻulot"  “Musiqa” T:.- 2010y.

## 5-Mavzu. Maktabgacha  ta’limda  bolalarni  ijodiy  faoliyatini tashkil qilish texnologiyasi

**Reja;**

1.Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy faoliyatining turlari.asar sahnalashtirish.
2.Bolalarni  har tomonlama rivojlantirishda ijodiy badiiy adabiyotning ahamiyati. 3.Maktabgacha  ta’limda bolalarni ijodiy faoliyatini tashkil qilish texnologiyasi

**Tayanch soʻzlar;** *texnologiya, TRIZ,STEAM,ART texnologiya, oʻyin texnologiyalari, Oyin. Dramalashtirilgan oʻyinlar.*

Sahnalashtirish oʻyinlari ya’ni dramalashtirilgan oʻyinlar, bu bolalarning mustaqil ijodiy oʻyin turi boʻlib, unda badiiy asar va hikoyalar bolalar tomonidan rollarga boʻlib ijro etiladi. Bu oʻyinlar bolalarda iroda, intizom va oʻz xatti-harakatlarini boshqara olish, boshqalarning harakatlari bilan hisoblashish kabi ijobiy ma’naviy xislatlarni shakllantiradi.

Sahnalashtirish oʻyinlarida bolalar oʻyin jarayoniga kirib boradilar, voqea va ertak qahramonlarining ichki hayotiga bevosita aloqador boʻlgan qahramonlik, jasurlik, mehribonlik, jonbozlik, jonkuyarlik kabi ijobiy fazilatlarni oʻzlarida yaqqol namoyon qiladilar. Bu jarayonda bolalarning nutq faolligi, lugʻat boyligi, dunyoqarashi kengayib boradi.

Sahnalashtirish uchun badiiy asar, ertaklar tanlash katta yoshdagilardan bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, istaklarini hisobga olishni talab etadi.Tanlangan asarlar bolalarni qiziqtirishi, ularda kuchli xissiyot va kechinmalar uygʻotishi muxim. Oʻyin uchun qiziqarli rivojlanadigan syujetli asar kerak. Asar yorqin, aniq, loʻnda obraz yaratish uchun asos boʻlib,unda dialoglar mavjud boʻlishi ham taqazo etiladi.

**Adabiy asarlarni tanlashda quyidagi talablar qoʻyiladi**:

1. Mazmunining gʻoyaviy-ma’naviy barkamolligi.
2. Badiiy jihatdan mazmundorligi.
3. Asardagi qatnashchi va rollarning soni (qancha koʻp boʻlsa, asar shuncha ahamiyatlidir).
4. Mazmuni yaxshi boʻlishi bilan birga, unda harakat turlarining ham koʻp boʻlishi.
5. Ifodali oʻqishga mos boʻlishi
6. Mazmuni qiziqarli, hayot bilan bogʻlangan boʻlmogʻi zarur.

Bolalar xalq ertaklarini sahnalashtirishni yaxshi ko‘radilar. Masalan, «Uch og‘ayni botirlar», «Zumrad va Qimmat», «Bo‘g‘irsoq» va boshqalar. Bolalar boshqa xalq ertaklarini ham turli usullarda (qo‘g‘irchoq, soya,barmoq teatri orqali) sahnalashtirishga ehtiyoj sezadilar.

Badiiy asarni eslab qolishlari uchun uni bir necha marta qayta o‘qib yoki qo‘yib berish, sahnada ko‘rsatish, rasmlar namoyish etish, didaktik o‘yinlardan foydalaniladi, o‘qilgan asar xaqida suxbatlashiladi. Bolalar asarni chuqur tushunib olishlari uchun o‘qilganni qayta xikoya qilib beradilar, agar mazmun imkon bersa shu mavzuda rasm chizish yoki yopishtirib narsa yasashni uyushtirish mumkin.Bugungi kunda markazlarda tashkil etiladigan faoliyatlar aynan shu jarayonni amalga oshirishga yordam beradi.

Sahnalashtirish o‘yinlari qiziqarli o‘tishi va uzoq vaqt davom etishi uchun kerakli jihozlar tayyorlanishi va unga to‘g‘ri rahbarlik qilinishi kerak. Kattalar o‘yin rejissyori rolini amalga oshira borib, bolalarning xatti-harakatlari, qobiliyatlari, intilishlarini hisobga olib boradilar. O‘yinda faol ishtirok etgan bolalarni alohida rag‘batlantirilib, kelgusida qaysi asarlarni sahnalashtirish kerakligini aniqlaydilar.

Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini yanada takomillashtirishda qurilish materiallari bilan o‘ynaladigan o‘yinlarning roli kattadir.Pedagoglardan Z.V. Lishtvan, V.G. Nechaeva o‘z tadqiqotlarida qurish-yasash o‘yinlarining o‘ziga xos tomonlari va ahamiyatini yoritib berganlar. Bolalar nashriyotlari badiiy asarlarni sahnalashtirish uchun xalq ertaklariga siluetlar, teatr-kitoblar, panorama-kitoblar kabi turli ko‘rinishdagi ko‘rgazmali qo‘llanmalarni chop etmoqdalar.

**2. Asarni sahnalashtirish bosqichlari .** Sahnalashtirilgan o‘yinlar ijodiy o‘yinlar sarasiga kiradi. Unga ijodiy o‘yinning quyidagi asosiy:

- niyatning mavjudligi, -roli va mavjud harakatlar, hayol qilingan vaziyatning va boshqa elementlarning uyg‘unligi, bolalarning mustaqillik va o‘z-o‘zini uyushtira olish jihatlari xos. Sahnalashtirilgan o‘yin badiiy asar asosida ko‘riladi: o‘yin syujeti, rollar, qahramonlarning xatti-harakatlari, ularning nutqi asar matniga ko‘ra belgilanadi.

Sahnalashtirilgan o‘yin bolalarning eshitgan asar yoki ertagidan olgan tasavvurlarini mustaqil ifodalash hamda mashq qilish imkonini beradi. Bu o‘yinlar bolalarda iroda, intizom, o‘z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita hisoblanadi. Sahnalashtirish bolalarni qayta so‘zlashga o‘rgatish usullaridan biridir. Ba’zi bir bolalarda badiiy asardan olingan parchani qayta so‘zlab berishga xohish ham qiziqish ham bo‘lmaydi, ammo unga o‘yin usuli kiritilishi bilan bola asardagi rolga kirib, o‘sha asar mazmunini juda yaxshi aytib berishga harakat qiladi.

Bunday o‘yinda bola o‘zini o‘sha asardagi qaxramon o‘rnida his etib, uning sezgi, kechinmalari dunyosiga chuqurroq kirib boradi. Badiiy asarlarni qahramonlar tilida so‘zlab berish boladagi hayolni rivojlantirishga yordam beradi va asar qahramonida mavjud bo‘lgan ijobiy sifatlarni egallashga intiladi. Sahnalashtirilgan o‘yinda badiiy asarning g‘oyaviy mazmuni bolalar tomonidan chuqurroq anglab olinadi.

***Sahnalashtirilgan o'yinlar*** bolalar biror ertak yoki hikoya syujeti asosida ma'lum bir rolni bajarishiga, o'yin jarayonidagi personajlarning aytadigan so'zlarining yod olinishiga asoslangan bo'lib, bolalarda iroda, intizom, o'z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita sanaladi.

Sahnalashtirilgan o'yinlarni tashkil etish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi:

*I bosqich.* Sahnalashtirish uchun badiiy asarni tanlash. Badiiy asarni tanlashda quyidagi talablarga rioya qilish kerak: 1) ertak yoki hikoyada qatnashuvchilar soni ko'p bo'lishi kerak; 2) asarning nafaqat mazmuni, balki unda harakatlarning ham turfa xil bo'lishiga e'tibor qaratish lozim; 3) asar ifodali o'qishga mos bo'lishi kerak; 4) asar mazmuni qiziqarli va emotsional bo'lishi zarur; 5) asar bolalarning yoshiga mos kelishi lozim.

*II bosqich.* Sahnalashtirish uchun tanlangan ertak yoki hikoyaning mazmunini o'qib berish.

*III bosqich.* Asarni bolalar tomonidan eslab qolinishiga erishish: qayta o'qib berish, har bir bolaning aytadigan gaplari ustida individual ish olib borish, rasmlar namoyish etish.

*IV bosqich.* O'yin qiziqarli o'tishi va uzoq davom etishi uchun o'yinga kerakli materiallar, kiyimlar tayyorlash hamda rahbarlikni to'g'ri amalga oshirish.

## 1. Umumiy birgalikda sahnalashtirishga tayyorgarlik. Non isi. Alisher Navoiy

Sahnalashtirilgan o'yinlar bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda oddiydan murakkabga qarab yo'naltirib borilishi maqsadga muvofiq. Masalan, o'rta guruh uchun asosan harakatni aks ettiruvchi asarlar tanlansa, katta guruh bolalari uchun esa asar qahramonlarining ancha murakkab munosabatlari, ularning kechinmalari, qayg'ulari aks ettirilgan asarlar tanlanadi.

Ertak va hikoyalarni bolalar ko'pincha o'zlarining ijodiy rolli o'yinlarida sahnalashtiradilar, bu o'yinlarda tulki, sichqon, xo'roz, quyon kabi personajlarni o'yinlarda aks ettiradilar. Yozuvchilarning badiiy asarlarini ham bolalar sevib sahnalashtiradilar. Bolalar bilan suhbatlasha turib, tarbiyachi hikoya yoki ertak qahramonlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qiladi. Har xil she'r, ertak qahramonlarining o'ziga xos xususiyatlari mana shunday o'rganiladi.

Guruhda shu yoshli bolalarga xos bo'lgan ertaklar, hikoyalar ularga tanish bo'lib qolgandan keyingina sahnalashtirish boshlanadi. «Sholg'om», «Bo'g'irsoq» kabi ertaklar sahnalashtiriladi. Tayyorlov guruhida bu ish davom ettiriladi. Sahnalashtirish uchun ertaklargina olinmasdan, badiiy asarlar, xususan, she'rlar ham olinadi. Masalan, tarbiyachi o'rta guruh uchun asosan harakatni aks ettiruvchi asarlar tanlaydi, katta guruh bolalari uchun esa asar qahramonlarining ancha murakkab munosabatlari, ularning kechinmalari, qayg'ulari aks ettirilgan asarlar tanlanadi.

Tarbiyachi bajarilgan ishning hisobini olib boradi.Bolalarga qaysi asar yoqqanini, ular ko'proq qanday asarni sahnalashtirishni yoqtirishlarini, qaysi bola

topshirilgan rolni yaxshi ijro eta olganini, rollarni ijro etishda bolalarda qanday qiyinchiliklar vujudga kelganini yozib boradi. Mana shu asosda bo‘lg‘usi sahnalashtiriladigan o‘yinlar jonlantiriladi.

Odatda asar qaxramonlarini o‘ynash istagi bolalarning o‘zida paydo bo‘ladi.aks xolda tarbiyachi o‘zi tavsiya qiladi.Asar dekoratsiyasi , kostyumlar tayyorlanadi.

Bolalarga ifoda vositalarini tanlashda ,obrazni to‘g‘ri talqin qilishda (imo-ishora, pantomimika, so‘z oxangi, harakatlar mosligi) yordamlashiladi,Ifoda vositalari va harakat usullarini tanlash bolalarning asardagi obrazning moxiyati va g‘oyalarini tushunishga tayanishi lozim.

Tarbiyachi savollarda, maslaxatlardan, asarni qayta o‘qishdan ,o‘yin davomida suxbatdan foydalanadi, bu asar qaxramonlarini tasvirlashda o‘ta ifodalilikka erishishga yordam beradi.

Dramalashtirilgan o‘yinga tayyorlanish butun guruxni qamrab oladi,ya’ni xar bir rolga bir necha ijrochi tanlab olinadi,qolgan bolalar kostyumlar, asar uchun kerak bo‘ladigan turli ashyolar tayyorlashda ishtirok etabi.

Ko‘pchilik dramalashtirilgan o‘yinlarda boshlovchilik roli zarur,dastlab bu rolni tarbiyachi o‘zi oladi, so‘ng uni bolalarga topshiradi.

O‘yin bolalar uchun va boshqa gurux bolalari uchun teatrlashgan tomosha tusini oladi. Unga qo‘shimcha ravishda o‘ziga xos syujetli rolli o‘yinlar; kassada cpektakl uchun chiptalar sotish, nazoratchi tomoshabinlarni o‘tkazishi, Bufetda ularga shirinliklartaklif etilishi va x.k.Shuning uchun xam dramalashtirilgan o‘yinlar ko‘pincha bolalar bayramlari mazmuniga qo‘shilib ketadi.Bolalar ko‘p marta takrorlaganlaridan keyin o‘yinga yangi ko‘rinishlar kiritadilar.Ular asta sekin odatdagi rolli o‘yinga aylanib boradi.

## Non isi. AlisherNavoiy

Sahnada saroy ko‘rinishi tasvirlanadi. «Non isi» rivoyatini sahnalashtirish uchun  zarur bo‘lgan barcha jihozla hozirlanadi. Ishtirokchilarning barchasi o‘z o‘rnini egallaydi.

- Bir kuni podshox Husayn Boyqaro o‘z huzuriga vazirlarini chaqiribdi. Dunyodagi eng xushbo‘y narsani keltiring!

O‘ng qo‘l vaziri bir dasta atirgul keltiribdi.

Vazir: - Mana shoxim.

Shoh: - Yo‘q, men aytgan narsa bu emas.

Chap qo‘l vaziri qalampirmunchoq keltiribdi.

Vazir: - Mana, shoxim, marhamat.

Shox: - Yo‘q. Men aytgan narsa bu emas. Sizlarga uch kun muhlat: topsalaringiz – topdingiz, topmasalaringiz, hammangizni jazolaymen!

Vazirlar nima qilishlarini bilmay, rosa boshlari qotibdi. O‘ylay-o‘ylay, Alisher Navoiyning huzuriga borib, maslahat so‘rashga qaror qilishibdi.

- Assalomu-alaykum, taxsir.

- Va alaykum assalom. Kelinglar, xushko‘rdik, marhamat.

Vazir: - Ey, mehribon ustoz! Bizni jazodan qutqaring.Shoximiz dunyoda eng xushbo‘y isli narsani keltirishimizni buyurib edilar. Shuni hech topa olmayapmiz. Panoxingizga oling.

Navoiy: - Bu jumboqni ochadurg‘on kishi – Dehqonbobodur. Qani, yuringlar-chi, so‘raymiz.

Hammalari birgalashib, Dehqonbobo huzuriga boribdilar.

Dehqon: - Otam rahmatli tandirdan yangi uzilgan non isidan hushbo‘yroq narsa yo‘q, deguvchi edilar. Yangi yopilgan non olib boringlar-chi, shoxga ma’qul kelsa, ajabmas.

Navoiy yangi uzilgan nonni savatga solib, shox huzuriga kiribdi.

Navoiy: - Mana, shohim. Dunyoda hushbo‘y hidli narsa – tandirdan yangi uzilgan nondir.

Shox: - Rahmat, do‘stim, ko‘nglim istagan narsani siz topib keltiribsiz.

Navoiy: - Shoxim, rahmatni menga emas, Dehqonboboga ayting, ko‘nglingizning istagini shu kishi topdi.

Shox chapak chalib, mulozimlarini chaqiribdi.

Shox: - Dehqonga sarpo kiydiring!

Shox xazinaboni dehqonga sarpo kiydiribdi.

Dehqon: - Qulluq, shoxim, qulluq.

Psixolog olim N.D.Levitov ijodiy faoliyatni quyidagi mezonlar asosida vujudga kelishini isbotladi[1]:

- tafakkurning mustaqilligi;
- o‘quv materialining o‘zlashtirilishi, tezligi va mustahkamligi;
- standart bo‘lmagan vazifalarni hal qilishda, aqliy chamalashning (topqirlikning) tezligi;

- o‘rganib chiqilayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borish orqali muhim bo‘lmagan narsadan muhimini ajrata bilish.

Maktabgacha ta’limda bolalar ijodiy faoliyatini shakllantirish shart-sharoitlari deganda, avvalo ana shu shart-sharoitlarning paydo bo‘lishi, amalga oshishi hamda rivojlanishi jarayoni tushiniladi.

Ular quyidagilardan iborat :

1.Bolalar ijodiy faoliyatini shakllantirishda ularning bu borada egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalari. 2.Ijodiy faoliyatni shakllantirishda nazariy bilimlar bilan amaliyotning aloqadorligi. 3.Ijodiy faoliyatni shakllantirishga doir mashg‘ulotlar evristika muammoli vaziyatlar yaratish. 4.Bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirishga texnologik yondashuv.

**Bu shart-sharoitlar quyidagicha amalga oshadi :**

Bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirishda ular egallashi lozim bo‘lgan bilim, malaka, ko‘nikmalarga quyidagi talablar qo‘yiladi.

-dastur materiallarni qay darajada o‘zlashtirganligi ;

-mavzularga doir asosiy tushuncha va qoidalarni o‘zlashtirganligi;
-tanlagan mavzu bo‘yicha topshiriqlarni mustaqil bajara olishi ;
-o‘rganilayotgan mavzulardagi asosiy muammolarni anglab olishi ;
-topshiriqlarni bajarishda o‘quv ashyolari va texnika vositalar, axborot texnologiyasidan foydalana olishi ;
- o‘z qobiliyatini namoyon etishi va uni rivojlantira olishi ;
-mavzu bo‘yicha o‘z oldiga erishiladigan maqsadlarni qo‘ya olishi, rejalar tuzishi va natijalarni baholay olishi ;
-mavzularni o‘rganishda o‘z fikrini dalillay olishi;
-o‘z variantini tavsiya eta olishi va hokazolar.

Mazkur talablar Tarbiyachiga bolalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishlari, ularning o‘quv-biluv faoliyati, individual moyilliklarini bilish imkoniyati paydo bo‘ladi va bu borada o‘quv jarayoni tuzilmasini belgilab olishga yordam beradi.

Yuqoridagi talablar asosida muammoga doir ta’limni maqsadga muvofiq tashkil etishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab olinadi.

Maqsadga muvofiq yondashuv deganda o‘quv- biluv jarayoni yoki ta’lim mazmuni, metod va shakllari tizimining ijodiy faoliyatni rivojlantirishga doir maqsadli yo‘naltirilgan maxsus tashkil etilgan tuzilmasi tushiniladi.

Pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri barcha bolalarning ijodiy faoliyati har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydigan shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Shu bilan bir qatorda muayyan sohalarda chuqur qiziqishlarini, intilishi va qobiliyatini namoyon qilayotgan bolalarni aniqlash, ularga bundan keyingi rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish lozim. Buning uchun esa: kichik maktab yoshidagi bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga doir shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. **Bu borada:Bolalar ijodiy faoliyatini rivojlantirishga doir innovatsion faoliyatga tayyorlash.**

1. Tarbiyachi va bolalar munosabatida hamkorlik faoliyatini vujudga keltirish.
2. Ijodiy faoliyatni rivojlantirishda bilishga doir innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

Hozirgi davrda bolalarning biror- bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog‘liq bo‘lgan evristik va muammoli ta’lim o‘quv-biluv jarayoniga faol kirib kelmoqda.

V. Karimova [27]o‘z tadqiqotlarida ilmiy faoliyatni ushbu uch turi amalga oshirilganda shaxsning unga mos bo‘lgan sifatlari :
1) Bolalar tomonidan tashqi olamni kuzatish jarayonida zarur bo‘ladigan sifatlari;
2) Bolalar uchun faoliyatning ijodiy mahsulini yaratish sharoitlarini ta’minlovchi ijodiy faoliyat sifatlari;
3) Bolalar bilish faoliyatini tashkil etganda uning oldingi ikki holatda- bilish va ijod holatida ko‘rinadigan sifatlari namoyon bo‘lishini ko`rsatib o`tadi.

[27] V. Karimova Ijtimoiy psixologiya T: FAN 2007y

Quyida sanab o‘tiladigan sifatlar ijodiy izlanishli ta’lim turini rejalashtirish, tashkil etish va samaradorligini nazorat qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ijodiy faoliyat sifatlariga quyidagilarni kiritish mumkin.

- ehtirosli-obrazli sifatlar: ijodiy vaziyatlardan ilhomlanish, zavqlanish, jo‘shqinlik;
- obrazlilik, uyushganlik, yangilik va g‘ayrioddiylikni his etish, ziddiyatlarga nisbatan sezgirlik, ijodiy moyillik, ichki kurashlarni sinashga bo‘lgan qobiliyat, ramziy ijodkorlik va boshqalar.
- tashabbuskorlik, kashfiyotchilik, zehn, o‘ziga xoslik, har xillik, nostandartlik;
- g‘oyalarni topishga, ularning individual, o‘zga insonlar bilish ob’ektlari bilan munosabatlariga nisbatan qobiliyati;
- maktabda, oilada va boshqa ijtimoiy muhitda beriladigan axloq me’yorlarini saqlab qolish ko‘nikmasi bilan uyg‘unlashadigan fikrlar, tuyg‘ular va harakatlar erkinligi;
- sezgirlik, tanish narsalarni notanish narsalarda ko‘ra olish va aksincha; muammolarni hal etishda stereotiplarni yenga olish, o‘zgacha makonga chiqish qobiliyati;
- o‘rganilayotgan ob’ekt bilan dialog olib bora olish ; bilish metodlarini tanlay olish; ob’ektning o‘xshash ob’ektlar bilan vazifa va aloqasini topish;
- ob’ektlarning o‘zgarishi, uning o‘sish yoki rivojlanish dinamikasini aniqlash;

  ob’ektning xossalariga ko‘ra bilishning yangi metodlarini yarata olish ;
- gipotezalarni ta’riflay olish taxminiy fikrlar, qonuniyatlar, formula, nazariyalarni, konstruksiyalash: intuitsiya, meditatsiyaga ega bo‘lish ;
- o‘z qobiliyatini ijodiy ishlarni bajarish va himoyalash shaklida amalga oshirish, tanlovlar, olimpiadalarda ishtirok etish tajribasiga ega bo‘lish.

Bilishga doir sifatlar:

fiziologik sifatlar: o‘rganilayotgan ob’ektni ta’lim yordamida ko‘rish, eshitish, sezish, his eta bilish; ishqobiliyati, shijoatni tarbiyalash;

intellektual sifatlar: qiziquvchanlik , zehnlilik, mulohazalilik, ziyraklik, mantiqiylik, onglilik dalillash, analitik, sintetik o‘xshashini topa olishga qodirlik, isbotlashning turli shakllaridan foydalanish, ishqibozlik ;

- sinchkovlik, zakovatlilik, muammolarda izlanuvchanlik, tajribalarga moyillik, savollar bera bilish, ziddiyatlarni ko‘ra olish, muammo va gipotezalarni ta’riflay olish, nazariy va amaliy tadqiqotlarni bajara olish, turli xil topshiriqlarni yechish usullariga ega bo‘lish, xulosa va umumlashmalar qilish, harakatning tezkorligi tafakkurining xilma-xilligi;
- shaxsiy faoliyatida aks etgan madaniy me’yorlar va an’analarga ega bo‘lish; o‘z bilimlari va olgan natijalarini dalillay bilish;
- tanlash vaziyatlarida tanlay bilish;
- paydo bo‘lgan har qanday muammo bo‘yicha o‘zining tushingani yoki tushunmaganini bildirishga qodirlik;
- o‘zgalar nuqtai nazarini tushunish va baholay olish, mazmunli dialog yoki munozarali chiqishlar qilish;

- o‘rganilayotgan sohalarni tizimli ko‘ra bilish; ob’ektlar aloqalari, ularning sabablari, ular bilan bog‘liq muammolarni izlab topish; har qanday ob’ekt va hodisa (tabiat, madaniyat, siyosat va hokazo) mohiyatini aniqlashga to‘g‘ri yondasha bilish ;
- ob’ektlar orasidan asosiysini tanlay bilish, ular orasidagi bir-biriga bog‘liqlikni izlash; tanilgan ob’ektlarning yangi vazifalari va aloqalarini ko‘ra bilish; ob’ektning kelib chiqish sabablarini izlashga qodirlik, ob’ektning ma’nosi, uning manbaini topishga qodirlik ;
- o‘rganilayotgan fanlar bo‘yicha ma’lumotga, tayanch bilimlarga malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lish;
- o‘rganilayotgan bilimning asosiy muammolarini mo‘ljalga olish;
- ta’lim samarasi va sinfdoshlarining erishgan natijalarni qiyoslayo bilish, ularning o‘xshash va farqli tomonlarini ajratish, shaxsiy ta’limiy natijalarni qayta aniqlash yoki qayta ishlash ;
- -madaniy-tarixiy o‘xshashliklarning kelib chiqish (namoyon bo‘lish) sabablarini izlashga qodirlik, uning tuzilishini aniqlay bilish, o‘xshash ideal ob’ektlar bilan aloqalarni topish, ideal ob’ektlar tizimini tuzish, ularning shakllangan tamoyillar va mezonlar asosida madaniy- tarixiy o‘xshashliklarning tegishli real ob’ektlar bilan aloqalari tizimini anglay bilish;
- ma’naviy, moddiy va faoliyat shaklida erishilgan bilimlarni ruyobga chiqarishga qodirlik.[28]

Tashkiliy faoliyat- sifatlari:

o‘quvchi tomonidan o‘zining individual xususiyatlarini, fe’l-atvoridagi belgilarini, har bir o‘quv fani va ta’lim sohasidagi mashg‘ulotlarning maqbul shakllarini bilish;

- mavzu yoki boshqa o‘quv fanidan o‘z mashg‘ulotining maqsadini anglab olish va tushuntira bilish, nimalarni bajarayotganini aniq tushuna bilish;
- yangi yoki erishilmagan yaxshi maqsad, unga erishish dasturining mavjudligi, ishni oxirigacha yetkazish uchun qat’iyat, maqsadga sodiqlik; maqsadni qo‘ya bilish, maqsadga intiluvchanlik maqsadga erishish uchun qat’iyatlilik;
- berilgan bilim sohasiga yoki faoliyatga o‘quv maqsadini qo‘ya bilish, unga erishish rejasini tuza olish; o‘zining individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda belgilangan rejani bajarish; o‘z natijasini olish va anglash; uni sinfdoshlarining shunga o‘xshash natijalari bilan qiyoslash;
- egallangan malakada ifodalanadigan faoliyat qoidalari, uning qonunlari tizimini shakllantirish, faoliyat natijalarini prognozlash ;

o‘z-o‘zining faoliyatini rejalashtirish, harakatni dasturlash, faoliyat bosqichlari va usullarini yaxshilash, harakatning o‘zgaruvchanligi rejalarning bajarilishi;

[28] V. Karimova Ijtimoiy psixologiya T: FAN 2007y

faoliyatga yondashuvning xilma-xilligi, ayni paytda turli xil muqobillarini esda saqlash ;

- o‘zining keyingi o‘qish rejasini tuza bilish; faoliyati ma’no mazmunini aniqlash, natijalarni maqsadlar bilan birlashtira olish, o‘z-o‘zini kuzatish, o‘z-o‘zini tahlil qilish va o‘z-o‘zini baholay bilish;
- ta’limning boshqa sub’ektlari bilan hamda atrof-olam bilan o‘zaro harakatga qodirlik; o‘z g‘oyalarini himoya qila bilish, atrofdagilarning mulohazalarini tinglay olish, “zarbaga dosh berish”; mustaqillik, intiluvchanlik, qat’iyatlilik, kirishimlilik;
- o‘zgalar ijodiy faoliyatini tashkil etishga qodirlik, boshqa bolalar bilan birgalikda g‘oyalar yaratish, unda ishtirok etish; g‘oyalar, bahs, munozaralarni qiyoslash va chog‘ishtirish.

Shunday qilib evristik ta’lim, kam deganda o‘quvchining uchta integratsion qobiliyati; ijodiy qobiliyati, bilishga doir va faoliyatga oid qobiliyatiga tayanadi. Demak, evristik ta’lim deyilganda o‘quvchining ta’lim samaradorligini ta’minlashga qaratilgan faoliyat va harakatni amalga oshirishdagi kompleks imkoniyatlari tushuniladi.

**Yuqoridagilarga asoslangan holda bolalar maqsadlarni quyidagicha guruhlash mumkin**;

*Shaxsga yo‘nalgan maqsad*- ta’lim maqsadini idrok etish, o‘zida ishonch hosil qilish, o‘zining potensial imkoniyatlari, aniq individual qobiliyatlarini amalga oshirish;

*Ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga doir maqsad* majmuini tuzish, sharhli insho, texnik modellarni konstrksiyalash, rasmlar chizish va boshqalar.

*Bilishga oid maqsad*- atrofdagi borliq ob’ektlarini bilish; paydo bo‘lgan muammolarni yechish usullarini o‘rganish, birinchi manbalar bilan ishlash malakasiga ega bo‘lish, tajriba qo‘yish, tajribani o‘tkazish;

*Tashkiliy maqsad*- o‘quv faoliyatini o‘zi tashkil etish malakasiga ega bo‘lish, o‘z oldiga maqsad qo‘ya bilish va faoliyatni rejalashtirish, jamoada ishlash malakasini rivojlantirish , munozara olib borish texnikasini egallash;

*Fanga oid maqsad*- o‘rganilayotgan fanga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish: o‘rganilayotgan mavzuga kirgan asosiy tushuncha, voqea-hodisa va qonunlarni bilish; oddiy asboblardan foydalanish ko‘nikmasini hosil qilish; mavzu bo‘yicha ijodiy topshiriqlarni izlanishli ta’limning asosiy texnologik elementi- darsda izlanuvchan ta’lim vaziyatini yaratish, ya’ni dolzarb faolllashtiruvchi vaziyat, yaratishdan iborat an’anaviy darsga muqobil holatda bo‘ladi. Uning maqsadi maxsus tashkil etilgan faoliyat davomida bolalar tomonidan shaxsiy ta’limiy natijalar (g‘oya, muammo, gipoteza, chizma, tajriba, matn)ni ta’minlashdan iborat.[29]

---

[29] V. Karimova Ijtimoiy psixologiya T: FAN 2007y

Izlanishli ta’limiy vaziyat o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan yoki Tarbiyachi tomonidan tashkil etiladigan, uning barcha ishtirokchilaridan evristik faoliyat orqali o‘z yechimini talab qiladigan ta’limiy harakat bilan baholanadi. Ta’lim samaradorligi natijasini oldindan aytib bo‘lmaydi, avvalo muammo qo‘yiladi, so‘ng faoliyat texnologiyasi yaratiladi, bolalarning ta’limiy harakati kuzatib boriladi, biroq oldindan olinishi lozim bo‘lgan ta’limiy natijalari ma’lum bo‘lmaydi.

Izlanishli ta’limiy vaziyatlarning asosiy texnologik elementlari: motivatsiya, muammolar qo‘yish, vaziyat ishtirokchilari tomonidan muammni yechish, ta’limiy natijalarni namoyon etish, ularni bir-birlari bilan qiyoslashdan iborat.

Ta’limiy vaziyat Tarbiyachi tomonidan quyidagi tarzda tashkil qilinadi: kerakli material va ta’limiy ob’ekt ajratiladi, ular o‘rtasidagi munosabatlar o‘rganiladi, asosiy tushunchalar tanlanadi. Tadqiqotning umumiy ob’ekti, uning ma’nosini izlash, faoliyatning yangi usullari hamda turlarini izlash zarurati evristik vaziyatning asosi bo‘lishi mumkin.

Teatr faoliyatini tashkil etishda tarbiyachi katta rol o‘ynaydi, usbu jarayonni mohirlik bilan boshqaradi. Tarbiyachi nafaqat ifodali so‘zlashi yoki o‘qib berishi kerak, balki qarashni, ko‘rishni, tinglashni va eshitishni xam bilishi lozim, ammo har qanday "obrazga kirishish"ga xam tayyor bo‘lishga majbur, yani aktyorlik mahoratini egallagan bo‘lishi va rejisyorlik malakalariga ega bo‘lishi shart. Aynan shu mahoratlar ijodiy potensialni oshiradi va bolalarning teatrlashtirilgan faoliyatini o‘zlashtirishga yordam beradi.

Mashg‘ulotlar jarayonida tarbiyachi bolalarga hech qaysi holatda, hech qanday bosim, taqqoslash, baho berish, maxkumlikni qo‘llashi mumkin emas. Aksincha, bolalarga gapirish, ichki faoliyatni ko‘rsata olish imkoniyatini yaratib berish kerak. Pedagog o‘zining aktyorlik va erkinlik mahorati bilan tortinchoq bolani sahnaga chiqishdan tomoshabinga aylantirib qo‘ymasligini nazorat qilishi shart. Tarbiyachi bolani "sahnaga" va ijro jarayonida xato qilishdan, qo‘rqib chiqishdan, qo‘rqishiga yo‘l qoymasligi kerak. Bolalar jamoasi "artist" va "tomoshabinlar"ga bo‘linadi, ammo doimiy sahnada ijro etuvchi, doimiy tomoshabinlarga tomosha ko‘rsatuvchi bo‘lishi mumkin emas, yani bolalar rollari bilan xam almashib turishlari kerak. Teatr faoliyatidagi mashg‘ulotlar hayotdan olingan mavzularni mustaqil improvizatsiya qilishi, ertaklar, sahna ko‘rinishlari va tasvirlar uchun rol o‘ynashini o‘z ichiga olishi mumkin. Sahnalashtirish faoliyati ikki yonalishda tashkil etiladi:

1. Bolalar ijodiy mashqlarni bajarish jarayonida aktyorlik asoslarini egallaydilar;
2. Bolalar xar xil turdagi teatr san'atiga xos xarakterda bo‘lgan texnik usullarni o‘zlashtiradilar.[30]

Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarning ijodiy rivojlanishi teatr san'ati bilan tanishishning tizimli va shaxsiy ahamiyatiga ega bo‘lgan jarayonda amalga oshiriladi. Bolaning shaxsiy tajribasi asosida mavzu materialining izchil murakkabligini talab qiladi, bu esa bolaning ko‘p qirrali teatr dunyosiga kirishini ta'minlaydi.

---

[30] V. Karimova Ijtimoiy psixologiya T: FAN 2007y

Sahnalashtirish faoliytida mashg‘ulotlar kompleksining amalga oshish jarayoni quyidagi vazifalarda o‘z echimini topadi:

- Tarbiyalanuvchining mustaqil ijodkorligi va ijodiy qobiliyatini rivojlanishi;

- Turli ko‘rinishdagi ijodiy faoliyatga qiziqishini tarbiyalashi;

- Improvizatsiya malakalariga ega bo‘lishi;

- Nutq faoliyatining shakli va funktsiyasi, barcha komponentlarning rivojlanishi;

- Bilish jarayonlarini takomillashtirishi.

Barcha bolalarning biror sahna asarini, ko‘ngil ochar bayramlarga tayyorlanishi uchun turli uslublar tavsiya etiladi: bolalarni xoxshiga ko‘ra rollarni tanlash, eng qo‘rqoq va uyatchang bolalarni asosiy rollarga tayinlash, rollarga kartochkalar bo‘yicha taqsimlash (bolalar sxematik tarzda personaj rasmi tushirilgan kartani tarbiyachining qo‘lidan oladilar), rollarni juftlik bilan ijro etish.

Mashg‘ulotlar mobaynida tarbiyachi bolalarning fikrini va javoblarini eshta olishi kerak, agarda bola javob bera olmasa undan izohni so‘rashni keragi yoq, undan ko‘ra to‘g‘ri personaj xarakatiga o‘tish lozim; asar qaxramoni bilan to‘qnshganda bola kirishib olishiga va u bilan suhbatlashishi uchun vaqt berish darkor, yakuniy ishda esa xar xil yollar bilan bolaning quvonchini oshirish kerak.

Ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning effekti quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi:

> muammoni qo‘yish yoki muammoli vaziyatni yaratish;

> kreativ maydonni yaratish;

> bir o‘yindan ikkinchi o‘yinga o‘tishi, bunda oddiydan kora ijodiy murakkabroqga o‘tish;

> mashqlar, etudlar, shunday qilib, teatrlashtirilgan faoliyatda tashabbus, moslashuvchanlik va fikrlashning mustaqilligi, bolalar sahna ijodiyoti rag‘batlantiriladi.

Bolalar ijodkorligini rivojlantirish quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi: bolalarga berilgan ijodiy vazifani bajarish; ijro jarayonida muammolarni hal qilish;

bolalar uchun ijodiy maydonni yaratish; o‘yin jarayonida mashqlarni puxta o‘rgatish ; etudlarni bajarish.[31]

Shunday qilib, teatrlashtirilgan faoliyatda tashabbus, moslashuvchanlik va fikrlashning mustaqilligi - bolalar ijodiyotining faoliyati bo‘lib, ushbu faoliyat tarbiyachi tomonidan rag‘batlantiriladi.

Sahnalashtirish faoliyatida bolalarda aktyorlik qobiliyatini rivojlantirish. BoMarning ijodiy jamoasi bu bolalaming imkoniyatlarini teng namoyish eta olganidadir. O‘tkaziladigan mashgulotlarda - u amaliy-mi, individual-mi, guruhli-mi, konsert yoki tadbir-mi, barchasi bola ko‘ng‘lining emotsional hissiyotini o‘yg‘otadi,bu esa pedagog va jamoa ishtirokchilari bilan o‘z-aro munosabatlarining kerakli komunikativ sifatlarni shakillantiradi.

Mashg‘ulotda kreativ maydon metodi, jamoada ijodiy atmosferani paydo bo‘lishiga imkon tug‘diradi, ishtirokchining obraz ustida ishlashi-ijodiy yonalishga

[31] M. Asranboeva va boshqalar Bolalar psixologiyasi T: Navro’z 2012y

sharoit yaratadi, ifodaliligning individual vositasini izlaydi, ijodiy vazifalar rang-barangligi pedagogik amaliyotda foydalanishga mo‘ljanllanadi. Sahnalashtirish faoliyatida o‘yin komponentini kirgazish va mashg‘ulotlarda pedagog tomonidan muvoffaqiyatli vaziyatni tashkil etishi, tarbiyalanuvchining sahna xarakatlariga faol jalb qilishga, bolaning badiiy imkoniyatini ochib berishiga va erkin bo‘lishiga yordam beradi. Shu bilan birga bolada ijodiy potensiali rivojlanadi va aktuallashadi, mashg‘ulorda davomida qiziqishlari o‘yg‘onadi. Bu sahnalashtirish faoliyatida judayam zarur, agarda o‘yin oddiydan ijodiyga o‘tganda pedagog tomonidan qo‘yilgan kesishuv biror maqsadda qo‘shimcha impuls olgan bo‘ladi.[32]

Bolalarning bilimga qiziqishi va emotsional rivojlanishi, uning psixik funktsiyalari, ijodiy qobiliyati va shaxsiy sifatlari, bolaning ijobiy motivatsiyasi teatr san'atini o‘zlashtirish orqali xarakatlar shakllanishida belgilangan vazifalari o‘z echimini topadi. Tarbiyachi mashg‘ulotlar jarayonida atrofdagi voqeylikni individual va jamoa bo‘lib qabul qilishni, uning nazorati va taxlilini qiladi, bolalarda pantomimic va emotsional,verbal improvizatsiyalarga asoslangan aktyorlik vositasining ifodaliligini aniqlaydi, shuningdek bolalarda musiqiy-Sahnaviy faoliyatini o‘zlashtirishga; so‘zlarni xaraktlar bilan bajarish va Sahnaviy nutq ko‘nikmalarini egallashga yordam beradi; bolalarni ijodiy faoliyatga qo‘shilishiga qaratilgan vazifalarni bajarishga ko‘maklashadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni aktyorlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar tuziladi, ushbu dastur asosida maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining aktyorlik mahorati rivojlanadi.

Dasturning maqsadi - teatrlashtirilgan faoliyat yordamida bolalarning artistik qobiliyatini rivojlantirish.

Metod va vazifalari - bolalar teatrining sahna asarlari bilan birin -ketin tanishib borishi; ijodiy obrazlarni o‘zlashtirishda guruhlardagi bolalar yoshini inobatga olishi; bolalarning artistlik ko‘nikmalarini takomillashtirish; bolaning erkinligini ta'minlash; nutq, intonatsiya ustida ishlash; jamoa xarakatlarini o‘z-aro bajarish; sodir etilayotgan voqealarni hiss etish, achinish hissini, birga qayg‘urish hissiyotlarini bola qobiliyatida o‘yg‘otish.

Printsiplari improvizatsiya qilish, insonparvarlikni o‘rganish, bilimlarni tizimlashtirish, individual qobiliyatlarni xisobga olish. Turli -tuman ifoda vositalari tavsiya qilinadi:

- kichik guruhda oddiy obrazdagi bilimlarni shakllantirish(masalan, ertakdagi xayvon qaxramonlarining xarakatlarini o‘xshatish) ;

-o‘rta guruhda obrazning ifoda vosita elementlarini o‘rgatish (intonatsiy, mimika, pantomimika);

- katta guruhda obrazning ijro etish bilimlarini o‘zlashtirish;

- tayyorlov guruhda obrazni namoyish etishda mustaqil ijodini, musiqa sadolari ostida pantomimik xarakatlarini va nutqini ifodaliligini rivojlantirish.

Sahnalashtirish faoliyati mashg‘ulotlarining mazmuni o 'z ichiga:

---

[32] V. Karimova Ijtimoiy psixologiya T: FAN 2007y

- qo‘g‘irchoq teatri spektakllarini ko‘rish va ular xaqida suhbat o‘tkazish;

- dramatizatsiya - o‘yinlar;

- bolalarni ijtimoyi-emotsional rivojlanishi uchun mashqlar;

- korrektsion-rivojlantiruvchi o‘yinlar;

- diktsiya ustida ishlash mashqlari(artikulyatsiya gimnastikasi);

- nutq intonatsiyasini ifodali rivojlantirish uchun topshiriqlar;

- boshqa narsaga aylanish -o‘yini, obrazli mashqlar;

- plastikani rivojlantiruvchi mashqlar;

- ritmik soniyalar (logoritmika);

- bolanin qo‘l motorikasini rivojlantiruvchi barmoqlar o‘yin treninglari;

- mimika ifodaliligi, pantomimikaning san'at elementlarini rivojlantiruvchi mashqlar;

- teatr etyudlari;

- dramatizatsiya vaqtida etika bo‘yicha maxsus mashqlar;

- dramatizatsiya va ertaklarni ijro etish va tayyorlash;

- ertak teksti bilan,uning dramatizatsiya-jestlari, mimika, xarakatlar, kostyum, dekoratsiyalar, mizansena vositalari bilan tanishish.

Bolalarning artistik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi dastur[33]

1. Xar-xil turdagi teatrlar bilan birin-ketin tanishtirib borish;

2. Bolalar xar-xil turdagi ljodni etapma-etap o‘zlashtirishi;

3. Ertaklaidagi obraz timsoliga va kiyinish vositasida bolalarning aktyorlik qobiliyatlatini o‘stirish.

1. Qo shiq lnsentrovkasi

2. Teatrlashtirilgan etyudlar

3. Vaqti cho‘g‘lik

4. Folklor bayramlari

5. Teatrlashtirilgan namoyishlar.

1. Teatr jamoasini shakllantirish

2. Dekoratsiya  va shirmalarni tayyorlash

3. Teatr uchun qo‘g‘irchoqlarni yaratish

[33] M. Asranboeva va boshqalar Bolalar psixologiyasi T: Navro’z  2012y

l.Ota-onalar bilan yakka tartibda suhbat o‘tkazish.Tarbiyachilar uchun maslaxatlar berish 3.Bolalar qo‘g‘irchoq teatri bilan xamkorlik qilish

1.Boshqa dasturlar bilan tanishish

2.Teatr namoyishlari uchun yuqori saviyadagi musiqiy badiiy asar tanlash

3 .qahramonlar obrazlarini o‘rganib borish.

**O 'rta guruh**

**Musiqani idrok etish.**

1. Musiqaga emotsional xayrihohlik.
2. Rasm bilan musiqa mazmunini bir-biriga bog‘lash bilimlari

**Qo 'shiq**

1. O‘zining tovushi bilan kuylash.
2. Sof kuylash uchun xarakat
3. Xursand bo‘lib kuylash Musiqa va xarakatlar.

1. Xarakatning ifodaliligi va ritmikligi.
2. Raqs xarakatlarini yetarlicha egallash
3. Faoliyat turlariga emotsional javob berish
4. Musiqa sadosi ostida oddiy xarakatlarning elementar ko‘nikmalarini boshlash va yakunlash.

**Musiqiy-oyin ijodkorligi**

1. O‘yin obrazi uchun original xarakatlar izlab topish.
2. Musiqali xarakatlarning improvizatsiyasi.

Dramatizatsiyaning asosiy prinsiplari

1. Teatr -o‘yin faoliyati
2. O‘ylab topilgan qisqa xikoya va ertakning yakunini o‘ylab topish.
3. Tomoshabinlar oldiga chiqish(ota-onalar va bolalar)

**Teatr mahoratining asosiy ko 'ninkmalari**

Qo‘shiq va raqs improvizatsiyasida ,dramatizatsiya -o‘yinlarida, etyudlarda ifodali obraz yaratish qobilyatlari.

Katta va tayyorlov guruhlar

**Musiqa tinglash**

1. Musiqaga emotsional ta'siri
2. Musiqa janrini ajrata olishi
3. Musiqiy asar shaklini qabul qilish
4. Musiqa kuyini uning emotsional- obrazli mazmunini o‘z-aro munoisabatlarini aniqlashi

**Kuylash**

1. Tabiiy ovoz bilan kuylash
2. Qulay diapazonda kuylash
3. Musiqiy ijrosiz kuylash
4. Xursand bo‘lib kuylash

**Musiqa va xarakatlar**

1. Xarakatlarni ifodaliligi va ritmikligi
2. Xarakatlarda musiqa tilining aksi
3. Raqs xarakatlarining yetarlicha hajmi

4. Aynan ushbu berilgan faoliyat turiga emotsional javobi.
**Qo 'shiqchilik ijodi**
l.Berilgan janr , xarakterda(berilgan matnda) kerakli intonatsiyani bera olish
**Raqs ijodi**
1. Erkin raqsda improvizatsia qilish qobiliyati.
2. Oddiy elementlarni bajara olish[34]

### Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Asarni sahnalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari nimalarlan iborat?
2. Adabiy asarlarni tanlashga qo‘yiladagigan talablarni bilasizmi?
3. Sahnalashtirilgan o‘yinlar bolalarda qaysi sifatlarni tarbiyalashda yordam beradi?
4. Sahnalashtirish uchun badiiy asarni tanlashda nimalarga rioya qilish kerak:
5. Sahnalashtirish ishini qanday bosqichlar bo‘yicha o‘tkazish mumkin?
6. Badiiy asarni sahnalashtirib ko‘rsatish usullarini aytib bering.
7. Turli yosh guruhlari uchun “Ilk qadam” dasturi bo‘yicha asarlar tanlashda nimalarga alohida e’tibor qaratish kerak?
8. Asarni sahnalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlarini muhokama qiling;
9. Sahnalashtirishga tayyorlash bosqichlari, tarbiyachining tayyorgarligi qanday bo‘lishi haqida bahs-munozara yuriting.
10. Asar personajlarini rollarga bolib ijro etish orqali badiiy ijodiy qobiliyatni shakllantirishning tarbiyaviy ahamiyati haqida tushunchaga ega bo‘ling;
11. Turli yosh guruhlarida bolalarning aktyorlik qobiliyatini rivojlantirishning ahamiyatini innovatsion texnologiyalar asosida yoriting;
12. Sahnalashtirish faoliyatining asosiy maqsadi va talablari mavzusida interfaol usullar asosida yoritish,intervyu usuli;
13. Bolalar o‘yini, o‘yin turlari bo‘yicha salaydli taqdimot tayyorlang.

### Foydalanilgan adabiyotlar.


1. Xasanboyeva O. U. va b. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. T. ; Ilm ziyo 2006.
2. Sodikova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. T.; tafakkur bo‘stoni 2013.
3. Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasi . “Sho‘lpon” . T:. 2010 y.
4. Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. , D. Azimova "Ustaxonda amaliy mashg‘ulot" “Musiqa” T:.- 2010y.


## Sahnalashtirishda pedagogning nutqiy san’ati

[34] M. Asranboeva va boshqalar Bolalar psixologiyasi T: Navro’z 2012y

O‘z fikrini bayon qilish va kishilar bilan muloqot qila olish – chinakam san’at. Uni egallash anchagina qiyin, biroq mumkin. Bu san’atni egallash istagida bo‘lganlarga yordam tariqasida ko‘plab kitoblar yozilgan bo‘lib, ularda jonli so‘z, muloqot – fan va san’at ekani haqidagi fikr markaziy o‘rin tutadi.

Nutq har bir inson hayotida katta ahamiyat kasb etadi va uchta: individlararo, individ ichi, umuminsoniy funksiya bajaradi.

***Individlararo funksiya*** – kishilar orasida muloqot vositasi ekani. Bu holda nutq og‘zaki – monolog, dialog, polilog (bir necha kishining suhbati) ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

***Individ ichi funksiyasi*** – nutq shaxsga ko‘plab psixik jarayonlarni (tafakkur, diqqat, xotira, tasavvur va b.) amalga oshirish, ularni yorqin anglash darajasiga yetkazish va psixik jarayonlarni boshqarish va nazorat qilish imkonini beradi.

***Umuminsoniy funksiya*** – nutq har bir insonga umuminsoniy ijtimoiy-tarixiy tajriba xazinasidan axborot olish imkonini beradi. Bu holda nutq – grafik ramz va belgilarda amalga oshiriladigan yozma shaklda bo‘ladi.

Yorqin va o‘tkir notiq, so‘z san’atini to‘laqonli egallagan shaxs sifatida e’tirof etilgan akademik O.V.Klyuchevskiy yozgan edi: «O‘qitishda eng qiyini va eng muhimi – o‘zini eshitishga majbur qilish» [90/ 175]. Nutq mexanik tarzda qayta yaratiladigan tovush qatorga nisbatan anchagina keng hodisa. Nutq – umuman olganda, inson. Har bir fikr (ibora) insonning butun tajribasi, xaraktyori, maqsadlari va hissiyotining lahzalik kashf etilishidir.

Og‘zaki nutq zamonaviy o‘qituvchi kasbiy mahoratining eng muhim elementi bo‘lib, nafaqat o‘quv vazifalarini hal etishga xizmat qiladi. Ifodali nutq pedagogga jamoaviy estetik kechinma muhitini, estetik kommunikatsiya vaziyatini yaratish imkonini beradiki, bunda o‘quv muloqoti badiiy mantiq qonunlariga bo‘ysunadi. O‘qituvchi  darsliklarning qo‘ng‘ir, ,ehtirossiz tilini chetlab, o‘z hikoyalarida aniqlik va batafsillikni obrazlilik, emotsionallik, o‘z individualligi xususiyatlari bilan birlashtira olgandagina ta’lim oluvchilar fan estetikasini his qiladi va tushunadi.  Faqat shundagina fan shtamplardan xoli, qiziqarli shaklda namoyon bo‘ladi. Nutqiy tarbiya uzluksizravishda amalga oshirib boriladi. Tilning

obrazli vositalari, nutqning ifodaliligini egallashning pedagogik ahamiyati ularda insonning dunyoga baholash munosabati, ta’lim oluvchilarga intellektual-emotsional ta’sirining eng muhim omillari bo‘lib xizmat qiladigan modellashtirish va mazmuniy talqin ifodasini topgani bilan belgilanadi.

V.A.Suxomlinskiy o‘qitishda o‘qituvchining jonli so‘zi, bayonning badiiy uslubiga katta o‘rin ajratadi. «Men har qadamda so‘zning go‘zalligi, poetik kuchi, ifori, eng nozik qirralarini, musiqasini ochib bermaganimda, o‘quvchilarga eng go‘zal va eng sirlisini so‘zda ifoda etish istagi bo‘lmaganida tarbiyachi degan nomga haqli bo‘lmasdim» .[35]

Afsuski, ayrim yosh mutaxassislar (o‘qituvchi, tarbiyachilar), ba’zan xatto tajribali o‘qituvchilarning ham nutqlari «quruq», monoton, tushunarsiz, mantiqiy urg‘u bilan to‘la, zero o‘qituvchiga undagi hammasi muhim ko‘rinadi. Unda so‘zlarning mantiqiy markazlar atrofida aniq mantiqiy guruhlanishi mavjud emas. Mazmun mantiqi bilan emas, balki nafasni to‘g‘ri taqsimlay bilmaslik bilan belgilanadigan ixtiyoriy sukutlar, frazaning alohida qismlari o‘rtasida intonatsiona aloqaning yo‘qligi og‘zaki fikr mazmunini idrok etishga xalal beradi. Maqsadning aniq emasligi shunga olib keladiki, nutqiy ifoda alohida qismlarga taqsimlanadi, ularning har biri mustaqil ahamiyatli bo‘lib, butun fikrni idrok etishning yaxlitligini buzadi.

K.S.Stanislavskiy yomon diksiyaning tinglovchida qoldiradigan taassuroti haqida obrazli qilib aytgan edi: «Harflari almashtirilgan so‘z menga … og‘iz o‘rnida qulog‘i, quloq o‘rnida ko‘zi, burun o‘rnida barmog‘i bo‘lgan odamdek tuyuladi. Boshlanishi yutib yuborilgan so‘z boshi yo‘q odamdek. Oxiri tushirib qoldirilgan so‘z esa oyoqlari amputatsiyalangan odamdek… so‘zlar bitta shaklsiz massaga birlashsa, asalga qo‘ngan pashshalarni esga olaman»[36]

Pedagoglar nutqning tinglovchilarga ta’siri qaysi omillarga bog‘liq ekanini bilishi kerak. Bu omillarga quyidagilar kiradi:

- ishontira olish malakasi, nutqning mantiqiy qurilishi;
- nutq texnikasini: nafas olish, ovoz, diksiyani egallaganlik;

---

[35] V.A.Suxomlinskiy Pedagog- fktyorlik qobiliyati T FAM 2001 Y 2021 B
[36] V.A.Suxomlinskiy Pedagog- fktyorlik qobiliyati T FAM 2001 Y 310 B

- ekspressiv malakalar: nutqning obrazliligi, uning intonatsion ifodaliligi, mantiqiy aksentlar va pauzalar (sukutlar, nutqning metodikasi;

- yordamchi (ektosemantik) vositalar: imo-ishora, mimika, plastika, ma’lum poza, muloqot masofasi, «vertikal-diagonal» balansidan foydalanish;

- munozara qilish malakasi yoki faoliyatni tinglovchilar bilan birga axloqiy-psixologik konstruksiyalash;

- perseptiv, tinglovchilar reaksiyasini hisobga olish, ko‘rgazmalilikdan foydalana bilish bilan bog‘liq malakalar.

Tan olingan so‘z ustalarining (adiblar, jamoat arboblarining) fikricha, yaxshi nutq quyidagi kabi belgilar bilan xaraktyorlanadi:

- nutqning to‘g‘riligi, ya’ni ma’lum paytda qabul qilingan adabiy normalarga qat’iy mos va muvofiqligi;

- nutqning intensivligi – pedagog tomonidan axborot uzatish sur’atining o‘zgartirilishi;

- nutqning assotsiativligi, ya’ni tinglovchilarni emotsional va ratsional xotiraga murojaat qildirish bilan ularda hamkechinmalik va fikr uyg‘otish;

- nutqning ifodaliligi, ya’ni fikrga qator ottenkalar (qirralar) baxsh eta bilish, nutqiy shtamplarning yo‘qligi, badiiy obrazliligi, intonatsion boyligi;

- nutqning aniqligi – uning tinglovchi tushunishi uchun qulayligi;

- nutqning mantiqiyligi – uning mantiq konunlariga muvofiqligi;

- nutqning soddaligi – uning tabiiyligi, sun’iylikdan xoli ekani, so‘z hashamdorligi, ortiqcha bezaklarning yo‘qligi;

- nutqning boyligi – aynan bir xil til birliklarining kam takrorlanishi, foydalaniladigan birliklarning rang-barangligi;

- nutqning ixchamligi – ortiqcha so‘z, o‘rinsiz takrorlarning yo‘qligi;

- nutqning tozaligi – uning kelib chiqishi noadabiy bo‘lgan, jargon, vulgar, alohida zaruratsiz qo‘llanayotgan xorijiy so‘zlardan xoli ekani;

- nutqning jonliligi – unda shablonlarning yo‘qligi, uning ifodaliligi, obrazliligi;

- nutqning yoqimliligi – uning eshitish uchun yoqimli jarang talablariga mosligi, so‘zlarni ularning tovush tomonini hisobga olgan holda tanlanganligi.[37]

Istalgan san’at turi va fanda bo‘lgani kabi, nutqni egallashda ham tabiat tomonidan tegishli iqtidor va qobiliyat berilgan pedagoglar tobora katta muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Ma’noli gapirish ko‘pchilik o‘qituvchilarning qo‘lidan keladi. Chiroyli, ishonchliligi bilan o‘quvchilarni maftun qiladigan darajada gapirish – rassom o‘z qalami bilan tasvirlaganni so‘z yordamida amalga oshira oladigan, artistik o‘qituvchilarning ishi. Ularning nutqi hamisha badiiylik ottenkasiga ega. U ifodali va yangi, siyqasi chiqmagan. Ko‘p hollarda nutqning go‘zalligini ma’lum bir shaxsning iste’dod individualligi bilan izohlash mumkin. Ba’zida shunday bo‘ladiki, kishi rangin gapirolmaydi, ammo uni tinimsiz tinglash mumkin.

Noordinar, ma’nan boy shaxslar og‘zaki muloqot magiyasiga (sehriga) ega. Ularning obrazi, xulq maneralari, ovozning intonatsion bo‘yog‘i, ko‘zlarining flyuid porlab turishi nutqiga nazokat baxsh etadi. Bunday kishilardan, ular so‘zlaganda, taralgan allaqanday toklar kishilar ko‘ngiga yo‘l topadi. Bu kishilar insonlarning emotsiyalarini boshqaradi, inson idroki hayratomuz mexanizmini ishga tushirib yuboradi. Bu – nutqiy artistizmni egallagan kishilar.

***Nutqiy artistizm*** – o‘qituvchi nutqidagi yorqin yo‘nalganlik, unda ijod qilish, yarata bilish, o‘quvchilarda emotsional-hissiy javob uyg‘ota bilish. Bu uning enegetikasi, intensivligi, assotsiativligi, ifodaliligi, ekspressivligi, noverbal tildan nozik va o‘rinli foydalanishi.

***Nutq energetikasi*** xulq va nutq talaffuz qilish manerasining birligida ifoda etadi.

Artistik pedagog o‘z atrofida emotsional biomaydon hosil qiladi. Unga kirib qolganlar beixtiyor o‘z emotsiyalarini ishga soladi, bu pedagog ta’siri bilan belgilangan yo‘nalishda sodir bo‘ladi.

Mazmunning emotsional bo‘yoqdorligini oshirishga pedagog nutqning intonasuion rang-barangligi hisobiga erishadi. Ovoz ottenkalari palitrasi qanchalik

---

[37] V.A.Suxomlinskiy Pedagog- fktyorlik qobiliyati T FAM 2001 Y

boy bo‘lsa, axborot shunchalik ifodali va tushunarli bo‘ladi. O‘qituvchi nutqininig ta’lim oluvchilarga ma’lum qilinadigan tovush balandligi diapazonining qashshoqligi ovoz monotoniga olib keladi, bundan esa ovoz palitrasi qashshoqligi, nutqning pedagogik ta’siri zaiflashishi kelib chiqadi.

Insonning emotsional javobi qanchalik yorqin bo‘lsa, uning nutqi melodik ifodalilikka shunchalik boy bo‘ladi. Kerakli melodik aksentlardan mahrum nutq hissizdir. Intonatsiyani bejiz emotsional hayotimiz ko‘zgusi deyishmaydi: hissiy va emotsional o‘zaro munosabatlar madaniyati fikrni intonatsion bezash bilan bog‘liq.

Ovoz tonalligini alohida ta’kidlash zarur bo‘ladi. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, past ovozlarga psixologik ishonch baland ovozlarga qaraganda anchagina yuqori. Pedagog bu qonuniyatni hisobga olishi va o‘z ovozini qo‘yish ustida ishlashi lozim.

***Nutqning ekspressivligi*** so‘zlovchining emotsional kuchlanishli nutqida, uning to‘liq o‘zini bag‘ishlaganidan dalolat berib turgan mimikasi, imo-ishoralari va pozasida o‘z ifodasini topadi. Ehtiros, chinakam quvonch yoki g‘amginlik, xayrihoxlik ekspressivlikning namoyon bo‘lish shakllari sanaladi.

***Noverbal til*** axborotni noverbal (nolisoniy) belgilar: poza, imo-ishora, mimika, qarashlar yordamida ifodalash vositasi sanaladi.

Samarali nutqiy ta’sir uchun pedagogning tana plastikasi yordamida ma’lum munosabat va holatlarni ifoda etish, shuningdek, axborotning qaysidir qismini translyatsiyalash va maqbul muhit yaratilishiga ta’sir o‘tkazish malakalari juda muhim. O‘qituvchi «ochiq poza» ni qabul qilish va muloqotning optimal, ya’ni psixologik nuqtai nazardan qulay, shaxsiy makonga bostirib kirishning oldini oladigan masofasini tanlashni o‘rganishi zarur.

Axborot uzatish vaqtida «diagonal va vertikal» balansi katta ahamiyat kasb etadi. «Diagonal» - gavdaning oldinga sal egilishi. U ochiqlik sifatida idrok etiladi va shu subabali ta’lim oluvchilar bilan muloqot chog‘ida, ayniqsa idrok etish va tushunish uchun tobora murakkab bo‘lgan axborotni translyatsiyalashda o‘qituvchi usiz ish ko‘rishi mumkin emas. [38]

---

[38] V.A.Suxomlinskiy Pedagog- fktyorlik qobiliyati T FAM 2001 Y

Plastikaning yana bir muhim tavsifi uning melodikligi sanaladi. bu harakat va imo-ishoralar inson qiyofasi, uning nutqi bilan uyg‘unlik hosil qiladi, muloqot mavzusi va uslubiga mos keladi. Pedagogning plastikasi, imo-ishoralari, artikulyatsiyasi, tinglovchining g‘ashiga tegmasligi va kulgu uyg‘otmasligi, aksincha o‘ziga jalb qilishi, maftun etishi, go‘zal va nazokatli tasavvur uyg‘otishi kerak.

Pedagog nutqining artistikligi ko‘p jihatdan uning «ritorik instrumentariy» dan foydalana bilishiga bog‘liq. Bu malakaning amaliy vazifasi – kommunikatsion muloqotga dilni tortadigan va fikr uyg‘otadigan ta’sir ko‘rsatish. Ritorik instrumentariy, odatda, qator kommunikatsion effektlarda: vizual imidj, birinchi jumlalar, asoslash (argumentlash), axborotni kvant tashlash, sukut, relaksatsiya, dispersiya, tasavvur, munozara, ellips effektlarida namoyon bo‘ladi [35/ 93, 94].

***Vizual imidj*** effekti pedagogning tashqi qiyofasi haqidagi tasavvur bilan vositalanadi.

O‘ziga tortadigan tashqi ko‘rinish, muloqotning elegant manerasi, xayrihohlik ifoda etgan ochiq nazar - bularning hammasi ta’lim oluvchilarga o‘qituvchi so‘zini boshlashidan avvaloq ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

***Birinchi jumlalar*** effekti o‘quvchilarning pedagog haqidagi dastlabki tasavvurini mustahkamlash yoki korreksiyalash vazifasini bajaradi. Bu effektning asosiy xarakteristikasi ularda mujassamlangan qiziqarli axborotdir.

***Axborotni kvant tashlash*** effekti auditoriya diqqatini tutib turishga qaratilgan ta’sirli ritorik usullardan biri sanaladi. u nutqiy maydon bo‘ylab yangi fikr va asoslarning oldindan puxta o‘ylangan tarzda taqsimlanishiga asoslanadi. Yangi axborot «kvantlari» empirik ma’lumotlar, original fikrlar, yorqin sitatalar, ritorik so‘roqlar ko‘rinishida bo‘lib, ta’lim oluvchilarga pedagog fikrini tushunishga, quvonch hissini tuyishga intilib, o‘z diqqatini faollashtirishga yordam beradi.

Pedagog nutqi qanchalik murakkab bo‘lsa, ta’lim oluvchilar diqqatini jamlash uchun shuncha ko‘p sa’y-harakat qilishiga to‘g‘ri keladi. Ularga yordam tariqasida ***relaksatsiya*** effekti taklif qilinadi. Uning maqsadi – emotsional

keskinlikni (zo‘riqishni) bartaraf qilish. Bu holda qo‘llanadigan yumor klassik ritorik usul sanaladi. U tufayli intellekt dam olishi uchun sukut hosil qilinadi, bu esa uni (intellektni) yangi emotsional quvvat bilan to‘ldirishga yordam beradi.

***Munozara*** effektining vazifasi - ta’lim oluvchilar uchun qiziqarli bo‘lgan muammoni qo‘yish, ularni mazkur muammo yuzasidan fikr almashishga jalb qilish va chiqishlariga mohirona dirijerlik qilish. Bu effekt yordamida pedagog ta’lim oluvchilar bilan ishlash jarayonida hamkorlik va suhbat obrazini yaratishi mumkin. O‘qituvchining nutqi, lisoniy yoki nolisoniy shaklda bo‘lishidan qat’iy nazar, hamma vaqt o‘quvchiga (talabaga) xuddi muloqotdagi hamkorga kabi qaratilgan bo‘lishi kerak.

Pedagog oldida hamisha barcha ta’lim oluvchilarning fikrlash faolligini rag‘batlantirish vazifasi turadi. Unga erishishning samarali yo‘llaridan biri ***tasavvur*** (tasavvurni uyg‘otish) effekti sanaladi. Axborot keraklicha to‘liq bo‘lmaganda, kishi uning yetishmasligini o‘zining gap, fahmlash, xayollari ko‘rinishidagi fikrlash sa’y-harakatlari bilan to‘ldirish istagida bo‘lganida tasavvurni rag‘batlantirish mumkin.[39]

***Ellips*** effekti estrada so‘zlashuv janrida faol qo‘llanadi. Uning mazmunini quyidagicha tasavvur qilish mumkin: «ellips» - jumlalarning, mazkur matnda oson tiklanadigan, tuzilmaviy zarur elementini tushirib qoldirish. Bu ezop tiliga xos, biroq nisbatan osonroq hodisa. Uning ijro namunalarini taniqli artistlar (A.Raykin va b.) repertuarida ko‘plab kuzatish mumkin. Ular o‘z chiqishlari matnini mohirlik bilan tayyorlagan, chiqishlar davomida tomoshabin bilan gaplishib turib, jumla oxirini, tushirib qoldirilgan so‘zlarni fahmlab olish, jo‘rlikda uni aytish imkonini berib, sukut saqlaganlar (pauza qilganlar). Tomoshabin bilan bu kabi lisoniy o‘yin ularni qiziqtirib, emotsional jonlanish uyg‘otgan.

Pedagogning nutqi ifodali, yorqin bo‘lishi, ta’lim oluvchilarga jalb qiladigan darajada ta’sir ko‘rsatishi uchun qo‘llanadigan vositalar anchagina. Bu maqol va matallar, hayotdan va adabiy asarlardan misollar, troplar (metafora, o‘xshatish,

[39] A.Raykin Saxna tili Moskva 2004

qiyoslash, giperpbola, epitet va b.); kommunikatsion effekt va noverbal tildan foydalanish.[40]

Biroq so‘z san’ati uchun o‘qituvchining ichki olami xususiyatlari, uning madaniyati va ma’naviy boyligi, o‘z so‘zining haq ekaniga ishonchi alohida katta ahamiyat kasb etadi. «Hozirda o‘qituvchining texnik mahorati haqida, uning ovozi qo‘yilgan bo‘lishi kerakligi haqida, imo-ishoralari ishlangan, intonatsiyalari rostlangan bo‘lishi kerakligi haqida ko‘p gapiriladi. Biroq yanada muhimi … o‘qituvchining ma’naviy qiyofasi, muloqot manerasi va xulq-atvori» [41]

## -Mavzu. Qo‘g‘irchoq teatrining paydo bo‘lishi, tarixiy ildizlari va tarbiyaviy ahamiyati.

### Reja;

1.Qo‘g‘irchoq teatrining paydo bo‘lish tarixi.
2.Maktabgacha yoshdagi bolalarni qo‘g‘irchoq teatri personajlari bilan tanishtirish.
3.Qo‘g‘irchoq teatri turlari.
4.Qo‘g‘irchoq teatrining tarixiy ahamiyati.

**Tayanch so`zlar:** *”tiyation”, spektakl, ”tomoshaxona” ,chodir jamol teatri, chodir xayol teatri, fonus xayol teatri ,stol teatri, barmoq teatri.*

Ma'lumki, mamlakatimizda teatrning deyarli hamma turlari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Teatr bu yunoncha “*tiyation”* so‘zidan olingan bo‘lib, “tomoshaxona” degan ma'noni bildiradi. Jajji kichkintoylarimizning sevimli teatri, bu qo‘g‘irchoq teatridir. Bu teatr orqali bolalar o‘zlariga yaqin va tanish bo‘lgan o‘yinchoqlarni, ayiqcha, quyoncha, kuchukcha va boshqa qahramonlarni jonli ravishda ko‘radilar. Teatr bolalarga xursandchilik va quvonch baxsh etish bilan birga katta tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida katta spektakllarni qo‘yish mumkin emas. Kichik sahnali, kichik ertak asosida o‘zlarining o‘yinchoqlari yordamida qo‘yishlari mumkin. Bu kichik ko‘rinishlarning har biri ham bolalarda katta taassurot uyg‘otadi va bayram ertaklariga ko‘tarinki ruh baxsh etadi. Har qanday badiiy asar qo‘g‘irchoq teatri orqali ko‘rsatilsa, bolalar uchun yanada tushunarli bo‘ladi. Qo‘g‘irchoq qo‘lqop teatrini aytib bu teatrlarga murojaat qilishimiz lozim. Chunki bunday ertaklar olami bolalarning sevimli tomoshasi hisoblanadi. Teatr bolalarga xursandchilik va quvonch baxsh etish bilan birga katta tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir.

[40] V.A.Suxomlinskiy Pedagog- fktyorlik qobiliyati T FAM 2001 Y
Y[41] A.Raykin Saxna tili Moskva 2004

Maktabgacha talim muassasalarida katta spektakllarni qoyish mumkin emas. Kichik sahnali kichik ertak asosida ozlarining oyinchoqlari yordamida qoyish mumkin. Bu kichik korinishlarning har biri ham bolalarda katta taassurot uygotadi va bayram ertaklariga kotarinki rux baxsh etadi.

Har qanday badiiy asar qo‘g‘irchoq teatri orqali ko‘rsatilsa bolalar uchun yanada tushunarli boladi.

**Qo‘g‘irchoq turlari**

1. Qo‘lqopli qo‘g‘irchoq turi.
2. Trossli qo‘g‘irchoq turi (simli).
3. Iplar yordamida (marionetka) boshqaradigan qo‘g‘irchoq turi.
4. Ochiq usulda boshqariladigan (planshetli) qo‘g‘irchoq turi.
5. Soyasi tushirilib o‘ynatiladigan qo‘g‘irchoq turi.
6. Niqob (maska) bilan ishlanadigan qo‘g‘irchoq.

**Qo‘gi’rchoqlarni boshqarishda qo‘l harakati.**

Qo‘g‘irchoq teatri aktyori uchun eng zarur bo‘lgan yo‘nalish bu uning qo‘l harakatchanligidir. Haqiqatdan ham inson xatti-harakatining eng faol ijrochisi bo‘lgan qo‘l qo‘g‘irchoq teatrida o‘zining mo‘jizakorligi sehrgarlik kuchini yanada yaqqol namoyon qiladi. Dramaturg asaridagi qiyofalar musavvir va qo‘gi’rchoq ustasining ijodiy ko‘magida dunyoga kelgan qahramonlar qo‘g‘irchoq teatri aktyori qo‘li bilan jonlanib mantiqli maqsadli xatti-harakatga moyil qilinadi.

Bu o‘z o‘rnida qo‘g‘irchoq teatri aktyoridan qo‘llarining naqadar harakatchan, chiniqqan, chidamli bo‘lishini taqozo etadi. Shuning uchun qo‘g‘irchoqlarni katta mahorat bilan boshqarib turli mantiqli xatti-harakatlar sodir qilish bilan birga qo‘l yalangoch holda qo‘lqopli holatda yoki dumaloqcha kiygan holatda turli harakatlarni amalga oshirib turfa obrazlar yaratadi va boy imkoniyatlarini namoyon etadi. [42]

Demak qo‘g‘irchoq teatri aktyorning qo‘l harakatchanligi cheksiz imkoniyatlarga ega bo‘lishi kerak. [43]

**Sahnada bajarilayotgan harakat uch xil holatda bo‘ladi:**

**Jismoniy harakat** bajariladigan ishning tashqi holati (kiyinish gul taqdim qilish osmaqoyish va boshqalar). Bu harakat asosan psixik harakatni amalga oshirish uchun moslama sifatida xizmatqiladi.

**Psixik harakat** inson’ongiga, ruhiga, holatiga ta’sir qilib uni o‘zgartirishga olib keladi (tushuntirish, maqtash, rad etish, kulish va h.k.).

**So‘zli harakat-so‘z** bu fikr bayoni. So‘zni sahnada aniq maqsadga erishmoq uchun aytiladi. So‘z inson ruhiyatiga yani intellektiga tasavvuriga va his-tuygulariga har tomonlama ta’sir qilish kuchiga ega. Jismoniy, psixik va so‘zli xatti-harakatlarning barchasi sahnada bir maqsadga erishish uchun yo‘naltiriladi.

Qo‘g‘irchoq teatrida qo‘g‘irchoqboz jonsiz o‘yinchoqqa jon baxsh etadi. Qo‘g‘irchoqboz soatlab oyna oldida mashq qilib obrazni jonlashtirishga harakat qiladi. Shuning uchun qo‘g‘irchoqboz jismoniy sog‘lom qo‘l va barmoqlari abjir

---

[42] .“Илк қадам” давлат ўқув давлат дастури. Т. 2018й.

[43] V.A.Suxomlinskiy Pedagog- fktyorlik qobiliyati T FAM 2001 Y

epchil bo‘lishi kerak. Chunki qo‘g‘irchoqbozning har bir qo‘l harakati qahramon fikrini ifodalab berishi kerak.

Qo‘g‘irchoqboz har xil holatda tizzalab o‘tirgan holatda, yotgan holda, to‘siq ortida rol ijro etishi mumkin. Ishtirokchilarning bo‘yiga moslab to‘siq yaratish kerak. To‘siq qanday balandlikda bo‘lishidan qatiy nazar uning ustki qismiga biriktirilgan taxta (reyka) qo‘g‘irchoq uchun taxminiy yuradigan maydon hisoblanadi. Aktyor sahnada qanday yursa qo‘g‘irchoq ham shartli maydonda xuddi shunday yurishi kerak yani reykadan pastga tushib ham chiqib ham ketmasligi kerak. To‘siqdan qo‘g‘irchoqni uchdan ikki qismi tomoshabinga aniq ko‘rinishi shart.

Sahna ichkarisiga uzoqlashgani sari qo‘g‘irchoqni balandroq ko‘tarish kerak chunki to‘siqdan uzoqlashganda qo‘g‘irchoq tomoshabinga kichrayib ko‘rinadi. Qo‘g‘irchoq teatri dekoratsiyalari ixcham bo‘lishi kerak. To‘siqda jihozlar qancha kam bo‘lsa shuncha yaxshi chunki qo‘g‘irchoqlar harakati va ijrochilari uchun erkinlik va osonlik yaratiladi.

Qo‘g‘irchoq spektaklini musiqasiz tasavvur qilish qiyin musiqa parda ochilganda, yopilganda, korinish o‘rtasida, sahna o‘zgarishidagi bo‘shliqlarni to‘ldirib turadi, spektaklni mukammalashtiradi.

**Asar bilan tanishtirish va rollarni taqsimlash.**

Ish asar tanlash uni tasdiqdan o‘tkazish, bolalar bilan asarni to‘laqonli tahlil qilish, rassom bilan asar dekoratsiya va qo‘g‘irchoqlarni eskizini tayyorlash va tasdiqlashdan iborat. Shuningdek tayyor eskizlarni qo‘g‘irchoq yasash ustaxonasiga ularni tayyorlash uchun topshirish zarur bo‘ladi. Shunday qilib bolalar uchun tanlangan asar yaxshi dramaturgiyaga asoslangan zamon talabiga javob bera oladigan chuqur g‘oyali bo‘lishi kerak. Albatta spektakl bolalarning imkoniyatidan kelib chiqqan holda tanlanadi. Asarning eng asosiy tomonlaridan biri spektakld bolalarning ijodiy imkoniyatlarini to‘laqonli ochib bera oladigan turli xil xarkaterli obrazlar bo‘lishi shart. Chunki har bir bola o‘zining ijodiy tomonlarini ocha oladigan obrazga ega bo‘lmog‘i darkor. Demak spektakl yaratishda rejissor, rassom, qo‘g‘irchoq ustasi, kompozitor va butaforlar hamkorlikda ishlaydi.

**Q’og‘irchoqlar ovozi.**

Qo‘g‘irchoq teatrida sahna jihozlari va butaforlar soxta bo‘lmaydi balki aktyorning qo‘lida qo‘g‘irchoq ham har xil matolardan yasalgan jonsiz personajdir. Aktyor tomoshabinlar ko‘z o‘ngida qo‘g‘irchoqni harakatga keltirib uni o‘zi sahnada o‘rab turgan jonsiz narsalarni ko‘rishga, sezishga va his qilishga olib keladi. Bu esa aktyorning qo‘g‘irchoqqa sahna jihoz va anjomlarga ishonch bilan qarab ular bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘lish kerakligini ta’kidlaydi. Qo‘g‘irchoq bilan ishlash jarayonida esa qo‘g‘irchoqning o‘zi jonsiz mato bo‘lsa uning predmet bilan ishlash jarayoni ham jonsizlikni tug‘diradi. Shuning uchun u sahnada jonli aniq mantiqqa moyil harakat qilishi uchun aktyor xatti-harakatini ichki ko‘zguda aniq ko‘rib so‘ng uni qo‘lidagi qo‘g‘irchog‘iga mantiq va me’yor qonuni asosida ko‘chiradi. Shunda qo‘g‘irchoqning plastik xatti-harakati jonli kechadi.

**Hayvonlar ovozi va ular xatti-harakatlari.**

"Hayvonlar hiyoboni" mashqini oladigan bo'lsak bu yerda shart-sharoit "yaylov". Demak erta tong. Ertalab uyg'ongan har bir jonzot xoh u qush bo'lsin xoh u echki yoki yumronqoziq - birinchi navbatda uyg'onib o'zini o'rab turgan shart-sharoitni ko'radi. So'ng uni baholaydi. Uning atrofini o'rab turgan borliqqa o'z munosabatini bildirib so'ng xatti-harakat qilishga o'tadi. "Hayvonlar hiyoboni" mashqidagi quyon o'ziga yegulik biror nima izlab yurganda unga hamla qilmoqchi bo'lgan bo'rini ko'rib jon saqlash uchun yashirinib oladi. Echki bolasi o'yinqaroqlik qilib onasidan uzoqlashib qolganini anglab bor ovozi bilan onasini "be..lab" chaqiradi. Uning tovushini eshitgan ona echki yugurib kelib bolasini o'zidan uzoqlashgani uchun uni koyib o'zi bilan olib ketadi. Ochilgan lolalardan guldasta tergan yumronqoziq gullarni qizga sovga qiladi va h.k. Bu mashqda bolalar quyon, bo'ri, echki, yumronqoziq kabi hayvonlar xatti-harakatini, ovozini o'zi bajarayotgan plastik harakatining mantiqidan badanining harakatchanligiga moyilligidan kelib chiqqan holda to'g'ri aniq maqsadli harakat qilishga o'z tanasini o'rgatmogi lozim.

Albatta bolalar aynan shu hayvon yoki parrandaning o'ylab topgan shart-sharoitga o'z munosabatini bildirgan va uning harakati nimaga asoslanganini aniq bilgandagina xatti-harakatga o'tiladi.

Bolalar yorqin va kuchli tasavvurga ega bo'lishi lozim. Uning tasavvuri asosli hamda puxta o'ylab topilgan hayot kuzatishlaridan to'plagan bilimlariga asoslangan bo'lmogi darkor. Bolalar tasavvurini rivojlantirish va unga tushuntira olishi uchun hayotni o'rganish, tabiat va jonzotlarning xarakterini, ularning munosabatlarini, plastikasini, insonlarning xulq-atvorini, har xil sharoitlarda o'zini tutishini, kasb-korini hayotda tutgan o'rni va mavqeiga qarab o'zgarishini kuzatib o'rganish va bu bilim xazinasidan ijod paytida unumli foydalanishi kerak.

Qo'g'irchoq teatrida bolalar ruhiyati e'tiborga olinib rang-barang obrazlar yaratiladi.

Demak qo'g'irchoq teatri aktyori faqatgina tasavvurga emas balki kuchli fantaziyaga ham ega bo'lishi shart. Fantaziya bu yo'q narsani voqealikda uchramaydigan voqea hodisalarni hech qachon bo'lmagan va bo'la olmaydigan narsalarni yaratadi. Fantaziya aynan qo'g'irchoq teatri aktyori uchun kerakli jarayon hisoblanadi. Chunki qo'g'irchoq teatri sahnasida hech qaysi teatrda bo'lmaydigan va bo'lishi mumkin bo'lmagan voqea va hodisalar sodir bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda qo'g'irchoq teatrida tasavvur bilan fantaziya bir biriga bog'langan holda aktyor ijodiga yordam beradi.

Qo'g'irchoq teatri uchun eng kerakli bo'lgan shirmani tayyorlab olish kerak. Shirmaning balandligi 50 sm, uzunligi 80 sm reyka yordamida tayyorlanadi. Reykaga mix qoqilib, orqa tomoniga ikki tomoni ochiladigan qilib, parda tikiladi va o'rnatiladi. Qo'g'irchoqlarni papye-mashye usulida tayyorlash mumkin. Ertak qahramonlari tayyor bo'lgach, matnni yozib, sahnalashtirishga tayyorgarlik ko'riladi. Bular ertak ishtirokchilari, personajlar, ertak matni, boshlovchi, ertakchi bobo yoki momolar bo'ladi.




**QO‘G‘IRCHOQ TEATRI TURLARI:**

O‘zbekistonda qo‘g‘irchoq teatri o‘zining uzoq tarixiga ega. Bizda «qo‘g‘irchoq o‘yin» deb yuritiluvchi bu san'atning, xususan, qo‘lga kiyib o‘ynatiladigan va soyasi tushiriladigan turlari o‘tmishda keng tarqalgan. Chodiri, sahnasining tuzilishi, qo‘g‘irchoqlarining yasalishi va o‘ynatilishi spektakllarning mavzusi, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlariga ko‘ra ushbu teatr turlari bir-biridan xiyla farq qilsada, uch jihati ularni yaqinlashtirib turgan.

Har bir tur tomoshalarda musiqa muhim ro`l o‘ynagan. Bu bir. Ikkinchidan, ularda korfarmon nomidagi usta va tajribali qo‘g‘irchoqboz, ya'ni guruh boshlig‘i tomoshabinlarga ko‘ringan holda qo‘g‘irchoq qahramonlar bilan savol-javob qilib, gapini izohlab, shu yo‘l bilan tomoshani boshqargan. Uchinchidan, osti, usti yoki ortidagi qo‘g‘irchoqboz tiliga safl degan moslama puflagich qo‘yib, qo‘g‘irchoqlarga mos chiyildoq, o‘tkir tovush hosil qilgan.

**«Chodir jamol**» teatri.

«Chodir jamol»da ijtimoiy va maishiy hayot bilan bog‘liq bo‘lgan voqealar satira va yumor vositalari bilan aks ettirilgan. Voqealar markazida Kachal polvon obrazi turgan. Kachal polvon mehnatkash xalq vakilidir. U jasur va bahodir. U hatto dev, shayton va ajdardan qo‘rqmaydi.

Shunisi qiziqki, Kachal polvonning tashqi qiyofasi ham, harakteri ham Osiyo va Yevropadagi shu tipdagi qahramonlarga o‘xshab ketadi.

«Chodir jamol» teatrida har safar bir juft qo‘g‘irchoq chiqib bir ko‘rinishli mitti pyesa hosil qilgan. Ma'lumotlarga ko‘ra, 40 ta qo‘g‘irchoq ishtirokida o‘yinlar namoyish qilingan. Demak, yigirmata sahna bo‘lgan, deb taxmin qilish mumkin.

«Ajdarhoning hoji kampirai yutishi», «Oyim xola bilan uning kuchugi Qoravoy», «Ikki masxaraboz», «Maymun o‘yini», «Toshboz», «Tergovchi» kabi sahnalar ham ko‘rsatilgan. «Chodir jamol» tomoshalari Kachal polvon sarguzashtlari qissasini bayon qilgani, har epizodning tugal bir voqeadan tashkil topishi o‘ziga xos kompozitsiyani yuzaga keltirgan bo‘lib, u yangi epizodlar kiritish yoki sharoitga qarab bir an'anaviy epizod o‘rniga boshqasini ko‘rsatishga keng yo‘l ochgan.

**«Chodir xayol» teatri.**

«Chodir xayol» teatri «Chodir jamol», ga nisbatan ancha murakkab va mukammaldir. Bu teatr tomoshalari, odatda, kechqurunlari ko‘rsatiigani, shu'la va shovqindan foydalanilgani tufayli qora pardalar ichidagi qo‘g‘irchoqlarning iplari ko‘rinmay, xuddi qo‘g‘irchoqlarning o‘zlari harakat qilayotganday tabiiy chiqqan. Har bir mohir qo‘g‘irchoqboz ayni vaqtda 8—10 qo‘g‘irchoqni harakatga keltira olgan.

*«Qo‘l qo‘g‘irchoq»* teatrida bir tomoshada ko‘pi bilan o‘nta qo‘g‘irchoq ishtirok etgan bo‘lsa, «Chodir xayol»da bir yo‘la ellikdan ortiq qo‘g‘irchoq o‘ynagan. «Chodir xayol» qo‘g‘irchoqlari kattaroq qilib yasalgan, qo`l-oyoqlari bo`lgan. Bizga ma'lum qo‘g‘irchoqlar orasida Ernazar maymunchi, Toshpo‘lat dorboz, Orif jarchi, Oysha xotin olmaboz, Xitoy tabib, Yo‘ldosh yasovul, Saydulla yuzboshi, farrosh, otashxo‘r, toshboz,

to‘pchi, yallachi kabi personajlar, laylak, maymun, eshak, ajdar kabi maxluqlar va hayvonlar qiyofasi uchraydi.

Bizgacha «Chodir xayol»ning «Sarkardalar» degan bir pyesasi etib kelgan. Unda tomoshani yasovul boshlab beradi. Shunday qilib, o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri ijtimoiy fosh etuvchi va yumoristik xarakterga ega bo‘lib, muhim matkuraviy va estetik ahamiyat kasb etgan.

Qo‘g‘irchoqbozlar mohir san'atkor bo‘lganliklaridan ular yaratgan teatrning g‘oyaviy badiiy darajasi ham yuqori bo‘lgan. Teatrning har ikki turida ham tomoshalarni asosan ikki kishi — qo‘g‘irchoqboz va korfarmon boshqargan. Qo‘g‘irchoqboz chodir ichida yoki parda orqasida safl yordamida qo‘g‘irchoqlar tilida gapirgan, ularni harakatga keltirgan. Qo‘g‘irchoqbozlar ayni vaqtda musiqadan yaxshi xabardor bo‘lganlar. Musiqa ham badiiy bezak, ham ko‘proq qahramonlar holatini ifodalovchi vosita sifatida xizmat qilgan.

Qo‘g‘irchoq o‘yini xalq og‘zaki ijodiga asoslangan ajoyib-g‘aroyib san'at. Uning yozma matni bo‘lmagan. U uzoq yillar kuzatish, mashq qilish, yodlash, malaka hosil qilish orqali muayyan syujetlar, vosita va uslublar bilan ustozdan shogirdga o‘tib kelavergan. Buxoro viloyati G‘ijduvon tumanidagi G‘ishti qish-log‘ida o‘z iste'dodi bilan mehnatkashlarni xushnud qilib kelgan Xolmurod boboning (1897—1967) ham ota-bobosi qo‘g‘irchoqboz o‘tgan. Uning otasi Siddiq kalon (1858 —1940), bobosi Abdukarim (1800—1870) lar qo‘g‘irchoq teatrining yirik namoyandalari hisoblangan. Shu davrda yuqorida nomlari zikr etilgan qo‘g‘irchoq, san'at sohiblaridan tashqari Zarif misgar Qori hoji, Sharof Chala, Sadriddin eshon, Rajab meshkob (Buxoro), Jo‘ra Qayroq, Hamro mehtar, Aziz bobo (G‘ijdivon), Novot lug‘takboz, Mahmud meh-tar, Hamro bobo (Samarqand), Tursunboy Abdujabborov (Toshkent) kabi o‘nlab usta qo‘g‘irchoqbozlar o‘tganlar. Ular jamiyatdagi yomonlik va illatlarni, zo‘ravonlik, tekintomoq amaldorlarni qattiq tanqid qilganlar hamda mehnatkash halqqa kulgi, zavq bag‘ishlaganlar. Kezi kelganda shuni ham aytish kerakki, bu sanatkorlarning maqsadi qancha ulug‘ va sa'nati qancha mazmundor va yuksak bo‘lmasin, tengsizlik, zulm hukm surgan jamiyatda qo‘g‘irchoqbozlar eng past tabaqa hisoblangan, tahqirlangan, xo‘rlangan, ruhoniylar qo‘g‘irchoq teatrini «shayton o‘yini», narigi dunyoda qo‘g‘irchoqlar jon talab qiladi, «qo‘g‘irchoqboz shakkok va diyonatsiz» degan gaplarni xalq orasida targ‘ib qilib kelganlar. XV asrda Xuroson va Movarounnahrda boshqa san'atkorlar qatori qo‘g‘irchoq teatri ham taraqqiy etdi. Bu davrda «Chodir jamol», «Chodir xayol» va «Fonus xayol» deb ataluvchi hamda qo‘g‘irchoq yasash va uni o‘ynatishda, shuningdek, tomosha mazmuniga ko‘ra bir-biridan keskin farqlanib turuvchi uch tur keng tarqalgan. Qo‘g‘irchoqlar qo‘lga kiyib o‘ynatiladigan «Chodir jamol»da hayotiy voqealar, iplar vositasida boshqariladigan «Chodir xayol»da mifologiya, soyasi tushiriladigan «Fonus xayol»da qahramonlik eposi aks ettirilgan. Ayniqsa, XIX asr o‘rtalarida qo‘g‘irchoq o‘yinsatirasining tig‘i o‘tkirlashdi. Qo‘g‘irchoqbozlar faollashib, hukmron tabaqalarga nisbatan o‘z munosabatlarini va baholarini dadil hamda oshkora ifoda qildilar. Satira tig‘iga yirik amaldorlar, sudxo‘rlar, o‘g‘rilar sharmandai sharmisor bo‘ldilar.

**«Fonus xayol» teatri.**

«Fonus xayol» teatri qadimdan mavjud boiib, ayniqsa u XI asrda Yava va Xitoy davlatlarida keng tarqalgan. Xitoydagi «Fonus xayol» teatrida qo‘g‘irchoqlar qo‘tos,

eshak, qo‘ylarning terisidan qilingan. Ular har xil rangga bo‘yalgan. Masalan, qo‘g‘irchoqning yuzi oq bo‘lsa, u ayyor, qizil bo‘lsa-dono, qora bo‘isa — saxiy degan ma'nolarni anglatgan. Agarda qo‘g‘irchoqning qo‘lida qamchi bo‘lsa-u otda, eshkak bo‘lsa-qayiqda ketayotganini bildirgan.

Qo‘g‘irchoqlar yog‘langan qog‘oz yoki matodan qilingan ekranga zich tekkizib yurgiziladi. Ko‘rsatuv vaqtida musiqa chalib turiladi. Voqea tarixiy yoki ertak asosida bo‘lishi mumkin. Xitoyda hozirgi kunda ham bunday teatr mavjud bo‘lib, u «Impuri» deb ataladi. Bunday teatr Yavada ham bor bo‘lib, uning nomi «Vayan-puro»dir. Uning syujeti asosida qadimgi afsonalar yotadi. Qo‘g‘irchoqlar asosan hayvonlar terisidan tayyorlanib, tayoqchalarga mahkamlab qo‘yiladi.

Ular badiiy so‘z ustasining hikoyasi yoki qo‘shiq jo‘rligida harakat qilishadi.

Bunday teatr Turkiyada ham keng tarqalgan bo‘lib, ular «Qaraiz», deb ataladi. Tomoshalar odatda qahvaxonalarda ko‘rsa-tiladi. Qo‘g‘irchoqlar yaxshi oshlangan teridan yasalib, asosan qizil va ko‘k rangga bo‘yaladi. «Fonus xayol» teatri Turkiyadan avval Italiyaga, so‘ngra Angliya, Fransiya, Germaniyaga tarqalgan. XVIII asrning ikkinchi yarmi «Fonus xayol» teatrining Yevropada eng gullagan davri bo‘ldi.

1775- yilda Londonda tashkil etilgan Ambruz teatri butun Uevropada gastrolda bo‘lgan. Rassom Anri River rahbarlik qilgan «Shapuor» («Qora mushuk») teatri Parij va chet el mamlakatlari o‘rtasida katta muvaffaqiyat qozongan.

Hozirgi kunda «Fonus xayol» teatri asbob-uskunalarining oddiyligi va ko‘rsatishning osonligi tufayli borgan sari keng tarqalmoqda. Bunday teatr bolalarni estetik tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. «Fonus xayol» teatrida ish hammaga topiladi, birining ishi ikkinchisining ish natijasiga bog‘liq bo‘ladi. Demak, «Fonus xayol» teatri bolalar nutqini rivojlantirishda, ularning lug‘at fondlarini boyitishda ro`li bebahodir.

«Fonus xayol» teatrining jihozi oddiy. Ingichka plyonkalar yordamida maxsus shirma-ekran yasaladi. U ayni bir vaqtda figura va dekoratsiyalar solinadigan chamadon ro`lini ham o‘ynaydi.

Agarda ekranning hajmi 50x60 sm bo‘lsa, har qanday chiroq yorug‘lik manbai xizmatini o‘tay oladi. Bunday teatrda qog‘ozdan yasalgan dekoratsiyalar bevosita ekranga o‘rnatiladi, shakllar ekranga taqab ushlanadi, ularning silueti shakllarning katta-kichikligi bilan bir xil bo‘ladi.

«Fonus xayol» teatrini katta ekrandan ko‘rsatish qiziqarli bo‘ladi. Shakllar, dekoratsiyalar o‘zgarmaydi, ammo ularning soyasi kattalashadi. Katta ekran uchun oddiy chiroqlar yaramaydi, ularning yonadigan simlari yarim doira shaklida bo‘lib, proyeksiya vaqtida shakllar ekranda kattalashsa-da tarqoq, ikkilangan soya beradi. Bu o‘rinda proyeksion chiroq, filmoskop chirog‘idan foydalaniladi.

Filmoskopni ekranga yoni bilan qo‘yib, reflektorli orqa kojux ochib qo‘yiladi. Ekranni har qanday yupqa materiallardan tayyorlash mumkin. Ekranni ikki xona o‘rtasidagi eshik kesakisiga 80-90 sm balandlikda o‘rnatiladi. Poldan ekrangancha bo‘lgan joy qora material bilan berkitiladi. Xonalarning birida artistlar, ikkinchisida tomoshabinlar bo‘ladi. Ekran orqasiga faner yoki qalin kartondan qirqilgan 25x40 sm o‘lchamdagi ramka qo‘yiladi. Ramkaga dekoratsiyalar o‘rnatiladi. Shakllar ramka ichida harakat qiladi. Bir bo‘lak karton parda xizmatini o‘taydi. Ekran va ramka orasidagi oraliq 120-130 sm, ramkadan yorug‘lik manbaigacha 30-40 sm bo‘ladi. Yorug‘lik manbaini rangli narsa bilan to‘sib va uni asta-sekin ochib, ekranda kechqurunni, tun va tongni yaratish

mumkin.

Dekoratsiyalar kartondan yasaladi. Ularni qo‘lda chizish, nusxa qog‘oz yoki kalkadan o‘tkazish yoxud andoza asosida qirqish mumkin. Dekoratsiyalarga tabiiy ko‘rinish berish mumkin: agarda uy derazasiga qizil qog‘oz yopishtirilsa, ekranda u yorug‘roq ko‘rinadi yoki cho‘pdan qilingan daraxt tanasiga kartondan shoxlar va ularga yupqa qog‘ozdan barglar yopishtirilsa, ular hilpiraydi, ekranda esa barglar go‘yo shamolda qimirlayotgandek ko‘rinadi. Agarda shartli tarzda dengizni ifodalovchi kun rangini asta harakatlantirib, uning ustidan kema yurgizilsa, ekranda to‘lqinlar osha suzib ketayotgan kemani ko‘rish mumkin bo‘ladi. Teatr personajlari kartondan tayyorlanib, qora rangga bo‘yaladi, ularni harakat qiladigan qilish ham mumkin. Personajlarni qo‘lda chizish, nusxa qog‘oz yoki kalkadan o‘tkazish mumkin. Agarda o‘tkazilishi kerak bo‘lgan rasm katta yoki kichik bo‘lsa, rasmlarni kataklar bo‘yicha ko‘chirish usulidan foydalaniladi. Qo‘g‘irchoqlarda ko‘z, og‘iz teshiklari qilinadi, ulardan o‘tgan yorug‘lik figurani jonlantiradi. Figuraning bir yoki bir necha qismini harakatlanadigan qilish mumkin. Agarda figuraning biror qismi yupqaroq qog‘ozdan qilinsa, unga jonlilik tusini berish mumkin bo‘ladi (masalan, ilonning og‘zidagi yupqa papirus qog‘ozidan qilingan qizil til va shu kabilar). Qo‘g‘irchoqlar yasashda fantaziya cheklanmagandir. Shakllar ekran bo‘ylab harakat qiladi, shunmg uchun ularning old tomondan ko‘rinishini yasash kerak, qimirlamay o‘tiradigan yoki turadigan shakllar yon tomondan yasaladi. Shakllar cho‘pga mustahkarnlanadi, ularning uzunligi pastki to‘siq bilan baravar, ya'ni 6—8 sm bo‘ladi. Pastki to‘siq qo‘g‘irchoqni o‘ynatayotgan ijrochining qo‘lini to‘sib turadi. Tomosha vaqtida bir o‘quvchi matnni o‘qiydi, boshqasi shakllarni boshqaradi.[44]

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ko‘ngil ochish soatlarida quyidagi teatr turiaridan foydalaniladi:

1. **Soya teatri.**
2. **Stol teatri.**
3. **Barmoq teatri.**
4. **Paxmoq teatri.**
5. **Qo‘g‘irchoq qo`lqop teatri**.



[44] .“Илк қадам” давлат ўқув давлат дастури. Т. 2018й.







**Soya teatri.**

Soya teatri — qo‘g‘irchoq teatrining o‘ziga hos turiaridan hisoblanadi. Unda qo‘g‘irchoqlar emas, balki shakilardan iborat o‘yinchoqlar o‘ynaydi. Tomosha qiluvchilar sahna ro‘parasida o‘tirib, ekranda yorug‘lik orqaii harakatlanayotgan soyalar: odamlar, hayvonlar va qushlar soyasini ko‘rishi mumkin. Soya teatri uchun odam va hayvon soyalarini bolalarning o‘zlari chizib, qirqa oladilar. Bolalarga shakllar boshlari, dumlarini qimirlatadigan qilishni o‘rgatish kerak, buning uchun tarbiyachi yordamida detallarni simlar bilan biriktirib, spiral holatda aylantirib qo‘yiladi. Harakatlanuvchi qismlar qattiq simdan tayyorlanadi. Bunday o‘yinchoqlarni shablon yordamida yoki o‘zlari o‘ylab, soya chizadilar. Bolalar detallarni qirqib olganlaridan so‘ng figuraga ko‘zini qilish kerakligi taklif etiladi. Tarbiyachi ko‘z o‘rnini o‘tkir asbob bilan teshib beradi, bolalar qalam yoki mo‘yqalam tayoqchasi bilan teshikchani kengaytiradi va yaltiroq qog‘oz bilan ko‘zini yelimlaydi. Bolalar yelimga qora bo‘yoq aralashtirib ko‘zini chizib qo‘yishlari mumkin.[45]

Teatrni ko‘rsatishlari uchun tarbiyachi ekranni yupqa matodan yoki kalka qog‘ozidan 2x1,5 metrli ramkaga sirib tayyorlaydi.

---

[45] .“Илк қадам” давлат ўқув давлат дастури. Т. 2018й.

Buning uchun 100 voltli lampa kerak. Chiroq quti ichiga joylashtiriladi, ichi qora rangga bo‘yaladi. Tarang qilib sirilgan matoga qog‘ozdan dekoratsiya jihozini applikatsiya qilib qo‘yish mumkin. Bolalar o‘zlari tayyorlagan figuralarni ekranda ko‘rib, shodliklari beqiyos bo‘ladiki, ularning kichik shakllari mo‘jiza kabi ko‘rinadi. Soya teatrini bolalarga kattalar qo‘yib beradilar. Avvalo karton yoki faner orqali ekran yasalib, ekran yupqa oq doka surp bilan tortib mahkamlanadi. So‘ngra har bir guruh yoshiga mos ravishda ertakni tanlab, uning qahramonlarini kartonga tushirib, juda ehtiyotkorlik bilan qirqiladi. Keyin u qora guash bilan bo‘yaladi va qirqiladi. So‘ngra yorug‘lik tushirilib, sahnalashtirilgan ertak namoyish qilinadi.





Savollar va topshiriqlar;

1. Qo`g`irchoq teatrining qanday turlari mavjud?

2. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘g‘irchoq teatri namoyishining axamiyati qanday?

3. Qo‘g‘irchoq teatri namoyishi bolalarga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

4. Yosh guruxlarida qo‘g‘irchoq teatrining qanday turlaridan foydalaniladi taxlil qiling.

5. Qo‘g‘irchoq teatri sahnalashtirishda tarbiyachilar qanday qobiliyatga ega bo‘lishlari kerak?

6. ILK QADAM davlat o‘quv dasturi asosida bolalarga xos ertaklardan foydalanib yosh guruxlariga qo‘g‘irchoq rteatri turlaridan biri uchun senariy yozing.

7.Qo‘g‘irchoq teatri teatr san’ti turi, chodir ichida yoki parda ortida yashiringan aktyor- qo‘g‘irchoqbozlar tomonidan harakatga keltirilib ko‘rsatiladigan qo‘g‘irchoqlar tomoshasidir.Ho‘sh qo‘g‘irchoqlarning qanday turlari bor?

8. Qo‘g‘irchoqlarni turi bo‘yicha ajrating.

9. Boshqarish tizimi bo‘yicha ajrating.

10. qo‘g‘irchoqlarni kata- kichikligi bo‘yicha turlarga ajrating.

## Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Xasanboyeva O. U. va b. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. T. ; Ilm ziyo 2006.
2. Sodikova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. T.; tafakkur bo‘stoni 2013.
3. Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasi . “Sho‘lpon” . T:. 2010 y.
4. Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. , D. Azimova "Ustaxonda amaliy mashg‘ulot" “Musiqa” T:.- 2010y.

## 7- Mavzu Qo‘g‘irchoq teatri personajlarini yasash orqali badiiy ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish mazmuni va qo‘g‘irchoq yasash usullari.

**Mavzu rejasi:**

1.Maktabgacha katta yoshdagi bolalrning badiiy ijodiy qobiliyatlarini qo‘g‘irchoq teatri vositasida shakllantirish mazmuni.

2. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘g‘irchoq teatrini tashkil etish va qo‘g‘irchoq yasash usullari.

3. Bola shaxsining shakllanishida o‘yinchoqlarning axamiyati.

4.Maktabgacha ta’lim muassasasida o‘yinchoqlarga qo‘yilgan talablar.

5.Qanday o‘yinchoqlar farzandlarimizga yomon ta’sir ko‘rsatadi.

**Tayanch so‘z va iboralar**;badiiy qobiliyat, qo‘g‘irchoq, o‘yinchoq, talablar,o‘yinchoq turlari,estetik zavq, qo‘g‘irchoq yasash usullari.

**1. Qo‘g‘irchoq** odamga o‘xshatib yasaladigan bolalar o‘yinchog‘idir. Qo‘g‘irchoqlarni yasashda gazlama, qog‘oz, yog‘och, chinni, plastika kabi materiallar ishlatilishi mumkin. Matryoshka qo‘girchoqlarning ichida 3 tadan 20 tagacha qo‘g‘irchoqchalar bo‘lishi mumkin. Qiziqarli ma’lumot :shu kunga qadar eng ko‘p qo‘g‘irchoqni o‘zida mujassimlashtirgan matryoshka 72 ta qo‘g‘ichoqqa ega.

Bugungi kunda siyosatchilar, aktyorlar yoki multfilm qahramonlari surati tushirilgan matryoshkalar ham sotib olishingiz mumkin.



Diana Effnerdan amerika chaqaloq qo‘g‘irchoqlari

Dunyodagi eng chiroyli qo‘g‘irchoqlar birining muallifi Diane Effnerdir. Uning qo‘g‘irchog‘i uzunligi 33 sm. U dastlab ushbu qo‘g‘irchoqlarini mehribonlik uyidagi qizchalarga atab yaratgan. 1990 yilda ayol qo‘g‘irchoqlar ishlab chiqaruvchi o‘z kompaniyasini ochdi. Qo‘g‘irchoqlarni bezatish esa uning dugonasi Djeri Uribening zimmasiga yuklatildi.

O‘shandan buyon ushbu qo‘g‘irchoqning chiqarilishi to‘xtatilmagan. Bugun juda ko‘p qizlar ushbu qo‘g‘irchoqni olishni orzu qiladi





Marina Bichkova qo‘g‘irchoqlari

Marina Bichkovaning qo‘g‘irchoqlari ta’riflab bo‘lmas go‘zalligi bilan ajralib turadi. U chinnidan yasaladi. Qo‘g‘irchoq hattoki eng kichik detallarigacha qo‘lda bo‘yalgan. Bundan tashqari, qo‘g‘irchoqda burama bo‘g‘inlar mavjud bo‘lib, bu ularni harakatchan qiladi. Xozirgi kunda Marina Kanadada isteqomad qiladi va o‘zi sevgan ishi bilan shug‘ullanadi. Takidlab o‘tish kerakki qo‘g‘irchoqlarning sochlari juda uzun va ularda kichik bezaklar ham bor. [46]

[46] Marina Bichkova Qo’g’irchoqlar Moskva : 2001y



**Ichimatsu Yaponiya qo‘g‘irchog‘i**
Qadim zamonlardan buyon yaponlar bir birlariga sovg‘a tariqasida qo‘g‘irchoq berishni hush ko‘rishgan.
Ulardan eng keng tarqalgani Ichimatsudir. Yaponiyaliklar ushbu sovg‘aga o‘yinchoq tariqasida emas san’at asari deya qaraydilar. Ichimatsuni oldin qizlarga kimanoni chiroyli kiyishni o‘rganishlari uchun hadya qilishgan. Bugungi kunda esa qo‘g‘irchoqdan intererni bezatish uchun qo‘llaniladi.
Qo‘g‘irchoqning sochlari uzun , beli nozik, ko‘zlari to‘q rangli. So‘nggi vaqtlarda qo‘g‘irchoq tanqidlarga ham uchragan. Boisi qizlar unga o‘xshash niyatida qattiq o‘zishga kirishganlar. Bu esa anoreksiya va boshqa salbiy oqibatlarga olib keladi. Lekin bunga qaramasdan ushbu qo‘g‘irchoq hanuzgacha eng chiroyli va mashxur qo‘g‘irchoqlardan biri bo‘lib kelmoqda.



**O‘yinchoq** — bola hayotining dastlabki davrlaridan boshlab ularga yo‘ldosh quvonch manbaidir. O‘yinchoq bolaning o‘ynashi uchun mo‘ljallangan va boshqa maqsadlarda foydalanilmaydigan buyum hisoblanadi. Unda buyumlarning tipik xususiyatlari umumiy tarzda aks etadi.

Pedagog A.S. Makarenko: « O‘yinchoq o‘yinning «material asosi», o‘yinchoq o ‘yinni yaratishda ishtirok etadi, bolaning o‘ziga xos sherigi sifatida namoyon bo‘ladi, uning shaxsiga ta'sir ko‘rsatadi», — deb ta’kidlagan edi. Rus

pedagoglari o‘yinchoq bolalarga atrofdagi mavjud voqelikni o‘rganishga yordam beradigan, ranglar, buyumlar ko‘lamini ularning materiallarini farqlash malakasini rivojlantiruvchi vosita deb ta’kidlab, bola dunyoqarashini kengaytirishdagi ahamiyatini ko‘rsatib berdilar.

Xalq pedagogikasida o ‘yinchoqlarning butun bir tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, bular bolaning sensor qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. 0‘yinchoqlar bolalarning nutqiy faolligini uyg‘otadi, lug‘at boyligini oshiradi, ularda tahlil qilish, yaxlit holatga keltirish, umumlashtirish, taqqoslash, tavsiflash, diqqatni jamlash kabi qobiliyatlarni rivojlantiradi. 0‘yinchoqlar bolalarda ma'naviy-axloqiy tuyg‘ularni (mehribonlik, avaylash, e'tiborlilik) shakllantiradi, atrof- muhitga ijobiy munosabatni uyg‘otadi. 0‘yinchoqlar tanlashda bolaning yosh va individual xususiyatlari, qiziqishlari, istaklari hisobga olinadi. Maqsadga qaratilgan bunday yondoshuv o‘y inchoq tanlashga bo‘lgan talabni yanada oshiradi. To‘g‘ri tanlangan o‘yinchoq bolaning jismoniy, axloqiy, aqliy va badiiy-estetik tarbiyasi rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bolani aqliy jihatdan tarbiyalashda didaktik o‘yinchoqlarning butun bir tizimi katta ahamiyat kasb etib, sensor va nutq rivojiga ta ’sir etadi, fikrlash jarayonlari va diqqatini tarbiyalaydi, buyum va uning xususiyatlariga, qurilishiga bo‘lgan qiziqish shakllanadi, bilimi, tushunchalari boyib boradi. [47]

O‘yinchoq bolani quvontiradi, atrofdagilarga nisbatan ijobiy munosabat hosil qiladi, birgalikda o‘ynash tuyg‘usini uyg‘otadi va ijobiy his-tuyg‘ularni tarkib toptiradi. Axloqiy his-tuyg‘ularni shakllantirishda qo‘g‘irchoq muhim ahamiyatga ega. Milliy qo‘g‘irchoq bolalarni boshqa millatga mansub bo‘lgan tengdoshlariga bo‘lgan ijobiy munosabatini tarbiyalash manbalaridan hisoblanadi. San’atning birinchi yorqin obrazli va eng tushunarli buyumi bo‘lgan o‘yinchoq estetik hislar va kechinmalarni uyg‘otadi, estetik tarbiyani to‘plashga yordam beradi va badiiy didni shakllantiradi. Shu o‘rinda bolalarga yaqin va tushunarli bo‘lgan xalq o‘yinchoqlarining aha iyatini alohida ta’kidlash lozim. 0‘yinchoq bolalarni turli rang-barang harakatlarga undaydi va bolaning faol harakatga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi. Tezkor javob reaksiyasini, harakatlarning aniqligi va m u v o fiq lash tirish in I rivojlantiradi. Ilk yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan ko‘p o‘yinchoqlar (shaqildoqlar, rezina koptokchalar, shaklchalar va boshq.) bolada ko‘rish va eshitish diqqatini rivojlantiradi, ushlash harakatlari va buyumli harakatlarni o‘stirishga yordam beradi. O‘yinchoqlarni turlari va ko‘rinishlari bo‘yicha quyidagi turkumlarga ajratiladi:

— sujetli-obrazli;
— texnika o‘yinchoqlari;
— qurish-yasash, qurilish materiallari o ‘yinchoqlari;
— didaktik o‘yinchoqlar;
— sport va harakatli o‘yinlar uchun mo‘ljallangan o‘yinchoqlar;
— yig‘ma-bo‘linma o‘yinchoqlar;
— teatr va dekorativ o‘yinchoqlar (soya va qo‘g‘irchoq teatrlarining personajlari, dramalashtirilgan o‘yinlar uchun kiyimlar, archa o‘yinchoqlari);
— o‘yinchoq-ermaklar;

[47] Marina Bichkova Qo’g’irchoqlar Moskva : 2001y

— ohang chiqaruvchi musiqaviy o‘yinchoqlar;

— qo‘lbola o‘yinchoqlar va o‘yin materiallari, turli-tuman o‘yin jihozlari.[48]

Taniqli pedagog A .S.Makarenko o ‘yinchoqlarning 3 turini ajratib ko‘rsatgan edi: tayyor o ‘yinchoqlar, yarim tayyor o‘yinchoqlar va o ‘yin materiallari. Birinchi turi bolalarni buyumlar va narsalarning rang-barangligi bilan tanishtiradi, tasavvurini o‘stiradi. Ikkinchi turi boladan aktiv faoliyatni talab qiladi, mantiqan va aqlan o‘sishga yordam beradi. Uchinchi turi bevosita bolaning ijodiy faoliyatini ta'minlaydi.

Ko‘pchilik bolalar o‘yinlari xilma-xil o‘yinchoqlardan foydalanish bilan bog‘liq.O‘yinchoq bola hayotining yo‘ldoshi, uning quvonch manbayidir. U nafaqat o‘yin quroli, balki bolalar o‘yinida sherik, o‘rtoq, kattalar qo‘lida esa tarbiyaning muhim qurollaridan biridir. **O‘**yinchoq o‘yin yaratishda ishtirok etadi, bolaning o‘ziga xos sherigi sifatida namoyon bo‘ladi, uning shaxsiga katta ta’sir o‘tkazadi. Oyinchoqning bunday rang- barang xislati uning o‘ziga xos xususiyatlari va kelib chiqishi bilan bog‘liq.

**U** bolaga shunchalik yaqinki, bola o‘z o‘yinchoqlarini sevadi, ularga bog‘lanib qoladi, shu tufayli u o‘zini atrofdagi hayotning to‘laqonli a’zosi deb hisoblaydi. To‘g‘ri tanlangan o‘yinchoqlar bolani aqliy rivojlanishiga yordam beradi. Xalq podagogikasida o yinchoqlarning butun bir sistemasi ishlab chiqilgan. Ular bilan amalga oshiriladigan o‘yinlar bolaning sensor qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.’’Yoshlarning ma’naviy olamini bolalikdan boshlab ezgu g‘oyalar asosida shaklllantirish va kamol toptirish haqida gap borganda, muhim bir masala haqida to‘xtalib o‘tish o‘rinli deb o‘ylayman. U ham bo‘lsa, dunyoga hayrat ko‘zi bilan boqib, undan o‘zgacha ma’no topishga intilayotgan murg‘ak farzandlarimizning qiziqishi va hissiyotlariga mos qo‘g‘irchoq va o‘yinchoqlarni ishlab chiqarish masalasidir.

Bir qaraganda bu muammo arzimas narsa bo‘lib tuyulishi mumkin. Lekin, har qaysi go‘dak ilk bor olamni o‘z atrofidagi o‘yinchoqlar orqali anglashini inobatga oladigan bo‘lsak, ularning inson tarbiyasidagi or‘ni beqiyos ekanligi ayon bo‘ladi

“Farzandlarimiz milliy hunarmandchiligimiz asosida yaratilgan o‘yinchoqlarni o‘ynashsa, ularning tarbiyasiga ijobiy ta’sir etgan bo‘lar edik” degan fikrni mamlakatimizning birinchi prezidenti I.A Karimov ‘’Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida ta’kidlaydi.(156 bet) Darhaqiqat go‘dakning ulg‘ayib kelajakda qanday yo‘ldan borishi o‘zining hayot tarzini qanday axloqiy ma’naviy asoslarga qurishi ham uning bolalikda qanday o‘yinchoqlar o‘ynagani bilan belgilanadi.Har bir xalqning o‘yinchog‘i o‘zining pedagogik badiiy va amaliy an’anasiga egadir.O‘yinchoq hamma millat xalqlariga hurmat hissini tarbiyalashi lozim.

**O‘yinchoqqa quyidagi talablar qo‘yiladi**: **Pedagogik talab**.

O‘yinchoq obrazi va mazmunining bola tarbiyasiga muvofiqligi, jamiyatimiz g‘oyasi nuqtayi nazariga mos kelishi, g‘oyaviy jihatdan qimmatli

[48] Marina Bichkova Qo’g’irchoqlar Moskva : 2001y

bo‘lishi pedagogik talabning muhim belgisi hisoblanadi. O‘yinchoq bolada oliyjanob tuyg‘ularni uyg‘otishi, boshqa millat bolalari bilan do‘stona munosabatlarni tarbiyalash, voqeylikka nisbatan oliyjanob tuyg‘ular uyg‘otishi, ijobiy axloqiy tajriba to‘plashga yordam berishi lozim. Bolaning faollikka bo‘lgan intilishini qoniqtirishi va uni uyg‘otishi kerak.

Obrazli o yinchoq real haqiqatni ifoda etadi, buyum, uning jamiyat va hayotdagi ahamiyatini aks ettiradi.

**Gigiyenik talablar**. O‘yinchoq qanday materialdan va rangdan rayyorlanganligi, bolalarning hayotiga hech qanday xavf solmasligi, yaxshi tozalanishi mumkinligi asosiy xususiyatlardan hisoblanadi.

**Badiiy talablar**. Shakl, buyoq va bezaklarning har tomonlama uyg‘unlashuvi, bir-birini rang va shakl jihatdan to‘ldirib, ta’kidlab, o‘yinchoqning badiiy ifodaliligini oshiradi. **0**‘yinchoqlarning tuzilishi va bezalishi bolalarning turli yosh bosqichlarida idrok etish xususiyatlariga to‘la mos kelmog‘i lozim. To‘g‘ri tanlangan o‘yinchoq – bolaning jismoniy, axloqiy, aqliy va badiiy-estetik tarbiyasi rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bolani aqliy jihatdan tarbiyalashda didaktik o‘yinchoqlarning butun bir tizimi katta ahamiyat kasb etib, sensor va nutq rivojiga ta’sir etadi, fikrlash jarayonlari va diqqatini tarbiyalaydi, buyum va uning xususiyatlariga, qurilishiga bo‘lgan qiziqish shakllanadi, bilimi, tushunchalari boyib boradi.**O** ‘yinchoq bolani quvontiradi, atrofdagilarga nisbatan ijobiy munosabat hosil qiladi, birgalikda o‘ ynash tuyg‘usini uyg‘otadi va ijobiy his-tuyg‘ularni tarkib toptiradi. Axloqiy his-tuyg‘ulamrni shakllantirishda qo‘g‘irchoq muhim ahamiyatga ega.

Milliy qo‘g‘irchoq bolalarni boshqa millatga mansub bo‘lgan tengdoshlariga bo‘lgan ijobiy munosabatini tarbiyalash manbalaridan hisoblanadi. San’atni birinchi yorqin obrazli va eng tushunarli buyumi bo‘lgan o‘yinchok estetik hislar va kechinmalarni uyg‘otadi, estetik tarbiyani to‘plashga yordam beradi va badiiy didni shakllantiradi. Shu o‘rinda bolalarga yaqin va tushunarli bo‘lgan xalq o‘yinchoqlarining ahamiyatini alohida ta’kidlash lozim.

O‘yinchoq bolalarni turli rang-barang harakatlarga undaydi va bolaning faol harakatga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi. Tezkor javob reaksiyasini, harakatlarning aniqligi va muvonqlashtirishini rivojlantiradi. Ilk yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan ko‘p o‘yinchoqlar (shaqldoqlar, rezina koptokchalar, shaklchalar va boshk.) bolada ko‘rish va eshitish diqqatini rivojlantiradi, ushlash harakatlari va buyumli harakatlami o ‘stirishga yordam beradi.

**Syujetli-obrazli o‘yinchoqlar** - syujetli-rolli o‘yin uchun foydalaniladi. U bolalarda ijobiy harakter qirralarini, muloyimlik, g‘amho‘rlik, yordam berishga ehtiyoj, shuningdek kattalar mehnatiga hurmat va tengdoshlari bilan o‘ynay olish ko‘nikmalarini tarbiyalaydi.

**Texnika o‘yinchoqlari** - bolalarda texnikaga va texnika asboblariga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otib, ularni o‘z o‘yinlarida qo‘llay olish imkonini yaratadi. Bolalarga texnikaga bevosita aloqasi bor buyumning (mashinalar, mexanizmlar, transport turlari, aloqa vositalari) tashqi ko‘rinishi, obrazini va unga xos harakatlarini shakllantiruvchi texnik o‘yinchoqlar yaqin turadi.

**Qurish-yasash o‘yinchoqlari** - bolalardagi qurish-yasash qobiliyatlarini rivojlantiridi hamda ijodkorlikka intilish uyg‘otadi. Bu o‘yinchoqlarni o‘ynash buyumning asosiy vazifalariga taqlid qilish imkonini yaratishi lozim. (avtomobilda g‘ildiraklar harakatlanishi, eshik ochilishi). Qurilish materiallari bilan o‘ynaladigan o‘yinchoqlarning asosiy **ikki** turi mavjud:

a) kublar, prizmalar, konuslar, piramida, slindrlar, plastinkalar, geometrik shakllar to‘plami.

b) turli blok - devor, kolonka, tom, ark va boshqa arxitektura va qurilish muteriallari. Mayda (stol o‘yinlari uchun) va yirik (polda va maydonchada) o‘ynashga mo‘ljallangan bu qurilish materiallarining rangi har xil bo‘lishi mumkin.

**Didaktik o‘yinchoqlarning** asosini xalq o‘yinchoqlari tashkil qiladi. Ular o‘ynashda bola o‘z-o‘zini nazorat qiladi. Xilma-xil mozaykalar sensor obiliyatlarini nvojlantiradi. Ulardagi o‘yin vazifasi naqshlar, rasmlami tanlash va joylashtirishdan iborat.

**Harakatli o‘yinlarga mo‘ljallangan o‘yinchoqlar**: suv, qum bilan o‘ynaladigan o‘yinchoqlar, koptoklar, arg‘amchilar, chambaraklar va boshqalar. Ularnng asosiy vazifasi bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalashdir.

**Musiqali va teatrlashtirilgan** o‘yinchoqlar bolalarning musiqaviy ohang va kuyni eshita olish qobiliyatini o‘stirishga yordam beradi. Katta yoshdagi bolalar o‘yinchoqlar yordamida turli mazmunli, badiiy tomoshalar sahnalashtiradilar.[49]

## Qanday o‘yinchoqlar farzandlarimizga yomon ta’sir ko‘rsatadi.

⬘O‘yinchoqlar bolalarni rivojlanish davrida ularni shakllantirib, tarbiyalashda, ko‘maklashib boradi.

⬘Ko‘pchilik onalar savol beradilar! xamma o‘yinchoqlar farzandlarimizga foydalimi, yoki tarbiyasini bo‘zadiganlari xam bo‘ladimi?

⬘Do‘nyo miqyosida xar xil kuzatuvlar olib borilgan va sizlarga farzandlarga zarar ko‘rsatadigan o‘yinchoqlar xaqida ma’lumot beramiz.

▲Rivojlantiruvchi o‘yinchoqlar. Kichik yoshdagi bolalar oddiy, sodda shakladagi o‘yinchoqlardan o‘zlari biron bir narsalarni fikrlab, o‘ylab, yasashlari kerak.

Rivojlantiruvchi o‘yinchoqlar esa tayyor sxemaga qarab yasaladi, natijada bolani faqat qo‘l matorikalari ishlaydi xolos.

▲O‘g‘il bola va qiz bolalar uchun. Olimlar tomondan ko‘rilib chiqqanida, shunday o‘yinchoqlar borki o‘g‘il bolalar uchun xar xil qurolli o‘yinchoqlar, jaxl bilan ko‘rinish berayotgan yomon qaxramonlar, qizlarda esa bo‘yangan, kalta kiyimlar kiygan, qo‘g‘irchoqlar bularning barchasi bolalarning psixikasiga kata salbiy ta’sir etadi.

▲Gapiradigan o‘yinchoqlar. Bir ko‘rishda bolalarni tili chiqishiga yordam beradigandek ko‘rinadi, ammo unday emas sababi, kattalar so‘z boyliklaridan foydalanib, bolalarga tez- tez gapirib turishlari kerak, shunda bolalarda xar xil

[49] Marina Bichkova Qo’g’irchoqlar Moskva : 2001y

so‘zlarga javob berishga xarakat qiladilar, gapiradigan o‘yinchoqlarda esa faqat bir xillik.

▲Ko‘p o‘yinchoqlari bor bolalarning tafakkuri sust rivojlanadi, kam o‘yinchoq o‘ynaydigan bolalarda fikrlash, o‘ylab topish, qobiliyatlari kuchli bo‘ladi. Shuning uchun bolalarning o‘yinchoqlarini yarmini olib qo‘yib, faqat 4-5 tasini berib xar tamonlama o‘ynalgandan so‘ng, o‘yinchoqlarni almashtirib qo‘yish kerak.

▲Motorli va masofaviy boshqariladigan o‘yinchoqlar. Motorli o‘yinchoqlarni zararli tarafi shundaki ular bolalarning o‘rniga xamma narsani bajaradilar, natijada bola ortiqcha xarakat qilmaydi.Motorli o‘yinchoqlardan ko‘ra velosiped, samakat, kachelya, koptok o‘ynaganliklari ma’qul.

▲Xodunoklar. Qancha ko‘p muddat bola xodunokda bo‘lsa shunchali oyoqga katta zarar. Bola yerda yurib, o‘zi emaklashga, yurishga xarakat qilishi kerak. Xodunok bolani oyog‘ini yuqoriga ko‘tarib, qiyshayib borishiga olib keladi.

▲Tabiiy rangda bo‘lmagan o‘yinchoqlar. Xaddan tashqari noaniq bo‘lgan, yorqin va yumshoq o‘yinchoqlar masalan:( mashina, ko‘zi quli bor yoki ko‘zlari katta bo‘lgan noaniqsiz xayvonlar) bolani asab tizimiga katta ta’sir ko‘rsatib, agressiyani namoyon qilishiga sabab bo‘ladi.[50]

M.Montessori bolaning rivovlanishida senzitiv davrlar-bolalarning rivojlanishida aloxida xis etuvchi davrlarni aniqlagan. Bu rivojlanish davrlariga kattalar tashqarida xech qanday ta’sir qila olmaydilar. Bola kerakli bilim va malakalarni qabul qilishdagi imkoniyatlar ayni senzitiv davrda beriladi. Bola senzitiv davrdan keyin ham bilim, malaka oladi, lekin u mashaqqatli mexnat bilan erishadi.[51]

Asosiy senzitiv davrlar quyidagilar:

- Nutq rivojlanish senzitiv davri - o-6 yosh:
- Tartibni qabul qilish senzitiv davri - 0-3 yosh:
- Sensor rivojlanishning senzitiv davit - 0- 5,5 yosh:
- Mayda predmetlarni qabul qilish senzitiv davri - 1,5- 2,5 yosh
- Xarakat rivojlanishi senzitiv davri - 1- 4 yosh:
- Ijtimoiy bilim va malakalarning rivojlanish senzitiv davri - 2,5-6 yosh:

Montessori metodikasida pedagog oldin ko‘rgazmali – material bilan ishlash yo‘lini ko‘rsatib beradi,keyinchalik bolaga mustaqil ishlashga sharoit yaratadi. Ta’lim jarayonida pedagog bolaga yordamchi va shogird bo‘ladi. Guruxlarda ijodiy, rivojlantiruvchi muxitni yaratish-muvaffaqiyat garovi. Uning metodiga ko‘ra ijodiy rivojlantiruvchi muxit maxsus jixozlangan hona, shakllangan bolalar guruxi, rivojlantiruvchi jixozlar, malakali tarbiyachidan iborat.

Montessori ta’limining materiallari quyidagi bo‘limlarga ajratiladi:

- Amaliy hayotga tayyorgarlik mashqlari:
- Sensorik tasavvurlarni rivojlantirish:

---

[50] Marina Bichkova Qo’g’irchoqlar Moskva : 2001y

[51] Sodikova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. T.; tafakkur bo’stoni 2013

- Nutq o‘stirish, yozuv va o‘qishga o‘rgatish:
- Matematika:
- “fazoviy tarbiya “ (koinot ):
- Tasviriy faoliyat:
- Labaratoriya:

Hamma jixozlar bolaning yoshiga mos, olishga qulay, ochiq joyda joylashgan bo‘lishi, bola uni osonlikcha ko‘ra olishi va unda qiziqish uyg‘otgan narsani tanlab olish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. M.Montessori pedagogikasi ijodiy fikrlash jarayonini tezlashtiradi va charchoq davrida bolalarga yordam beradi. Imkon qadar bolalar uchun mo‘ljallangan jixozlar yoshlikdan chiroyli narsaga muhabbat uyg‘otishi, badiiy didini taraqqiy ettirib borishi lozim. Chiroy ko‘rkamlikda emas, balki rang va tasvirning uyg‘unligi, tartiblilikda va to‘g‘ri joylashtira olishda. Atrofimizda yaratilgan barcha shart sharoit – xonani jixozlashdan tortib to tarbiyachining tashqi ko‘rinishigacha bolani tarbiyalaydi.

Montessori faoliyati va metodikasi juda serqirra bo‘lib qancha ko‘p o‘rgansa shuncha amaliy tajribasi oshib boradi. Internet ma’lumotlaridan yana qo‘shimcha manbalarni oling, qo‘shimcha qiling, mavzu yuzasidan esse yozing.[52]



**Qisqa savol- javoblar:**

© M.Montessori necha yoshli bolalar bilan ish olib rogan? **J:** 5-10 yoshli bolalar

© Ta’limga texnologik yondashuv qachon paydo bo‘lgan? **J:** XXasr 30 yillarda

© Pedagogik texnologiya …mahsuli **J:** didaktika, pedagogika

© M.Montessori o`yinlari nimaga moslashtirilgan? **J:** oilaga

© M.Montessori o`yinlardagi harakat necha yil avval o`ylab topilgan? **J:** deyarli 100 yil

[52] Sodikova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. T.; tafakkur bo’stoni 2013

© M.Montessori maktabida kimlar ta’lim olgan? **J:** rivojlanishi sust, ijtimoiy moslashuvdan qiynalgan bolalar

© M.Montessori … tug`ilgan, mutaxassligi …? **J:** Italiyada, doktor

© M.Montessori faoliyati ta’lim berish emas, … **J:** yo`naltirish

© M.Montessori mashg`ulotlarida bolalar o‘zaro…. **J:** musobaqalashmaydi

© Tarbiyalamoq-…? **J:** rag`batlantirmoq

© M.Montessori maktabida faoliyatlar qanday amalga oshirilgan? **J:** shovqinsiz, tinchlik saqlangan, bir-biriga xalaqit bermagan holda

© M.Montessori fikricha, guruhlarda qanday “hayot erkinligi” ta’minlanishi lozim? **J:** o`yin va qo`l mehnati mashg`ulotlari uchun sharoit

© Montessori bog`chasining birinchi tajribasi nimadan iborat? **J:** xonadagi muhitning talab darajasida bo`lishi

© Montessori bog`chasining ikkinchi tajribasi nimadan iborat? **J:** didaktik materiallar

© Montessori bog`chasining didaktik materiallari qanday qismlarga bo`linadi? **J:** his-tuyg`ularni tarbiyalashga doir, yozish va o`qishni, hisobni o`rgatuvchi

© Montessori guruhlarida ikkita tarbiyachiga nechta tarbiyalanuvchi bo`lishi lozim? **J:** 30 nafardan ortiq bo`lmagan

© Montessori bog`chasi va oddiy bog`chada qo`yilgan davlat talablarining farqi nimada? **J:** Montessori bog`chasida son-sanoq chegaralanmagan (yuz, ming, million)

Siz ham mavzu yuzasidan 20 ta shunday savol- javob yozing.[53]

## Foydalanilgan adabiyotlar.


1. Xasanboyeva O. U. va b. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. T. ; Ilm ziyo 2006.
2. Sodikova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. T.; tafakkur bo‘stoni 2013.
3. Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasi . “Sho‘lpon” . T:. 2010 y.
4. Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. , D. Azimova "Ustaxonda amaliy mashg‘ulot" “Musiqa” T:.- 2010y.


## 8- Mavzu: Qog‘ozdan buklash yoli bilan o‘yinchoq yasash. (origami usuli).

### Mavzu rejasi:

1.Qog‘ozning kelib chiqish tarixi.
2.Qog‘ozdan origami usulida o‘yinchoq yasash.
3. Origami usulida o‘yinchoq yasash turlari.
4. Origami usulida o‘yinchoq yasash usullari.

**Tayanch so‘zlar**; *qog‘oz, origami, buklash, kurugami, kusudami,qog‘oz tarixi, qog‘oz turlari.*

---

[53] Sodikova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. T.; tafakkur bo’stoni 2013

Qo‘llar bilan qog‘ozdan xar hil o‘yinchoq va narsalar yasash bola mahoratini va ijodiy tasavvurni rivojlantirish uchun juda yaxshi. Qog‘oz ekologik toza materialdir, u qulay, arzon va bolalar orasida juda mashhur. Bolalarga qog‘ozdan xar hil hayvonlar yasash ularning qo‘l motorikasi va aqliy faoliyatini yanada rivojlantiradi. Ota – onalariga esa bolalari bilan foydali mashg‘ulot bilan shug‘ullanishning yana bir imkoniyatidir.



**Qaychidan foydalanish qoidalari.**

1 .Yosh bolalarga iloji boricha uchi to‘mtoq qaychini berishni unutmang.

2. Qaychini ish burchagida belgilangan holatda g‘ilofda saqlang.
3. Qaychining uchini yuqoriga qilib ushlamang.
4. Qaychini ochiq holda ushlamang.
5. Qaychidan yurib turib foydalanmang.
2. Qaychini o‘rtog‘ingizga uzatganingizda faqat yopiq holda, uchidan ushlab uzating.
3. Qaychidan foydalanayotganda kesilish yo‘nalishi va qog‘oz yoki matolarini ushlab turgan chap qo‘l barmoqlarini kuzatib turing.
4. Yaroqsiz, o‘tmas, zanglagan qaychidan foydalanmang.

**Igna bilan ishlash qoidasi.**

1. Ignani hech qachon og‘zingizga solmang.
2. Ignani ishlatib bo‘lgach, maxsus yostiqchaga sanchib qo‘ying.
3. Kichik bolalarni teshigi katta bo‘lgan ignalardan foydalanishga odatlantiring.
4. Ignani ho‘l joyga qo‘ymang.
5. Ignani quriq holda saqlang.
6. Mashg‘ulot jarayonida berilgan ignalarni sanab tarqatib, sanab oling.
7. Yetishmagan ignalarni albatta toping.
8. Karton qog‘oz, qalin varaqlardan narsa yasashda avval bigizda teshib olishni unutmang.
9. Ignadan foydalanib bo‘lgach, ip taqib qoldirish maqsadga muvofiqdir.
10. Baxtsiz hodisalarning oldini olish uchun xonada yod, bint, spirt solingan dorixona bo‘lishi shart.

## Bigiz bilan ishlash qoidasi.

1. Bigiz bilan ishlashda ehtiyotkorlik kerak, uni o‘rinsiz ishlatmagan ma'qul.
2. Sirg‘anchiq, usti silliq, qattiq narsalarni bigiz bilan teshmang.
3. Teshadigan narsangizni qo‘lingizda ushlab teshmang.
4. Teshadigan narsangizni maxsus stol yoki taglik ustiga qo‘yib teshing.

## Pichoq bilan ishlash qoidasi.

1. Bolalar bilan ishlashda uchi yumaloq pichoqdan foydalangan ma'qul.
2. Pichoqlarni maxsus joyga qo‘ying.
3. Pichoqni kesganda qattiq bosmang.
4. Pichoqni artganda o‘ng qo‘lga ushlab, chap qo‘l bilan yuqori tomonidan artishni unutmang.
5. Ho‘l joyda qoldirmang.
6. Buzilgan, ochilishi qiyin bo‘lgan pakkidan foydalanmang.
7. Ishlatib bo‘lgach artib, quruq joyga qo‘yishni unutmang.

«Origami» so‘zining keiib chiqishi yapon tiliga mansub bo‘lib, ikki ibora «ori» — buklangan va «gami» — qog‘oz degan ma'nolarni anglatadi. Origami deyilganda odatda qog‘ozlarni buklab turli buyum va o‘yinchoqlarni yasash tushuniladi.[54]

Origami san'at sifatida ilk marotaba IX—XII asrlarda Yaponiyada paydo bo‘lgan. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, bu san'at Yevropa mamlakatlariga ham tarqalib, rivoj topa boshladi. Har qanday buyumlarni yasashning izchil tizimiga ega chizma suratlar sifatida tasvirlash urfga kirdi.

Zero, rasmlarga qarab qog‘oz buklamlaridan turli buyum o‘yinchoqlar yasash 4—5 yoshli bolalardan tortib maktabning boshlang‘ich sinfi o‘quvchilarining ham tasvvur doirasini kengaytirishi, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o‘stirishi shubhasizdir. Bugungi kunga kelib, origami alohida amaliy san'at turi sifatida butun dunyoda keng ommalashgan.

Origami san’ati.

Akira Yoshizava 1911-yil 14-martda Kanto provinsiyasining Tochigi prefekturasida ko‘p bolali oilada tug‘ilgan.

Akira origami bilan birinchi marta uch yoshida, qo‘shnisi unga qog‘oz qayiqni buklaganida duch kelgan. Katta akalari bilan janjallashib, tez orada haykalchani butunlay yaroqsiz holga keltirdi va Akira xuddi shunday haykalchani o‘zi yasashga harakat qildi. Yosh bo‘lishiga qaramay, u muvaffaqiyatga erishdi! Balki o‘shanda uning qalbida buklanish muhabbati paydo bo‘lgandir.

Origami san'ati maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlaridan foydalanish, ularning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda turli xil matematika kurslari dasturlarini yaratishning eng yaxshi usuli hisoblanadi. 19-asrda nemis

[54] Sodikova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. T.; tafakkur bo’stoni 2013

o‘qituvchisi F.Fröbel origami yordamida matematikani o‘rgatish uchun integral kursga asos solgan bo‘lib, uning asosida bolalarning geometrik bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirish va mustahkamlash mumkin.

Origami san’ati bilan shug‘ullanish orqali bolada quyidagi xislatlar shakllanadi;

1 -gorizontal, vertikal va qiya chiziqlarni aniqlash;

2- tasvirlarga nom berish;

3- tasvirdagi barcha uchburchaklarni toping;

4- rasmdagi barcha kvadratlarni toping;

5 -kvadrat, qo‘shni tomonlar, diagonal qatlama.

Shunday qilib, yuqorida aytilganlarning barchasidan biz origami quyidagi xususiyatlarga ega degan xulosaga kelishimiz mumkin: Birinchidan, har bir bosqichda model yaratish jarayonini nazorat qilish qobiliyati.

Ikkinchidan, u verbalizatsiyani rivojlantiradi (o‘z ishini aks ettirishning bir turi).

Uchinchidan, bu ishning asosiy nuqtalarini belgilashni o‘z ichiga oladi.

To‘rtinchidan, u barcha asosiy geometrik tushunchalardan foydalanadi.

Beshinchidan, Planimetriya - geometriyaning tekislikdagi geometrik shakllar va ularning xossalarini o‘rganadigan bo‘limi .va simmetriyani Simmetriya - bu tabiatdagi moddiy shakllarning o‘zini o‘zi tashkil qilish va san'atda shakllanishning asosiy printsipidir.[55]

Birinchi Evropa origami maktablari Ispaniyada paydo bo‘lgan

Origami har qanday yoshdagi odamlar uchun qiziqarli bo‘lishi mumkin.

Birinchidan, ular bolalar. Origami yordamida bola o‘z ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘z qo‘llari bilan qog‘ozdan chiroyli o‘yinchoqlar va geometrik shakllarni yaratish imkoniyatini oladi. Ikkinchidan, ular havaskorlar. Yaqinlaringizga asl sovg‘a qilish va shunchaki qog‘ozdan o‘z qo‘llaringiz bilan biror narsa yasash juda yoqimli. Uchinchidan, origami har doim chiroyli va o‘ziga xosdir.

Umuman olganda, barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlar ijtimoiy foydali maqsadga ega bo‘lishi kerak, ya'ni uni maktabgacha ta'lim muassasasida, uyda, bezashda va o‘ynashda, sovg‘a sifatida ishlatish imkoniyati bo‘lishi kerak. Mahsulotlar dastur talablariga javob berishi va bolalarga hissiy ta'sir ko‘rsatishi kerak, ya'ni ishning tabiati tarbiyaviy bo‘lishi va bolalar uchun bajariladigan ish vazifalari bo‘lishi kerak. Barcha ishlar qiziqarli bo‘lishi kerak. Darsda olingan bilim, ko‘nikma va malakalar mustahkam bo‘lishi va kelajakda maktabda uzluksiz ta’lim olish uchun asos bo‘lishi kerak.

Shunday qilib, to‘liq tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, origami:

• Chap va o‘ng yarim sharlar faolligini oshirishga yordam beradi
• Ijodiy fikrlashni faollashtiradi
• Intellektual qobiliyatlarni oshiradi

[55] Sodikova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. T.; tafakkur bo’stoni 2013

• Fazoviy tasavvurni rivojlantiradi

• Psixo-emotsional holatni barqarorlashtiradi

• Xavotirni kamaytiradi

• Barmoqlarning kichik aniq harakatlari ko‘nikmalarini rivojlantiradi

• Ko‘zni yaxshilaydi.

Kosho Ushiyavo shunday dedi: "Origami - bu bir varaq qog‘ozdan narsalarni tasvirlay oladigan har bir kishi yaratuvchining quvonchini his qiladigan dunyo.“

Mahsulotlar shaxsiy, ijodiy va xilma-xil bo‘ldi.

**«To‘tiqush»ni origami usulida yasash.**

1. Kvadrat shaklida qog‘oz olamiz.
2. Dioganaliga buklaymiz.
3. Buklangan joydan burma hosil qilamiz.
4. Burma bo‘ylab ikki uchi birlashtiriladi.
5. Buklangan qog‘ozning har bir uchi orqaga qaytariladi.
6. Qaytarilganda awalgi diagonalidan oshib ketmasligi kerak.
7. Bosh barmoq orasiga kirgizib ko‘rsatkich barmoq bilan buklanadi va uning bosh qismi tayyorlanadi.

Qushchaning umumiy shakli tayyor boldi, shu shakldan o‘zingiz xohlagan qushchangizni yasashingiz mumkin. Shakldagi bo‘yalgan joylar qirqilsa, to‘tiqush dumi, tumshug‘idan qaychida ozgina chimdib, ichki tomonga mayda burmachalar hosil qilinib, ko‘zi chizib qo‘yiladi. To‘tiqush tayyor.

Qog‘oz dastlab (2-asr) Xitoyda olingan. Say Lun o‘simlik tolalarining suvli bo‘tqasini to‘rdan o‘tkazib, Qog‘oz olishga muyassar bo‘lgan. Bu usul ko‘p vaqtlargacha sir saqlab kelindi, 6-asr boshlarida Yaponiyada joriy qilindi. 6—8-asrlarda Qog‘oz ishlab chiqarish Osiyodagi boshqa mamlakatlarga tarqaldi. 7-asrning boshlaridan 19-asrning 1-yarmigacha Samarqandda ishlab chiqarilgan Qog‘oz Turkistondagina emas, balki qo‘shni mamlakatlarda ham mashhur bo‘lgan.

Qog‘oz — asosan, o‘simlik tolalaridan tayyorlanadigan yupqa material. Turli xil jinsdagi daraxt yog‘ochi va bir yillik o‘simlik sellyulozasi hamda yog‘och massasidan ishlanadi. Qog‘oz massasiga o‘simlik tolalaridan tashqari turli qo‘shimcha (to‘ldirgich)lar, oq tus beradigan, zich, silliq qiladigan, bo‘yoq olish xususiyatini yaxshilaydigan mineral moddalar (kaolin, talk va boshqalar); siyohni yoyiltirmaydigan yoki qog‘ozni puxta va zich qiladigan yelimlovchi materiallar (kani-fol yelimi, kraxmal, smola va h.k.); bo‘yagichlar, kimyoviy tolalar va boshqa qo‘shiladi.

**Yozuv qog‘ozi** — sathi silliq, yelim singdirilgan, namlikni kamroq singdiradi. Narsalarni konstruksiyalash, muqovaiash, kartondan yasalgan narsalarni yelimlashda juda qulay.

**Rangli va jiloli qog‘oz** — mehnat darslarida keng qo‘llanilib, applikatsiya va muqova ishlarida foydalaniladi. Turli to‘plamlarda chiqariladi.

Kvadrat shaklidagi qog`ozni taxlash va buklash orqali kuchukcha o`yinchog`ini yasash






Kvadrat shaklidagi qog`ozni taxlash va buklash orqali kapalak o`yinchog`ini yasash



## Savol va topshiriqlar;

1.Origami san’ati va uning kelib chiqishi haqida nimalarni bilib oldingiz?
2.Origami usulida o‘yinchoqlar yasash maktabgacha yoshdagi bolalarga qanday ahamiyatga ega?
3.F.Frebel origami usulining ahamiyatini qaysi soha rivoji bilan bog‘lagan?
4.Yaponiyada origami tarixi qanday bo‘lgan?

## 9-Mavzu. Applikatsiya xaqida umumiy tushuncha.

## REJA;

**1.**Applikatsiyada qirqishni har xil usullarini bajarish.
2.Mazmunli va bezakli applikatsiyalar.
3.Tabiiy va tashlandiq ashyolardan applikatsiya ishlari.
4. Matodan applikatsiya. Applikatsiya ishlari uchun zaruriy materiallar.

**Tayanch so‘zlar;** Applikatsiya,predmetli applikatsiya, mazmunli applikatsiya, dekorativ applikatsiya, kleystr, ramka, somon ishi, oddiy va murakkab qirqish, geometric shaklli applikatsiyalar, badiiy applikatsiyalar.

**Applikatsiya** xalq amaliy san'atida keng o‘rin tutadi. Applikatsiya so‘zining ma'nosi, qirqib olib yopishtirish demakdir. Bu usulda qog‘oz, mato, charm, somon, quritilgan o‘simliklar, urug‘lar, tashlandiq narsalar, simlar, iplardan foydalanib har xil ishlarni bajarish mumkin.

**Applikatsiya** — badiiy asarlar yaratishning eng sodda va oson usulidir, bunda tasvirning asosi saqlanadi. Bu applikatsiyadan faqat bezash maqsadlaridagina ko‘rgazmali qurollar, turli o‘yinlar uchun qo‘llanmalar, o‘yinchoqlar, bayroqlar, sovg‘alar, devoriy gazetalar, stendlar, ko‘rgazmalar va kostyumlarni tayyorlashgina emas, balki kartina, panno, naqshlar va shu kabilarni yaratishda ham keng foydalanish mumkin. Applikatsiya bundan 2500 yil muqaddam ko‘chmanchi xalqlarda paydo bo‘lgan. Applikatsiya bilan kiyim-bosh, turarjoylar bezatilgan. Bu ishdaular teri-mo‘yna, namatdan foydalanishgan. Applikatsiya turli xalqlarda turli materiallardan tayyorlangan. Masalan, yoqutlar applikatsiya ishida po‘stloqdan foydalanishgan, bo‘yalgan po‘stloqdan qilingan applikatsiyalar bilan ular o‘tovlarini bezashgan. Xanti-mansi, evenk va boshqa shimol xalqlari applikatsiyada teri, sukno, mo‘yna ishlatishgan. Qozoq, qalmoq, osetin, buryat va boshqa xalqlar applikatsiyadan milliy kiyim, uy-ro‘zg‘or predmetlarini bezashda foydalanishgan. Gazlamadan applikatsiya materiali sifatida ancha keyinroq foydalanila boshlandi. Gazlama parchalarini fon xizmatini o‘tovchi materialga tikib naqsh yaratilgan. Gazlamadan yasalgan applikatsiya bilan kiyim-bosh, uy-ro‘zg‘or predmetlari bezatilgan.

Hozirgi kunda applikatsiya har bir xalq san'atida juda keng tarqalgandir. Applikatsiyaning eng yosh turi flaristikadir. 1960-yilda dunyoda birinchi flaris rassomlar jamiyati tashkil etildi.[56]

Applikatsiya bilan shug‘ullanish bolalar dunyoqarashini uyg‘un rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Aplikatsiya ijodni rivojlan-tirishga yordam beradi, fantaziyani boyitadi, kuzatuvchanlik, diqqat va tasavvurni faollashtiradi, irodani tarbiyalaydi, qo‘l mehnati, shaklni his qilish, chamalash va rangni sezish qobiliyatini o‘stiradi. Rangli qog‘oz yoki boshqa materialdan kompozitsiyalar ustidagi ish badiy didni avj oldiradi.Kleyster surilganda qog‘oz uni shimishini, qog‘oz tolalarining ko‘ndalangiga uzunligidan ko‘proq kengayishini ham unutmaslik kerak. Agarda qog‘oz kleyster surilgan zahotiyoq yehmlansa, davom etayotgan shimish va kengayish jarayonida qog‘ozda g‘ijimlar, izlar paydo bo‘ladi. Shuning uchun kleysterda surilgan qog‘oz bir oz vaqt yopishtirilmay turishi kerak. Qog‘ozning yaltiraydigan mar-mar, bosma gul tushirilgan, baxmal, kumush-bronza rasm solish va chizmachilik navlari applikatsiya uchun yaroqlidir.pplikatsiya qilish usuli bilan guruh xonalari, mehmonxona, oshxonaiar, bolalar ayvonchalari bezatiladi. Bolalar bog‘chasida kichik gurahdan boshlab applikatsiya mashg‘ulotlari olib boriladi. Kichik guruxdan tayyor qirqilgan shakl beriladi. O‘rta gurahdan, boshlab bolalarga qaychi beriladi va ishlash mustaqil olib boriladi. Applikatsiyada qog‘oz asosiy rolni bajaradi. Applikatsiya ishini bajarishda har xil yelim ishlatilavermaydi. Yelimni uy sharoitida arzon va oson usulda

[56] Sodikova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. T.; tafakkur bo’stoni 2013

tayyorlash mumkin. Bu yelim kleystr deb ataladi. U kraxmaldan quyidagicha tayyorlanadi: bir choy qoshiq kraxmal 5 choy qoshiq sovuq suvda aralashtirilib olinadi, so‘ng yarim stakan suv soiib past olovda qaynaguncha kovlab turiladi, qaynashga yaqin olovdan olinadi va sovitiladi, so‘ngra ishlatiladi. Applikatsiya ishini bajarish uchun tayyorgarlik ko‘rish lozim. Bu quyidagicha bajariladi: syujet tanlash; xomaki chizma; rangli qog‘ozlami tayyorlash; fon tanlash.  Applikatsiya ishining ish qurollari: qaychi, yelim, kalka, pichoqcha, chizg‘ich, o‘chirg‘ich, qora qalam,




mo‘yqalam, kopirovka, flomasterlardan iborat. Aplikatsiya ishlari oddiydan tortib mazmunli, kantli, dekorativ, qo‘lda yirtish orqali mozaika usulida tabiatxomaki chizma; rangli qog‘ozlami tayyorlash; fon tanlash.  Applikatsiya ishining ish qurollari: qaychi,yelim, kalka, pichoqcha, chizg‘ich, o‘chirg‘ich, qora qalam, mo‘yqalam, kopirovka, flomasterlardan iborat. Aplikatsiya ishlari oddiydan tortib mazmunli, kantli, dekorativ, qo‘lda yirtish orqali mozaika usulida tabiat materiallaridan (barg, urug‘, danak, piyoz po‘sti, shisha siniqlari tashlandiq simlar va iplar) ham bajariladi. Applikatsiya qilishda oddiy va murakkab qirqish usulidan foydaniladi. [57]Oddiy qirqish usuli bilan yaxlit shakl hosil qilinadi va qirqilgan shakl quyidagicha teng va tekis qirqiladi:og‘ozni 5—6 qavat qilib buklab turib qirqishga

[57] Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T.  Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o’rgatish metodikasi . “Sho’lpon” . T:. 2010 y.

**murakkab qirqish** usuli deyiladi. Bu usulda qirqishda 1 ta shakl 5—6 martaga ko‘payib chiqadi. Quyida bir necha murakkab qirqish usullarini keltiramiz:



Applikatsiya qilishda asosiy e'tibor uning umumiy kompozitsiyasiga qaratilishi kerak. Yaxshi o‘ylangan kompozitsiya, ya'ni tasvirlash lozim bo‘lgan narsalarni joylashtirish — applikatsiya muvaffaqiyatining garovidir. Eng oddiy applikatsiya bu **geometrik shakllardan** qilinadigan naqshli applikatsiyadir. Avval naqshning xomaki nusxasi tuziladi, so‘ngra kerakli detallar (geometrik shakllar) o‘lchami va miqdori hisoblanadi. Detallar tayyorlanib ma'lum tartibda joylashtiriladi va yopishtirishni qaysi detaldan boshlash kerakligi aniqlanadi. *Misol* tariqasida eng oddiy geometrik shakl kvadratni olib, uning bir tekis almashinishini hosil qilish uchun turli holatlarda joylashtirib ko‘ramiz. Agarda kvadrat boshqa elementlar, masalan, uchburchak bilan to‘ldirilsa, variant yanada ko‘payadi. Ishni boshlash uchun markazni topish, simmetriya o‘qini o‘tkazish va naqsh elementlarini shunga ko‘ra joylashtirish lozim. Agarda geometrik shakllar

kvadrat yoki aylanaga simmetrik joylashtirilsa, qiziqarli dekorativ naqsh hosil bo‘ladi.

**Dekorativ applikatsiya** — bu naqsh gullardan iborat bo‘ladi u alohida-alohida tasvirlardan (barg, shox, qo‘ziqorin, qush, mashina, odam, uy va shu kabilar) tarkib topuvchi predmetli hodisa, harakatlar uyg‘unligini aks ettiruvchi syujetdan iborat bo‘lishi mumkin.[58]

Quyida o‘zbek, qozoq, tojik xalqlarining naqsh namunalari berilgan:





[58] Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o’rgatish metodikasi . “Sho’lpon” . T:. 2010 y.



**Geometrik shaklli applikatsiyalar.** Bajarilish texnologiyasiga koʻra applikatsiyaning eng oddiy turlaridan biri geometrik shaklli applikatsiyalardir. Geometrik shakllar talabalarning kvadrat, toʻgʻri burchak, uchburchak, aylana qogʻoz boʻlagi va oʻlchov asboblari haqidagi mavjud bilimlarini mustahkamlaydi. Ular badiiy didini oʻstiradi, doira, kvadratda naqshlar tuzish boʻyicha olingan bilimlarini chuqurlashtiradi. Oʻquvchilar ayrim predmetlami detalma-detal tahlil qilib, geometrik shakllarni toʻgʻri idrok etishni oʻrganadilar. *Masalan*, archa bir-biriga kiygizilgan uchburchakka oʻxshaydi yoki yuk mashinasi turli oʻlchamdagi toʻgʻri burchaklardan, gʻildiragi aylanadan tashkil topganligini idrok etadilar. Bolalarda ***«Koʻp-kam», «Uzunasiga», «Koʻndalangiga», «Ikki qismga qirqish», «Teng qismlarga»*** kabi tushunchalar mustahkamlanadi. Bolalar ranglar uygʻunligini toʻgʻri tanlashni oʻrganadilar. Ularda estetik did tarbiyalanadi.

Geometrik shaklli applikatsiyalarni ham naqshli, predmetli, syujetli applikatsiyalarga ajratish mumkin.

**Doira, kvadrat va ovaldan naqshlar yasash.** Naqsh detallari: turli oʻlchamdagi kvadrat, uchburchaklar tayyorlanadi. Kvadratda naqsh diagonal boʻyicha tuziladi, bunda shakllarni simmetrik joylashtirish qulay.



**Geometrik shakllardan predmetli applikatsiya.** Bolalarning predmetlami fazoviy idrok etishi rivojlanishi kerak. Bizni oʻrab turgan narsalar: uy, archa, daraxt, mashina, idish-tovoq, jonivorlar, gullar va shu kabilarni u yoki bu darajada geometrik shakllar bilan ifodalash mumkin.k**oʻp rangli applikatsiyalarni** qirqish anchagina murakkab ish boʻlib, bu tasvirni qismlarga ajratish bilan aloqadordir. Bu turdagi applikatsiyani

bajarishda fonni tanlash muhimdir. Fon ifodalanadigan predmet xuddi bo‘rtib turgandek, yorqin ko‘rinadi. Hammasi o‘ylangan kompozitsiyaga bog‘liq. Fonda joylashadigan detallar rangi ham shunday tanlanlanadi. Bunda detallarning tabiiy joylashishi va ular o‘lchamlarining uyg‘unligiga e'tibor berishi kerak. Bu ishlarni bajarishning bir necha usullari mavjud: ayrim detallarning tarhlari oldindan belgilamay qirqiladi; ayrim detallar esa belgilangan natura-qoralamalar bo‘yicha qirqiladi.[59]

Applikatsiyalarning ifodaliligi va jonliligiga erishishning usullari ko‘p. Ayrim detallarning tag qismida kesiklar qilinib yelimlashda boshqa qog‘oz qo‘yiladi.

**Mazmunli applikatsiya.** Bu applikatsiya kompozitsiyaga ko‘ra oddiy va murakkab bo‘lishi mumkin. Murakkab mazmunli applikatsiya ertaklar, hikoyalar va shu kabilarga illyustrasiya sifatida yasaladi. Agarda syujet oddiy bo‘lsa, tasvirlarni oldindan belgilamay qirqish mumkin. Bu applikatsiyada ma'lum bir mazmunni ifodalasa bo‘ladi. Bu badiiy asar uchun ilyustrasiya bo‘lishi mumkin. Applikatsiyada manzara va narsalarning hajmini, rangini, soya va yorug‘lik tushayotgan tomonini





munosib rang berib ko‘rsatish mumkin.

**Badiiy applikatsiya.** Bu applikatsiyada mazmunli ishlarni yaratish faqat mehnatni emas, balki badiiy tayyorgarlikni ham talab qiladi. Applikatsiyaga qaratilgan kompozitsiya va elementlar miqdoriga qarab qog‘oz tanlanadi. Kompozitsiya ustida

[59] Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o’rgatish metodikasi . “Sho’lpon” . T:. 2010 y.

ishlaganda asosiy e'tibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli ma-teriallar, ularning o‘lchamlari, ranglarini tanlashga qaratiladi.



Applikatsiyada mozaika usulidan foydalanib predmetli, mazmunli, dekorativ applikatsiya ishlarini bajarish mumkin. Mozaikani qaychida yoki qo‘lda qirqish usulidan foydalanib bajariladi. Yondagi rasmda «**Qorbobo**» ko‘rinishini qo‘lda qirqish usuli orqali mazmunli mozaika ishi bajarilgan



[60]

[60] Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o’rgatish metodikasi . “Sho’lpon” . T:. 2010 y.

Mustaxkamlash uchun savollar:

1. Applikatsiya nima va uning turlarini haqida gapiring ?
2. Applikatsiyaning qanday turlarini tayyorlashni bilib oldingiz ?
3. MTT larda aplikatsiya mashg‘ulotlarining ahamiyati haqida nimalarni bilib oldingiz?

**Foydalanilgan adabiyotlar.**


1. Xasanboyeva O. U. va b. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. T. ; Ilm ziyo 2006.
2. Sodikova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. T.; tafakkur bo‘stoni 2013.
3. Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasi . “Sho‘lpon” . T:. 2010 y.
4. Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. , D. Azimova "Ustaxonda amaliy mashg‘ulot" “Musiqa” T:.- 2010y.


## 10- Mavzu: Pap’ye- mashe usuli.

**Rejasi:**

1.Pape-mashe haqida ma`lumot.

2.Pape –mashe uchun kerakli jihozlar.

3.Pape-mashe usulida o`yinchoqlar yasash.

4.Pape-mashe usulida turli buyumlar yasash.

**Tayanch so‘zlar;** ***pap’ye- mashe usuli, qo‘g‘ozdan pap’ye- mashe yasash, bezash, foydalanish,***

Pap`ye-mashe **«ivigan», «g‘ijimlangan» qog‘oz** demakdir. Bunday qog‘ozdan kleyster bilan loy va plastilindan yasalgan tayyor model bo‘yicha shakl yelimlanadi. Pap`ye-mashedan tayyorlangan o‘yinchoqlar, har xil mayda-chuyda narsalar yasashning osonligi bilan ajralib turadi. Pap`ye-mashe bilan islilash jarayoni talabalarda mehnat malakalarining shakllanishiga, turli asbob va materiallar bilan ishlash ko‘nikmalarining rivojlanishiga yordam beradi. Pap`ye-mashe bilan ishlaganda qalamtarosh, qarmoq ipi, yelim pishirish uchun idish, tayyor mahsulotni bo‘yash uchun bo‘yoq, mo‘yqalamlar kerak bo‘ladi. Ish qog‘ozni tayyorlashdan boshlanadi. Buning uchun gazeta va o‘rash qog‘ozlari zarar. Qog‘oz namlanadi, biroq ivib ketmasligi kerak. Bir idishda gazeta, ikkinchi idishda o‘rash qog‘ozi turadi. Undan keyin yasaladigan shakl tayyorlanadi. Piyola faner ustiga to‘nkarib qo‘yiladi. Unga yupqa qatlam yog‘ (vazelin, o‘simiik yog‘i) surtiladi.

Birinchi ish piyola ustiga faqat suvlangan qog‘ozni yopishtirishdan boshlanadi. Shundan keyin namlangan kesma qog‘ozlarga kleyster surtiladi, uni birin-ketin

piyolaga yopishtirib, bittadan oralatib, bir-biriga ko‘ndalang, bir kesma ikkinchiga yetadigan qilib qo‘yib chiqiladi. Poloskalarning eni 1—2 sm, uzunligi esa piyolaning ikkala tomoniga yetib, faner ustiga tushib turadigan bo‘lishi kerak. Bunday qog‘ozlar ikki qatlam qilinib, ochiq joylarni qoldirmay yelimlanadi.

Shundan keyin yana ikki-uch qatlam yopishtiriladi, biroq endi poloskalar emas, balki qog‘oz parchalari yopishtiriladi. Qog‘oz albatta qo‘lda yirtilishi kerak, shunday qilinsa, bir me'yordagi yelimlangan tekis qatlam hosil bo‘ladi. Shunday qilib, piyola ustiga bir necha qatlam (5,6—8) qavat qog‘oz parchalari buyumning kattaligiga ko‘ra yopishtiriladi. Qog‘oz shaklni piyoladan ikki kundan keyin olish kerak. Agarda shakl piyoladan chiqmasa, uni bir oz quritish, pichoq bilan qirqib olish kerak. Chetlarini ohista to‘g‘rilab, qirqilgan joy yelimlanadi va bir-ikki kun davomida quritiladi. Yaxshilab quritilgan papye-mashye shaklning sathi silliq qilib, jilvir qog‘oz bilan tozalanadi. Shundan so‘ng yasalgan buyumga emulsiya bo‘yog‘iga «PVA» yelimi qo‘shib mo‘yqalam yordamida silliqlab jilo beriladi. Emulsiyalangan shakl quritiladi va jilvir qog‘oz bilan tozalanadi. Shundan so‘ng u bo‘yaladi va bezak beri[61]

Pap`ye-mashening qog‘oz massasidan bajariladigan boshqa usuli ham bor. Papye-mashye uchun massa eski qog‘ozga yopishtiruvchi va to‘ldiruvchi moddalar qo‘shib tayyorlanadi. Tayyorlash usuli oddiy. Qog‘ozni mayda qilib burdalab, bir sutka ivitib qo‘yiladi. So‘ngra uni kiselsimon bir xil massa hosil bo‘lgunga qadar qaynatiladi. Sovigan massa kichik-kichik bo‘laklarga bo‘linib qo‘lda siqiladi, quritiladi. Tamoman qurigan massa mayda qirg‘ichdan o‘tkaziladi. Shundan so‘ng qog‘oz massaga yelimli suv quyib, narsalar yasashga yaroqli xamir holatiga kelguncha aralashtiriladi. Bunday massadan karnavallar niqoblari, o‘quv qo‘llanmalari tayyorlanadi. Pap`ye-mashedan massa tayyorlash usullari serob, qog‘oz massasi va suyuq duradgorlik yelimini turli to‘ldirgichlar: bo‘r, loy, yog‘och qipiqlari, zig‘ir moyi bilan qo‘shib tayyorlash ham mumkin.

Tayyorlangan xamirdan turli xil narsalar yasaladi. Xamir 1—1,5 mm qalinlikda yoyilib, kerakli mahsulot ustiga yopishtiriladi, so‘ngra quritib gruntlanadi.

Grunt tayyor mahsulotga yupqa qilib surtiladi. U qurigach, uning sathi jilvir bilan sayqallanadi, shundan keyingina moy yoki yelimli bo‘yoq bilan bo‘yab, mahsulotni chiroyli ko‘rinishga kelishi uchun harakat qilish kerak.

Pap`ye-mashe juda qo‘l keladigan ashyo ko‘pgina mamlakatlarda keng foydalanadi. Pap`ye-mashe texnikasi yordamida vazalar, patnislar, qutilar tayyorlanadi. Bu mahsulot oliy darajada mustahkam va uzoq vaqt xizmat qiladi.

Pap`ye-mashedan mahsulot tayyorlash — juda uzoq vaqt davom etadigan jarayon, biron-bir o‘yinchoqlarni tayyorlash uchun sizning bir kuningiz ketadi. Avval osma kosacha qanday kattalikda bo‘lishini aniqlab va sharsimon shaklga ega bo`lgan buyumni

[61] Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o’rgatish metodikasi . “Sho’lpon” . T:. 2010 y.

(koptok) toping. Ish jarayonida koptok dumalab ketaverishi kerak emas, uni yopishqoq lenta bilan mahkamlash kerak. Tayyorlab qo‘yilgan qog‘ozni uchburchaklarga kesib olish lozim. Gazeta qog‘ozini bir idishga solib qo‘yamiz, papirus qog‘ozini esa boshqa idishga solamiz. Qog‘ozning ikki xilini ishlatish tavsiya etiladi. Chunki bunda yopishtirilgan qavatlarini farqlay olish mumkin bo‘lsin. Birinchi qavatiga faqatgina suv ishlatiladi. Bu juda muhimdir, bo‘lmasa, tayyor kosacha koptokka qattiq yopishib qolishi mumkin. Qolgan qog‘oz qavatlariga yaxshilab yelim surtiladi. Qanchalik ko‘p qavat bo‘lsa, shuncha yaxshi bo‘ladi. Keyin tayyor mahsulot quritiladi.

**PAP`YE-MASHE usulida o‘yinchoqlar yasash gurux bilan birgalikda.**

Pap`ye-mashe so‘zi fransuz rassomining ism va familiyasidir. Rassom birinchi bo‘lib xamir va qog‘ozni aralashtirib plastilinga o‘xshash massa hosil qilgan, bu massani qo‘lda g‘ijimlash orqali tayyorlanadi. Tayyorlash usuli quyidagicha: 1 qavat o‘rov qog‘ozi yoki gazetaga oldindan tayyorlangan suyuq xamirni surib chiqamiz va xamir surilgan qog‘ozni qo‘limizda g‘ijimlab maydalab bir xil massa bo‘lguncha ezg‘ilaymiz. Tayyor bo‘lgan massani bo‘Iaklarga bo‘lib xohlagan o‘yinchoqni yasashimiz mumkin.

O‘yinchoq yasash davomida barcha haykaltaroshlik usullaridan foydalanishimiz mumkin bo‘ladi. G‘ijimlash usuli orqali ko‘pincha archa bezaklari yasaladi. Bunda yasalayotgan o‘yinchoq ichiga simdan ilgak joylashtiriladi. Yasalgan o‘yinchoq qurigandan so‘ng qum qogoz bilan ishqalanib, silliqlanadi. So‘ngra oq guash yoki tish pastasi bilan bo‘yab olinadi.

Qurigandan so‘ng akvarel bo‘yoq bilan bo‘yaladi va ustidan lak beriladi. Bu usul orqali sabzavotlar, mevalar, hayvon, parrandalar, qushlar, gullar va boshqa narsalarni yasash[62] mumkin.



[62] Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o’rgatish metodikasi . “Sho’lpon” . T:. 2010 y.






Ish qog‘ozni tayyorlashdan boshlanadi. Buning uchun gazeta va o‘rash qog‘ozlari zarar. Qog‘oz namlanadi, biroq ivib ketmasligi kerak. Bir idishda gazeta, ikkinchi idishda o‘rash qog‘ozi turadi. Undan keyin yasaladigan shakl tayyorlanadi. Piyola faner ustiga to‘nkarib qo‘yiladi. Unga yupqa qatlam yog‘ (vazelin, o‘simiik yog‘i) surtiladi

**Savol va topshiriqlar;**

1.Pape-mashe haqida ma`lumot bering.
2.Pape –mashe uchun kerakli jihozlar nimalar?
3.Pape-mashe usulida o`yinchoqlar yasashning ahamiyati.
4.Pape-mashe usulida turli buyumlar yasash texnologiyasi qanday?

## 11-Mavzu: Tabiiy va tashlandiq materiallardan turli o‘yinchoqlar yasash.

**REJA;**

1.Tabiiy buyumlar bilan ishlash usullari.
2.Tashlandiq buyumlardan o‘yinchoq yasash.
3.Tashlandiq buyumlardan o‘yinchoq yasashga o‘rgatish axamiyati.
4. MTTda tabiiy va tashlandiq materiallardan turli o‘yinchoqlar yasash uchun zaruriy materiallar.

**Tayanch so‘zlar**;*tabiiy materiallar, tashlandiq materiallar, urug‘lar, somon bilan ishlash,gerbariy tayyorlash,burglar bilan ishlash.*

O‘zbekiston tabiiy resurslar, foydali qazilmalar, metall va qotishmalar, plastmassalar, yog‘ochlar va o‘simliklarga boy o‘lkadir. Respublikamizning bu tabiiy boyliklari sanoatda, turmushda foydalanadigan xomashyo bo‘lishi bilan bir qatorda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida turli faoliyatlarni tashkil etishda bajariladigan ishlar uchun kerakli material bo‘lib ham xizmat qiiadi. Bolalarda ilk yoshligidan boshlab ona tabiatga qiziqish va muhabbatni, undagi go‘zalliklani ko‘ra bilishni tarbiyalash kerak. Tabiiy materiallar bilan ishlash ularni tabiatni kuzatishga majbur qiladi. Kuzatishlar esa badiiy ijodiy qobiliyatlarni konstruktorlik g‘oyasini, tushunchalarning aniqligini uyg‘otadi. Turli tabiiy materiallar bilan ishlash, turlicha ishlov berilishini, turli asboblardan foydalanishni talab qiladi va ularni ishlatish bilim, ko‘nikma, malakalarini beradi. Turli tabiiy materiallarni toplash tarbiyachichi qo‘ygan maqsadga bog‘liq bo‘ladi. bolalar ko‘rib chiqilgan va batafsil muhokama qilingan yoki o‘zlari o‘ylab topgan tasvir uchun material to‘playdilar. Yoki aksincha, avval turli barglarni to‘plab, keyin ishni bajarish tartibini aniqlashlari mumkin. Tabiiy materiallarni bolalar dastlab tarbiyachi rahbarligida sayr vaqtida to‘playdilar. Tabiiy materillarni to‘plash jarayonida bolalar atrofdagi o‘simliklar dunyosi, hashoratlar bilan tanishadilar, daraxtlar, gullar navlarini, nomlarini, shakllarini, tabiiy materiallarni qachon va qanday to‘plash va qanday saqlash lozimligini bilib oladilar. Tabiatni qo‘riqlash va unga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, uni asrash masalalariga alohida e’tibor berish har bir bolaning burchidir.

Turli mashg‘ulotlar jarayonida tabiiy materiallardan: quritilgan barglar, gullar, poliz ekinlari - qovun, tarvuz, qovoq urug‘lari, mevalar - olcha, o‘rik, shaftoli danaklari va shu kabilar, baliq tangalari va qanotlari, jo ‘xori va makkajo‘xori so‘talari, paxta chanog‘i, yong‘oq po‘sti va shu kabilardan keng foydalaniladi. Tabiiy materillarni to‘playotgan har bir bola tabiiy materiallarni tartibli yig‘ish va tayyorlash lozimligini bilishi, barg to‘plash jarayonida daraxtlar, butalar shoxini qo‘pollik bilan sindirish, gul va shu kabilami o‘ylamasdan uzish tabiatga nisbatan vahshiylik ekanligini yodda tutishi lozim. Gullarni qo‘l bilan sindirib bo‘lmaydi, aks holda poyasi zararlanishi mumkin. 0‘simliklami to‘plashda gazeta, gerbariy papkasi, qaychi, paxta bo‘lishi kerak. Gazeta daftarsimon taxlanib, orasiga materiallar tartib bilan joylanadi. quritib olishga mo‘ljallangan o‘simliklar har qanday namlikdan holi bo‘lishi kerak, aks holda o‘simlik quritilganda unda dog‘larning izi qoladi. Quritilayotgan o‘simlikning tabiiy rangini asrab qolishning eng muhim sharti, ularni

shamol utib turadigan joyda, yelvizakda, quyosh nurida tez quritib olishdir. O‘simliklarni quritish 3 sutkadan oshmasligi kerak. [63]

**Gerbariy ramkalarida quritish.** Gerbariy ramkalarida quritilgan o‘simliklarning ko‘pchiligi o‘zining tabiiy rangini saqlab qoladi. Bunda o‘simlik yumshoq qog‘oz yoki gazeta orasiga solib qo‘yiladi. Har bir varaq qog‘oz va o‘simIik o‘rtasiga yana bir necha qavat qog‘oz yoki gazeta qo‘yiladi, chunki quritilayotgan o‘simlik o‘zidan namlik chiqaradi. Shundan so‘ng papka ikkita to‘rsimon ramka o‘rtasiga qo‘yilib, ochiq havoga qo‘yiladi. Agarda havo harorati kechqurun va kechasi juda pasayadigan bo‘lsa, o‘simIik issiq va quruq joyga olib quritiladi.

**Pressda quritish.** Orasiga o‘simlik solingan qog‘ozlar gerbariy papkasi o‘rniga ikkita faner listlar o‘rtasiga joylanib, og‘ir narsa bostirib qo‘yiladi. Og‘irlik pressga qancha o‘simlik joylashtirilganligiga bog‘liq bo‘ladi. Mayda nozik o‘simliklar kam og‘irlikni va quritish uchun kamroq vaqtni talab qiladi. 2-3 soatdan so‘ng qog‘oz almashtiriladi. Quritish shu usulda davom ettiriladi.

**Issiq dazmol bilan quritish.** Issiq dazmol bilan odatda barglar, poyalar, maysalar quritiladi. Qavat-qavat gazeta yoki yumshoq qog‘oz orasiga o‘simlikni qo‘yib, ustidan dazmol yurgiziladi. So‘ngra ustki qavatidagi gazetani olib, quritilayotgan o‘simlik shamollatiladi va quruq joyga suriladi, so‘ngra gazeta yopib yana dazmollandi. 0‘simlik 2-3 minutda quriydi va u o‘zining tabiiy rangini yo‘qotmaydi. Agarda quritilgan o‘simlik ko‘tarilganda o‘zining tanasini ushlab tursa, u yaxshi quritilgan hisoblanadi. Agar u sinib maydalanib ketsa, demak, u ortiqcha quritib yuborilgan hisoblanadi.

**2. Barglar.** Barglar o‘yinchoqlarni yasashda qiziqarli va kerakli qo‘shimcha material hisoblanadi. Ular turli shakl va ranglarda bo‘lishi mumkin. Eman daraxtlaming yirik barglarini bolalar kemalarga yelkan sifatida ishlatishadi. Barglardan kapalak qanoatlari, baliq suzgichlarini (bu o‘yinchoqlar g‘udda va bargdan yasaladi) yasashda qo‘llash mumkin. Barglarni kuzda, ular chiroyli bo‘lganida terish yaxshi. Mashg‘ulotda foydalaniladigan tabiiy materiallar tarbiyachi rahbarligida ekskursiya jarayonida to‘planadi. Ekskursiyani uyushtirishdan oldin bolalarga bo‘lajak ish namunasi ko‘rsatiladi. Bolalar uni diqqat bilan ko‘rib, mashg‘ulot jarayonida foydalaniladigan tabiiy materiallar, ya’ni bargning shaklini, daraxt navlarini aniqlaydilar. Shundan so‘ng uyushtiriladigan ekskursiya rejasi tuziladi. Ekskursiya yo‘nalishi, tabiiy materiallarni to‘plash uchun mo‘ljallangan joylar aniqlanadi. Bolalar e’tiborini va aqliy faoliyatlarini kuzatilayotgan obyektdan markazlarda ishlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan asosiy muhim belgilari, elementlari va xususiyatlarini ajratishga, to‘pIanayotgan materialni to‘g‘ri baholashga yo‘lIaydigan savollar ro‘yxati tuziladi. Daraxtzorga kelganda bolalar kayfiyati ko‘tarilib, ular har narsaga qiziqish bilan qaraydilar, barglar, ularning ranglari, shakllari bolalarni ajablantiradi. Ular tabiatning butun go‘zalligini,

---

[63] Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o’rgatish metodikasi . “Sho’lpon” . T:. 2010 y.

uning ranglarini, to‘kilgan barglar hidi va ular o‘zining elastiklik xususiyatini yo‘qotganligini, qattiqlashib, sinuvcha bo‘lib qolganligini ko‘radilar. Bolalarning atrof-tabiat bilan zavqlanishlari kamayib borishiga qarab, ularning e’tibori barglarning shakli, daraxtlar navlariga qaratiladi. Ana shu vaqtda o‘simliklarda sodir bo‘layotgan ichki jarayonlar qisqa va tushunarli bayon etib beriladi: o‘simlik yangi sharoitlarga moslashib, qish fasliga tayyorgarlik ko‘rayotganligi bilan tanishadilar. Bolalarning e’tibori atrofda uchib yurgan qushlar, kapalak, nina chilarga, ularning asosiy belgilariga jalb qilinadi, Uchib yurgan qushlar, ularning tuzilish formalari haqida, mashg‘ulotlarda qushlar aplikatsiyasini tayyorlash uchun to‘plangan barglar material xizmatini o‘tashi to‘g‘risida suhbat o‘tkaziladi. Bolalar barglarni to‘plar ekanlar, ularning ranglarini, shakllarini qiyoslashni o‘rganadilar, bu ularning kuzatuvchanligi va diqqat qilish qobiliyatlarini o‘stirishga yordam beradi. To‘plangan barglar oldindan tayyorlab qo‘yilgan daftar varaqlari orasiga qo‘yiladi. Shundan keyin bolalarga barglarning aplikatsiya mashg‘ulotlarigacha rangini yo‘qotmasligi, buralib ketmasligi uchun qanday ishlov berish kerakligi tushuntiriladi. Har bir ekskursiyada bolalarning e’tiborini insonning yaratuvchilik mehnatiga albatta jalb etish kerak. Ekskursiya oxirida suhbatga yakun yasaladi, ekskursiyada egallangan bilimlar umumlashtiriladi. Bundan tashqari, bolalarga uylarida qushlar tasviri tushirilgan rasmlarni, suratlarni ko‘rish, ularning tanasi va qanotlarining shakliga, rangiga alohida e’tibor berish topshiriladi. Bunday uyushtirilgan ekskursiyadan keyingi mashg‘ulotda bolalar quritilgan barglardan qush applikatsiyasini zo‘r ishtiyoq bilan bajaradilar, agar applikatsiyalar o‘z istaklariga ko‘ra, o‘zlari to‘plagan materiallardan mustaqil yasash topshirilsa, qiziqishlari yanada ortadi.[64]

Bunday aplikatsiya mashg‘ulot quyidagi sxemaga ega bo‘ladi.

***Ishni bajarilish tartibini aniqlash:***

1. Predmetning qismlari joylashishini grafik tasvirlash;

2. Predmetning qismlari uchun shakli hamda o‘lchamlari bir xil bo‘lgan barglarni topish;

3. Ularni qog‘ozga joylashtirish;

4. Ishning bajarilish texnologiyasi haqida tushuntirib berish;

5. Ishn iamaliy bajarish.

**Applikatsiyani bajarish bo‘yicha mustaqil ish:**

1. Shaklni, o‘lcham va bo‘yoqlarni to‘g‘ri tanlash;
2. Yelimlash ishlarini tartibli bajarish;
3. Detallarning joylashishini to‘g‘ri tasvirlash;
4. Ish bajarilgan qog‘ozning orqasiga barglaridan foydalanilgan daraxt yoki o‘simliklarining nomlarini tarbiyachi yordamida yozish.

[64]Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o’rgatish metodikasi . “Sho’lpon” . T:. 2010 y.

**Bajarilgan ishning tahlili va baholash:**

1. Ish bajarilishida yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni aniqlash;
2. Xato va kamchiliklarni o‘z vaqtida to‘g‘rilash;

Namunali, sifatli va chiroyli bajarilgan ishlarni rag‘batlantirish. Bargning xususiyatlari va shakllari shunday xilma-xilki, applikatsiyalar yasashda ulardan asosiy material sifatida ham, yasalgan narsalarga bezak berish materiali sifatida ham foydalanish mumkin. Bu ishlarni bajarish bolalarni estetik didini, tasavvurini oshiradi, ijodiy izlanishi va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o‘stirishga yordam beradi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bolalarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ijodkorlik qobiliyatlari, ko‘nikma va shaxs xislatlarining shakllanishida muhim bosqich bo‘lib, mashg‘ulotlar va markazlardagi faoliyatlar hamda ekskursiya mashg‘ulotlarida ijodiy yondashish, ta’lim jarayonini integratsiyalash asosida tashkil etishga zamin bo‘ladi.

**Urug‘lar.** o‘yinchoq uchun tabiiy materiallarga qimmatli qo‘shimcha bo‘lib daraxtlar, gullar, sabzavotlar urug‘lari xizmat qiladi. Masalan: zarang, shumtol urug‘lari. Bolalarga ular qanotchalar sifatida tanishtiriladi. Ulardan ninachi qanotlarini, quyon quloqlarini, baliq suzgichlari, tarvuz, qovun, kungaboqar urug‘laridan ko‘zlar yasash mumkin. Urug‘larni kuzda yig‘ish yaxshiroq. Ish mavzu va fikrni tanlashdan boshlanadi;

- ochiq tondagi qog‘oz va fon tanlanadi;
- applikatsiyaga moijallangan tasvir uchun urug‘lar tanlanadi;
- tasvir ustida ishlanganda asosiy e’tibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o‘lchamlari, ranglarini tanlashga qaratiladi;
- tasvirlash lozim bo‘lgan predmetiarning holati aniqlanadi;
- tasvirlanadigan urug‘ ranglari va hodisalarning uyg‘unligiga erishiladi;
- tasvirning barcha detallari, hatto eng kichiklari ham urug‘dan tayyorlanadi, ularni chizmaslik kerak;
- urug‘lar qog‘oz sathiga joylashtiriladi va o‘ylangan tasvir hosil qilinadi;
- agar bu tasvir ma’qul bo‘lmasa, urug‘Iar boshqacha joylashtiriladi;
- urug‘larni yelimlashda PVA yelimidan foydalaniladi;
- tasvirning kerakli qismi yelimlanadi va urug‘lar yopishtiriladi;
- urug‘larni yelimlashda qisqichlardan foydalaniladi;
- urug‘larni yopishtirishda joyni adashtirmaslik uchun ularning o‘rnini qalam bilan belgilab qo‘yiladi;

- urug‘lar yelimlab bo‘lgandan so‘ng quritish uchun qo‘yiladi. Quritishda yelvizak bo‘lmasligi kerak.

**3. Somon texnikasi** yangi yo‘nalish bo‘lganligi uchun asta-sekin yoshlar tomonidan o‘rganilmoqda. Ayniqsa bu sohani imkoniyati cheklangan bolalarga o‘rgatish quvonarli hol. Chunki ular ish jarayonida o‘zlarining nogiron ekanliklarini unutib, yaratayotgan namunalaridan zavq olishadi va hunar egasi bo‘lishadi.

1. Avvalo xomashyo sifatida somon kerak bo‘ladi. Aynan bug‘doy yig‘ini boshlangan vaqtda somonning kerakli, ya’ni tepa va pastki bandlari alohida

yumshoq hamda qattiqligiga qarab, qirqib olinadi. Chunki, tepa qismi quyosh nuriga yaqinligi uchun qizarib, to‘qroq, pastkisi esa salqinlikda ochroq rangda bo‘ladi. Ushbu qalamchalarni bunday ajratishning boisi, ular asar tayyorlash jarayonida o‘z o‘rniga moslab qo‘llaniladi.

2. Yig‘ib olingan qalamchalar 1 kun davomida suvga solib qo‘yiladi va ular ho‘l nam holicha olinib, qattiq bosib, birma-bir dazmol qilinadi. Ushbu sohani tanlagan hunarmand nafaqat o‘z ishini bilishi, balki tasviriy san’at yo‘nalishini ham puxta egallashi lozim. Asar uchun eskiz tayyorlashda bu juda asqotadi.

3. Endigi navbat chizmaga. Qog‘ozga o‘ylangan kompozitsiya chizib olinadi va ushbu eskiz oddiy qog‘ozga ko‘chiriladi. Eskizning har bir qismi alohida-alohida qirqib olinadi.

4. Dazmollangan somon qalamchalari kompozitsiyaning kerakli, ya’ni issiq, sovuq, soya, nur kabi joylariga moslab qog‘oz ustidan yelim yordamida yopishtirib chiqiladi.

5. Yaratilgan asar janriga ko‘ra, unga ishlov beriladi. Masalan, bolakay obrazi bo‘lsa, uning yuziga ifoda berish maqsadida maxsus kuydirish uskunasidan foydalaniladi. Bu uskuna yordamida asar xuddi rassom chizgandek tasvirlanadi. Alohida ishlangan kompozitsiya o‘zaro birlashtiriladi va qora malo yoki somon qalamchalaridan tayyorlangan tag qismiga yopishtirilndi, Hajmiga qarab, ramkaga solinadi. Asosiysi, ular hech bir ranglarsiz ustaning mahorati ila asar sifatida yaratiladi. Rangsiz kompozitsiyalar ranglilaridan farqli ravishda yaratilishi, kuydirilishiga ko‘ra ancha murakkab hisoblanadi. Rangli qilish mumkin, ya’ni somon ustidan bo‘yoq beriladi. Latviya, Belorussiya, Litva va Rossiyaning turli shaharlarida somonchilik na’munalaridan aynan rangli qilib tayyorlanadi. Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida bolalar ona tabiat bilan yaqinlashishga, unga tejamkorlik va mehribonlik, ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishga o‘rganadi.

**Tabiiy material** - bolalar ijodiyotini rivojlantirish uchun asosiy tayanch hisoblanadi. bolalarga o‘yinchoq va buyumlar yasashda ulardan qanday foydalanishni o‘rgatish zarur. Shu maqsadda tabiiy materiallar burchagi tashkil etiladi. Tabiiy materiallar burchagini guruxxonada, uyda tashkil etish mumkin. Tabiiy materiallardan buyum va o‘yinchoqlarni tayyorlash - qiziqarli, oddiy bo‘lmagan va juda yoqimli mehnatdir. Tabiiy materiallarni to‘plash, saqlash va ularga ishlov berish mashgulotlarda egallangan bilimlarni qo‘llash hamda ulamrni mustahkamlash imkonini beradi.

Bolalar tabiatdagi ekskursiyalar vaqtida turli xil tabiiy materiallar, masalan: yong‘oqlar, barglar, shoxchalarni, ko‘l, hovuz qirg‘oqlaridan - chiroyli toshchalar, chig‘anoqlarni olib kelishadi. Bolalar tabiiy to‘plash jarayonida turli materiallarni teradilar, ushlab ko‘radilar, shaklini, rangini, har birining xususiyatini o‘rganadilar. Bu esa materiallarning nomini eslab qolishga yordam beradi. Masalan, bolalar yong‘oqning yumaloqligini, jigarrang ekanligini, ustki qismi g‘adir-budur ekanligini bilib oladilar, cho‘chqa yong‘og‘ini esa oval shaklda, yaltiroq sariq-jigarrang

bo‘lishini bilib oladilar. Tabiat bilan bo‘lgan muloqot bolalarning tasavvurini kengaytiradi, diqqat bilan kuzatish qobiliyatini shakllantiradi, tabiiy materiallardan buyumlar yaratishda idrok va tasawurning bir butunligini saqlaydi. Buyumlarni yasashda bolalar avval qiynalsalar, keyinchalik, uzluksiz bajarish natijasida bolaning o‘ziga ishonch, aniqlik, qoniqish va xohish kabi sifatlarga ega bo‘ladi va barmoqlari epchil harakat qiladi. Tabiiy materiallar bilan ishlash bolaning aqliy rivojlanishiga, tafakkuri va fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga katta ta’sir qiladi. Tabiiy materialdan buyum tayyorlash jarayonini kuzatadigan bo‘lsak, boshida bolalar namunani ko‘rib chiqadilar, uning tarkibini, tayyorlash usulini tahlil qiladilar; bu jarayonni o‘zlashtirgandan so‘ng ish murakkablashadi. Bolaga tayyorlanadigan o‘yinchoqning rasmi yoki foto surati ko‘rsatiladi va ular topshiriq yoki o‘zining o‘ylagan fikri asosida buyumni yasaydilar. 0‘yinchoqlarni tabiiy materiallardan tayyorlashning qiziqarliligi bolalarning diqqatini rivojlantiradi, uning mustahkamligini oshiradi. Erkin diqqat shakllanadi. Masalan, kuchukchani tayyorlashda bolalarga avval uning oyoqchalarini mahkamlash joylarini diqqat bilan ko‘rib chiqib (ular simmetrik holda turishi, past ham, baland ham bo‘lmasligi, haqiqiyga o‘xshashi kerak) teshiklarini belgilash, boshi va boshqa detallarini mahkamlash joylarini ko‘rib chiqish tavsiya etiladi. Tabiiy materialdan qilingan buyumlar ko‘pincha bolalarning qiziquvchanligini qoniqtiradi. Bu mehnatda har doim yangilik, ijodiy izlanish, yanada yuqori natijalarga erishish imkoniyati bor. 0 ‘yinchoqlarni tayyorlashda bolalarni qulay emotsional yo‘naltirish, mehnatda muloqat quvonchi, chiroyli o‘yinchoq yasash jarayonida rohatlanish hissi umumiy rivojlanishi uchun juda muhimdir. Tabiiy materiallardan o‘yinchoqlar yasash mehnati bola shaxsining rivojlanishiga yordam beradi. O‘yinchoqni yasash oson ish emas. Uni yasashda noaniqlikka duch kelganda, bolailarga mustaqil ravishda uni bajarish yo‘llari o‘rgatiladi. Ba’zan biron-bir ishni yasash uchun kerakli o‘lchamda eman daraxtining g‘uddalarini tanlash, o‘yinchoq qismlarini o‘lchash yo‘llarini amalga oshirish va h.k. Kattalar yordami bilan bola omadsizlik sababini, ularni yengish yo‘llarini o‘rganadi. Shu asnoda unda maqsadga intilish, qati’yatlik, boshlangan ishni oxiriga yetkazish kabi sifatlar shakllanadi. Ushbu mehnat turida o‘z faoliyatini baholash va nazorat qilish sifatini shakllantirishning real imkoniyatlari bor. Tabiiy materialdan o‘yinchoq yasash mehnati individual va jamoaviy bo‘lishi mumkin. Kattalar kabi bolalarga ham jamoaviy muhit ulkan quvonch olib keladi. Bu yerda shunisi muhimki, bolalar jamoaviy mehnatning natijasini, foydasini tushunishlari kerak.

**Turli materiallar bilan ishlash**. Turli materiallar bilan ishlaganda chiqindi materiallari: po‘kak, qutichalar, plastmassa idishlar va shu kabilardan foydalaniladi. Mashg‘ulotlarni rejalashtirish va materiallarni tanlashda mahalliy sharoitlar: o‘lka iqlimi, tabiati, ishlab chiqarish korxonalari, xalq badiiy ustaxonalari va shu kabilarni e’tiborga olish kerak. Mashg‘ulotlarni shunday tashkil etish kerakki, ular bolalarning ijodiy qobiliyatlarini o‘stirisin, tasavvur qilishga o‘rgansin. Turli materiallarning texnologik xususiyatlari shunday xilma- xilki, narsalar yasashda ulardan asosiy material sifatida ham, yasalgan narsaga bezak beruvchi material sifatida ham foydalanish mumkin. Turli materiallardan o‘yinchoqlar, yodgorliklar, ko‘rgazmalar,

ro‘zg‘or uchun foydali buyumlar va boshqa buyumlarni yaratish badiiy modellashtirishga yaqinlashib ketadi, bolaning estetik hissiyotlari va badiiy moyilliklarini o‘stirishga yordam beradi. Bu ishlarni bajarish jarayonida bolalar quyidagi malaka va ko‘nikmalarni egallaydilar hamda mustahkamlaydiiar:

1. Turli tabiiy materiallar hamda ularni to‘plash va saqlash qoidalari bilan tanishish. Atrof muhitni muhofaza qilish.

2. Turli tabiiy materiallarga ishlov berish va mustahkamlash qoidalari

3. Buyum uchun atrof muhitdan obyekt tanlash.

4. Predmetni tahlil qila bilish. Detallar uchun material, shuningdek ularga ishlov berish uchun asboblar tanlash.

5. Mustaqillikni, fantaziyani namoyon qilish. Ijodiy qobiliyatlarni o‘stirish.

6. Boshqa materiallar bilan tanishish.

7. Obrazlarni yaratishda konstruktorlik va ijodiy qobiliyatlarni o‘stirish.

8. Metallga ishlov berish asboblari bilan tanishish. Jarayon bosqichlarini taqsimlay olishni, umumiy maqsadni hisobga olgan holda o‘z faoliyatini rejalay olish qobiliyatini bolalarda shakllantirish uchun jamoaviy ishning turli shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jamoaviy mehnat bolalarda jamoalik, do‘stona munosabat, o‘zaro yordam, birodarlik kurtaklarini shakllantiradi. Jamoaviy mehnatning natijalari, ayniqsa kattalar tomonidan quvvatlanib bolalarga qanot bag‘ishlaydi, ularni yangi buyumlar yasashga undaydi. Har bir ishga ko‘tarinki ruhda kirishadilar. Shunday ekan, tarbiya va ta’lim jarayoni to‘g‘ri tashkil etilsa, turli tabiiy material bilan ishlash bolalarni barkamol o‘stirishda samarali vosita bo‘lib qoladi. [65]



Tabiiy materiallar tarbiyachi rahbarligida ekskursiyalarda to‘planadi. Ekskursiya uyushtirishdan oldin bolalarga bo‘lajak ish namunasi ko‘rsatiladi. Bolalar uni diqqat bilan ko‘rib, unda ishlatilgan barg plastinkalarining shaklini, daraxt navlarini aniqlaydilar. Shundan so‘ng uyushtiriladigan ekskursiya rejasi tuziladi. Ekskursiya marshrutida alohida e'tibor beriladigan obyekt (eman, zarang, akatsiya daraxtlari, hasharotlar, ninachi)lar aniqlanadi. Bolalarning e'tiborlari va aqliy faoliyatlarini kuzatilayotgan obyektning zarar bo‘lgan asosiy muhim belgilari va xususiyatlarini ajratishga, to‘planayotgan materialni to‘g‘ri baholashga yo‘llaydigan savollar tuziladi.[66]

[65] Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o’rgatish metodikasi . “Sho’lpon” . T:. 2010 y.

[66] Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. , D. Azimova "Ustaxonda amaliy mashg'ulot" “Musiqa” T:.- 2010y.

Daraxtzorga kelganda bolalar kayfiyati ko‘tarilib, ular har narsaga qiziqish bilan qaraydilar, barglar, ularning ranglari bolalarni ajablantiradi. Ular kuzning butun go‘zalligini, uning ranglarini, to‘kilgan barglar xidi va ular o‘zining elastiklik xususiyatini yo‘qotganligini, qattiqlashib, sinuvchan bo‘lib qolganligini ko‘radilar. Bolalarning atrof-tabiat bilan zavqlanishlari kamayib borishiga qarab, ularning e'tibori barglarning shakli, daraxtlar navlariga qaratiladi. Ana shu vaqtda o‘simliklarda sodir bo‘layotgan ichki jarayonlar qisqa va tushunarli shaklda bayon etib beriladi. Shundan keyin bolalarning e'tibori atrofda uchib yurgan kapalak, ninachilarga, ularning asosiy belgilariga jalb qilinadi. Uchib yurgan hasharotlar ularning tuzilish shakllariaplikatsiya faoliyatlarida hasharotlar applikatsiyasini tayyorlash uchun obraz, to‘plangan barglar material xizmatini o‘tashi kerak.



Bolalar barglarni to‘plar ekanlar, ularning ranglari, shakllarini qiyoslashni o‘rganadilar, bu ularning kuzatuvchanligini o‘stirishga yordam beradi. To‘plangan barglar oldindan tayyorlab qo‘yilgan daftar varaqlari orasiga qo‘yiladi. Shundan keyin bolalarga barglarning aplikatsiya qilinguncha rangini yo‘qotmasligi, buralib ketmasligi uchun qanday ishlov berish kerakligi tushuntiriladi. Har bir ekskursiyada bolalarning e'tibori insonning yaratuvchilik mehnatiga albatta jalb etilishi kerak. Ekskursiya oxirida unga yakun yasaladi, ekskursiyada egallangan bilimlar umumlashtiriladi. Bundan tashqari, bolalarga kapalak va ninachilar tasviri tushirilgan rasmlarni ko‘rish, ularning tanasi va qanotla-rining shakli, rangi qandayligiga alohida e'tibor berish topshiriladi.

Bunday uyushtirilgan ekskursiyadan keyingi mashg‘ulotda bolalar applikatsiyalarni zo‘r ishtiyoq bilan namoyish qiladilar, agarda applikatsiyani o‘z istaklariga ko‘ra, o‘zlari to‘plagan materiallardan mustaqil yasash topshirilsa, qiziqishlari yanada ortadi.

## Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. MTT da tabiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlashning zarurati nimada?
2. Tabiiy materiallardan aplikatsiya tayyorlash haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Bir yillik o`simlik bug`doyi va somon haqida nimalar bilasiz?
4. Somondan applikatsiya ishini bajarish usuli qanday?
5. Bolalar aplikatsiya ishlarini bajarishi orqali badiiy ijodkorligini oshirish usullari mavjud?
6. Tashlandiq buyumlarga nimalar kiradi?
7. Tabiiy va tashlandiq buyumlarni to‘plshning qavday qoidalari bor?

8. Internet manbalaridan foydalanib tabiiy narsalardan o‘zingiz ham buyumlar yasang.

9. Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida bolalarni nimalar bilan tanishtirish kerak?

10. Tabiiy va tashlandiq materiallardan MTT da qachon va qanday foydalaniladi?

**Foydalanilgan adabiyotlar.**


1. Xasanboyeva O. U. va b. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. T. ; Ilm ziyo 2006.

2. Sodikova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. T.; tafakkur bo‘stoni 2013.

3. Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasi . “Sho‘lpon” . T:. 2010 y.

4. Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. , D. Azimova "Ustaxonda amaliy mashg‘ulot" “Musiqa” T:.- 2010y.


## 12 –Mavzu: Chinni xamir bilan ishlash texnologiyasi.

**Reja.**

1. Maktabgacha ta’lim muassasasida loy, plastilin bilan ishlash.
2. Chinni xamir tayyorlash texnologiyasi.
3. Chinni xamirdan narsa va buyumlar yasash uchun kerakli maxsulotlar.

Plastilin, loy ishi, chinni xamir tasviriy san’atning haykaltaroshlik va amaliy san’atning muhim turlaridan bo‘lgan kulolchilik, sopoldo‘zlik xalq hunarmandchiligi san’atlari bilan mustahkam bog‘liqdir.

**Modellashtirish** - badiiy ijodiyotning eng aniq shaklidir. Bola yaratgan narsasini nafaqat ko‘radi, qo‘liga oladi, paypaslaydi, kerak bo‘lsa o‘zgartiradi. Modellashtirishning asosiy asbobi qaychi, qalam, mo‘yqalam emas balki qo‘ldir, to‘g‘rirog‘i ikki qo‘lidir, shu sababli mahorat darajasi o‘z qo‘llarning egalik darajasiga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan qaraganda, modellashtirish texnikasi oddiy, sodda va o‘zini rivojlantirish uchun eng qulay vosita deb hisoblash mumkin. Modellashtirish, ya’ni loy ishi mashg‘ulotlari, bola rivojlanishida kompleks ta’sir etadi:

Shakl, hajm, plastik, rangni idrok etish hissiyotini, sensor sezuvchanligini rivojlantiradi;

- mayda qo‘l motorikasini, fazoviy taffakurni va tasavvurni rivojlantiradi;
- ikkala qo‘l ishini sinxronlashtiradi;
- ishni rejalashtirish, amalga oshirish, natijani bashoratlash va unga erishish, kerak bo‘lsa o‘zgartirish kiritish ishlarida ko‘nikma, malakalari shakllanadi;

**Loy ishida qo‘llaniladigan usullar**

1. Yumaloqlik – bir bo‘lak loydan kaftda aylana harakatlar bilan shar yasaladi.
2. Shar yasash, so‘ngra uzunasiga harakatlar bilan uni tuxum, ustun kabilarga aylantirish.
3. Yassilash – sharikdan yassi non yasaladi, qo‘lning holati doimo o‘zgarib turadi.
4. Cho‘zish – sharikning bir qismi cho‘ziladi.
5. Surish (yamash) buyumning ayrim qismlarini o‘zaro biriktirish.

Loy bilan ishlash mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazishda ish joyini bekamu-ko‘st jihozlanganligi muhim ahamiyatga. Loy va plastilindan narsalar yasash uchun maxsus uskunalar: aylanadigan doirali dastgoh (katta guruhlar uchun), suv solinadigan idishlar, latta; bolalar yasagan narsalarni bo‘yash uchun gruntovka; bundan tashqari, bo‘yashda ishlatiladigan maxsus bo‘yoqlar — angoblar kerak bo‘ladi. Bolalar ishlagan haykaltaroshlik mahsulotlarmi pishirish uchun mufel pechkaning bo‘lishi **maqsadga** muvofiqdir. Bunday pechkani o‘quv kollektorlaridan topish mumkin.

Natura yoki namunani namoyish qilish uchun natura uchun mo‘ljallangan tagliklardan foydalansa bo‘ladi. Karkaslar — turli uzunlik va kenglikdagi oddiy taxtalar ham uskunalarga kiritiladi. Karkaslardan foydalanish bolalarga jonivorlar oyoqlarining mukammalroq tasvirida va ularning figuralarini barqaror hamda dinamikroq qilishga imkon beradi.

Narsalar yasash mashg‘ulotlari uchun plastik materiallar — loy, plastilin kerak bo‘ladi, bunda asosiy yasash uchun eng maqbul material, bu loydir. Kichik guruhlarda faqat loydan foydalaniladi, chunki bu yoshdagi bolalar plastilindan narsa yasashda qiynaladilar. 0‘rta guruhda ham bolalar asosan loydan narsalar yasaydilar. Rangli plastilindan katta guruhlarda mazmunli narsalar yasashda foydalaniladi.[67]

Narsalar yasash uchun loy qanday tayyorlanadi?

Turli joylardan olingan loy rangi bilan farqlanadi; u sarg‘ish, jigarrang, qizg‘ish, kulrang, oq, yashil-ko‘kish, qo‘ng‘ir rang bo‘lishi mumkin. Loy, uning tarkibida qum kam bo‘lsa, kuchli bo‘ladi, qum aralashmasi uni sochiluvchan qiladi. Loyni bevosita yerning o‘zidan tanlash mumkin. Kuchli loyning yaxshi qatlamlari daryo va ariqlarning yaqinida uchraydi. Shuning uchun shahar bog‘chalari uchun loyni yozda dala hovliga chiqqan vaqtlarda g‘amlab kelish kerak.

Plastilin — loy, mum, yog‘, bo‘yoq va boshqa qo‘shilmalardan tayyorlangan sun’iy plastik massa. U yumshoq va qayishqoq, u uzoq qotmaydi, ammo temperatura oshganda yumshaydi va eriydi. Narsalar yasashda plastilinni qo‘lda uzoq muddat ezish tavsiya qilinadi. Plastilin bilan ishlashdan oldin uni qutisi bilan issiqroq joyga yaqin qo‘yib, biroz isitiladi. Katta guruhlar tarbiyalanuvchilarida plastilinning individual tayyor to‘plamlari bo‘lishi kerak. Ular plastilinning holatini o‘zlari nazorat qilib, qolgan plastilinni ranglari bo‘yicha ajratib ishlatadilar.

[67] Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. , D. Azimova "Ustaxonda amaliy mashg'ulot" “Musiqa” T:.- 2010y.

**<u>Polimer loy yoki chinni xamirning</u>** kelib chiqish tarixiga ko‘ra Argentinada ixtiro qilingan bo‘lib, undan ajoyib gullar, shakllar yaratiladi, bugungi kunda bu materialdan noyob mahsulotlarni yaratish imkonini beradi. Vizual qarashda u chinniga o‘xshaydi, undan tayyorlangan mahsulot havoda qotib qoladi. Bunday materialdan tayyorlangan sovg‘alarni bolalar ham tayyorlashlari mumkin. Sog‘liq uchun xavfsiz, qiymatligi bo‘yicha arzon, yumshoq, u bilan ishlash zavqli va undan yasaladigan narsalar uzoq saqlanadi. Fantaziya, didni rivojlantirishga xizmat qiladigan a’lo darajadagi qiziqish hamdir. To‘g‘ri tayyorlangan chinni xamir o‘zining xossasiga ko‘ra yumshoq, ilashuvchan, yaxshi tekislanish va istalgan shaklga kirish xususiyatiga ega bo‘ladi. Bu mateiral bilan ishlash uchun chuqurlashtirilagan maxsus bilim va ko‘nikmalar shart emasligi, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ayni muddaodir. Bunday loyni tayyorlash usullari xilma-xil.

**1- usul:** 3 osh qoshiq yelim PVA;
**2-** ✓□2 osh qoshiq pista yog‘i;
**3-** ✓□1 osh qoshiq glitserin;
**4-** ✓□4 osh qoshiq jo‘xori kraxmali;
**5-** ✓□3/1 ch qoshiq limon kislotasi.



**Tayyorlanishi:**
Barcha ingredientlar aralashatiriladi, ishlov beriladi, xamir tayyor bo‘ladi. Xamirni yog‘langan stol ustiga ag‘dariladi, ishlov beriladi. Necha xil rang kerak bo‘lsa, shuncha qismlarga bo‘linib, kerakli rang guash solinadi, (bo‘yash uchun faqat guash ishlatiladi). Xamirni xona haroratida 3 soatga yog‘langan polietilen xaltaga solinadi va tindiriladi. Ishlatishga tayyor bo‘lgan xamirdan loy ishi mahsulotlarini yasagan kabi yasaladi. Xamir 4 haftagacha saqlanadi.

**2- usul:** ✓□200 gramm jo‘xori kraxmali.
✓□200 gramm yelim PVA.
✓□2osh qoshiqpista yog‘i.
✓□1 osh qoshiq glitserin.
✓□3/1 ch qoshiq limon kislotasi.



Tayyorlanishi: Barcha ingredientlar aralashtiriladi. Bug‘li hammomga qo‘yiladi. 7-10 daqiqa ichida aralashma quyilib, xamir tayyor bo‘ladi. Xamirni yog‘langan stol ustiga ag‘dariladi, ishlov beriladi. Necha xil rang kerak bo‘lsa, shuncha qismlarga bo‘linib, kerakli rang guash solinadi (bo‘yash uchun faqat guash ishlatiladi). Xamirni xona haroratida 3 soatga yog‘langan polietilen xaltaga solinadi va tindiriladi. Ishlatishga tayyor bo‘lgan xamirdan loy ishi mahsulotlarini yasagan kabi yasaladi. Xamir 2 haftagacha

saqlanadi. Plastilin, loy, polimer loy yoki chinni xamir bilan ya’ni plastik materiallar bilan ishlash tasviriy san’atning bir turi hisoblanib, **hajmli** yoki **relefli** obrazlardan butun kompozitsiya yasash tushuniladi. **Modellashtirish texnikasi** turli va rang-barang bo‘lib, shu bilan birga kichik yoshdagi bolalar ham bajara olish imkoniyatiga egadirlar. Fazoviy tasvirlarni modellashtirishda plastik materiallardan narsalarni yasash ajoyib imkoniyatlarni beradi [68].

**Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida loy** bilan ishlash mashg‘ulotlarining maqsadi va vazifasi bolalarning haykaltaroshlikning elementar asoslari bilan tanishtirish va amaliy ishlashga o‘rgatishni nazarda tutadi. Bunday mashg‘ulotlarni yuksak saviyada tashkil etish va o‘tkazish har bir tarbiyachidan mazkur soha bo‘yicha ma’lum tayyorgarlikka ega bo‘lishni talab etadi. Buning uchun o‘qituvchilar o‘z ustilarida ko‘proq ishlashlari, haykaltoroshlik va sopolchilik asoslarini yaxshi bilib olishlari kerak bo‘ladi. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida loy, plastilin, mum kabi materiallardan foydalanib, ulardan turli o‘yinchoqlar, jonivorlar, qushlar, ertak qahramonlari yasaladi. O‘yinchoq -dekorativ san’atning eng qadimgi turlaridan biri bo‘lib, qadim asarlarda loydan yasalgan narsalar bizgacha yetib kelgan. Mamlakatimizda san’at va madaniyatning rivojlanib borishiga ko‘ra o‘yinchoqlarning assortimenti, ularning obrazlari yildan-yilga boyib bormoqda. O‘yinchoqlar yasaladigan materiallar xilma-xildir. Biroq afzallik loyga beriladi. Loy narsalar yasashda asosiy material hisoblanadi. Chunki u istalgan joyda topiladi, arzon va qayishqoqdir. Loyda boshqa narsalar - tosh, qum va shu kabilar bo‘lmasligi kerak. Chunki ish qo‘lda bajariladi. Shuning uchun ish boshlashdan oldin loyni tekshirib ko‘rish kerak. Loy shirali va shirasiz bo‘ladi. Shirasiz loyning tarkibida ko‘p qum bo‘lib, unda yopishqoqlik xususiyati yomon bo‘ladi. Loyni aralashmalardan tozalab, ustiga suv qo‘yib, 5-6 soat saqlanadi. So‘ngra suvi to‘kib, qo‘lga yopishmaydigan quyuqroq xamir holatiga kelguncha yaxshilab ishlanadi. Loy va plastilin ham turli narsalar yasash uchun juda qulay

[68] Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. , D. Azimova "Ustaxonda amaliy mashg'ulot" “Musiqa” T:.- 2010y.

bo‘lib, ayrim xususiyatlariga ko‘ra, bir-biridan ajralib turadi. Masalan, plastilin rang-barangligi va doimo ishga tayyor holda ekanligi bilan ajralib turadi. Lekin asosiy kamchilik shundaki, plastilin issiqda tez erib ketadi va o‘zining qayishqoqlik xususiyatini yo‘qotadi. Bundan tashqari plastilindan ishlangan haykalchalarni ochiq joyda saqlash juda qiyin. Undan asosan kichik modellarni yasashda foydalaniladi. U sun’iy plastik massa bo‘lib, loydan hech qachon qurimasligi bilan farqlanadi. Plastilinning har xil: oddiy va murakkab turlari bo‘lib, ularni tayyorlashning bir nechta variantlari bor.

Birinchi variant - toza quyuq loyga glitserin qo‘shib bir turli massa hosil qilguncha aralashtiriladi. Glitserin tayyorlanayotgan massa qo‘lga yopishmaydigan holatga kelguncha qo‘shiladi.

Ikkinchi variant - quritilgan toza loy mayda qilib tuyuladi va unga vazelin qo‘shib, qo‘lga yopishmaydigan quyuq massa hosil bo‘lguncha aralashtiriladi. Plastilinga kerakli rangdagi quruq bo‘yoq massasi qo‘shib va puxta aralashtirib bo‘yash mumkin.

Uchinchi variant -1 qism tuproqqa l/5 qism ilitilgan mum hamda plastilin qo‘lga yopishmaydigan darajaga yetguncha glitserin qo‘shib aralashtiriladi. Plastilin va loydan narsalar yasashni u yaxshilab qo‘lda ezilgandan keyin boshlash kerak. Plastilin va loydan tashqari narsalar yasashda mumdan foydalaniladi. Mumning tabiiy va su’niy turlari mavjud. Mum ancha qimmat turadi va undan mayda narsalar yasaladi. Mum bilan ishlash qulay, u qurimaydi, suv bilan namlanishni talab qilmaydi, darz ketmaydi va undan yasaladigan narsalar uzoq saqlanadi. Loy va xamir mashg‘ulotlari uchun do‘konlarda ochdan to to‘q rangacha bo‘lgan rangli mum tayoqchalari sotiladi. Loy bilan ishlaganda asosan oddiy asboblar, pichoq, oddiy konstruktsiyadagi yog‘och va metall uchli steklardan foydalaniladi. Plastilin va mum bilan ishlaganda metall steklardan foydalaniladi. Ularni qizitish hamda yo‘g‘on mis, alyumin yoki temir simdan tayyorlash mumkin. Sirkul, o‘lchov, chizg‘ich va burchaklar kabi o‘lchov asboblari modellarni chizish va o‘lchash ishlarida kerak bo‘ladi. Tayyor narsalardagi changlarni yo‘qotish, loy narsalarni supurib tashlash, narsani solish

va unga narsalar surtish jarayonida har xil mo‘yqalamlar bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. [69]

Haykaltaroshlik haqida qisqacha ma’lumot. Haykaltaroshlik - tasviriy san’at turlaridan biridir. San’atning bu turining xususiyati tasvirning hajmi - formasidir. Plastik tasvirlar orasida aylana haykaltaroshlik yolg‘iz tur emas. Undan tashqari, barelyef va gorelyef ham mavjud, relyef aylana haykaltaroshlikdan farq qilib, yassi sathda aks etadi. Bu haykaltaroshlik turlaridan idish-tovoq sathini, binolarning old tomoni, interyeri va shu kabilarni bezashda foydalaniladi. Loy va plastilin bilan ishlashda kerak bo‘ladigan usullar:

1. Yumaloqlik - bu parcha loydan shar yasash, unga olcha, olma kabilar shaklini berishdir.
2. Bir bo‘lak loydan kaftda aylana harakatlar bilan shar yasaladi.
3. Shar yasash, so‘ngra uzunasiga harakatlar bilan uni tuxum, ustun kabilarga aylantirish.
4. Yassilash - sharchadan yassi non yasaladi, qo‘lning holati doimo o‘zgarib turadi.
5. Yumoloq shaklga keltirilgan shar bo‘lagining bir qismi cho‘ziladi.
6. Surish (yamash) orqali buyumning ayrim qismlarini o‘zaro biriktirish.

## Topshiriq

1. Kartina ko‘rinishida plastilindan ertak qaxramonlari tasvirini tushiring, ishlash texnologiyasini yozing.
2. Chinni hamirni tayorlang, undan narsa buyumlar yasang.

## Savollar;

1. Maktabgacha ta’lim muassasasida loy va plastilin bilan ishlash faoliyati qanday tashkil etiladi?
2. Loy qanday tayyorlanadi?
3. Plastilin bilan ishlash talablari qanday?
4. loy bilan ishlashning texnikalari qanday ekan?
5. Modellashtirish nima?
6. Xaykaltaroshlik uslubi qanday ekan?

[69] Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. , D. Azimova "Ustaxonda amaliy mashg'ulot" “Musiqa” T:.- 2010y.

7. Konstruksiyalash uslubi qanday?
8. Chinni hamiri qanday tayyorlanadi?
9. Sho‘r hamir tayyorlash va narsalar yasash texnikasi qanday?
10. loy ishi qanday tashkil etiladi? Tarbiyachi tayyorgarligi qanday bo‘lishi kerak

## 13 - Mavzu: Kashtachilik tarixi va tayyorlash texnologiyasi..

**REJA:**

**1.** Kashtachilik va uning zarurati
2. Zardo`zlik san`ati va uning tarixi.
3. Kashtachilikda bezash buyumlarining turlari haqida ma`lumot.
4. Kashta tikish texnologiyasi.
5. Qo`lda tikiladigan choklarning turlari.

**Tayanch so`zlar:** kashtachilik,zardo`zlik, arag‘chin, tus do‘ppi, g`ilof,so`zana,kalyobatun,olmos qubba, zardevor,kirpech,zarhal to‘g‘alar, po‘lakcha, birishmi tillo chortor, joynamoz, chamak choki, bahya choki, chindi xayol,ko`rpa choki, yorma choki, halqa choki,tepchima chok, archasimon chok.

### KASHTACHILIKDA BEZATISH TURLARI.

O‘rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo‘lib, oilada har bir ayol kashta tikishni bilishi kerak bo‘lgan. Shuning uchun har bir oila o‘zi uchun kirpech, so‘zana, dorpech, oynaxalta, choyxalta va boshqalarni o‘zi tayyorlagan. Bezak buyumlarining turi juda ko‘p, masalan, so‘zana, kirpech, choyshab oyxalta, choy xalta, zardevor, palak, gulko‘rpa dorpech, bug‘joma, parda, belbog‘, takyanush (yostiq ustiga yopiladigan), do‘ppi, ko‘ylak, dastro‘mol, hamyon, joynamoz, nimcha, mahsi-kavush, xaltacha va boshqalar badiiy did bilan bezatilgan. O‘tmishda bu kashtalar oq va malla matolarga tikilgan. Keyinchalik satin, shoyi baxmalga tikiladigan bo‘ldi. Kashtachilikda ishlatiladigan bezak buyum turlari bilan tanishib chiqamiz.

**Do‘ppi** — O‘zbekistonda keng tarqalgan yengil bosh kiyim. Do‘ppi kiyish dastlab Eronda va turkiy xalqlar o‘rtasida rasm bo‘lgan. Asrlar davomida do‘ppining turli xillari vujudga kelgan. Baxmalga, satinga, sidirg‘a shoyiga ip, ipak va zar bilan do‘ppi gullari tikilgan. O‘zbekistonda Toshkent, Chust, Buxoro, Samarqand, Boysun, Shahrisabz do‘ppilari mashhur bo‘lib, ular o‘ziga xosdir.

Mamlakatimizning barcha tumanlarida do‘ppi tikiladi. Uning iroqi, Chust do‘ppi, gilam do‘ppi, chakma tur, qizil gul, piltado‘zi,zardo‘ppi, to‘ldirma deb nomlanadigan milliy turlari bor. Har bir do‘ppi yaratilish uslubiga ega bo‘lib, ular bir-biridan farq qiladi.

**Arag‘chin** — sharsimon do‘ppi, uni asosan keksalar kiyadi. Toshkentda sharsimon do‘ppilar kanda xayol, bosma, chakraator, iroqi chok usullarida tikiladi.

**Tus do‘ppi** — keng tarqalgan yassi yuzali do‘ppi. Ko‘pincha tus do‘ppi chust do‘ppi deb yuritiladi. Tus do‘ppilarning birgina variantining o‘zida sakkizta chok uslubi qo‘llaniladi. *Masalan,* zanjira, to‘g‘ri chok, chita, kungura, etalatma, taroq,

ova, pildiroq. Chust do‘ppisining tepasi kvadrat shaklida bo‘rtib chiqib, yarim shar ko‘rinishida bo`ladi. Toshkent do‘ppisi sidirg‘a baxmaldan (gulsiz) tikilgan bo‘ladi. Buxoro do‘ppilari sidirg‘a yoki guli baxmaldan jiyakli qilib tikiladi, jiyagi turli xil ipaklardan rangdor naqshli yo‘rma usulida tikilgan bo‘ladi.

**Joynamoz** — yerga solib ustida namoz o‘qiydigan to‘shama. Joynamoz har xil matodan tayyorlanib, uning uch tomoni mehrob shaklida tikilgan bo‘ladi. Undan machit, madrasa va uylarda foydalaniladi. U turli o‘lchamda bo‘ladi. Joynamoz kashtachilikda juda chiroyli qilib bezatiladi.

**Zardevor** — uy jihozi, u sidirg‘a shoyi baxmal, satinga kashta tikib bezatilgan badiiy buyum. Zardevor yangi tushgan kelinning uyiga, shiftiga yoki devoriga ilib qo‘yiladi. U zar ip yoki ipak gajimli bo‘lib, eni 40—70 sm, uzunligi mo‘ljallangan uyning devoriga moslab tikiladi.

**Palak** — devorlarga ilinib eng yirik, eng qimmat bezak buyumlaridan biri. Palakda osmon va to‘lin oy aks ettiriladi. Uni qadimda oq yoki malla bo‘zga kashta tikib tayyorlangan. U so‘zanadan gullarining yirikligi, zaminiga ham kashta qoplanishi bilan farq qiladi.

Palakning o‘rtasida yirik oy tasviri qizil qirmizi, pushti ipak bilan kashtalanadi va atrofiga juda chiroyli qilib o‘simliksimon naqshlar tikiladi. Naqshlar ichida ko‘pincha bodom, qalampir elementlari qo‘llaniladi. Palakda qirqtacha oy ham tasvirlash mumkin, shuning uchun oyini soniga qarab olti oyli palak, o‘n ikki oyli palak, hattoki katta uylar uchun qirq oyli palak tikilgani bizga ma'lum. Oylar turli ranglar bilan bir necha xil tasvirlangan. Mashhur kashtado‘zlar ba'zida oyni ajoyib naqshlar bilan bezab, o‘z mahoratlarini namoyish etganlar. Agar oy palak ichida sidirg‘a rangda ifodalangan bo‘lsa, uni, oypalak, agar naqshli boisa gulpalak va hokazo nomlar bilan yuritiladi. Keyingi vaqtlarda palakni qo‘lda tikishga katta ahamiyat berilmoqda**.**

**Kirpech** — tokchaga taxlab qo‘yilgan kiyim-kechak ustidan yoki devorning bo‘sh joylariga ilib, uyni bezatib turishi uchun ishlatiladigan badiiy buyum. Kirpech kashtalari qo‘lda yoki mashinada tikiladi. Kirpech qo‘lda ilma kashta bilan bezaladi. U kiyim-kechakni changdan saqlaydi va uyni bezab turadi. Odatda, palakka o‘xshatib tikilgani kirpechpalak deb yuritiladi. Bu turi ham keng ishlatiladi.

**So‘zana** — igna bilan tikilgan degan ma'noni beradi. So‘zana matoga kashta tikib tayyorlangan badiiy buyum bo‘lib, xonani bezatish uchun devorga ilib qo‘yiladi. U satin, baxmal, shoyi va boshqa matolarga kashta tikib tayyorlanadi. U o‘ziga xos badiiy ko‘rinishga ega. Matoning rangidan ustalarimiz kashta zamini sifatida foydalanadilar. Shuning uchun u palakdan farq qiladi.

So‘zana har bir xonadonda bo‘lgan, chunki har bir qiz turmushga chiqishidan oldin o‘zi uchun so‘zana tayyorlagan. So‘zana kelinlarning sepi hisoblangan. Kambag‘al oilada so‘zanani malla, oq bo‘zdan, badavlatroqlarida esa shoyidan, baxmaldan tikishgan. So‘zana uchun kompozitsion joylashgan o‘simliksimon naqshlardan foydalaniladi. So‘zana o‘rtasida ko‘pincha doirasimon gul tikilib atrofi guldor islimiy naqshlar bilan bezatiladi. So‘zana tikish juda qadimdan rivojlangan, lekin XIX asrgacha bo‘lgan so‘zanalar saqlanmagan. Faqat XIX asrga oid Samarqand, Buxoro, Nurota, Farg‘ona, O‘ratepa, Shahrisabz, Toshkent va boshqa

joylardagi so‘zana turlaridan namunalar bor. San'atning bu turi ayniqsa O‘zbekiston hududida qadimdan keng tarqalgan. Keyingi paytlarda so‘zana mashinada tikilmoqda.

**Choyshab –** asosan taxmonga tutish, yotganda yopinish uchun to‘shak ustidan to‘shaladi. To‘shak ustidan yopiladigan choyshab kashtali oq surp, taxmonga tutiladigan satin, shoyi, baxmal va boshqalardan tikiladi. Hozirgi vaqtda choyshabdan so‘zana kabi badiiy buyum sifatida ham foydalanib kelinmoqda.

## KASHTA TIKISH TEXNOLOGIYASI.[70]

Kashta turli rangdagi ipak, mulina, zar ip bilan igna, ilmoqli bigizda har xil matoga mashinada gul tikishdar. Kashta har xil kiyimlarga, ro‘zg‘or buyumlariga tikiladi. Kashtachilikda mato, kigiz, charm, karton, zig‘ir, jun, sun'iy iplar, zar iplar, mayin qimmatbaho tabiiy va sun'iy toshlar, shishadan tayyorlangan munchoqlar va boshqa materiallar ishlatiladi. *Kashtachilikda o‘ziga xos ish qurollari mavjud bo‘lib, ular o‘ziga xos vazifani bajaradi. Kashtachilikda ignalar, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar, to‘g‘nag‘ich, angishvona, qaychi hamda chambaraklar ishlatiladi.*

Chambarak asosan yog‘ochdan yasaladi, u doira, kvadrat, to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida bo‘ladi. Kichik kashtalarga doira chambarak ishlatiladi, chunki u qulaydir. Hamma kashtalarga ham chambarak ishlatilavermaydi. Ip va igna kashta tikiladigan matolar qalinligiga mos qilib tanlanadi. Kashtachilikda yog‘och dastali ikki xil, ya'ni ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi. Ayrim materiallarga, masalan, charm va kartonga qiynalmasdan tikish uchun ilmoqsiz bigizlar ishlatiladi. Naqshlar uchun o‘tkir uchli 10—12 sm uzunlikdagi qaychilar ishlatiladi. Tikish qulay bo‘lishi uchun qatim 50-60 sm dan uzun bo‘lmasligi lozim, kashta chambarakda tikilsa angishvona qo‘llanilmaydi. Naqsh nusxasi turli materiallarga har xil yo‘llar bilan tushiriladi. *Masalan,* nusxa ko‘chiriladigan qog‘ozlar taxta, yorug‘lik yordamida material ustidan buklab chiqiladi, keyin bu qog‘ozlar yirtib olinadi. Kashtaga iplar rangini moslab tanlash kashtado‘zdan katta mahorat hamda did talab qiladi. To‘g‘ri tanlangan ip kashtaning jozibador chiqishiga sabab bo‘ladi.[71]

**Qo‘lda kashta tikishning ikki turi mavjud:** birinchisi, matoning arqoq hamda o‘rim iplarini sanab kashta tikish, ikkinchisi, matoga gul tasviri tarhini chizib, erkin kashta tikish. Arqoq va o‘rim iplari kesishtirilib, polotno yoki bo‘z shaklida to‘qilgan matolarga tikiladi. Buning sababi kashta tikishda mato iplarini sanab tikishga qulaydir. Sanama kashta turi O‘zbekistonda keng tarqalgan. Erkin kashta mato tanlamaydi, tushirilgan tasvir chiziqlari asosida tikiladi. O‘zbek kashtachiligida yo‘rma, ilma, iroqi, bosma, xomdo‘zi, chamak, chipta xayol, baxya choklar keng tarqalgan. Badiiy kashtalarda turli joydan turli choklar ishlatiladi. Chunonchi Shahrisabzda yo‘rma, kandaxayol, iroqi, Toshkentda ko‘proq bosma choki, Buxoro, Nurota, Samarqandda yo‘rma choki bilan tikiladi.

**Chamak choki** — kashta tikish choklaridan biri bo‘lib, chapdan o‘ngga ikki to‘g‘ri chiziq bo‘ylab tikiladi va o‘tkazilgan igna o‘ngdan sanchiladi. So‘ng yuqoriga, chapga tomon qiya qilib chiqariladi va pastki chiziqqa parallel ravishda to‘g‘ri

---

[70] Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. , D. Azimova "Ustaxonda amaliy mashg'ulot" “Musiqa” T:.- 2010y.

[71]

qadaladi hamda pasti ham qiya qilib chiqariladi. Chamak choki qo‘shimcha naqshlarni xom charmdan tayyorlangan tasmalar, munchoq, marjon, qimmatbaho tabiiy va sun'iy toshlar, shishadan tayyorlangan ramkaga olishda yoki do‘ppi kizaklariga badiiy bezak berishda ishlatiladi. Qaychining kichik o‘tkir uchlisi ishlatiladi.

**Bahya choki** – kashta chetlarini mustahkamlashga xizmat qilib, matoga xuddi buklagandek, lekin bir tekis chok hamda masofa hisobga olinib tikiladi. Shundan so‘ng mato o‘girilib yana tikib chiqiladi, natijada tekis ip chiziq hosil qilinadi. Bu chok juda qadimdan qo‘lda, keyinchalik mashinada tikiladigan bo‘lgan.

**Ko‘rpa choki –** turli yo‘nalishda, ya'ni chapdan o‘ngga, o‘ngdan chapga, yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga sidirg‘a tikib hosil qilinadi. Yonma-yon tikiladigan choklar bir tekis yoki gul shakliga qarab kichikdan kattalashib, kattadan kichiklashib boradi. Bu chok (ikki tomonlama) sanama, piltado‘zi nomlar bilan yuritiladi. Do‘ppido‘zlikda va kashtalarda juda keng foydalaniladi.

**Chindi xayol -** duruya choki, matoga igna qadalib bir me'yorda tikib chiqiladi, teskari o‘girib yana tikib chiqiladi. Shu tariqa matoning oldi va orqa tomonida bir xil gul hosil qilinadi. Bu chok ikki tomoni ham ko‘zga tashlanadigan buyumlar, ya'ni sochiq, ro‘mol va boshqalarni bezashda ishlatiladi.

**Yo‘rma choki** yo‘rmaki, ilmoqli bichiq yoki igna bilan matoning o‘ng tomonida xalqalar zanjiri hosil qilib tikilib, bigizga o‘tkazilgan ipak matoning sirtida chap qo‘l bilan ushlab turiladi. Yo‘rma choklari bilan yirik kashtalarning hoshiyalari, gul va barglari asosiy shoxga ulaydigan band va boshqalar qadimdan shunday usulda tikilgan. Yo‘rma chokdan Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo kashtado‘zlari ko‘p foydalanadilar.[72]

## ZARDO‘ZLIK SAN'ATI VA UNING TARIXI.

Zardo‘zlik san'ati uzoq tarixiga ega bo‘lib, deyarli barcha Sharq mamlakatlari uning vatani hisoblanadi. Vavilon kashtachiligi qadimdan mashhur bo‘lib, matoga turli rangdagi iplar bilan kashta tikishni o‘zlari kashf etishgan. Qadimgi Rim imperiyasi zar, ipak va jun ip qo‘shib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan shuhrat qozongan. Zardo‘zlik san'atining an'analari Vizantiyada ham rivoj topib, zardo‘z kiyim-kechaklarni faqat imperator a'yonlari va asilzodalar kiyishgan. Somoniylar davrida Eron podshosining saroyida ham zardo‘zlik san'ati rivoj topgan. Chunki bu mamlakat Vizantiya bilan muntazam madaniy va siyosiy harnkorlik qilgan. Eronda zardo‘z san'atining rivojlanganligiga XV—XVII asrlarda ishlangan zardo‘z namunalari misol bo‘la oladi. O‘rta Osiyoda zardo‘zlik juda qadimdan rivojlanib kelayotgan xalq amaliy san'ati turlaridan biridir.

Arxeologik topilmalar va tarixiy manbalardan ma'lumki, O‘rta Osiyo xalqlari orasida zarbof kiyimlar, badiiy buyumlar keng tarqalgan. XVII asrda yashagan Samarqandlik shoir Fitratning asosiy kasbi zardo‘zlik bo‘lgan, u matolarga zardan ajoyib kashtalar tikkan. XIX — XX asr boshlarida zardo‘zlikning o‘ziga xos maktabi yaratilgan.

[72]Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. , D. Azimova "Ustaxonda amaliy mashg'ulot" “Musiqa” T:.- 2010y.

O‘zbekistonda Buxoro, Samarqand, Farg‘ona va boshqa joy-larda zardo‘zlik maktablari ochilgan. Qimmatbaho matodan tayyorlanadigan zardo‘z kiyimlar mahalliy aholining turli tabaqalari o‘rtasida keng tarqalgan.

Qo‘li gul ustalar amir saroyining ahllari uchun chakmon, kamzul, poyafzal, belbog‘, salla tikkanlar. Boy xonadonning 8— 10 yoshdan katta bo‘lmagan o‘g‘il bolalariga sunnat to‘yi munosabati bilan zarbof to‘n kiydirganlar. 1885-1911 -yillar Buxoroda zardo‘zlik san'atining gullab-yashnagan davr bo‘lgan. Hunar-mandchilik artellari ochilib, zardo‘zlar birlashgan, shundan so‘ng dabdabali kimxob to‘nlar o‘rniga do‘ppi, ayollar nimchalari, choyshablar, ko‘zoynak g‘iloflari, yostiqlarning g‘ilofi tikila boshlandi. 1930-yilda O‘zbekistonda rassomlar uyushmasi qoshida zar-do‘zlik arteli tashkil etilib, unga tajribali zardo‘zlar taklif etildi. Keyinchalik artel kengaytirilib fabrikaga aylantirildi.

Zardo‘z do‘ppilar faqat Buxoroda tikilardi, ustalar ularning yangidan-yangi ajoyib nusxalarini yaratdilar. Ayniqsa qizlar, kelinchaklar kiyadigan, yoqut, olmosdek charaqlagan «Gulnoz», «Bahor», «Navro‘z», «Dilorom», «Ra'no», «Qo‘shbodom» va «Baxt» deb nomlangan do‘ppilar tikildi.

1960-yillardan buyon xotin-qizlar poyafzallarining zardan uch xil shakli tikila boshlandi.

**Zardo‘zlik uchun ishiatiladigan zaruriy ashyo va asbob-uskunalar.**

Zardo‘zlik ishida chetdan keltirilgan turli xil fabrika materiallari singari mahalliy jaydari gazlamalardan XIX-XX asr boshlarida foydalanilgan. Erkaklar choponlari chetdan keltirilgan baxmali birishim eng a'lo navli baxmaldan tikiladi. Baxmali farangi deb atalgan. Barhutlar g‘oyat rang-barang tusda bo`lishiga qaramasdan, kishilarga qizil, binafsha, yashil va ko‘k rangdagilari ko‘proq yoqqan. Qizil va binafsha rangdagi barhutlardan ayollar va bolalar kiyimlari uchun qo‘llaniladi. Sof ipak barhutdan tashqari baxmali musi degan silliq, yarmi ipak barhut erkaklar choponidan boshqa barcha buyumlar uchun ishlatiladi.

Yarim shoyi jaydari gazlama zardo‘zlikda deyarli barcha buyumlar tayyorlashda ishlatiladi. Undan asosan uy-ro‘zg‘or buyumlari: «So‘zana», «Yostiq jildi», «Joyna-moz», «Lola» bolishlar jildi tikiladi.

Turli navdagi simli iplar zardo‘zlik uchun asosiy xomashyo bo‘lib hisoblanadi. Qadimdan Misr hamda Bobilda zar va kumush ip tayyorlash texnologiyasi ma'lum bo‘lgan. O‘rama zar simlar Dehli shahrida ishlab chiqarilgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Buxoroga zar iplar faqat Moskvadan, keyinchalik Angliyadan, hozirda Yaponiyadan keltirilyapti. G‘oyat momiq zar tolalar buxorolik zardo‘zlar tilida kalyobatun nomi bilan mashhur bo‘lib, u goh zar, goh kumush ip o‘rnida qo‘llanilgan. U yoki bu navni ajratish zaruriyati tug‘ilib qolsa zar ipga tilla kalyobatun, kumush ipga kalyobatun safed (oq) deb ataladi.

**Kalyobatun** ingichka metal ip bo‘lib, shoyi ipga puxta o‘ralgan. Kalyobatun tayyorlash uchun kumush qotishmasidan qo‘shilgan.

**Birishmi tillo chortor** — u to‘rt yo‘lli zar ip va eng yaxshi sifatli ipak ip. Oq ipak ipdan kumushrang gullar tikiladi. XIX asrning 90-yillari boshida 40-o‘ramli g‘altak ip paydo bo‘lganda u zardo‘zlikda keng ishlatilgan.

**«Tilla» kalyobatun** qilish uchun sim ipga tilla suvi yugurtirilgan. Kalyobatunning asosini tashkil etuvchi ipak ipning rangi turlicha bo‘lgan. Kalyobatun

bilan sim Buxoro zardo‘zligining asosiy xomashyosi hisoblangan. Ayniqsa, kalyobatun XIX asrning boshida shu paytgacha bo‘lgan davrga oid barcha buyumlarda uchraydi. Zardo‘zlikda oltin, kumush rangdagi ipak hamda sun'iy ipak va tolalardan foydalaniladi.

Zardo‘zlikda yana po‘lakcha, olmos qubbalar, zarhal to‘g‘alar va boshqalar ishlatiladi.

**Po‘lakcha** — zardo‘zlikda ishlatiladigan kichkina piston (pirpirak). U mayda oq, qizil, sariq va boshqa ranglarda bo‘ladi. Buyumni bezash uchun qadaladigan, o‘rtasidan teshikcha qilingan metall pistoncha.

**Olmos qubbalar** — turli nav oltindan zardo‘zlarning o‘zlari yasagan zargarlik taqinchoqlariga o‘xshab ketuvchi bo‘rtma naqshlar, dur hamda qimmatbaho tabiiy va sun'iy toshlar, shishadan tayyorlangan munchoqlar ishlatiladi.

**Zarhal to‘g‘alar** — mahalliy zargarlar ishlagan, odatda qora sir va feruza bilan bezatilgan, nafis gul naqshi tushirilgan bo‘ladi. Zardo‘zlikda o‘ziga xos asbob-uskunalar ishlatiladi. Naqsh kompozitsiyalari chizish uchun chizg‘ichlar, yumshoq va qattiq qora qalamlar, daftar, albom, o‘chirg‘ichlar, shaffof, karton qog‘ozlar kerak bo‘ladi.

Zardo‘zlik qurollari unchalik ko‘p emas. Bular chambarak, ya'ni korcho‘b. Uning to‘p, nimcha va mayda-chuyda buyumlar uchun mo‘ljallangan uch turi ma'lum. Ular tuzilishi jihatidan bir xil bo`lib; hajmlarining katta-kichikligi bilangina bir-biridan farq qiladi.Korcho‘b uzunligi 320 santimetrgacha bo‘lgan ikki teng yonli silliq yog‘och dastadan iborat bo‘lib, uchidagi harakatlanuvchi shamshirak yordamida chambarakni istalgan kattalikka keltirish mumkin.

Chambarakka qilingan kerish tortilib, tayyor bo‘lgan buyum bilan birga chiqarib olinadi. Zardo‘zlikda qadimdan patila degan asbob ishlatiladi. Patila qattiq yog‘ochdan, uzunligi 20 santimetr bo‘lgan, to‘rt qirrali va payya qilib tarashlangan, ichini kovlab qo‘rg‘oshin quyib vazminlashtirilgan bo‘ladi.

Unga to‘rt qavat qilib zar ip o‘raladi. Bunday patilalar ipning orasi zich bo‘lishini ta'minlagan. Zardo‘zlikda angishvona ham ishlatiladi. Angishvona barmoqni saqlovchi degan ma'noni bildiradi. Qo‘lga igna kirib ketmasligi uchun barmoqqa kiyiladigan metall g‘ilof. Angishvonaning ustki va yoni ignani keti qadaladigan chuqurchalardan iborat bo‘ladi. Zardo‘zlik ishida ikki xil angishvonadan foy-dalaniladi. Biri fabrika angishvonasi bo‘lib, uni o‘rta barmoqqa, ikkinchisi tagsiz, qalin charmdan yasalib, chap qo`lning uchta barmog‘iga taqilib ishlanadi. Charm angishvonani fabrikada metalldan ishlangani ham bo‘ladi. Zardo‘zlik ishida qaychi bo‘ladi. Qaychi ushtur gardan, ya'ni «Tuya Bo‘sh qaychi» degan ma'noni beradi. Tuya bo‘yniga o‘xshash qaychi gul qirqishda ishlatiladi. Oddiy uy ro‘zg‘orda ishlatiladigan metall qaychilar ham bo‘ladi. Ignalarning o‘rtacha kattalikdagilari ishlatiladi.

*Quyidagi rasmlarda zardo'zlik uchun kerak bo'ladigan asboblar, zar iplar, naqsh namunalari berilgan:*[73]





**Milliy kashtachilik (kashtado‘zlik**) amaliy san'atning eng qadimiy turlaridan bo`lib, u xalqning o‘z turmushini go‘zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashtachilik san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. O‘zbek xalq ustalari qo‘llari bilan tikilgan kirpech, so‘zana, zardevor, gulko‘rpa, choyshab kabilar Germaniya, Belgiya, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Hindiston, Afg‘oniston kabi xorijiy davlatlar muzeylarida doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan.

Hozirgacha buyumlar o‘ziga xos go‘zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega. O‘zbek kashtachiligi iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bogiiq holda barcha kasb-hunarlar bilan birgalikda rivoj topgan. Kashtachilik san'atining eng qadimiysi saqlanmagan. XIV—XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda

[73] Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. , D. Azimova "Ustaxonda amaliy mashg'ulot" “Musiqa” T:.- 2010y.

qadimdan rivoj langanligini ko‘rish mumkin. Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo Amir Temur saroyida o‘zbek milliy kashta bezaklarini ko‘rganini kundaligida yozib qoldirgan. 1467- yili Kamoliddin Behzod «Zafarnoma»ga ishlagan «Temur taxtda» miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani aks ettirgan. XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi. Mashinada kashtalarning ko‘p ishlab chiqarilishi ularning badiiyligiga putur yetkazdi. Qo‘l kashtalari unutila boshlandi. Lekin ayrim xillarigina saqlanib qoldi. O‘zbek kashtachiligi qo‘shni xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyidi va rivojlandi.

**Kashtachilik san'atida** har bir millatning o‘ziga xos eng ko‘p qo‘llaydigan naqshlari bo‘ladi. Chunonchi, o‘zbek kashtalarida o‘simliksimon, geometrik hamda gul naqshlari ko‘p bo‘lsa, rus kashtachiligida geometrik, o‘simliksimon shakllar, gullar, qush va mevalar ko‘p tasvirlanadi. Qozoq va qirg‘iz kashtachiligida ko`proq hayvonlar, shox, va tuyoqlarni eslatuvchi elementlar tasvirlanadi.

Qadimiy an'analarga ko‘ra, o‘zbek qizlari bo‘lajak kelinlik seplari, har xil kashtachilik buyumlarini o‘zlari tayyorlashlari lozim edi. Kashtalar qanchalik nozik, chiroyli bo‘lsa, shunchalik qimmatga baholanar edi. Qizlarga 7-9 yoshidan boshlab kashta tikishga o‘rgatilardi. Ular uchto‘rt yildan keyin mustaqil kashta tika boshlaydilar. Yetishib chiqqan kashtachilar o‘zining san'ati va tabiatiga ko‘ra, go‘zallik haqidagi orzularini ifodalashga harakat qilganlar.

Kashtachilikning maxsus turlaridan biri — applikatsiyadir. Applikatsiya kashtado‘zlikning maxsus turi bo‘lib, u o‘ziga xos texnologiyaga ega.

**Savol va topshiriqlar**

1. Kashtachilk san’ati haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Kashtachilik va o‘zbek ayollarining hunarmangchilik mahoratlari haqida esse yozing.
3. Zardo‘zlik san’ati haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. O‘zbek millatining kashtachilik va zardo‘zlik hunarlarining jaxon hunarmandchiligi bilan taqqoslang va xulosa qiling.
5. Pedagog bu haqda nimalarni bilishi kerak?
6. Bu ikki san’atning tarixini bilib oling.
7. Zardo‘zlik uchun ishiatiladigan zaruriy ashyo va asbob-uskunalar qaysilar?
8. Kashtachilikning maxsus turlaridan biri — applikatsiyadir. Applikatsiya kashtado‘zlikning maxsus turi bo‘lib, u o‘ziga xos texnologiyalari qanday?
9. Bolalar kiyimlarini kashta turlari bilan bezang.
10. “Xunar- xunardan unar” xalq maqolini taxlil qiling va shunday maqollardan yozing.Qilgan ishlaringizni slayd xolida taqdim eting.

## Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Xasanboyeva O. U. va b. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. T. ; Ilm ziyo 2006.
2. Sodikova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. T.; tafakkur bo‘stoni 2013.

3. Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasi . “Sho‘lpon” . T:. 2010 y.
4. Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. , D. Azimova "Ustaxonda amaliy mashg‘ulot" “Musiqa” T:.- 2010y

## 14-Mavzu. Yumshoq o‘yinchoqlar tayyorlash.

**Reja;**

1. Yumshoq o‘yinchoqlar tayyorlash usullari.
2. Yumshoq o‘yinchoqlar tayyorlash uchun zaruriy materiallar.
3. Yumshoq o‘yinchoqlarning bola tarbiyasida ahamiyati.

O‘yinchoqlar- o‘yin uchun mo‘ljallangan va boshqa maqsadda ishlatilmaydigan maxsus buyumdir.Unda buyumning tipik xususiyatlari umumiy tarzda aks etadi.

1. Syujetli yoki obrazli o‘yinchoqlar.
2. Texnik o‘yinchoqlar
3. Teatr va dekarativ o‘yinchoqlar
4. Harakatli va sport o‘yinlariga oid o‘yinchoqlar
5. Ohang chiqaruvchi musiqiy o‘yinchoqlar

**Yumshoq o‘yinchoqni qanday qilib tez va chiroyli qilish kerak - sehrgarning maslahatlari**

***O‘yinchoqni ishlab chiqarish jarayonida quyidagi bosqichlarni ajratish mumkin***: materialni tanlash va ishga tayyorgarlik ko‘rish, qismlarni kesish, pishirish, tikish, to‘ldirish, yig‘ish va yakuniy dizayni.
***Naqshlar eng yaxshisi kartondan qilingan*** - ular matoga yaxshiroq mos keladi, ularni aylantirish osonroq va ular bardoshlidir. Tender pardasi noto‘g‘ri tomonga qo‘llanilishi va sharikli qalam bilan chizilishi kerak. To‘q rangli mato uchun oq va yaxshi aniqlangan qalam oling.
Urish uchun bo‘rdan foydalanmaslik kerak - bu qismlarning shaklini buzadi!

Tikuvchilikda kesish jarayoni katta ahamiyatga ega. ***Tafsilotlarni ehtiyotkorlik bilan chizish va kesish kerak*** va toza.
Noto‘g‘ri tomonni va old qismini juftlashtirilgan qismlarga aralashtirib yubormaslikka ehtiyot bo‘ling. Masalan, panjalarda ikkitasi bir xil emasligi, ammo o‘ng va chap.

Eng yaxshi va arzon narxdagi plomba moddasi***sintetik qishlashtirgich***. Vaqti-vaqti bilan u pishirmaydi va yiqilmaydi.
Plastinali poliester bilan to‘ldirilgan o‘yinchoqlarni kir yuvish mashinasida osongina yuvish mumkin - ular o‘z shakllarini yo‘qotmaydi va juda tez quriydi.

Ushbu qo‘lda tayyorlangan yumshoq o‘yinchoq ajoyib sovg‘adir. Sizga kimni yoqtirishini tanlash kifoya.

## Kerakli materiallar

Bolalar o‘yinchog‘ini yaratish uchun faqat xavfsiz materiallardan foydalanish kerak. 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun qattiq yoki tabiiy bo‘lmagan matolarni tanlash afzalroqdir, ular lintsiz yoki sintetik qo‘shimchalarsiz. Bundan tashqari, tugmachalar, tugmalar va boshqa narsalar ko‘rinishidagi aksessuarlardan foydalanmaslik tavsiya etiladi. Agar o‘yinchoq katta yoshdagi bola uchun qilingan bo‘lsa, unda materialni tanlash kabi tasavvur ham cheksizdir.

## Yumshoq o‘yinchoqlar uchun matolar

Kichkintoylar uchun trikotaj kiyimlarni tikish uchun idealdir. Bu elastik va amaliy materialdir, undan o‘yinchoqni tayyorlash juda oson, xavfsiz. U osongina o‘chiriladi va shaklini yo‘qotmaydi, qo‘shimcha ishlov berishni talab qilmaydi va ranglarning xilma-xilligi tufayli o‘yinchoq juda samarali bo‘lib chiqadi.

Ko‘pincha tikish uchun ishlatiladigan yana bir mato ipakdir. Bu juda injiq material, u bilan ishlashda sabr-toqat va aniqlik talab etiladi. Ammo ipakdan tayyorlangan mahsulotlar juda chiroyli, bardoshlidir. Bezatish uchun ham ishlatiladi, ammo uni qattiq mato bilan ishlatish mumkin. Bu nozik yuvish va yumshoq quritishni talab qiladi.[74]

Bu juda xilma-xil, arzon va hamma joyda qo‘llaniladi. U bilan ishlash juda oson, qarshilik va chidamlilikni oshirdi, bundan tashqari, u xavfsiz va dog‘lar va axloqsizlik tezda yo‘q qilinadi.

Katta yoshli bolalar uchun siz boshqa matolardan foydalanishingiz mumkin, bu mo‘yna mo‘ynasi, jun, ayiqlarni tikish uchun ideal variant, o‘yinchoq realizmiga imkon beradi va ehtiyotkorlik bilan ishlov berish uzoq vaqt davom etadi. Velvet, velor, kigiz kabi boshqa matolar ham mos keladi.

## Boshqa materiallar

**O‘z qo‘lingiz bilan yumshoq o‘yinchoq qilish uchun sizga nafaqat matolar, balki boshqa materiallar ham kerak bo‘ladi, masalan:**

- O‘yinchoq tafsilotlari yaratiladigan naqsh va naqsh,
- Yumshoq plomba bilan siz paxta junidan foydalanishingiz mumkin, lekin ko‘pikli kauchukdan bo‘laklarni olish tavsiya etiladi, bu shaklni uzoqroq saqlashga yordam beradi,

[74] Sodikova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. T.; tafakkur bo’stoni 2013.

- Ip va igna, qaychi,
- Qalin qog‘oz
- Agar dekoratsiya mavjud bo‘lsa (5 yoshdan oshgan bolalar uchun o‘yinchoqlar ishlab chiqarishda), unda siz tugmachalar, uchqunlar, lentalardan foydalanishingiz mumkin.




Yumshoq o‘yinchoqni tikish uchun shablon yordamida matoning naqshini aniq qilish kerak. Bu kelajakda mahsulot tafsilotlarining qog‘ozda tasvirlangan aniq nusxasi bo‘lib, keyinchalik materialga tarjima qilinadi. Har bir o‘yinchoqning o‘ziga xos naqshlari to‘plami bor, lekin uni o‘zingiz chizishingiz mumkin. Keyin ular kesilishi kerak va matoga biriktirilgan tikuv ignalari yordamida.

O‘yinchoqni yasashdan oldin tanlangan matoni namlang va quriting. Bu uning birinchi yuvish paytida o‘tiradimi yoki o‘yinchoq shaklini yo‘qotadimi-yo‘qligini tekshirishga yordam beradi. Agar bu sodir bo‘lsa, materialni tikishdan oldin yuvish tavsiya etiladi, quriting va shundan keyingina ishlay boshlaysiz.[75]

**O‘z qo‘lingiz bilan yumshoq o‘yinchoqni shablonsiz qanday qilish mumkin:**

1. Kichik bir mato bo‘lagini oling va o‘rtada old tomonini ichkariga to‘g‘rilab,
2. Qalamdan foydalanib, bir nechta yumaloq chiziqlar chizing,
3. Siz boshdan boshlashingiz kerak - kichkina yarim doira, so‘ngra quloq, yumaloq yonoq, ozgina cho‘zilgan panjasi, biroz yumaloq qorin va cho‘zilgan bir oyog‘ingizni tasvirlab bering,
4. Qattiq kontur bo‘ylab kesib oling,
5. Materialni kengaytiring - shablonni ishlatmasdan ayiq naqsh tayyor,
6. Barcha manipulyatsiyalarni aniq takrorlang va shu bilan uning orqa qismini tayyorlang,
7. Ikkala yarmini noto‘g‘ri tomonga tikib qo‘ying,

[75] Sodikova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. T.; tafakkur bo’stoni 2013.

8. Kichik bo‘sh joy qoldiring, mahsulotni burab oling va to‘ldirgich bilan to‘ldiring.

Yumshoq o‘yinchoq ayiqlarining boshqa qiziqarli naqshlari mavjud.





O‘yinchoqlarni tikish uchun iplar kuchli bo‘lishi kerak va har doim mahsulotga mos keladi. Istisno faqat dekorativ dekorativ tikuvni yaratishda, u pardozlash uchun ishlatiladi va nafaqat qismlarni bir-biriga tikibgina qolmay, balki matoning qirralarini ham ishlov beradi.

**O‘z qo‘lim bilan yumshoq o‘yinchoq yaratish uchun odatda quyidagi tikuv turlaridan foydalanaman.**

- **Tashqi** - ular ichki bo‘laklarni tikishadi, u kichik tikuvlar bilan ketishi va chiroyli ko‘rinishi kerak, ular orasida bo‘shliqlar bo‘lmasligi kerak.
- **Halqa** tikuv - ip mato chetidan matoning chetidan o‘tib, siqiladi, shuning uchun ommaviy matolar qayta ishlanadi va naqsh tafsilotlari tikiladi.



### 15 - Mavzu: O‘yinchoq to‘qish texnologiyasi.

**Reja**

1. To‘qimachilk san’ati va texnologiyasi.
2. Ilmoq va spitsa bilan o‘yinchoqlar to‘qish.
3. MTT da to‘qilga o‘yinchoqlarga bo‘lgan talablar.

**To‘qish, halqalarni hosil qilish usullari.** O‘zbek xalqi qadimdan qo‘l hunarmandchiligi sirlarini chuqur egallab kelgan. Jumladan, o‘zbek xotin-qizlari mohirlik bilan kashta, jiyak, do‘ppi, to‘n, so‘zana kabilarni tikish bilan shug‘ullanganlar. Ular atlas va gilamlar to‘qishgan. Bor xomashyolardan foydalanganlar. Hozirgi kunga kelib ayollarimiz orasida qo‘lda kiyimlar to‘qish keng rivojlanib bormoqda. Qo‘lda to‘qilgan kiyim-kechaklar betakror va bejirimdir. To‘qish amaliy san'atning bir turi boiib, nihoyatda zavqli va foydalidir. To‘qilgan kiyim yaroqsiz bo‘lib yotmaydi yoki tashlab yuborilmaydi. Har bir to‘qish hunaridan xabari bor xotin-qiz kerakli buyumni osonlikcha to‘qib oladi.

To‘qimachilikning asosiy xom- ashyosi paxta.1 kg paxtada 330- 260 gr gacha tola, 670-640 gramgacha chigit olinadi.Paxta chigiti tarkibi 22- 26 % gacha yog‘ bo‘ladi.chigitdan 2% momiq tolasi, 3% selyuloza, 20% sheluxa, 25 % kunjara11% paxta yog‘i, 2% chiqindi, 2% sovun maxsuloti chiqariladi

Birinchi ip yigirish charxini 1490 yilda Italiyalik olim Leonardo da Vinchi ip yigiradigan va o‘raydigan, oyoqda boshqariladigan moslama yaratdi.

1767- yili ip yigirish mashinasini Richard Arkrayt yaratdi va unga patent oldi. Barcha yaratilgan mashinalar “Varter” nomi bilan yuritildi. Varter inglizcha so‘z bo‘lib, suvdan harakat olish demakdir.

**To‘qish qurollari bu - spitsa va ilgakdir.** Spitsa — asosiy to‘qish quroli bo‘lib, uning quyidagi turlari bor.

*1. Aylana troschali.*

*2. Aylana naychali.*
*3. To‘g‘ri, ikki tomoni uchli.*
*4. To‘g‘ri, bir uchli.*

**Spitsalar** — nikellangan, po‘lat, temir, alyumin, plastmassa va yog‘ochdan yasalgan bo‘ladi. Eng foydalanishga qulay spitsa po‘latdan yasalgan, ikki uchi uchli va bir uchi uchli spitsadir. Chunki u mustahkam bo‘lib, yog‘och va plastmassa spitsalar kabi sinib ketmaydi. Har bir spitsaning raqami bo‘ladi. U spitsaning diametrini bildiradi.

1. Diametri 1 mm li spitsa.
2. Diametri 4 mm li spitsa.

Har bir to‘qishni o‘rganuvchi talabaga har xil raqamli spitsalar berilishi kerak. Chunki har bir spitsa o‘z o‘rnida ishlatiladi. Bu buyumning sifatli chiqishiga olib keladi.[76]

**Ilgak.** Kalta [12-15 sm va 30-40 sm], ingichka va yo‘g‘on [1-6 mm] ilgaklar bor. Har xil iplarni to‘qishda har bir ipning o‘ziga mos ilgak tanlanadi. Ilgak ipdan ikki baravar yo‘g‘on bo‘lishi kerak. Ilgak po‘lat, alyumin, plasmassa, mis va temirdan yasalgan bo‘ladi.

Buyumni qo‘lda to‘qish uchun spitsa yoki ilgak kerak bo‘ladi. Buyumni junli, jun aralash, ipak, paxta, quyon va echki yunglaridan yigirilgan ip va hokazo iplardan to‘qish mumkin. To‘qiladigan buyumga shakl berish uchun andozaga muvofiq yoki hisobga yarasha shu halqalar soni ko‘paytiriladi.

**Ilgak yordamida to‘qish.** Ilgak yordamida to‘qish qo‘l mehnati turlaridan biridir. To‘qishning asosiy turlari — shnurcha, ustamali zanjir, ustamasiz zanjir to‘qish bilan tanishib olgach, namunaga yoki rasmga qarab juda xilma-xil buyumlar to‘qish mumkin. Ilgak bilan jun, oddiy ip va ipakdan har xil buyumlar to‘qisa bo‘ladi. Asosiy asbob — metalldan, yog‘ochdan, plastmassadan, suyakdan yasalgan ilgakdir. Ilgaklar: 2 dan to 6 gacha raqamli bo‘ladi. Ilgakning raqami uning yo‘g‘onligiga va ish bajaradigan (to‘qiydigan) qismining chuqurligiga bog‘liq.

Ilgak ipning yo‘g‘on-ingichkaligiga va naviga qarab tanlanadi. Ip ilgakning ish bajaradigan qismining chuqurligi (ilgagi)dan bir yarim-ikki barobar yo‘g‘on bo‘lishi kerak.

To‘qish paytida ilgakni o‘ng qo‘lning bosh va ko‘rsatkich barmog‘i bilan ushlash va uni o‘rta barmoq bilan ishga solib turish kerak. Ilgakda to‘qilgan buyumlar halqaning shakli va o‘lchamiga qarab har xil bo‘ladi. Buyumning tekis to‘qilishi uchun ipni bir tekis tortib turish, halqani bog‘lash, ularning soni va shakliga rioya qilib turish kerak. Agar halqaning o‘lchami va shakliga rioya qilinmasa, halqalar sanab to‘qilmasa, buyumning ko‘rinishi va shakli buziladi. To‘r to‘qishning asosiy turlari ustida to‘xtalib o‘tamiz. Bular bilan talabalar tanishishi lozim.

*Birinchi halqa* — to‘qish bu halqadan boshlanadi. Ilgak o‘ng qo‘lda bo‘ladi. Ip uchini halqa qilib buklab, chap qo‘lning bosh va ko‘rsatkich barmog‘i bilan ushlab turish kerak. Halqaga ilgakning uchini suqib va kalavadagi ipni ilib, halqa orasidan tortib chiqariladi. So‘ngra ip yana ilgak bilan ilib olinadi va hosil bo‘lgan yangi halqa

---

[76] Sodikova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. T.; tafakkur bo’stoni 2013.

orasidan tortib chiqariladi. Ipning uchi tortiladi va 1 sm qoldirib uchi qirqib tashlanadi.

**Havo halqasi** — kalavadan ilgak uchi bilan ipni ilib halqa hosil qilishdir, bunda ilgakning oʻzida birinchi halqani hosil qilib olamiz. Havo halqasining bir nechtasi zanjir yoki shnur hosil qiladi. Shnur har qanday toʻrning asosi hisoblanadi. Havo halqasining soni buyum oʻlchamiga yoki rasmdagi halqa soniga bogʻliq boʻladi. Havo halqasini toʻqishda ularning oʻlchamlari bir xil boʻlishiga e'tibor berish kerak.

**Ustamasiz zanjir toʻqish.** Kerakli uzunlikdagi zanjir hosil boʻlgach, burilish halqasi toʻqiladi. Zanjirni oʻng tomoni bilan chap qoʻlning koʻrsatkich barmogʻi boʻylab qoʻyiladi va chap qoʻlning bosh barmogʻi bilan ushlab turib, ilgak zanjirning oʻng tomonidan uchinchi halqasiga suqiladi (ilgakning oʻzida turgan halqa, ya'ni burilish halqasi ham qoʻshib hisoblanadi). Kalavadagi ip ilgakda ilib olinadi va havo halqasi orqali tortib chiqariladi. Ilgakda ikkita halqa hosil boʻladi. Yana ilgak bilan kalavadagi ipni olib, bu halqalar bogʻlanadi. Ilgakda yana bitta halqa qoladi. Ikkinchi qator-ning zanjirini toʻqish uchun ilgakni navbatdagi halqaning oʻrtasiga suqiladi va kalavadan yana ip ilib olib, yana havo halqasidan tortib olib chiqariladi. Ilgakda bogʻla-nadigan yana ikkita halqa hosil boʻladi. Keyingi zanjirlar ham shu tariqa toʻqiladi. Ustamasiz zanjir bilan toʻqilgan buyumlar zich va tarang boʻladi.




**Ustamali zanjir.** Ustamali zanjir bilan toʻqilganda buyum nafis va jimjimador chiqadi. Bir ustamali zanjir quyidagicha toʻqiladi. Birinchi (yetakchi) halqali ilgak uchining ustiga oʻng tomondan ip tashlanadi — bu ip ustama ipdir. Ustama ipli ilgak halqaga sanchiladi (chetidan uchinchi halqa); agar ustunchalar zanjir bilan toʻqilsa, kalavadagi ip ilib olinadi va uni halqa shaklida ilgakka tortiladi. ir vaqtda ilgakda ikkita halqa hosil boʻladi, ularning oʻrtasida esa ustama ip boʻladi. Ilgak bilan kalavadan ip ilib olinadi va qoʻshni halqa bilan ustama ipdan tortib oʻtkaziladi, ilgakda yana ikkita halqa boʻladi. Soʻngra ip ilib olinadi va bu ikkala halqadan tortib chiqariladi. Ilgakda yana bitta yetakchi halqa hosil boʻladi. Agar ustunchalar toʻqish zanjirdan boshlanmay, ustamali yoki ustamasiz zanjirdan iborat polotnodan boshlansa, u holda birinchi ustunida uchta havo halqasi hosil qilinadi.





Uchinchi yetakchi halqadan ustamali ustuncha to‘qish boshlanadi. Ilgak bilan ishlagan vaqtda ba'zi bir maxsus terminlarni bilib olish kerak. Burilish halqasi - to‘qish vaqtida to‘rning bir qatoridan ikkinchi qatoriga o‘tishda ilgakda turiladigan halqadir. Ilgak bilan to‘qilgan qator yoki zanjirning ustki qismi bir-biriga ulangan halqalarga o‘xshaydi. To‘qilayotgan to‘rning to‘qilish tomonidan tashqarida turuvchi halqa qismi, tashqi yarim halqa deyiladi. To‘quvchiga nisbatan narsaning ichki tomonida turuvchi halqa qismi ichki yarim halqa deyiladi. Ichki va tashqi yarim halqalar asosiy halqani tashkil qiladi. Amaliy qo‘llanmalarda ishlarning tavsifi berilganda ilgakni qaysi halqaga — tashqi, ichki yoki asosiy halqaga suqish kerakligi ko‘rsatiladi.

Ustuncha (ustamali yoki ustamasiz ustuncha) to‘qib bo‘lgandan keyin ilgakda qolgan halqa etakchi halqa deyiladi. U keyingi ustuncha yoki zanjirning boshlanishi hisoblanadi.

Ayrim buyumlarni to‘qigan vaqtda ularni kengaytirish yoki zichlashtirish, ya'ni halqa sonini kamaytirish yoki ko‘paytirish kerak bo‘ladi. Halqa qo‘shish uchun asosiy halqaga ustamali yoki ustamasiz bitta halqa emas, ikkita, uchta halqa to‘qish kerak. Buyumni qo‘shimcha havo halqalari bilan kengaytirish mumkin, bu halqalar ustamali yoki ustamasiz ustunchalar orasiga to‘qiladi.

Buyumlarni zichlashtirish uchun halqalalr sonini qisqartirish lozim: ustamali yoki ustamasiz ustunchalar asosiy halqaga to‘qilmay, oralatib to‘qiladi. Ilgak bilan to‘qishni o‘rganish uchun havo halqasi bir xil bo‘lgan zanjir to‘qishni mashq qilish kerak. To‘qilgan zanjirni bog‘ich o‘rnida ishlatish mum-kin (narsalar osish, papkalarga bog‘ich qilish va boshqalar). Agar uzunligi 25 sm li bog‘ich kerak bo‘lsa, ip uch barobar ortiq olinadi.

Suyakdan ishlangan ilgak bilan qalin ip yoki sutajdan zanjir to‘qishni o‘rganish oson bo‘ladi.

**Bolalarning zanjirdan yasalgan sumkasi.** Agar sutajdan 2,5 m uzunlikdagi ikkita zanjir to‘qilsa, u bolalar sumkachasi uchun xomashyo bo‘ladi. Har bir zanjirdan sumkachaning yarim pallasi hosil bo‘ladi. 15x15 sm qalin qog‘oz ustiga zanjirning o‘ngini ichkariga qilib spiralga o‘xshatib yo‘rmalahadi va xomashyo tekis bo‘lishi uchun qog‘ozga tikib qo‘yiladi. Zanjirning chetlari yo‘rmab tikiladi. Spiral bo‘ylab chok tikiladi. Zanjirdan 25 sm qolsa, uni doiraning chetiga mahkamlab tikiladi, ikkinchi uchini esa aylana uzunligining to‘rtdan bir qismiga teng keladigan masofada xomashyo chetiga tikilsa, bu sumkachaning dastasi bo‘ladi. Sumkaning ikkinchi pallasi ham xuddi shunday to‘qiladi. Ikkala doira tayyor bo‘lgach, reja va qog‘oz olib tashlanadi, so‘ngra ularning o‘ng tomonini bir-biriga qaratib birlashtiriladi va chetlari tikiladi. Faqat dastasi o‘rnatilgan tomonning cheti tikilmaydi. Shnur yoki sumkacha uchun zanjir to‘qish to‘qishga doir boshqa ishlarni bajarish uchun juda yaxshi tayyorgarlik bo‘ladi.[77]



**Nonushta solib qo‘yiladigan sumkacha.** Nonushta solib qo‘yiladigan sumkacha ham ustamali ustuncha usulida to‘qiladi. Buyumning jimjimador bo‘lishi

[77] Sodikova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. T.; tafakkur bo’stoni 2013.

uchun har bir ustuncha orasiga ikkita havo halqasi to‘qiladi. Sumkachani iris yoki qog‘oz ipdan to‘qish mumkin. sutajdan to‘qilgan sumkacha ancha pishiq, lekin qo‘polroq bo‘ladi. Nonushta uchun sumkacha to‘qish 12—15 sm li zanjirdan boshlanadi. Bu zanjir atrofiga oralariga ikkitadan havo halqasi to‘qilgan ustamali ustunchalar to‘qiladi. Burilish joyida asosning bitta halqasiga oralarida ikkitadan havo halqasi bo‘lgan ustamali 4 ta ustuncha to‘qiladi. Ikkinchi qatorlarda keying har bir qatorning ustunchalari o‘zidan oldingi qatorning ustun-chasiga kiritib to‘qiladi. Sumkachaning oxirgi qatori tutash ustunchalar bilan to‘qiladi. Dastasini bir qatorda 3—4 ustamali ustunchalar bilan to‘qiladi.

**Shippak.** Bino ichida jismoniy tarbiya mashqlari vaqtida kiyish uchun qulaygina shippak to‘qib olish mumkin.Uni istalgan rangdagi har qanday oddiy ipdan to‘qish mumkin. Ish boshlashdan oldin oyoqni o‘lchab olish kerak. Oyoqni bir varaq qog‘ozga qo‘yib chetidan qalam yuritib chiqiladi. Qalam izidan qog‘ozni qirqib oyoqning andozasini olamiz. Shippak to‘qish vaqtida tumshug‘ining enini va butun bo‘yini ana shu andozaga qarab mo‘ljallaymiz.

To‘qishni 6 ta havo halqasidan to‘qilgan zanjirdan boshlaymiz. Zanjirning uchlarini biriktirib, berk halqa hosil qilamiz. Bu halqa atrofida ustamasiz 10 ta ustuncha to‘qiymiz, bunda ilgakni halqaning o‘rtasiga kiritib to‘qiymiz,keyin bu yo‘g‘on halqa atrofmi to‘qiymiz va har bir qatorga 3—4 tadan ustun qo‘shib boramiz. Shippakni juda keng yoki tor qilib qo‘ymaslik uchun bajarayotgan ishimizni vaqti-vaqti bilan andozaga solishtirib ko‘ramiz. Shippak tumshug‘ining eni andoza eniga yetmaguncha to‘qishni davom ettiraverish kerak. So‘ngra halqa qo‘shmasdan 7-8 qator (yoki andozaga muvofiq ko‘proq) to‘qiymiz. Shippakning tumshug‘i tashqi tomondan xal-tachaga o‘xshaydi. Shippakning tumshug‘ini to‘qib bo‘lgach, yon tomonlari va tagini to‘qishga kirishamiz. Bu quyidagicha bajariladi: shippakning tumshug‘i xaltachaning qismini to‘qib bo‘lib halqani aylantiramiz va teskari tomonga ustun to‘qiymiz. Andozaga qarab shippakning yon tomonlari va tagini to‘qiymiz. To‘qilgan shippakning hamma o‘lchamlari andozadagiga mos kelsa, uni ikkiga buklaymizda, tovonini biriktiramiz. Shunday qilib, shippak tayyor bo‘ladi. Ipni uzmasdan turib, ustamasiz ustuncha usuli bilan

Mehnat topshiriqlari har bir bolaning yoshiga to‘g‘ri kelishi, bajarish muddatining to‘g‘ri taqsimlanishi, mehnat qilayotganda qomatni to‘g‘ri tutishga

e'tiborni qaratish.Dasturda koʻrsatilganidek, bolalarga beriladigan mehnat tarbiyasi bolani oʻrab turgan muhit asosida tashkil etilishi muhim ahamiyatga egadir. Bu oʻrinda milliy kashtachilik, miskarlik oʻymakorlik va shu kabi xalq hunarmandchiligi va turli kasblar bilan tanishtirish.



Ma'lumki, mehnat tarbiyasi ayrim hollarda mujassam mashgʻulotlar tarzida yoki kundalik hayot jarayonida amalga oshirilib boriladi. Mujassam mashgʻulotlar bolalarning mehnat tarbiyasi yuzasidan olgan bilim va malakalariga, hayotiy tajribaliriga asoslangan holda tashkil etiladi va oʻtkaziladi. Mashgʻulotlarni rejalashtirish va uni olib borishda ta'limning eng muhim vazifalaridan boʻlgan aqliy faollik, mustaqil flkr yuritish, tashabbuskorlik, egallangan bilim va hosil qilingan malakalardan bolalar oʻz ishlari jarayonida samarali foydalana olishlari lozimligi tarbiyachining doimo diqqat e'tiborida boʻlishi lozim. Agar bolalar tarbiyachining koʻrsatmalarini tushunmasdan hissiyotsiz, mexanik ravishda bajarishga odatlanib qolsalar, u holda bunday ta'lim-tarbiya bolaning oʻsishiga har tomonlama salbiy ta'sir koʻrsatadi. Bolalarning oʻylashlari, eslariga tushirishlari, taqqoslashlari jonli hissiy nutqlari orqali oʻz kuzatishlari haqida hikoya qilib berishlari juda muhimdir.

Tarbiyachilar bolalarning turli topshiriqlarni bajarish, shuningdek, oʻyinlar uchun qoʻlbola oʻyinchoqlar, kichkintoylarga, katta yoshlilarga sovgʻalar tayyorlash jarayonida mehnatga malaka va koʻnikmalarini mustaqil qoʻllashga intilishlarini ragʻbatlantirishlari lozim. Bu maqsadda asbob-uskunalar va materiallar bolalar ixtiyoriga beriladi.[78]

[78] Sodikova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. T.; tafakkur bo'stoni 2013.





SAVOLLAR

1. To‘qimachilik hunarining kelib chiqishi tarixi haqida manbalarni o‘rganing va bilimga eaga bo‘ling.
2. O‘zbekistonda to‘qimachilik sihasi rivojini taxlil qiling.
3. Toqish uchun qanday asboblar ishlatiladi va ularning har biriga ta’rif bering?
4. Toqish uchun qanday iplar ishlatiladi va ularning har birini o‘ziga xos xususiyatini ajrating?
5. To‘qishning qanday usullari bor? Har biriga ta’rif bering?
6. Maktabgacha ta’lim muassasasida to‘qilgan o‘yinchoqlarning o‘rni va axamiyatini yoriting?
7. Dunyo xalqlari sanoatida to‘qimachilikka e’tibor qanday? Xususan qo‘lda ilgak va spitsa bilan to‘qish borasidagi fikrlaringiz?
8. O‘zingiz xoxlagan biron narsani to‘qingva amalda ko‘rsating.
9. Tarbiyachi va pedagog to‘qish xunaridan qay darajada habardor bo‘lishi kerak deb o‘ylaysiz?

Birinchi bo‘lib ip yigirish charxini kim ixtiro qilgan va qachon?

## Foydalanilgan adabiyotlar.


1. Xasanboyeva O. U. va b. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. T. ; Ilm ziyo 2006.

2. Sodikova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. T.; tafakkur bo‘stoni 2013.

3. Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasi . “Sho‘lpon” . T:. 2010 y.

4. Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. , D. Azimova "Ustaxonda amaliy mashg‘ulot" “Musiqa” T:.- 2010y.

**Mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Ayiqcha o‘yinchog‘i uchun andoza tayyorlang.
2. Gazlamadan ayiqcha yumshoq o‘yinchog‘ini tiking

“T-jadval” metodi bo‘yicha quyidagi ish qog‘ozi yordamida yumshoq o‘yinchoqlar yasashning umumiy jihatlari va o‘ziga xosliklarini yoriting.

**Ish qog‘ozi**

| **O‘yinchoq yasashning umumiy jihatlari va o‘ziga xosliklari** | |
|---|---|
| ***Umumiy jihatlari*** | ***O‘ziga xosliklari*** |
| 1.<br>2.<br>3. | 1.<br>2.<br>3... |

2. Quyidagi ish qog‘ozi yordamida “Ikki sahifali kundalik” metodi bo‘yicha “O‘yinchoqlarning bola ijodiy rivojlanishiga ta’siri” mavzusi bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotining ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini belgilang.

**Ish qog‘ozi**

| “ O‘yinchoqlarning bola ijodiy rivojlanishiga ta’siri ”<br>**mavzusi bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotining maqsadlari** | |
|---|---|
| *Ta’limiy maqsad* | |
| *Tarbiyaviy maqsad* | |
| *Rivojlantiruvchi maqsad* | |

3. O‘yinchoqlardan foydalanishning funktsiyasiyalarini ularga tegishli holatlar bilan moslashtiring:

1. Ta’lim berish. 2. Tarbiyalash. 3. Rivojlantirish.

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1 | Ta’lim berish | A | Shaxsning ma’naviy-axloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori va dunyoqarashi shakllantiriladi |
| 2 | Tarbiyalash | D | Talabalarda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 3 | Rivojlantirish | C | Shaxsning nutqi, fikrlash, sensor va harakatlanish, hissiy-irodaviy va ehtiyoj-sababiy qobiliyatlari rivojlanadi |

**Foydalanilgan adabiyotlar.**


1. Xasanboyeva O. U. va b. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. T. ; Ilm ziyo 2006.

2. Sodikova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. T.; tafakkur bo‘stoni 2013.

3. Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasi . “Sho‘lpon” . T:. 2010 y.

4. Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. , D. Azimova "Ustaxonda amaliy mashg‘ulot" “Musiqa” T:.- 2010y.

# <u>II BO‘LIM</u>
# AMALIY MASHG‘ULOT ISHLANMALARI

## 1-AMALIY MASHG‘ULOT

## MAVZU; MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA SAHNALASHTIRISH FAOLIYATINING ASOSIY MAQSAD VA VAZIFALARI

**Amaliy mashg‘ulot topshiriqlari;**

**1.**Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyati qanday tashkil etiladi? Bolalarning yosh hususiyatlariga moslab “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida taxlil qilish.

**Topshiriqni bajarish uchun namuna;**

-4 yoshu 3 oylikdan- o‘yinlarda o‘ziga rol olishi mumkin;
-3yoshu 3oylik, 3yoshu 6 oylikda -ertak, multfilm, hikoya qahramonlariga qayg‘udosh bo‘ladi;
-3yoshu 9 oylik, 4 yosh- syujetli- rolli o‘yinlarda ishtirok etadi.
-4 yosh- o‘yinda muloqotga kirishadi;
-4 yosh tanish asarlardan parcha eshitib nomini aytadi;
-4 yosh- kattalar aytgan ertak, hikoyani davom ettiradi;
-4 yoshu 3 oylikda- syujetga oid rasm, personajlar va predmetlar tasvirini chizadi;
-4 yoshu 6 oylik- kattalar yordamida barmoqli teatr inssenirovkasini tayyorlashda ishtirok etadi;
-3 yoshli bola kitob haqida tushunchaga ega, o‘qib ber deb iltimos qiladi;
-5 yoshu 6 oylikda- badiiy asar qahramonlari rolini o‘ynashi mumkin;
-5 yoshu 9 oylikda- kichik senariy o‘ylab topishi va kichik sanalar tashkil qiladi;
- 6-7 yoshda 2- tilga qiziqish bildiradi, shu tilda kichik rol ijro eta oladi;huddi shunday bolalarning ijodiy rivojlanish kompetensiyalarini davom ettiring.

**2-**Sahnalashtirish uchun asar tanlash va sahnaga tayyorlash bosqichlaridagi jarayonni jadvalda ifodalang.

**3-** Quyidagi ish qog‘ozi yordamida “Ijodkorlik” va “ Ijodiy rivojlanish” mavzusidagi sinkveynlarni yarating**.**

**Ish qog‘ozi**

**"Ijodkorlik" mavzusiga oid sinkveyn**

1. Bitta ot bilan ifodalang
2. Ikkita sifat bilan ifodalang
3. Uchta fe'l bilan ifodalang
4. To'rtta so'z bilan asosiy mazmunni yoriting

5.Otga sinonim toping

**4**. Quyidagi ish qog'ozi yordamida "Venn diagrammasi" metodi bo'yicha bolalarda ijodkorlikning rivojlantirish usullarini og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlarini sintezlang.

**Ish qog'ozi**




**5-** Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishiga omil bo'ladigan pedagog va psixologlarning taklif hamda mulohazalaridan o'rganing, barcha bilan o'rtoqlashing. Ingliz Psixologi P. Torresning qarashlarini taxlil qiling.

**Ijodkorlik-** bu shaxsning yangi g'oyalarni yaratishga moyilligini, uning iqtidorliligini va noyob qobiliyatga ega ekanligini anglatadi.

Shaxsning ijodkorligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi va iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, ijodkorlik zehn o'tkirligini ham belgilab beradi.

**P. Torrens** fikricha, ijodkorlik (ingliz tilida "creative" – yaratish, yaratuvchi, ijodkor): muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish, farazni tekshirish va

o‘zgartirish, qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash, muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlikni ifodalaydi.

Boshqa har qanday fazilat kabi ijodkorlik ham birdaniga shakllanmaydi. Xo‘sh, bolalarda ijodkorlik xususiyatlari qachondan namoyon bo‘ladi? Odatda ijodkorlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko‘zga tashlansada, biroq, bu holat ularning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo‘lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi. Bolalarda ijodkorlikni rivojlantirishda quyidagi shartlarga e’tibor qaratish zarur:

**Spitsalar** — nikellangan, po‘lat, temir, alyumin, plastmassa va yog‘ochdan yasalgan bo‘ladi. Eng foydalanishga qulay spitsa po‘latdan yasalgan, ikki uchi uchli va bir uchi uchli spitsadir. Chunki u mustahkam bo‘lib, yog‘och va plastmassa spitsalar kabi sinib ketmaydi. Har bir spitsaning raqami bo‘ladi. U spitsaning diametrini bildiradi.

3. Diametri 1 mm li spitsa.
4. Diametri 4 mm li spitsa.

Har bir to‘qishni o‘rganuvchi talabaga har xil raqamli spitsalar berilishi kerak. Chunki har bir spitsa o‘z o‘rnida ishlatiladi. Bu buyumning sifatli chiqishiga olib keladi.

**Ilgak.** Kalta [12-15 sm va 30-40 sm], ingichka va yo‘g‘on [1-6 mm] ilgaklar bor. Har xil iplarni to‘qishda har bir ipning o‘ziga mos ilgak tanlanadi. Ilgak ipdan ikki baravar yo‘g‘on bo‘lishi kerak. Ilgak po‘lat, alyumin, plasmassa, mis va temirdan yasalgan bo‘ladi.

Buyumni qo‘lda to‘qish uchun spitsa yoki ilgak kerak bo‘ladi. Buyumni junli, jun aralash, ipak, paxta, quyon va echki yunglaridan yigirilgan ip va hokazo iplardan to‘qish mumkin. To‘qiladigan buyumga shakl berish uchun andozaga muvofiq yoki hisobga yarasha shu halqalar soni ko‘paytiriladi.

**Ilgak yordamida to‘qish.** Ilgak yordamida to‘qish qo‘l mehnati turlaridan biridir. To‘qishning asosiy turlari — shnurcha, ustamali zanjir, ustamasiz zanjir to‘qish bilan tanishib olgach, namunaga yoki rasmga qarab juda xilma-xil buyumlar to‘qish mumkin. Ilgak bilan jun, oddiy ip va ipakdan har xil buyumlar to‘qisa bo‘ladi. Asosiy asbob — metalldan, yog‘ochdan, plastmassadan, suyakdan yasalgan ilgakdir. Ilgaklar: 2 dan to 6 gacha raqamli bo‘ladi. Ilgakning raqami uning yo‘g‘onligiga va ish bajaradigan (to‘qiydigan) qismining chuqurligiga bog‘liq.

Ilgak ipning yo‘g‘on-ingichkaligiga va naviga qarab tanlanadi. Ip ilgakning ish bajaradigan qismining chuqurligi (ilgagi)dan bir yarim-ikki barobar yo‘g‘on bo‘lishi kerak.

**Kerakli jihozlar:** “Oquv qo`llanmalar”, “guruh bilan ishlash uchun vatman qog‘oz, markerlar, guruhlarga bo`lish uchun materiallar.

- Darsning turi: talabalar bilimini mustahkamlovchi dars.

**Tavsiya etiladigan metodlar.** “ «BBB » texnologiyasi «Klaster»,“Charxpalak”, «Blits so‘rov » texnologiyasi,, “FSMU”,

“Tushunchalar tahlili”.
**«BBB » texnologiyasi**
Muhim muammoning echimini topishga yordam beradi va ta`limda grafik organayzerlardan foydalanishning ahamiyati nimadan iborat? savoli orqali muammo hal qilinadi
**«B.B.B»**

| **Bilaman** | **Bilib oldim** | **Bilishni xohlayman** |
|---|---|---|
| | | |

**«BBB » texnologiyasi**

Muhim muammoning echimini topishga yordam beradi va ta`limda grafik organayzerlardan foydalanishning ahamiyati nimadan iborat? savoli orqali muammo hal qilinadi

## SAVOLLAR

10. To‘qimachilik hunarining kelib chiqishi tarixi haqida manbalarni o‘rganing va bilimga eaga bo‘ling.
11. O‘zbekistonda to‘qimachilik sihasi rivojini taxlil qiling.
12. Toqish uchun qanday asboblar ishlatiladi va ularning har biriga ta’rif bering?
13. Toqish uchun qanday iplar ishlatiladi va ularning har birini o‘ziga xos xususiyatini ajrating?
14. To‘qishning qanday usullari bor? Har biriga ta’rif bering?

**15.Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Xasanboyeva O. U. va b. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. T. ; Ilm ziyo 2006.
2. Sodikova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. T.; tafakkur bo‘stoni 2013.
3. Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasi . “Sho‘lpon” . T:. 2010 y.
4. Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. , D. Azimova "Ustaxonda amaliy mashg‘ulot" “Musiqa” T:.- 2010y.

## 30.AMALIY MASHG‘ULOT

## MAVZU; ILMOQ VA SPITSA BILAN O‘YINCHOQLAR TO‘QISH

**Maqsad;** Ilmoq bilan o‘yinchoqlar to‘qish usullari. Spitsa bilan o‘yinchoqlar to‘qish usullari. Ilmoq va spitsada o‘yinchoqlar to‘qish uchun zaruriy materiallar, bolalar uchun kerakli o‘yinchoqlar to‘qishning ahamiyati.

**Topshiriqlar;**

**1** Ilmoq va spitsada  o‘yinchoqlar to‘qish uchun zaruriy materiallar, bolalar uchun kerakli o‘yinchoqlar to‘qishning ahamiyati.

**2** Spitsa bilan  o‘yinchoqlar to‘qish usullari

**Qisqa ma’ruza**

**Ustamali zanjir.** Ustamali zanjir bilan to‘qilganda buyum nafis va jimjimador chiqadi. Bir ustamali zanjir quyidagicha to‘qiladi. Birinchi (yetakchi) halqali ilgak uchining ustiga o‘ng tomondan ip tashlanadi — bu ip ustama ipdir. Ustama ipli ilgak halqaga sanchiladi (chetidan uchinchi halqa); agar ustunchalar zanjir bilan to‘qilsa, kalavadagi ip ilib olinadi va uni halqa shaklida ilgakka tortiladi. ir vaqtda ilgakda ikkita halqa hosil bo‘ladi, ularning o‘rtasida esa ustama ip bo‘ladi. Ilgak bilan kalavadan ip ilib olinadi va qo‘shni halqa bilan ustama ipdan tortib o‘tkaziladi, ilgakda yana ikkita halqa bo‘ladi. So‘ngra ip ilib olinadi va bu ikkala halqadan tortib chiqariladi. Ilgakda yana bitta yetakchi halqa hosil bo‘ladi. Agar ustunchalar to‘qish zanjirdan boshlanmay, ustamali yoki ustamasiz zanjirdan iborat polotnodan boshlansa, u holda birinchi ustunida uchta havo halqasi hosil qilinadi.





Uchinchi yetakchi halqadan ustamali ustuncha to‘qish boshlanadi. Ilgak bilan ishlagan vaqtda ba'zi bir maxsus terminlarni bilib olish kerak. Burilish halqasi - to‘qish vaqtida to‘rning bir qatoridan ikkinchi qatoriga o‘tishda ilgakda turiladigan halqadir. Ilgak bilan to‘qilgan qator yoki zanjirning ustki qismi bir-biriga ulangan halqalarga o‘xshaydi. To‘qilayotgan to‘rning to‘qilish tomonidan tashqarida turuvchi halqa qismi, tashqi yarim halqa deyiladi. To‘quvchiga nisbatan narsaning ichki tomonida turuvchi halqa qismi ichki yarim halqa deyiladi. Ichki va tashqi yarim halqalar asosiy halqani tashkil qiladi. Amaliy qo‘llanmalarda ishlarning tavsifi berilganda ilgakni qaysi halqaga — tashqi, ichki yoki asosiy halqaga suqish kerakligi ko‘rsatiladi.

Ustuncha (ustamali yoki ustamasiz ustuncha) to‘qib bo‘lgandan keyin ilgakda qolgan halqa etakchi halqa deyiladi. U keyingi ustuncha yoki zanjirning boshlanishi hisoblanadi.

Ayrim buyumlarni to‘qigan vaqtda ularni kengaytirish yoki zichlashtirish, ya'ni halqa sonini kamaytirish yoki ko‘paytirish kerak bo‘ladi. Halqa qo‘shish uchun asosiy halqaga ustamali yoki ustamasiz bitta halqa emas, ikkita, uchta halqa to‘qish kerak.

Buyumni qo‘shimcha havo halqalari bilan kengaytirish mumkin, bu halqalar ustamali yoki ustamasiz ustunchalar orasiga to‘qiladi.

Buyumlarni zichlashtirish uchun halqalalr sonini qisqartirish lozim: ustamali yoki ustamasiz ustunchalar asosiy halqaga to‘qilmay, oralatib to‘qiladi. Ilgak bilan to‘qishni o‘rganish uchun havo halqasi bir xil bo‘lgan zanjir to‘qishni mashq qilish kerak. To‘qilgan zanjirni bog‘ich o‘rnida ishlatish mum-kin (narsalar osish, papkalarga bog‘ich qilish va boshqalar). Agar uzunligi 25 sm li bog‘ich kerak bo‘lsa, ip uch barobar ortiq olinadi.

Suyakdan ishlangan ilgak bilan qalin ip yoki sutajdan zanjir to‘qishni o‘rganish oson bo‘ladi.

**Bolalarning zanjirdan yasalgan sumkasi.** Agar sutajdan 2,5 m uzunlikdagi ikkita zanjir to‘qilsa, u bolalar sumkachasi uchun xomashyo bo‘ladi. Har bir zanjirdan sumkachaning yarim pallasi hosil bo‘ladi. 15x15 sm qalin qog‘oz ustiga zanjirning o‘ngini ichkariga qilib spiralga o‘xshatib yo‘rmalahadi va xomashyo tekis bo‘lishi uchun qog‘ozga tikib qo‘yiladi. Zanjirning chetlari yo‘rmab tikiladi. Spiral bo‘ylab chok tikiladi. Zanjirdan 25 sm qolsa, uni doiraning chetiga mahkamlab tikiladi, ikkinchi uchini esa aylana uzunligining to‘rtdan bir qismiga teng keladigan masofada xomashyo chetiga tikilsa, bu sumkachaning dastasi bo‘ladi. Sumkaning ikkinchi pallasi ham xuddi shunday to‘qiladi. Ikkala doira tayyor bo‘lgach, reja va qog‘oz olib tashlanadi, so‘ngra ularning o‘ng tomonini bir-biriga qaratib birlashtiriladi va chetlari tikiladi. Faqat dastasi o‘rnatilgan tomonning cheti tikilmaydi. Shnur yoki sumkacha uchun zanjir to‘qish to‘qishga doir boshqa ishlarni bajarish uchun juda yaxshi tayyorgarlik bo‘ladi.

**Nonushta solib qo‘yiladigan sumkacha.** Nonushta solib qo‘yiladigan sumkacha ham ustamali ustuncha usulida to‘qiladi.



Buyumning jimjimador bo‘lishi uchun har bir ustuncha orasiga ikkita havo halqasi to‘qiladi. Sumkachani iris yoki qog‘oz ipdan to‘qish mumkin. sutajdan to‘qilgan sumkacha ancha pishiq, lekin qo‘polroq bo‘ladi. Nonushta uchun sumkacha to‘qish 12—15 sm li zanjirdan boshlanadi. Bu zanjir atrofiga oralariga ikkitadan havo halqasi to‘qilgan ustamali ustunchalar to‘qiladi. Burilish joyida asosning bitta halqasiga oralarida ikkitadan havo halqasi bo‘lgan ustamali 4 ta ustuncha to‘qiladi. Ikkinchi qatorlarda keying har bir qatorning ustunchalari o‘zidan oldingi qatorning ustun-chasiga kiritib to‘qiladi. Sumkachaning oxirgi qatori tutash ustunchalar bilan to‘qiladi. Dastasini bir qatorda 3—4 ustamali ustunchalar bilan to‘qiladi.

**Shippak.** Bino ichida jismoniy tarbiya mashqlari vaqtida kiyish uchun qulaygina shippak to‘qib olish mumkin.Uni istalgan rangdagi har qanday oddiy ipdan to‘qish mumkin. Ish boshlashdan oldin oyoqni o‘lchab olish kerak. Oyoqni bir varaq qog‘ozga qo‘yib chetidan qalam yuritib chiqiladi. Qalam izidan qog‘ozni qirqib oyoqning

andozasini olamiz. Shippak to‘qish vaqtida tumshug‘ining enini va butun bo‘yini ana shu andozaga qarab mo‘ljallaymiz.

To‘qishni 6 ta havo halqasidan to‘qilgan zanjirdan boshlaymiz. Zanjirning uchlarini biriktirib, berk halqa hosil qilamiz. Bu halqa atrofida ustamasiz 10 ta ustuncha to‘qiymiz, bunda ilgakni halqaning o‘rtasiga kiritib to‘qiymiz,keyin bu yo‘g‘on halqa atrofmi to‘qiymiz va har bir qatorga 3—4 tadan ustun qo‘shib boramiz. Shippakni juda keng yoki tor qilib qo‘ymaslik uchun bajarayotgan ishimizni vaqti-vaqti bilan andozaga solishtirib ko‘ramiz. Shippak tumshug‘ining eni andoza eniga yetmaguncha to‘qishni davom ettiraverish kerak. So‘ngra halqa qo‘shmasdan 7-8 qator (yoki andozaga muvofiq ko‘proq) to‘qiymiz. Shippakning tumshug‘i tashqi tomondan xal-tachaga o‘xshaydi. Shippakning tumshug‘ini to‘qib bo‘lgach, yon tomonlari va tagini to‘qishga kirishamiz. Bu quyidagicha bajariladi: shippakning tumshug‘i xaltachaning qismini to‘qib bo‘lib halqani aylantiramiz va teskari tomonga ustun to‘qiymiz. Andozaga qarab shippakning yon tomonlari va tagini to‘qiymiz. To‘qilgan shippakning hamma o‘lchamlari andozadagiga mos kelsa, uni ikkiga buklaymizda, tovonini biriktiramiz. Shunday qilib, shippak tayyor bo‘ladi. Ipni uzmasdan turib, ustamasiz ustuncha usuli bilan

Mehnat topshiriqlari har bir bolaning yoshiga to‘g‘ri kelishi, bajarish muddatining to‘g‘ri taqsimlanishi, mehnat qilayotganda qomatni to‘g‘ri tutishga e'tiborni qaratish.Dasturda ko‘rsatilganidek, bolalarga beriladigan mehnat tarbiyasi bolani o‘rab turgan muhit asosida tashkil etilishi muhim ahamiyatga egadir. Bu o‘rinda milliy kashtachilik, miskarlik o‘ymakorlik va shu kabi xalq hunarmandchiligi va turli kasblar bilan tanishtirish.

Ma'lumki, mehnat tarbiyasi ayrim hollarda mujassam mashg‘ulotlar tarzida yoki kundalik hayot jarayonida amalga oshirilib boriladi. Mujassam mashg‘ulotlar bolalarning mehnat tarbiyasi yuzasidan olgan bilim va malakalariga, hayotiy tajribaliriga asoslangan holda tashkil etiladi va o‘tkaziladi. Mashg‘ulotlarni rejalashtirish va uni olib borishda ta'limning eng muhim vazifalaridan bo‘lgan aqliy faollik, mustaqil flkr yuritish, tashabbuskorlik, egallangan bilim va hosil qilingan malakalardan bolalar o‘z ishlari jarayonida samarali foydalana olishlari lozimligi tarbiyachining doimo diqqat e'tiborida bo‘lishi lozim. Agar bolalar tarbiyachining ko‘rsatmalarini tushunmasdan hissiyotsiz, mexanik ravishda bajarishga odatlanib qolsalar, u holda bunday ta'lim-tarbiya bolaning o‘sishiga har tomonlama salbiy ta'sir ko‘rsatadi.

## SAVOLLAR

16. To‘qimachilik hunarining kelib chiqishi tarixi haqida manbalarni o‘rganing va bilimga eaga bo‘ling.
17. O‘zbekistonda to‘qimachilik sihasi rivojini taxlil qiling.
18. Toqish uchun qanday asboblar ishlatiladi va ularning har biriga ta’rif bering?

19. Toqish uchun qanday iplar ishlatiladi va ularning har birini o‘ziga xos xususiyatini ajrating?

20. To‘qishning qanday usullari bor? Har biriga ta’rif bering?

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Xasanboyeva O. U. va b. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. T. ; Ilm ziyo 2006.
2. Sodikova Sh. A. Maktabgacha pedagogika. T.; tafakkur bo‘stoni 2013.
3. Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasi . “Sho‘lpon” . T:. 2010 y.
4. Nurmatova M.Sh, Xasanova Sh. T. , D. Azimova "Ustaxonda amaliy mashg‘ulot" “Musiqa” T:.- 2010y.

# GLOSSARIY

**1. Ijodiy faoliyat** - bu barcha ruhiy va aqliy kuchlarni ishga solib insonning aniq bir maqsadga intiluvchanligi, maxsus hissiyot holati - ilhomlanish, shuningdek ruhiy kechinmasi, muammoni jon-jahti bilan hal etish istaklari majmuasi.

**2. Ijodiy qobiliyatlar** - bu yangilik yaratish zarurligi va mumkinligini tushunish, muammoni ifodalay olish, g‘oyani ilgari surish uchun kerak bo‘ladigan bilimlarni ishga solish qobiliyatlari, farazni nazariy va amaliy tasdiqlash, muammoni hal qilishni izlash va topish, natijada yangi asl mahsulotlar yaratish (... kashfiyot), ixtiro, san’at asari, tavsifnoma va x. k. qobiliyatlaridir.

**3. Ijodiy yondashuv (IY)** - bu pedagogikada zamonaviy yo‘nalish bo‘lib, u ta’lim oluvchilarning muammolarini hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat bo‘lib, mustaqil ravishda qaralayotgan faoliyatning yangi yo‘nalishlarini topishga undash jarayonidir. Bunda pedagog tarbiyalanuvchning ijodiy faoliyatiga ilmiy asosda rahbarlik qiladi va ularning shaxsiy tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlaydi, ular bilan hamkorlikda ishlaydi.

**4.Ijodkorlik**- bu shaxsning yangi g‘oyalarni yaratishga moyilligini, uning iqtidorliligini va noyob qobiliyatga ega ekanligini anglatadi.

5. **Shaxsning ijodkorligi** - uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi va iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, ijodkorlik zehn o‘tkirligini ham belgilab beradi

6.**P. Torrens fikricha, ijodkorlik -** (ingliz tilida “creative” – yaratish, yaratuvchi, ijodkor): muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish, farazni tekshirish va o‘zgartirish, qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash, muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlikni ifodalaydi.

**7. Syujetli — rolli o‘yin**- o‘z xususiyatiga ko‘ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Tevarak-atrofdagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o‘yin mazmuni uchun manba bo‘lib xizmat qiladi.

8. **O‘yinning syujeti** — o‘z harakati, munosabatlari bilan bog‘langan voqea, hodisalar va ularning harakatlari xursandchilik hissini paydo qiladi, shuning uchun

bolani qiziqtirib, unda yaxshi kayfiyat uyg‘otadi, bola organizmdagi faoliyatni yaxshilaydi.

**9. O‘yin** - bolaning aqliy rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar o‘ynashlari uchun ma’lum vositalar ham kerak.

**10. Ijodkorlik qobiliyati** - insonning tabiiy va ijtimoiy dunyoni voqelikning ob’ektiv qonunlari asosida o‘z maqsadi va ehtiyojlariga muvofiq o‘zgartiradigan faoliyatidir. Ijod mahsuli bu inson ongining faol mahsulidir

11. **Sahnalashtirish o‘yinlari** ya’ni dramalashtirilgan o‘yinlar, bu bolalarning mustaqil ijodiy o‘yin turi bo‘lib, unda badiiy asar va hikoyalar bolalar tomonidan rollarga bo‘lib ijro etiladi. Bu o‘yinlar bolalarda iroda, intizom va o‘z xatti-harakatlarini boshqara olish, boshqalarning harakatlari bilan hisoblashish kabi ijobiy ma’naviy xislatlarni shakllantiradi

**12. Dekoratsiya** – sahnada ko‘rsatiladigan voqea o‘rnida aks ettirishga, spektaklning g‘oyaviy ma’nosini ochishga xizmat qiluvchi sun’iy manzara, badiiy jixoz. U rang- tasvir, grafika arxitektura, Sahna texnikasi, proyektsiya va shu kabilarning tasviriy vositalari yordamida yaratiladi.

**13. Drama**- muallif nutqisiz, yani diolog shaklida yozilgan va Sahnada ijro etish uchun mo‘ljallangan badiiy adabiyotning lirika va epos qatoridagi bir turi.

**14. Ritmik**- melodik nutq tuzilishi, ohang. Musiqada- tovush balandligini to‘g‘ri olish darajasi.

**15. Konsert**- oldindan tuzilgan muayyan dastur asosida san’atkorlarning sahnada ( shuningdek radio, televideniyada ) chiqishi.

**16. Sahnalashtirilgan o‘yinlar** - bolalar biror ertak yoki hikoya syujeti asosida ma’lum bir rolni bajarishiga, o‘yin jarayonidagi personajlarning aytadigan so‘zlarining yod olinishiga asoslangan bo‘lib, bolalarda iroda, intizom, o‘z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita sanaladi.

**17. Adabiy asarlarni tanlashda quyidagi talablar qo‘yiladi**:

Mazmunining g‘oyaviy-ma’naviy barkamolligi.

Badiiy jihatdan mazmundorligi.

Asardagi qatnashchi va rollarning soni (qancha ko‘p bo‘lsa, asar shuncha ahamiyatlidir).

Mazmuni yaxshi bo‘lishi bilan birga, unda harakat turlarining ham ko‘p bo‘lishi.

Ifodali o‘qishga mos bo‘lishi

Mazmuni qiziqarli, hayot bilan bog‘langan bo‘lmog‘i zarur

**18. Ifoda vositalarini** - tanlashda, obrazni to‘g‘ri talqin qilishda (imo-ishora, pantomimika, so‘z oxangi, harakatlar mosligi) yordamlashiladi. Ifoda vositalari va harakat usullarini tanlash bolalarning asardagi obrazning moxiyati va g‘oyalarini tushunishga tayanishi lozim

**19. Dramalashtirilgan o‘yinlar** - bu bolalarning mustaqil ijodiy o‘yin turi bo‘lib, unda badiiy asar va hikoyalar bolalar tomonidan rollarga bo‘lib ijro etiladi. Bu o‘yinlar bolalarda iroda, intizom va o‘z xatti-harakatlarini boshqara olish, boshqalarning harakatlari bilan hisoblashish kabi ijobiy ma’naviy xislatlarni shakllantiradi.

**20. Boshlovchilik roli -** dramalashtirilgan o‘yinlarda boshlovchilik roli dastlab bu rolni tarbiyachi o‘zi oladi, so‘ng uni bolalarga topshiradi.

**21. Asar tanlash -** tarbiyachi o‘rta guruh uchun asosan harakatni aks ettiruvchi asarlar tanlaydi, katta guruh bolalari uchun esa asar qahramonlarining ancha murakkab munosabatlari, ularning kechinmalari, qayg‘ulari aks ettirilgan asarlar tanlanadi.

**22. Sahnalashtirilgan o‘yin-** badiiy asar asosida ko‘riladi: o‘yin syujeti, rollar, qahramonlarning xatti-harakatlari, ularning nutqi asar matniga ko‘ra belgilanadi.

**23.Tarbiyachi tasviri-** maslaxatlardan, asarni qayta o‘qishdan, o‘yin davomida suxbatdan foydalanadi, bu asar qaxramonlarini tasvirlashda o‘ta ifodalilikka erishishga yordam beradi.

24. **Marionetka qo‘g‘irchog‘i -** qo‘g‘irchoq tanasining turli joylariga ingichka iplar bo‘g‘lanib,maxsus asbob vaga-ga bog ‘lanib boshqariladigan qo‘g‘irchoq.

25. **Kaspir**- Germaniyada qo‘g‘irchoq teatrining milliy qahramoni nomi

**26. «Ertak» atamasi -** Mahmud Koshg‘ariy tomonidan 1074 yilda yozilgan «Devonu lug‘oti-t-turk» asarida «etuk» tarzda qo‘llanganidan bilsa bo‘ladi: «Etuk – hikoya, ertak; biror maqsadni shohga bildirish, hikoya qilish uchun ham bu so‘z qo‘llanadi. Asli bir narsani hikoya qilishdan olingan

**27. Shevalarda ertak -** toshkentliklar «cho‘pchak», farg‘onaliklar «matal», xorazmliklar «varsaqi», o‘zbek va tojik tilida so‘zlashuvchi vatandoshlarimiz «ushuk» tarzda atashgan. Bulardan tashqari jonli so‘zlashuvda ba’zan afsona, o‘tirik, tutal atamalari ham uchraydi. Hatto hazrat Alisher Navoiy ham g‘azallaridan birida «cho‘pchak» so‘zini qo‘llaganlar:

**28. Xalq ertaklari** badiiy so‘z san’atining go‘zal namunasi sifatida alohida ahamiyatga ega. «Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir och ekan, bir to‘q ekan...» jumlasidan boshlanar ekan, ertak «murod-maqsadiga yetibdi» degan yakungacha tinglovchi diqqati voqealarga to‘liq ravishda jalb etadi

**29. Maishiy ertaklar**. Maishiy ertaklar mazmun jihatdan hayvonlar, sehrli ertaklardan bevosita hayotiy voqea-hodisalar haqida hikoya qilishi bilan farqlanadi

**30. Ertakdagi pandnomalar**- «To‘g‘ri bo‘ling, bexavotir bo‘lasiz. Maqtanchoq bo‘lmang, uyatga qolmaysiz. Dangasa bo‘lmang, baxtsiz bo‘lmaysiz”

31. **Ertaklar-** xalq og‘zaki ijodining epik jinsi (turi)ga mansub.

**32. Ertaklar, asosan, nasrda yaratiladi**. Faqat ayrim asarlardagina («Yoriltosh», «Tohir va Zuhra» va b.) qo‘shiqni eslatuvchi she’riy parchalar uchraydi.

33. «**Bir bor ekan, bir yo‘q ekan**» boshlamasi va **«murod-maqsadiga yetibdi**» yakunlanmasi ertaklarning an’anaviy belgisi hisoblanadi.

34. **Xayoliy-fantastik tasvir -** ertaklar syujetida qo‘llanadigan ustuvor usuldir.

35. **Ertaklarning formulasi-** Ertaklarning umumiy mazmunida IMF formulasi doimiy takrorlanadi. Har bir ertak I – initsial – boshlanma; M – medial – asosiy qism; F – final – yakunlanmadan iborat bo‘ladi.

36. **Kitob**- axborotni, g‘oya, obraz va bilimlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy-siyosiy,ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish vositasi, bilimlar targ‘iboti, va tarbiya quroli; badiiy, ilmiy asar, ijtimoiy adabiyot.

37**. Xalqaro statistikada** YUNESKO tavsiyasiga ko‘ra, hajmi 48 sahifadan kam bo‘lmagan, taboqlab tikilgan nodavriy nashrni, shartli ravishda Kitob deyish qabul qilingan.

38. **Kitob ishi kitobni yaratish**, tayyorlsh, uni tarqatish, saqlash, tavsiflash va o‘rganish bilan bog‘liq kata jarayonni o‘z ichiga oladi.

39. **Poligrafiya**- kitobni ko‘plab chiqarish, kitob bosish ishi poligrafiya sanoatida olib boriladi.

40. Kitoblar qanday o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallanganligi, maqsadi va mavzuiga qarab turlarga ajratiladi.

41. O‘quvchilarga ko‘ra, K.lar ommaviy, mutaxassislar uchun va bolalar kitobi bo‘lishi mumkin.

42. Maqsadiga ko‘ra, rasmiy, ilmiy, ilmiyommabop, o‘quv, adabiy-badiiy, ma’lumotnoma va boshqa xil kitob larga bo‘linadi.

43. Ilmiy kitoblar ichida monografiya keng tarqalgan.

44. **O‘quv kitoblari** - darslik, o‘quv qo‘llanmasi, o‘quv metodik qo‘llanma va boshqa turlarga ajratiladi.

45. **Ma’lumotnomalar** - lug‘at, ensiklopediya, kalendar, yo‘l ko‘rsatkichlar qabilarga bo‘linadi.

**46.Tabiiy materiallar**: quritilgan barglar, gullar, poliz ekinlari - qovun, tarvuz, qovoq urug‘lari, mevalar - olcha, o‘rik, shaftoli danaklari va shu kabilar, baliq tangalari va qanotlari, jo‘xori va makkajo‘xori so‘talari, paxta chanog‘i, yong‘oq po‘sti va shu kabilardan turli mashg‘ulotlarda keng foydalaniladi.

**47.Gerbariy**- (lot. Herba – o‘t, o‘simlik) ma’lum maqsadlar o‘simliklarni quritish, quritilayotgan o‘simlikning tabiiy rangini asrab qolishning eng muhim sharti, ularni shamol o‘tib turadigan joyda, yelvizakda, quyosh nurida tez quritib olishdir. O‘simliklarni quritish 3 sutkadan oshmasligi kerak. Gerbariy birinchi marta XVI asrda italiyada vrach va biolog Luke Gini tomonidan amalga oshirilgan. Gerbariy ramkalarida quritish. Gerbariy ramkalarida quritilgan o‘simliklarning ko‘pchiligi o‘zining tabiiy rangini saqlab qoladi. Bunda o‘simlik yumshoq qog‘oz yoki gazeta orasiga solib qo‘yiladi.

**48. Pressda quritish**. Orasiga o‘simlik solingan qog‘ozlar gerbariy papkasi o‘rniga ikkita faner listlar o‘rtasiga joylanib, og‘ir narsa bostirib qo‘yiladi. Og‘irlik pressga qancha o‘simlik joylashtirilganligiga bog‘liq bo‘ladi. Mayda nozik o‘simliklar kam og‘irlikni va quritish uchun kamroq vaqtni talab qiladi. 2-3 soatdan so‘ng qog‘oz almashtiriladi. Quritish shu usulda davom ettiriladi.

**49. Issiq dazmol bilan quritish**. Issiq dazmol bilan odatda barglar, poyalar, maysalar quritiladi. Qavat-qavat gazeta yoki yumshoq qog‘oz orasiga o‘simlikni qo‘yib, ustidan dazmol yurgiziladi. So‘ngra ustki qavatidagi gazetani olib, quritilayotgan o‘simlik shamollatiladi va quruq joyga suriladi, so‘ngra gazeta yopib yana dazmollandi. 0‘simlik 2-3 minutda quriydi va u o‘zining tabiiy rangini yo‘qotmaydi. Agarda quritilgan o‘simlik ko‘tarilganda o‘zining tanasini ushlab tursa, u yaxshi quritilgan hisoblanadi. Agar u sinib maydalanib ketsa, demak, u ortiqcha quritib yuborilgan hisoblanadi.

50. **Urug‘lar.** o‘yinchoq uchun tabiiy materiallarga qimmatli qo‘shimcha bo‘lib daraxtlar, gullar, sabzavotlar urug‘lari xizmat qiladi. Masalan: zarang, shumtol urug‘lari.

51. **Poxol** (somon). Poxol-somondan sanoatda to`qish va dekoratsiya, applikatsiya ishlarida (qutichalar, panellar, qalamdonlar) va shu kabilarga bezak berishda foydalaniladi. Bu maqsadda bug‘doy, javdar, arpa somonlari ishlatiladi.

52. **Chiqindi, tashlandiq materiallari**: po‘kak, qutichalar, plastmassa idishlar va shu kabilardan foydalaniladi. Mashg‘ulotlarni rejalashtirish va materiallarni tanlashda mahalliy sharoitlar: o‘lka iqlimi, tabiati, ishlab chiqarish korxonalari, xalq badiiy ustaxonalari va shu kabilarni e’tiborga olish kerak.

53. **Yong‘oqqa ishlov berish -** oson hamda u pishiq materialdir. Agar yong‘oqni, ayniqsa eryong‘oqni diqqat bilan kuzatib faraz qilinsa, u yoki bu obraz (yong‘oq — toshbaqa, qo‘ng‘iz - qayiqcha yeryong‘oq — qush, jonivorlar, ular tanalarining ayrim qismi) kishi ko‘z o‘ngiga keladi.

54. **Zardo‘zlik** – bezak san’ati turi, amaliy san’atning zar, (till ava kumush suvi yuritilgan) ip, nozik sim, ipak bilan kashta tikib bezak yaratadigan soxasi.

55. **Korcho‘p-** to‘rtburchak chambarakka o‘rnatilgan baxmal, shoyi, movut, charm va boshqa matolargazardo‘zi usulida kashta ( gul,naqsh, tasvir ) tikiladi.

56. **Kashta** – ba’zan metal, tosh, shisha munchoqlar ishlatib, turli matolar ( baxmal, shoyi) dan quroq qilinishi.

**57. Zarhal to‘g‘alar** — mahalliy zargarlar ishlagan, odatda qora sir va feruza bilan bezatilgan, nafis gul naqshi tushirilgan bo‘ladi

58. **Olmos qubbalar** — turli nav oltindan zardo‘zlarning o‘zlari yasagan zargarlik taqinchoqlariga o‘xshab ketuvchi bo‘rtma naqshlar, dur hamda qimmatbaho tabiiy va sun'iy toshlar, shishadan tayyorlangan munchoqlar ishlatiladi

59. **Po‘lakcha** — zardo‘zlikda ishlatiladigan kichkina piston (pirpirak). U mayda oq, qizil, sariq va boshqa ranglarda bo‘ladi. Buyumni bezash uchun qadaladigan, o‘rtasidan teshikcha qilingan metall pistoncha

60. **Kalyobatun** ingichka metal ip bo‘lib, shoyi ipga puxta o‘ralgan. Kalyobatun tayyorlash uchun kumush qotishmasidan qo‘shilgan.

**61. Birishmi tillo chortor** — u to‘rt yo‘lli zar ip va eng yaxshi sifatli ipak ip. Oq ipak ipdan kumushrang gullar tikiladi. XIX asrning 90-yillari boshida 40-o‘ramli g‘altak ip paydo bo‘lganda u zardo‘zlikda keng ishlatilgan.

**62. «Tilla» kalyobatun** qilish uchun sim ipga tilla suvi yugurtirilgan. Kalyobatunning asosini tashkil etuvchi ipak ipning rangi turlicha bo‘lgan. Kalyobatun bilan sim Buxoro zardo‘zligining asosiy xomashyosi hisoblangan. Ayniqsa, kalyobatun XIX asrning boshida shu paytgacha bo‘lgan davrga oid barcha buyumlarda uchraydi

63. **Chambarak, ya'ni korcho‘b**. Uning to‘p, nimcha va mayda-chuyda buyumlar uchun mo‘ljallangan uch turi ma'lum. Ular tuzilishi jihatidan bir xil bo`lib; hajmlarining katta-kichikligi bilangina bir-biridan farq qiladi.Korcho‘b uzunligi 320 santimetrgacha bo‘lgan ikki teng yonli silliq yog‘och dastadan iborat bo‘lib, uchidagi harakatlanuvchi shamshirak yordamida chambarakni istalgan kattalikka keltirish mumkin.

**64. O‘yinchoq-** o‘yin uchun mo‘ljallangan va boshqa maqsadda ishlatilmaydigan maxsus buyumdir.

65. **A.S.Makarenko o‘yinchoqlarning 3 turini taklif etgan-** 1tayyor oyinchoqlar, yarim tayyor o‘yinchoqlar va o‘yin materiallari.

66. **Tayyor o‘yinchoqlar-** bolalarning buyumlar vanarsalarning rang- barangligi bilan tanishtiradi, tasavvurni o‘stiradi.

67. **Yarim tayyor o‘yinchoqlar** - boladan faol faoliyatni talb qiladi, mantiq va aqlan o‘sishga yordam beradi.

68. **O‘yin materiallari** – ko‘proq bolaning ijodiy faoliaytini ta’minlaydi,obraz yaratishga undaydi.

69. **Syujetli yoki obrazli o‘yinchoqlar** - qo‘g‘irchoqlar, xayvonlarning shakllari, kundalik turmushdagi buyumlar

70. **Texnik o‘yinchoqlar** - mashinalar, mexanizmlar, transport turlari, aloqa vositalari…soda, boshqarish va foydalanish jixatdan qulay, oson bo‘lib , oyinda buyumning asosiy vazifalariga taqlid qilish imkonini berishi lozim. Avtomobilda g‘ildiraklar xarakatlanishi, hatto avtomotorchalar orqali xarakatlanadigan bo‘lishi kerak.

71. **Haqiqiy oyinchoq uchun** – chala ifodalanganlik va tabiiylik yot narsa.Umumlashganlik vama’lum shartlilik uning bolalar o‘yinidagi vazifalarning rang-barangligini belgilaydi.

**72**. **Tabiiy o‘yinchoq** - tezda bolalarning joniga tegadi., chunki o‘yin niyati cheklanib qoladi, obraz irodasini xiralashtiradi.

**73**.**Yaxchi o‘yinchoq**- muayyan o‘yin dinamika qismlarining xarakatchanligida, jarangdorligida, shakllarning kompleksligi (to‘plami ) va boshqalarda ifodalanishi mumkin.

74. **Qimirlamaydigan buyum**- umumlashgan bo‘lsada, o‘yinchoq bo‘la olmaydi.

75. **O‘yinchoqning tarbiyaviy axamiyatini** – A.S. Makarenko “O‘yinchoq bu material asosi’ desa, E.A.Arkin “Hayotiy nervi “ – o‘yinchoq o‘yinni yaratishda ishtirok etadi, bolaning o‘ziga xos sherigi sifatida namoyon bo‘ladi, uning shahsiga kata ta’sir ko‘rsatadi- deydi.

76. **N.K.Krupskaya**- o‘yinchoq bolalarga atrofdagi mavjud voqelikni o‘rganishga yordam berishi kerak, u kichkintoyga ranglarni, buyumlar ko‘lami, ularning materiallarini farqlash malakasini rivojlantirish uchun kerak – deya baxo beradi.

77**. A.M.Gorkiy** – bolalarga dunyo xaqida, o‘z mamlakati xaqida bilimlar berish kerak.Bu ishni qiziqarli, aqlli va soda yozilgan kitobcha yordamida amalga oshirish mumkin, bunga qiziqarli o‘yinchoq bilan yanada osonroq erishish mumkin, deydi.

78. **Tarbiyachi o‘yinchoq orqali**- bolalarda texnikaga qiziqishni shakllantirishi, topqirlik va ijodiylikni rivojlantirishi kerak.

79. **Obrazli va didaktik o‘yinchoqlar**- bolalarda nutqiy faollikni uyg‘otadi, lug‘at boyligini oshiradi.

80. **Qismlarga ajratiladigan o‘yinchoqlar**- xilma –xil qutish yasash o‘yinchoqlari bolalarni taxlil qilishga, bir butun xolga keltirish va umumlashtirishga mashqlantiradi, taqqoslash, tavsiflashda foydalaniladi.

81. **Turli mozaikalar**- biryulkalar, diqqatning jamlanishi va barqarorlikning rivojlanishiga yordam beradi.

82. **O‘yinchoq** – bolani ovutadi va quvontiradi, atrof- muxitga ijobiy munosabat uyg‘otadi.

83. **Qo‘g‘irchoq-** bolalarda mehribonlikni, avaylashni, e’tiborlilikni va nafosatni uyg‘otadi, ijobiy axloqiy kechinmalar tajribasini to‘plashga yordam beradi.

Qo‘g‘irchoq ning bola hayotida asosiy o‘rin tutishining boisi u odam yani inson obrazining ifodalanishidir. Qo‘g‘irchoqlar turli yosh va kasb ko‘rinishlarini , millatlar, asar qaxramonlarini ifodalaydi ( doktor Aybolit, Buratino, Qizil qalpoqcha, harbiy)

84. To‘p, sharlar, tizginlar, keglilar bilan o‘ynaladigan o‘yinlar, gorodki, serso o‘yini va boshqalar tezkor javob reaksiyasini , harakatlarning aniqligi va muvofiqlashtirishni rivojlantiradi.

85. Ilk yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan ko‘p sonli o‘yinchoqlar ( shaqlldoqlar, rezina koptokchalar, shaklchalar va boshqalar ) bolada ko‘rish va eshitish diqqatini rivojlantiradi, ushlash xarakatlari va buyumli harakatlarni o‘stirishga yordam beradi.

86. Xayvonlarni aks ettiruvchi o‘yinchoqlar- ikki turga bo‘linadi, 1- xaqiqiy obrazni ko‘zda tutadi, xilma xil materiallardan yasalgan bu o‘yinchoqlar bolalar tomonidan “Xayvonot bog‘I” “Fermer Xo‘jaligi” o‘yinlarida qo‘llaniladi . 2- turi aloxida o‘zida xos xislarlarga ega bo‘lgan, antiqa ko‘rinishda, obrazli iliqlik va yumorga yo‘g‘rilgan ( quvnoq quyoncha, baroq mushukcha, tinib- tinchimas kuchuk, maymuncha, o‘rmon shoxi yo‘lbars kabi)

87. Qurilish materiallari bilan o‘ynaladigan o‘yinchoqlarning asosiy **ikki** turi mavjud:

a) kublar, prizmalar, konuslar, piramida, slindrlar, plastinkalar, geometric shakllar to‘plami.

b) turli blok - devor, kolonka, tom, ark va boshqa arxitektura va qurilish muteriallari. Mayda (stol o‘yinlari uchun) va yirik (polda va maydonchada) o‘ynashga mo‘ljallangan bu qurilish materiallarining rangi har xil bo‘lishi mumkin. Hamda aralash qurilish materiallari xam mavjud.

88**. Xalq o‘yinchoqlari** – ajralib turadigan xususiyatli, obrazning yorqinligi, shartliligi va umumlashganligi, o‘ta dinamikligi va dekarativligi bilan ajralib turadi.Turli yurtlarda yaratilgan o‘yinchoqlar mazmuni, materiali, badiiy uslubiga ko‘ra o‘ziga xosdir.

89. **Bogorodskiy o‘yinchoqlari-**daraxtdan kecib ishlanadi, naqshining nafisligi

90. Xoxloma, gorodeskiy o‘yinchoqlari ham yog‘ochdan yasaladi, biroq yorqin rangda bo‘yaladi va bezaladi.

91. Tokarlik usulida yasalgan Semyonov matryoshkalari jaxonga tanilgan.Matryoshkalar-Ichki bo‘shliqlarga ochiladigan qo‘g‘irchoqlarni joylashtirish. Pastki yarmida yuqori yarmidagi chuqurchaga to‘g‘ri keladigan birlashtiruvchi tizma mavjud. Eng kattasi stend bilan tugaydi

92. **Matryoshka -** bu bo‘yalgan qo‘g‘irchoq shaklida ruscha yog‘och o‘yinchoq, uning ichida unga o‘xshash kichkina qo‘g‘irchoqlar mavjud. Ichki qo‘g‘irchoqlar soni odatda uch yoki undan ko‘p. Odatda ular tekis pastki qismga ega bo‘lgan tuxum shakliga ega va yuqori va pastki ikkita ajratiladigan qismdan iborat. An'anaviy qo‘g‘irchoqlar qizil ko‘ylak va ro‘mol kiygan ayolni tasvirlaydi. Bugungi kunda rasm chizish mavzulari xilma-xil: ertak qahramonlari, qizlar, shuningdek, oilalar. Siyosatchilar obrazi bilan parodiya xarakteridagi matryoshkalar ham tez-tez uchrab turardi. Nisbatan yaqinda, portretli matryoshka - portret matryoshka mashhurlikka erisha boshladi.

93. **Dimkova loy o‘yinchoqlari** – xushtakchalar, qayrilma shoxli qo‘ylar va bug‘ular va boshqalar mayinligi, xoshoyalarining nafisligi, afsonaviy bezagi bilan ajralib turadi.

94. **B.P. Polikarpov qurish-** yasash o‘yinchog‘i- kolyaskalar, aravalar, mashina va boshqa transport vositalari yasash imkonini beradi g‘oyasi. Kommunar degan qurilish materiali 20 ko‘rinishdagi 154 buyumdan – kublar, prizmalar, silindrlar, arklar, yarim arklar, yoylardan tashkil topgan bo‘lib kata gurux bolalari bajonidil foydalanadilar.

95**. Matryoshka deb nomlangan**: - o‘zgaruvchan yechiladigan, olinadigan, rang bilan bo‘yalgan yog‘och buyumlarni anglatishni boshladi. Ammo bugungi kunda, matryoshka onalik, unumdorlik ramzi bo‘lib qolmoqda, chunki katta qo‘g‘irchoq oilasi bo‘lgan qo‘g‘irchoq bu qadimiy ramzning ramziy asosini juda yaxshi ifodalaydi

## FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:


1. Sh.M.Mirziyoev “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” T 20017y

2. SH.M.Mirziyoev “Erkin va farovon demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” T 20016y

3. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining farmoni. *O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017y., 6-son,70-modda.*

4. Mirziyoev Sh.M. “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. T.:-2016y. 29-dekabr.

5. O.Xasanboeva va boshq. Oila pedagogikasi. T.: “Aloqachi”, 2007 y. “Bolangiz maktabga tayyormi?” metodik qo‘llanma. T:, 2001.

6. F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, M.A’zamova. “Maktabgacha pedagogika”.- T., “Ma’naviyat”. 2013

7. Sh.Shodmonova. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. Fan va texnologiya. -T:, 2008. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo‘stoni 2013

8. Xasanova Sh.T. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish. Tafakkur. T.: 2020.

9.N.Kayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2013.

11..Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o‘rgatish metodikasi. “Sho‘lpon” T:.2010y.

12.Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. D.Azimova. Ustahonada amaliy mashg‘ulot. “Musiqa” T:.2010y.


### Axborot manbaalari


1. http://www.ziyonet.uz/

2. http://www.google.co.uz/
3. http://www.google.ru/
4. http://www.biotehnolog.ru/
5. https://ru.wikipedia.org/

## MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| | | |
| **KIRISH** | | 4 |
| | **I BO‘LIM** | |
| 1 | Maktabgacha ta’lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyati.......................... | 6 |
| 2 | Sahnalashtirish faoliyati vositasida bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish........................................................................................ | 17 |
| 3 | Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishining o‘ziga xosligi........................................................... | 29 |
| 4 | Maktabgacha ta’lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatini tashkil qilish......................................................................................................... | 38 |
| 5 | Maktabgacha ta’limda bolalarni ijodiy faoliyatini tashkil qilish texnologiyasi................................................................................... | 48 |
| 6 | Qo‘g‘irchoq teatrining paydo bo‘lishi, tarixiy ildizlari va tarbiyaviy ahamiyati...................................................................................... | 70 |
| 7 | Qo‘g‘irchoq teatri personajlarini yasash orqali badiiy ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish mazmuni va qo‘g‘irchoq yasash usullari........................................................................................... | 80 |
| 8 | Qog‘ozdan buklash yo‘li bilan o‘yinchoq yasash (Origami usuli)............................................................................................... | 89 |
| 9 | Applikatsiya xaqida umumiy tushuncha………………………….… | 94 |
| 10 | Pape-mashe usuli........................................................................ | 102 |
| 11 | Tabiiy va tashlandiq materiallardan turli o‘yinchoqlar yasash…………………………………………………….………… | 104 |
| 12 | Chinni xamir bilan ishlash texnologiyasi……………………….…. | 114 |
| 13 | Kashtachilik tarixi va tayyorlash texnologiyasi……………………….. | 120 |
| 14 | Yumshoq o‘yinchoqlar tayyorlash.................................................... | 128 |
| 15 | O‘yinchoqlar to‘qish texnologiyasi……………………………… | 131 |
| | **II BO‘LIM** | |
| 16 | Maktabgacha ta’lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatining asosiy maqsad va vazifalari..................................................................... | 142 |
| 17 | Maktabgacha ta’lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatining ahamiyati... | 145 |
| 18 | Teatr - sahnalashtirish faoliyatining shakllari........................................ | 148 |
| 19 | Teatr - sahnalashtirish faoliyati tamoyillari.......................................... | 149 |
| 20 | Turli yosh guruhlarida sahnalashtirish faoliyatining vazifalari.................. | 152 |
| 21 | Sahnalashtirish faoliyatida bolalarda aktyorlik qobiliyatini rivojlantirish....................................................................................... | 154 |
| 22 | sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodkorlikni rivojlanishining asosiy kriteriyalari....................................................................... | 156 |
| 23 | Sahnalashtirish faoliyati jarayonida bolalarda ijodiy faollikni shakllantirish………………………………………………………… | 158 |
| 24 | Qo‘g‘irchoq tearining paydo bo‘lish tarixi……………………………... | 159 |
| 25 | Maktabgacha yoshdagi bolalarni qo‘g‘irchoq teatri personajlarini yasash orqali badiiy ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishning tarbiyaviy ahamiyati.. | 162 |

| | | |
|---|---|---|
| 26 | Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning badiiy ijodiy qobiliyatlarni qo‘g‘irchoq teatri vositasida shakllantirish mazmuni................................... | 164 |
| 27 | Qo‘g‘irchoq teatri turlari……………………………………………….. | 165 |
| 28 | Stol teatri…………………………………………………………….. | 167 |
| 29 | Soya teatri…………………………………………………………… | 168 |
| 30 | Barmoq teatri………………………………………………………… | 170 |
| 31 | Qo‘g‘irchoq- qo‘lqop………………………………………………... | 172 |
| 32 | Bolalarni har tomonlama rivojlantirishda ijodiy faoliyatning ahamiyati….. | 174 |
| 33 | Applikatsiya- amaliy san’at turi sifatida…………………………………... | 176 |
| 34 | Applikatsiyada qirqishni har xil usullarini bajarish……………………….. | 177 |
| 35 | Mazmunli va bezakli applikatsiyalar……………………………………… | 179 |
| 36 | Pape-mashe usulida o‘yinchoqlar yasash…………………………………. | 181 |
| 37 | Tabiiy buyumlar bilan ishlash usullari……………………………………. | 184 |
| 38 | Tashlandiq buyumlardan o‘yinchoq yasash……………………………….. | 185 |
| 39 | Chinni xamirni tayyorlash usullari………………………………………... | 188 |
| 40 | Chinni xamirdan turli o‘yinchoqlar tayyorlash usullari………………….. | 190 |
| 41 | Kashta turlari.......................................................................................... | 192 |
| 42 | bezakli va mazmunli kashtalar…………………………………………….. | 196 |
| 43 | ilmoq va spitsa bilan to‘qish usullari……………………………………… | 197 |
| 44 | ilmoq va spitsa bilan o‘yinchoqlar to‘qish………………………………... | 199 |
| **GLOSSARIY……………………………………………………………...…** | | 203 |
| **FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI..........................** | | 210 |

**QAYD UCHUN**

*Ilmiy nashr*

**Z.S.QODIROVA, O.E.AKBAROV, F.A.ABDUG‘OPIROVA, SH.SH. XOJIMIRZAYEVA, SH.B.JUMANOVA**

# BOLALARNI SAHNALASHTIRISH VA IJODIY FAOLIYATGA O‘RGATISH

*Darslik*

*(60110200 - Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun)*

“FAZILAT ORGTEX SERVIS” hususiy korxonasi bosmaxonasida chop etildi. 2024-yil.
Muharrir: A.Azimov
Tex.muharrir: R.Umurzaqov
Musavvir: Z.Umurzaqova
Musahhih: A.Moydinov
Kompyuterda
Sahifalovchi: M.Sodiqov

Bosishga ruxsat etildi: 21.05.2022
Bichimi 60x84. Hajmi 9,6 bosma taboq.
“Times New Roman” garniturasi.
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i: 9,6.
Adadi: 100 dona. Buyurtma raqami № 19.
Manzil: Namangan sh. Amir Temur ko‘chasi 97-uy.
Tel: (+998) 93-881-35-90, (+998) 93-776-60-63